O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG′BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ME′MORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI

(ilmiy-texnik jurnal)

ПРОБЛЕМЫ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА

(научно-технический журнал)

PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION

(Scientific and technical magazine)

2023, №2
2000 yildan har 3 oyda birmarta chop etilmoqda

SAMARQAND

ME'MORCHILIK va QURILISH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА
PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION

(ilmiy-texnik jurnal)
(научно-технический журнал)
(Scientific and technical magazine)

2023, № 2

2000 yildan har 3 oyda
bir marta chop etiladi
ISSN 2901-5004

Журнал ОАК Ҳайъатининг қарорига биноан техника (қурилиш, механика ва машинасозлик соҳалари) фанлари ҳамда меъморчилик бўйича илмий мақолалар чоп этилиши лозим бўлган илмий журналлар рўйхатига киритилган (гувоҳнома №00757. 2000.31.01)

Журнал 2007 йил 18 январда Самарқанд вилоят матбуот ва ахборот бошқармасида қайта рўйхатга олиниб 09-34 рақамли гувоҳнома берилган

Бош муҳаррир(editor-in-chief) - т.ф.н., профессор А.Н.Гадаев
Масъул котиб (responsible secretary) – т.ф.н. доц. Т.Қ. Қосимов

Таҳририят ҳайъати (Editorial council): т.ф.д., проф. Ж.А. Акилов; т.ф.н., доц. С.И.Ахмедов; т.ф.д., проф. С.М. Бобоев; т.ф.н., проф. К.Р.Бердиев; и.ф.н., доц. Х.Т. Буриев; арх.ф.д.,к.и.х. Г.С.Дурдиева (Маъмун академияси); и.ф.д., проф. К.Б. Ганиев; т.ф.д., проф., А.М. Зулпиев (Қирғизистон); и.ф.д., проф. А.Н. Жабриев; т.ф.н., проф. Э.Х.Исаков; т.ф.д., проф. К. Исмайилов; т.ф.н., т.ф.д., проф. И.Каландаров (Тожикистон ФА мухбир аъзоси); доц. В.А. Кондратьев; т.ф.н., доц. А.Т. Кулдашев (ЎзР Қурилиш вазирлиги); т.ф.д., проф. А.А. Лапидус (Россия, МГСУ); УзР.ФА академиги, т.ф.д., проф. М.М. Мирсаидов; т.ф.д. проф. С.Р. Раззоқов; т.ф.д., проф. В.И. Римшин (Россия); т.ф.д. проф. С.Ж. Раззаков; т.ф.д., проф. Р.А.Рахимов; арх.ф.д., проф. О.М. Салимов; т.ф.д., проф. А.С.Суюнов; т.ф.д., проф. З.Сирожиддинов; т.ф.д., проф. Э.С.Тулаков; м.ф.д., проф. А.С. Уралов; т.ф.н. доц. В.Ф. Усмонов; т.ф.д., проф. Х. Худойназаров; т.ф.д., проф. Е.В. Шипачева; т.ф.д., проф. И.С. Шукуров.

Таҳририят манзили: 140147, Самарқанд шаҳри, Лолазор кўчаси, 70.
Телефон: (366) 237-18-47, 237-14-77, факс (366) 237-19-53. ilmiy-jurnal@mail.ru

Муассис (The founder): Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети

Обуна индекси 5549

© СамДАҚИ, 2023

МЕЪМОРЧИЛИК, ШАҲАРСОЗЛИК ВА ДИЗАЙН
АРХИТЕКТУРА, ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО И ДИЗАЙН

PROPOSALS FOR THE RESTORATION AND PRESERVATION OF THE HISTORICITY OF SAMARKAND

Uralov Axtam Sindarovich – Doctor of arch., professor
Sadikova Sitora-bonu Nematdjonovna – PhD on arch., docent
Samarkand State Architecture and Construction university

The article is devoted to the issues of restoration and preservation of the historicity of samarkand today. The article presents the rationalization proposals of the doctor of architecture, professor Uralov A.S. and doctoral candidate DSc Sadikova S.N. to preserve the integrity of the historical core - the architectural heritage of the city of Samarkand. Substantiated remarks are given, a critical assessment of the accessibility of the urban environment of modern Samarkand for people with disabilities. As well as a number of proposals for the implementation of the program for the comprehensive development of the tourism potential of Samarkand as a tourist center of Central Asia and a priceless pearl of the East.

Key words: Samarkand, preservation, historicity, rationalization proposals, tourism potential, architecture, town planning.

Maqola bugungi kundagi samarqand tarixini restatratsiya va asralash masalalariga bag'ishlangan. Maqolada Samarqand shahrining tarixiy o‘zagi – me’moriy merosining yaxlitligini saqlash bo‘yicha ratsionalizatorlik takliflari keltirilgan. Asoslangan fikr-mulohazalar, zamonaviy Samarqand shahar muhitining imkoniyati cheklangan kishilar uchun qulayligiga tanqidiy baho berilgan. Shuningdek, Samarqandning Markaziy Osiyoning sayyohlik markazi, Sharqning bebaho durdonasi sifatida turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish yuzasidan qator takliflar bildirildi.

Kalit so'zlar: Samarqand, restavratsiya, tarixiylik, ratsionalizatorlik takliflari, turizm salohiyati, arxitektura, shaharsozlik

Introduction. Uzbekistan is carrying out large-scale work on the structural transformation of the economy, one of the drivers of which is the tourism industry, and all the necessary conditions are being created for its development. In the course of the measures taken by the state to develop the range of tourism services and infrastructure, it is planned to implement tourism projects worth at least $20 million.

In general, "the head of state set the task of attracting at least 7 million foreign and 12 million domestic tourists a year in 2023, to bring the export of tourism services to $ 2 billion" **[1]**. President Mirziyoyev Sh. M. noted that “the tourism industry is just starting to recover from the COVID-19 pandemic. The presence of historical monuments and attractions is not enough to attract tourists. Hotels, museums, transportation, roads, food outlets and quality services are needed” **[2]**. In addition, the President spoke about the strict need to stimulate systematic visits to museums not only by tourists but also by citizens of Uzbekistan. Realization of the huge potential of museums and their popularization in the country is extremely important since they store more than 2.5 million exhibits, 112 thousand of which are unique in the world.

The number of foreign tourists who have visited Uzbekistan since the beginning of the year is three times higher than in 2021, and the duration of stay of foreigners in the Republic has also increased: from 3 to 4-5 days. In the course of sociological surveys, the majority of tourists who visited Samarkand for the second or third time in recent years have noted dramatic changes in the appearance of the city. Not surprisingly, we live in an era of a construction boom. The results of rapidly developing urbanization in the cities of Uzbekistan both delight and disturb specialists in the protection and preservation of ancient and medieval architectural monuments. They stand up for the preservation of the authenticity and originality of Samarkand - as a historical centre, as a pearl of the Great Silk Road. Whatever the function and purpose of the building being designed, it must invariably have a unique architectural flavour of historical Samarkand, i.e., an alloy of centuries-old architecture and modern latest technologies. Only if this approach is observed Samarkand, as a unique “living organism” of world architectural heritage, keeping the spirit of the times and the most ancient secrets of history, won’t lose its priceless originality.

Basic part. The younger generation of planners, designers, developers and building managers should not have howled that the interaction of parts and the whole of the buildings under construction forms the visual architectural integrity of the object. In the case of a historical city such as Samarkand, urban planning, landscaping and architectural design work, especially in its historical part, should be carried out at the level of jewellery accuracy. After all, each created object of architecture and urban planning of Uzbekistan belongs to the people and serves them; develops aesthetics, the concept of harmony and integrity, and the perception of the architectural environment in the minds of the people.

Today, the "Old City" and so-called the "Russian Samarkand" are a single whole - a very lively, green, clean and human-sized city. The scale of every corner of the urban environment, landscaped squares, boulevards and buildings is harmonious to humans and authentic. Samarkand seems to be saturated with the culture, originality and style of past eras, it carefully keeps the frozen time in its buildings and streets.

Walking the streets of Samarkand, contemplating

the beautifully preserved objects of architecture of past eras, it seems that you are plunging into history, the course of which is captured in ancient and modern frames on the pages of this book. "A person walking around the city is surrounded by the embodiment of the urban environment, the purity of the urban landscape, its harmony, and also culturally educated. Because, high architectural culture and taste educate a person and give him pleasure" **[3]**.

However, a serious drawback of the Samarkand infrastructure should be noted: the city is not safe for pedestrians. It is sad to admit, spent, roads, areas do not meet the world standards of "universal design", nor the practice of creating an "affordable environment". People with disabilities, even with the help of an accompanying person, find it very difficult to move along the usual sidewalk, are forced to climb too steep ramps or use excess effort in its absence. There are not enough public toilets throughout the city. Those who are available are not equipped for the needs of people with disabilities, parents with baby strollers, elderly people, and people with limited mobility. Alas, not all public buildings are designed to serve people with disabilities.

I sincerely consider it vital to take speedy measures to solve the problems of the accessibility of the urban environment of Samarkand. It is expedient in the near future to take appropriate measures to ensure the comfortable use of the city infrastructure of Samarkand to absolutely all our citizens equally, regardless of their financial situation, their state of health and age.

Results and conclusion. According to the opinion of Professor Uralov A.S. on measures to improve the architecture of Samarkand today, some buildings built during the Soviet period in the historical part of Samarkand, do not correspond to either the artistic style and ethnographics of the historical environment of the city, or the norms for the protection of architectural monuments. For example, in Soviet times, 2 and 3-story dormitories were located on the right side at the beginning of Dagbitskaya Street on the border of a historical and modern city. "In my opinion, these buildings have a number of architectural and artistic shortcomings, they are in a deplorable state and spoil the panorama of the historical part of Samarkand, especially from the windows of the Afrosiab hotel. However, we are not for the demolition of these buildings; at least their facade can be turned into a modern look in the synthesis of traditional and modern architecture. Part of Dahbed Street, after the bridge to the former banking college, is restored and is in satisfactory condition" **[4]**.

It is known that during the time of Amir Temur, his fortress was located on the left side of the same Dagbit street. Now it is gone, it was greatly destroyed by time and numerous raids of warlike nomadic hordes already by the time the troops of the Russian tsarist army arrived. The fortress suffered greatly during the military assault on the Russian army on Samarkand. In the 1970s and 1980s, archaeologists found in this place the remains of defensive walls, towers and a bathhouse of the fortress castle of Amir Temur. These sites are currently empty and not built up. Following the best traditions of the world practice of preserving and restoring the architectural heritage of historical cities, we propose the full-scale restoration of the main gate of the Amir Temur fortress. With the adjacent defensive walls, namely, those gates that opened the path to Registan Square (Figure 1, 2.). The revival of part of the fortress walls with a gate, not doubtfully, will become a grand event doomed to have a global resonance.

The territory of the former alcohol plant (demolished in the early 2000s) today is an open landscaped space. Here, professor Uralov and his diplomats propose building the Samarkand Centre of Craftsmen (Fig.3). The architectural-landscape solution and the composition of this building, in theory, is designed to connect the old urban environment with the new city, and its scale and external style harmonize with the surrounding landscape and architecture of the Gur Emir and Ruhabad mausoleums.



Figure 1. Restoration of a part from the defensive wall with the main fortress gate, towards the Registan Square

Figure 2. Facade of the main gate and walls of the Amir Temur Fortress. Graphic reconstruction



Figure 3. The project proposal of the Samarkand center of artisans. Axonometry.

The historic of Abramov's Boulevard, which we inherited from tsarist Russia. Now it is called the

University Boulevard and has become a beautiful green corridor, where nightingales and other singing birds sing. “What about us? Were we able to create such a boulevard ourselves over more than 140 years?! There is a proposal to create beautiful boulevards in our city, or at least improve existing three, for example: Boulevard along the main corps of SamSACEU. The second Boulevard is on Ruzibaev Street, parallel to the facade of the Sam Auto car factory. And the third boulevard along Minskaya Street, not far from the intersection with Shabbat Street, in the Zebiniso area” **[3]**(Fig. 4, 5, 6.).

Figure. 4. Samarkand, Zebiniso area, proposal for improvement and landscaping of the boulevard on Minskaya street.

Figure. 5. Samarkand, Boulevard at the main building of SamSACEU

In the future, urban architecture should be reduced by an innovative orientation, energy efficiency, environmental friendliness and stability.

Figure. 6. Boulevard along Ruzibaev Street in front of the main facade of the Sam Auto plant, Samarkand

The construction of eco-hotels for tourists in Samarkand should be planned, which differs from existing eco-orientation and landscape design elements close to nature.

Thus, our foregoing proposals and recommendations are aimed at the sustainable development of our beloved city of Samarkand, its transformation into a world historical tourist centre and access to the level of a safe, environmentally friendly comfortable city for all Samarkandians and guests of the city, without exception on gender, race, religion, health status and age.

Адабиётлар:

1. https://podrobno.uz/cat/podrobno/prezident-poruchil-uprostit-sistemu-registratsii-turistov-v-organakh-vnutrennikh-del/
2. https://bit.ly/3KWLWW5
3. Quote Dr. Arch., Prof. Akhtam S. Uralov
4. Уралов А. Самарқанд шаҳри қандай бўлади. / Зарафшон газетаси, 2020 йил 4-июл сони.
5. https://bit.ly/3kJOufJ
6. https://www.loc.gov/resource/ppmsca.14841/

РЕЛЬЕФ ҲУДУДЛАРДА ЛАНДШАФТЛАР ТАШКИЛ ЭТИШДА ТИРГАК ДЕВОРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Хамидова Дилдора Абдухакимовна
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети

Мақолада рельеф зоналари боғ ва парк ландшафтининг асоси кўриб чиқилади, бу кўпинча унинг барча композицион тузилмаларини, меъморчилигини, визуал таассуротларнинг умумий хусусиятини, асосан ҳудуднинг функ-

ционал тузилишини олдиндан белгилаб беради.

Калит сўзлар: Рельеф, геология, тўсиқ деворлар, ландшафт композицияси, очиқ ҳудудлар, рекреацион, ландшафт элементлари, ландшафт санъати.

В статье расмотривается рельефные зоны основа садово-паркового ландшафта, которая нередко предопределяет все его композиционные построения, архитектонику, общий характер зрительных впечетлений, в значительной мере функциональную структуру территории.

Ключевые слова: Рельеф, геология, подпорные стенки, ландшафтная композиция, открытые пространства, рекреация, элементы ландшафта, садово-парковое искусство.

The article examines relief zones as the basis of a landscape landscape, which often determines all its compositional constructions, architectonics, the general nature of visual impressions, and to a large extent the functional structure of the territory.

Key words: Relief, geology, retaining walls, landscape composition, open spaces, recreation, landscape elements, landscape art.

Шаҳар ҳаётининг замонавий шароитида инсонни ўраб турган муҳитни сақлаш ва яхшилаш, унинг ҳаёти учун қулай шароитлар яратиш муаммоси долзарб бўлиб бормоқда. Бу ҳаёт ритмининг кучайиши, турли транспорт турларининг ривожланиши, ҳудудларнинг ўсиши ва уларнинг экологик ҳолатининг ёмонлашиши билан боғлиқ ҳолда айниқса муҳимдир.

Ер юзасининг шакллари сув ҳавзалари ва сув оқимларининг жойлашишини, ўсимликларнинг ташкил этилишини белгилайди ва микроиқлимга таъсир қилади. Рельеф ландшафтнинг энг барқарор таркибий қисми бўлганлиги сабабли, қолган ландшафт таркибий қисмлари асосан унинг ҳосилалари ҳисобланади.

Инсон учун қулай муҳит яратиш ҳудуд маконини ўзгартириш, "одам-шаҳар" тизимидаги муносабатларни уйғунлаштиришда ифодаланади. Бу асосан ҳудуд маконларининг архитектура ва ландшафт ташкил этилиши билан белгиланади.

Замонавий ландшафт санъатида рельеф алоҳида аҳамиятга эга. Шаҳарларнинг ўсиши уларнинг ер фондига тобора кўпроқ эътибор қаратмоқда. Шаҳар чегараларини кенгайтиришда, шунингдек, релйеф ва геология шароитлари бўйича қурилиш учун яроқсиз ҳудудлар— жарликлар, қияликлар, тик қирғоқлар, кўчки ён бағирлари ва бошқалар ўз чегараларига киради ва улар ўз навбатида шаҳарларнинг бош режалари томонидан ободонлаштириладиган ҳудудлар таркибига киритилади. Масалан, Волгоградда жарлик тармоғи ҳудуднинг 15 фоизини эгаллайди, Вилнюсда релйефи кескин кесилган ҳудуд 20 фоизни, Низҳний Новгородда 30 фоизни (шаҳарнинг юқори қисми) ташкил этади. Мамлакатнинг айрим ҳудудларида бўшлиқлар, тўсинлар ва дарё водийлари шаҳар ҳудудининг 10-15 фоизини ва 30 фоизини эгаллайди. Ва ниҳоят, саноат ривожланишидан кейин қолдирилган бузилган ерларнинг кенг майдонлари (карерлар, ер участкалари, терриконниклар) ҳам ободонлаштириш ва дам олиш жойларини ташкил этиш учун ажратилган. Ушбу ҳудудларни ривожлантиришнинг мураккаблиги бир қатор маҳаллий шароитлар ва биринчи навбатда релйеф билан боғлиқ. Шунинг учун унинг хусусиятларини синчковлик билан ўрганиш ва Парк қурилишининг бой тажрибасидан фойдаланиш замонавий ландшафт санъати объектларини ҳал қилишнинг асосий шартидир.

Рельеф ландшафтнинг энг барқарор таркибий қисми бўлиб, унинг экологик ва пластик асосини ташкил этади. Мавжуд таснифлардан фойдаланган ҳолда ва ландшафт санъатининг ҳусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, Парк ҳудудларининг рельефини 3 гуруҳга бўлиш мумкин: ижобий шаклларнинг релйефи, салбий шакллар, нейтрал рельеф.

Биринчи гуруҳга тоғ тизмалари, тепаликлар, тоғлар, қияликлар (шартли равишда белгиланган нолинчи нуқтадан юқори),

Иккинчи гуруҳга водийлар, далалар, жарликлар, чуқурликлар, амфитеатрлар ва қияликлар киради (шартли равишда белгиланган нолинчи нуқтадан паст).

Учинчи гуруҳ текислик рельефининг кичик қиялиги (шартли равишда 57°гача) бўлган қисмларидан иборат. Бунга, биринчи навбатда, мустақил, катта текисликлар киради. Ҳудудни ўрганиш жараёнида кичик текисликларни (горизонтал текисликларни) ажратиш керак, улар ҳам ижобий шакллар гуруҳига (масалан, сув ажратувчи платолар), ҳам салбий (нурларнинг пастки қисми), шунингдек ён бағирлардаги горизонтал

платформаларнинг таркибий элементлари ҳисобланади.

№	Тўсиқ деворлар	
1	**Иш принципига кўра тортишиш кучи**	• а) Энг қудратли • б) Ярим фаол • в) Нозик элементли (консультант, доимий) • г) Нозик • *қозиқли • *лангарли (якорные)
2	**Материаллар бўйича**	• а) Темир бетондан, бетондан, бутобетонли • б) Ғиштли,ёғочли, металдан
3	**Баландликда**	• а) Паст- баландлиги 10м гача • б) Ўрта -баландлиги 10м дан 20м гача • в) Баланд-баландлиги 20м дан баланд
4	**Ишнинг характери бўйича**	• а) Алоҳида турувчи • б) Қўшимча тизимлар билан боғлиқ
5	**Сувнинг гидростатик босимига қарши турувчи**	• а) Сувлар босими остида бўлмаган • б) Гидротехник
6	**Тиргак девор**	• а) Ушлаб турувчи • б) Чуқурликни чегараловчи

Келинг, релъефнинг композицион ишлатилишини кўриб чиқайлик, чунки у ҳар қандай ландшафтнинг меъморий асоси, унинг скэлет рамкасидир. Релъефнинг етакчи роли унинг бошқа ландшафт компонентлари билан солиштирганда барқарорлиги, ҳудуднинг микроиқлимига таъсир қилиш қобилияти, узоқ вақт давомида унинг контурлари, ранги ва шаклини сақлаб туриши, шунингдек, сув ва ўсимликларнинг комбинацияларини унинг "рамкаси" га киритиш қобилияти билан белгиланади. Релъефнинг шакли иссиқликнинг тақсимланишини, ёғингарчиликни, зарарли моддалар - тошлар, қум, шағалларнинг ўтиши ва тўпланиши, озуқа моддаларининг ҳаракати, тупроқ ҳосил бўлиш шароитларини белгилайди. Ва бу, ўз навбатида, ўсимлик қопламининг таркиби, тузилиши ва тарқалишини белгилайди. Релъефнинг хусусиятларига эътибор берайлик:

- релъеф шакллари бошқа ландшафт компонентларига таъсир қилади;

- релъеф контрасти, баландлик тебранишлари нафақат географик, балки муҳим бадиий ва эстетик аҳамиятга эга бўлиб, инсонда ҳис-туйғуларнинг маълум бир ўзгаришига олиб келади:

- қияликнинг тиклик даражаси ландшафт композициясини яратишга сезиларли таъсир кўрсатади.

Ландшафт композицияси устида ишлашда, биринчи навбатда, релъефнинг экспрессивлигига эътибор бериш, унинг келиб чиқиш ўзига хослигини сақлаб қолиш ва керак бўлганда, мос келадиган ўсимликлар билан баландлик фарқини таъкидлаш керак. шаҳар ўзгариши босқичида ҳудуд муҳитида дизайн ролининг ортиши билан боғлиқ. Ушбу ўзгаришлар кўп жиҳатдан очиқ ҳудуд майдонларига таъсир қилади, чунки "шаҳар-табиат" алоқалари нуқтаи назаридан энг қимматлидир. Очиқ жойлар экологик мувозанатнинг аккумулятори бўлиб, фуқароларнинг рекреацион фаолиятини таъминлайди, ҳудуд ҳаво ҳавзасини соғломлаштиради, ҳудуднинг меъморий таркибига табиий ландшафт элементларини киритади. Улар орасида рекреацион, ижтимоий, архитектура ва ландшафт режаларида шаҳар ва қишлоқ жойлари алоҳида аҳамиятга эга. шаҳар ва қишлоқ ҳудудлари таркибида рекреация зоналарини ташкил этишда тизимли, комплекс ёндашувнинг йўқлиги билан боғлиқ.

Адабиётлар:

1. А.С.Уралов, Д.А.Хамидова. “Ландшафт архитектураси фанидан бажариладиган курс лойиҳаларининг мавзулари ва уларни бажариш бўйича услубий кўрсатмалар” – Самарқанд-2013й.

2. Боговая И.О., Теодоронский Т. «Озеленение населенных мест». — М.: — 1990.

3. **topogis.ru**› Разное .Файловый архив студентов.

[1] **Ревитализация** (лотинча ре... - қайтадан бошлаш ва вита - ҳаёт, том маънода: ҳаётнинг қайтиши) урбанизм контекстида шаҳар маконини қайта тиклаш ва жонлантириш жараёнини англатади.

QADIMIY XORAZM XATTOTLIK SAN’ATINING TURLI ME’MORIY YODGORLIKLARDA QO’LLANILISH MAQSADI

Nafisa Zargarova - O’zbekiston Davlat San’at muzeyi katta ilmiy xodimi

Ushbu maqolada Qadimiy Xorazmda xattotlik san’ati yuqori darajada rivojlanganligi va me’moriy obidalardadagi noyob xattotlik namunalari haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Khiva xonligi, xattotlik namunalari, koshinlar, ta’mirlash, me’morchilik, masjid, madrasa, namunalar.

В этой статье освещаются моменты высокого развития искусства каллиграфии в Древнем Хорезме и уникальные образцы каллиграфии в архитектурных памятниках.

Ключевые слова: Хивинское ханство, образцы каллиграфии, черепица, ремонт, архитектура, мечеть, медресе, образцы.

This article highlights the high development of the art of calligraphy in ancient Khorezm and the unique patterns of calligraphy in architectural monuments.

Keywords: Khiva Khanate, calligraphy patterns, koshins, renovation, architecture, mosque, madrasa, patterns.

Yurtimiz juda boy tarix, madaniyat, ma'naviyatga ega. Xorazm azaldan madaniyat o'chog'i bo'lib kelganki, bu o'lkada na faqat kitobat san'ati balki, har bir qad ko'targan bino va inshootning e'tiborli joylariga biror hikmatli satr naqsh bezakdek yozilgan. Turli uslublarda me'moriy yodgorliklarga ishlangan ushbu xattotlik san'ati - odamlarining ma'naviy olamini boyitadi, didi va tuyg'ulariga sayqal beradi, ruhiyatini kamolga yetkazadi.

Janubiy Orolbo'yi hududi – (Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston respublikasi) azaldan madaniyat o'chog'i bo'lib kelganki, bu o'lkada na faqat "kitobat" xattotlik san'ati balki, har bir qad ko'targan bino va inshootning e'tiborli joylariga biror hikmatli satrlar naqshin bezakdek yozib qo'yilgan. Qadimiy masjid, maqbara, minora va madrasa peshtoqlariga ibodatga daxldor oyat va hadislar, ma'rifatga chorlovchi so'zlar, ruboiylar va boshqa turli xil tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar xattotlik san'atida bitilgan.

X- XII asrlarda Xorazmshohlar imperiyasi davrida, aynan (XI-asrda) Xorazm Ma'mun akademiyasining tashkil topishi munosabati bilan - kotib, xattotlar mehnati kitob tayyorlashda muhim omil bo'lgan. Xiva xonligi davrida esa bu borada 47 yil xonlik qilgan Muhammad Rahimxon II (Feruz) (vafoti 1910 yil) faoliyatlari diqqatga sazovor. U xattotlarning mehnatini g'oyat qadrlab, ular uchun maxsus sharoit yaratib bergan.

Qadimda Xattotlarga "zarrin qalam", "gavhar qalam", "parvin raqam" kabi yuksak unvonlar berilgan, ular moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlangan. Bu san'at Xorazm vohasida, ayniqsa Xorazmshohlar imperiyasi davridan to Xiva xonligigacha bo'lgan davrlarda yuksak darajada taraqqiy etgan. Kitobat san'ati bilan bir qatorda binolarning kitobalari, qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlardagi xattotlik keng qo'llanilgan.

Saroydagi xattotlar bo'linmasi birinchi qavatdagi ikkita yorug' xona bo'lib, ularga gilamlar to'shalgan, undan saroy bog'iga chiqish yo'li bo'lgan. Guldor naqshlar bilan bezalgan pasttakkina maxsus xontaxta ustida xattotlar uchun muattar hidli atirlar solingan idishchalar terib qo'yilgan [3].

XIX asrning oxirida Xiva xonligida shaharning o'zida ikki yuzdan ziyod xattotlar bo'lgan. Ular zo'r mahorat bilan ishlagan me'moriy inshootlardagi xattotlik na'munalari (1-rasm) va kitobat san'atiga oid ishlari chiroyliligini va jozibasini saqlagan holda bizgacha yetib kelgan.

Xivada kitobat san'ati bilan bir qatorda binolarning peshtoklarida, qabrtoshlardagi bitiklar va binolarning yog'och elementlarida xattotlik san'ati keng qo'llanilgan (2-rasm). Xorazmlik ustalarning ko'p asrlik tarixiga nazar tashlasak, ular xalqimizning buguni va kelajak avlod uchun ilm-fan, adabiyot, san'at, me'morchilik, hamda amaliy hunarmand-chilikning barcha sohalarida tog'day cho'ng, ummonday keng meros qoldirib ketganiga ishonch hosil qilamiz. Husnixat ustalarining san'at na'munasi sifatida keng qo'llangan sohasi yog'och, tosh va metallga ishlatilgan o'ymakorliklardir [4].

1-rasm. Ichan-Qal'adagi "Toshhovli" majmuasidagi marmarga bitilgan xattotlik na'munasi (Xiva)

a) b)

2-rasm. "Arabxon" madrasasining eshigiga bitilgan(a) va "Toshhovli" majmuasidagi o'ymakori ustunga bitilgan xattotlik na'munasi (b) (Xiva)

Shuningdek, Ichan-Qal'adagi Muhammad Amin-xon madrasasining yonida qurilgan, "Kalta minor" nomini olgan minorada ham xattotlik yozuvi mavjud. XIX – asrda (1852 y) tiklangan minoraning ko'rinishi kesik konus shaklida bo'lib, balandligi 28 metr, diametri 14,5 metr. Minora aholi orasida "Kalta minor" yoki "Ko'k minor" nomini olgan (3-rasm). "Kalta minor" nomini olishiga sabab, uning boshqa minoralardek bitkazilmasdan chala qolganligidadir va "Ko'k minor" nomini olishiga sabab pastdan tepasigacha ko'k koshin bilan qoplanganligidir.

Muhammad Rizo Ogahiy bobomiz va boshqa o'z davrining shoirlari uning qurilishi nihoyasiga yetmaganini she'riy taarixlarida ta'riflashgan [2]. Minoraning yozuvlari fors tili, nasta'liq xatida o'ta ustamonlik bilan ishlaganlar.

3-rasm. "Kalta minor"dagi yozuvlar

Shayx Sayid Alouddin hazratlari to'g'risida qadimdan kelayotgan rivoyatlar juda ham ko'p, jumladan avliyo inson Pahlavon Mahmudga ham shayx Sayid Alouddin ustozlik qilgan ekanlar. Shuning uchun ham Pahlavon Mahmud hazratlari aytgan ekanlarki, - "Kimki meni ziyorat qilmoqchi bo'lsa oldin ustozim Sayid Alouddin qabrini ziyorat qilib, so'ngra mening qabrimni ziyorat qilsin, shunda qilingan ziyorat olloh oldida qabul bo'ladi", deb

vasiyat qilgan. Sayid Alouddin na faqat din va hadis ilmi bo‘yicha mukammal bilim egasi bo‘lgan, balki u kishi mohir usta-me’mor va koshinpazlik bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lganlar.



a) b)

4-rasm. Sayid Alouddin maqbarasidagi koshinga bitilgan noyob xattotlik yozuvi (a) va xattotlik ishidan olgan na’muna (b)

Sayid Alouddinning vafot qilgan sanasi maqbara ichidagi koshinlarga arab imlosida bitilgan bo‘lib, “Hijriy 702, melodiy 18 mart 1303 yil” deb ko‘rsatilgan [2].

Pahlavon Mahmud me’moriy obidaning ichki qismiga xattotlik na’munalari (5 - rasm) har bir ko‘rgan kishini e’tiborini o‘ziga tortadi [3]. Kuragi yerga tegmagan zabardast pahlavon va mashhur ruboiylari bilan butun dunyoga javonmardiylik xislatlarini yoygan Pahlavon Mahmudning ruhini doimo shod etish, uning serma’no satrlarini yod olish inson ruhiyatini yuksaltiradi, kamolga yetkazadi. Ushbu xona eshigining tepasidagi koshinga Pahlavon Mahmudning forsiy tildagi quyidagi mashhur ruboyisi nasta’lik xatida bitilgan (5- rasm):

Xorazm dunyodagi me’moriy yodgorliklarga va nodir qo‘lyozmalarga eng boy viloyatlardan biridir. Hozirda Xorazm tarixiy me’moriy obidalarga ishlangan xattotlikning boy tarixiy merosini ilmiy o‘rganish va ularni kelgusi avlodlarga yetkazish uchun xattotlik nusxalari ishlanmoqda. Albatta, bu noyob va nodir yozuvlarning barchasidan nusxa olish ishi - murakkab ishdir. Shuning uchun ham bu ishni davom ettirish va yanada rivojlantirish juda ham zarurligini hisobga olgan holda, Xorazm Ma’mun akademiyasi qoshida xattotlik bo‘yicha “usta-shogird” maktabi tashkil qilindi.

Mohir xattotlar tomonidan me’moriy yodgorliklarning koshinlariga bitilgan arab va forsiy imlolardagi xattotlik na’munalari har qanday kishining diqqatini o‘ziga tortadi. Xiva xonligi davrlarida me’moriy yodgorliklarga yozuvlar yozish san’atini rivojlantirishda Xivalik xattotlarning xizmatlari beqiyos bo‘lgan. Yozuvlarni o‘rganish va ulardan nusxalar olish jarayonida biz bunga yana bir bora amin bo‘ldik.

5-rasm. Pahlavon Mahmud ruboiysining koshinga bitilgan tasviri



Paxlavon Maxmud ruboiysining qo‘lyozmadagi na’munasi (nasta’liq yozuvida) (Yozuvlardan nusxalarni men o’zim olganman)

Quyida ruboiyning o‘zbekcha matni keltirilgan:
Uch yuz Ko‘xi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq.

Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidin ko‘r a afsalroq.
(Pahlavon Mahmud)

Xulosa qilib aytganda, tarixiy me’moriy yodgorliklarga boy Xiva shahridagi Ichan – Qal’a muzey qo`riqxonasida joylashgan masjid-u madrasalarning, minora-yu peshtoqlarning koshinlaridagi yozuvlarining ma’nosini anglash, ularni tarjima qilish va ulardan namunalar olish singari sermashaqqat ishni jonu – dilim bilan sevib o`rganmoqdaman.

Адабиётлар:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz// - T.:O‘zbekiston, 2017.
2. А.Абдурасулов. Хива. – Т., Ўзбекистон” нашриёти, 1997,- Б.35.
3. O’zbekiston obidalaridagi bitiklar. Toshkent — 2011.
4. Хива минг гумбаз шаҳри. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 90.

CHOR CHINOR MAJMUASI VA UNING O’RGANILMAGAN MASALALARI

Barnayeva Shaxlo, katta oqituvchi; **Xursanbayeva Baljan,** talaba
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Ushbu maqolada Samarqand viloyati, Urgut tumanida joylashgan Chor-chinor ziyoratgohi shakllanish tarixi va bugungi kundagi holati haqida mulohaza yuritiladi. Bundan tashqari ziyoratgohning nomoddiy merois hisoblanadigan, biroq katta ahamiyatga ega bo’lgan o’rta asrlardan bugungi kungacha saqlanayotgan chinorlar, buloq haqida ham fikr boradi.

Kalit so’zlar: Samarqand, Urgut tumani, Chor-chinor, ziyoratgoh, madaniy meros, masjid, buloq.

This article reflects on the history of the formation and the state of the Chor-chinor shrine located in the Urgut district, Samarkand region. There is also an opinion about the spring, the plantains, which are considered the intangible services of the shrine, but are kept from the Middle Ages to the present day, of great importance.

Keywords: Samarkand, Urgut district, Chor-chinor, shrine, cultural heritage, mosque, spring.

В данной статье вкратце рассказывается история формирования и состояние святыни комплекса Чор-Чинор, расположенного в Ургутском районе Самаркандской области. Кроме этого, также речь идет о роднике, о древних чинарах, имеющие нематериальную культурную ценность, однако, считающихся огромным достоянием и сохранившихся от средних веков до наших дней.

Ключевые слова: Самарканд, Ургутский район, Чор-чинор, святыня, культурное наследие, мечеть, родник.

Mamlakatimizning boy tarixini o'rganish, milliy qadriyatlarimizni saqlash va tiklash, shuningdek ajdodlarimizning meroslarini asrab-avaylashimiz bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston, boy madaniy merosi va turli davrlarni o'z ichiga qamrab olgan moddiy va nomoddiy yodgorliklari bilan dunyoga mashhurdir. Ayniqsa ko'hna Samarqand-madaniyatlar chorrahasida joylashgan madaniyat o'chog'i hisoblanashi hech kimga sir emas.



"…Sayqali ro'yi zanim hast." deb ta'rif etiladigan Samarqand shahri va uning atrofida o'ziga xos qadimiy yodgorliklar, ziyoratgohlar ko'pdir. Ular nafaqat sayyoh yoki ziyoratchilarni, balki ilm ahlini ham, yetarlicha o'rganilmagan boy tarixi va tadqiq etilmagan jihatlari bilan o'ziga jalb etadi. Ta'rif etilgan maskanlardan biri Urgut shaharida joylashgan Chor Chinor ziyorotgohidir. Bu ziyoratgoh Samarqanddan 40 km uzoqlikda, Urgut shahridan esa 2 km masofadagi tog' tepaligida joylashgandir. Ziyoratgoh tashrif buyuruvchi har bir insonni ko'rkam tabiati bilan o'ziga rom etadi. Ayniqsa turli mutaxasislik egalari: arxeolog, etnograf, tarixchi, rassom, arxitektor va boshqalar uchun ham "Ilhom manbai" bo'ladigan maskandir. Bu yerga tashrif buyuruvchi har bir kasb egasi o'zi uchun misli ko'rilmagan yangiliklarni ochishi mumkin.

Xalq orasida mavjud bo'lgan rivoyatga ko'ra, bu mavzening ziyorotgohga aylanishi va uning Chor chinor ziyoratgohi deb atalishi, arab xalifaligi sarkardalaridan biri Xoja Abu Tolib ismi bilan bog'liq ekan. Sarkarda Urgutga hukumdor bo'lgan vaqtda buloq atrofiga to'rt dona chinor ektiradi. Hozirgi kunda faqat ikkita chinor saqlanib qolgan. Sarkardaning hayoti ham bu maskanda uzoq davom etmaydi, aksincha ayanchli yakun topadi. Xo'ja Abu Tolib Jome masjidida "Qurbon Xayti" nomozini ado etayotgan paytda dushmanlar tarafidan o'ldirladi. U vafot etgach (866-867 yillarda) Chor chinor yaqinida dafin etiladi, bu joyning yana bir nomi "Xo'ja chor-chinor deb" atalishinig asosiy sababi ham shu.

Majmuaning ichki qismiga kirishingiz bilan yolakning ikki tarafidagi chinorlarga ko'zingiz tushadi. Hozirgi kunga kelib Xo'ja Abu Tolib ektirgan 4 chinordan 2 tasi bor, qolgan 2 ta chinor esa 1998 yilda tabiiy ofat natijasida qulab tushgan. Ziyorotgohda ayni vaqtga kelib asrlar davomida ekilgan 130 ga yaqin ulkan chinorlar saqlanib qolgan. Chinorlarning ba'zilari 800 yoshda va eng yoshi kattasi 1163 yoshdan oshgan deb taxmin qilinadi va ular hozirda ham o'sishda davom etmoqda. Chinorning diametri 29 metr bo'lib, ichida katta kovag joylashgan. Chinorga o'rnatilgan eshik orqali kovakka kiriladi. Kovakning ichkarisi hajmi bilan insonni lol qoldiradi. Ilgari bu kovak so'fiylik maktabi a'zolari uchun darsxona va boshpana bo'lib xizmat qilgan. O'sha paytda bir vaqtning o'zida 40 talaba to'planishi mumkin bo'lgan joy deb aytishadi shu atrofda yashovchilar. Hozirgi kunda esa muzey tariqasida saqlanib turibdi. Bu ma'lumotlar 2012 yilda xatlovga ham kiritilgan. Chor-chinor deb atalishinig yana bir sababi o'sha davr odamlarining ko'proq forsiy va tojik tillarida muloqat qilganligida. Ya'ni Chor-chinor (to'rt chinor) degan ma'anoni anglatadi.

Chor-chinor majmuasi bugungi kunda ham muqaddas joy hisoblanadi. Majmua ichida 1914-yilda Shayx Muhiddinxon tomonidan qurdirilgan "Jome masjidi" joylashgan. Masjid "Cho'bin" deb nomlanadi. Bunday nomlanish sababi masjid yog'ochdan yasalgani va hattoki uning mixlari ham yog'ochdan yasalganligidadir. Masjiddan dastlab madrasa sifatida foydalanishgan. 1927 yilgacha mazkur madrasa nafaqat Urgut balki shu yaqin atrofdagi ilm axli uchun panohgox bo'lib ham xizmat quilgan. Masjidning har bir burchagida 3 tadan 12 ta hujra mavjud. Lekin afsuski hozirgi kunga kelib, hujralar masjid omborxonasi sifatida ishlatilmoqda. Bu juda ayanchli holat albatta.

Ziyorotgohda sokinlik, orastalik hukmron. Tog' bag'ridan suzib chiqayotgan hovuz-buloq jimirlab qaynayotganga o'xshaydi. Bunga sabab hovuz-buloq o'rtasidagi ko'zlardan chiqayotgan suv. Ma'lumotlarda ko'ra, bu suv Urgut tog'ning ancha yuqorisida hosil bo'lib, yer osti yo'llari bilan Chor Chinor ziyorotgohidagi buloqda chiqar ekan. Suvning harorati 17-18 daraja illiq. Qishloq aholisi bu suvni juda muqaddas va shifobaxsh deb bilishadi. Bunga sabab u ko'plab kasalliklar - buqoq, oshqozon kasalliklarini davolash va ichki a'zolardagi toshlarni maydalashi isbotlangan. Hatto 1936-yilda tarqalgan vabo epidemiyasi vaqtida bu suvdan iste'mol

qilganlarga zarar yetmagan. Qaynar buloq aylanasi 50-60 metr, chuqurligi 40 metr bo'lgan hovuzdan chiqadi. Eng qizig'i, mahalliy aholi aytishlaricha buloq chetidagi teshik toshdan chiqayotgan suvda nur ichidagi Ka'ba shaklini ko'rish mumkin. Bu ko'rinish qaynar buloqqa kelayotgan sayyohlarni juda qiziqtiradi. Bu mo'jiza teshik toshga chin niyat bilan to'g'ridan qaraganda ko'rinishi mumkinligini ta'kidlashadi. Buloqqa soatlab qarasa ko'z ravshan tortishi va ya'nada yaxshi ko'rishi mumkin. Bugungi kunda buloq suvidan Chor Chinor, Suviyon, Andak, Kamangorancha va Guliston mahallalari iste'mol qilishadi. Buloq yana o'zining baliqlari bilan ham mashxurdir. Aytishlaricha, baliqlar buloq bilan birga paydo bo'lgan ekan. Baliqlar uzoqqa suzmas va oqib ham ketmas ekan. Biz bu yerda baliqlarning qora, qizil va boshqa tuslilarini ko'rishimiz mumkin.



Majmuaning bog'ida XX asr boshlarida qurilgan ko'k gumbazli kichik maqbara ham bor. Uning ichida Naqshbandiya tariqati namoyondalari davomchilaridan bo'lgan Shayx Valixon Eshon buva va Shayx Qudbiddinxon Hazrati qabrlari joylashgan. Ularga atab qabirtoshlar ham qo'yilgan. Qabirtoshlatga bitiklar yozib qoldirilgan.

Chor chinor bu shunday bir mavzuki oxiriga yetish qiyin. Ziyorotgoh haqida rivoyatlar, ertaklar, badiy asar-u xalq qo'shiqlarini eshitish mumkin. Ammo bularning orasida shunday bir asar borki unga tuxtalib utmaslikning also iloji yuq. Bu Asqar Muxtorning "Urgutta bir chinor bor" asari hisoblanadi. Bu asarda o'zbek millatining urf odati, sadoqati, vatanga bo'lgan mexriyu o'zbek xalqining insoniyligi shunday ta'riflangan. Asarni o'qish davomida insonning ko'ziga bir necha bor yosh ham keladi. Asar haqida fikr yuritganimizda, undan misollar keltirishimiz mumkin edi, ammo bu asar ta'riflarga muxtoj emas. "…Ha, bu ko'ylaklaringiz yarashmaydi, − dedi Rais bobo. −Abdurahim aka sizni bu ko'ylaklarda ko'rsa, xafa bo'ladi. Sizga yangi ko'ylaklar olib keldik. Mana shu oppoq ko'ylaklarni kiyib olib, bolalaringizga peshvoz chiqasiz. Endi sizlarni hech kim, hech qanaqa urush ham ajrata olmaydi". Shu jumlalarning o'zigina asar saviyasini belgilab beradi deb o'ylaymiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, chindan ham yurtimizning sir-sinoati, insonni lol qoldiradigan maskan-u, borib tomosha qiladigan oshyonlari ko'pdir. Qadimiy va muqaddas ziyoratgohlar va ularning bugungi kungacha saqlanib kelayotgan tarixiy yodgorliklari ham ulkan tariximizning o'ziga xos nishonasi va boy ma'naviy meros xazinalaridan biridir. Mamlakatimiz xududida saqlanib qolgan bunday tarixiy ziyoratgohlardagi qabrtoshlar va ulardagi bitiklar ajdodlar tarixini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi. Ular haqidagi bir-biridan qiziqarli afsona-yu rivoyatlar esa inson aqliga sig'dira olmaydigan ta'surotlarni taqdim etadi. Chor chinor ziyoratgohida safarimiz maboynida juda ham ajoyib ta'surotlarga ega bo'ldik. Bu yerdagi mahalliy aholi va ularning madaniyati, urf-odati insonni lol qoldiradi. Mahalliy aholining tashrif buyuruvchilarga ziyoratgoh haqida faxrlanib gapirib berayotgani, ularning qalbidagi ishonch tuyg'usi inson qalbini jumbushga keltiradi.

Адабиётлар:

1. Искусство зодчих Узбекистана: сб. Вып. 4 / отв. ред. Г. А. Пугаченкова. - Таш-кент: Фан, 1969. - 232 с.
2. Лавров В. А. Градостроительная культура Средней Азии: (с древних времен до второй по-ловины XIX века) / В. А. Лавров. - Москва: Гос. изд-во архитектуры и градостроительства, 1950. - 178 с
3. Нозилов Д. Халқ меъморчилиги. Тошкент: Фан, 1982. - 96 б
4. Пугаченкова Г. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана Ташкент: Гос. изд-во худож. лит. УзССР, 1958. - 292 с.

TEMURIYLAR DAVRI SAVDO INSHOOTLARI

Abdullayev Baxodir Allamurod o'g'li, tayanch doktorant
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur va temuriylar davrida mintaqadagi savdo yo'llari qaytadan tiklanishi, Temuriylar davrida savdo bino va inshootlari rivoji, O'rta Osiyoda bozorlarining temuriylar davridan, xonliklar davrigacha shakllanganligi haqida batafsil bayon etilgan.
Kalit so'zlar: bozorlar, bozor iqtisodiyoti, shahar tashqari ko'chalari, rabot, bozor inshooti.

This article describes in detail the restoration of trade routes in the region during the period of Amir Temur and the Timurids, the development of trade buildings and structures during the Timurid period, the formation of markets in Central Asia from the period of the Timurids to the period of the Khans.
Key words: markets, market economy, suburban streets, rabot, market structure.

В данной статье подробно описывается восстановление торговых путей в регионе в период Амира Темура и

Тимуридов, развитие торговых зданий и сооружений в период Тимуридов, формирование рынков в Средней Азии периода Тимуридов. к периоду ханов.

Ключевые слова: рынки, рыночная экономика, пригородные улицы, работа, рыночная структура.

Amir Temur va temuriylar davrida mintaqadagi savdo y o‘llari qaytadan tiklanib boshladi. Amir Temur Movarounnahrda hokimiyatni o‘z qo‘liga olgach, xalqaro karvon yo‘llari xavfsizligini to‘liq ta‘minlashga erishdi. Bunda u o‘z harbiy va siyosiy bilimlaridan foydalangan holda ish olib bordi. XIV asrning 70-yillaridan boshlab Buyuk ipak yo‘lining Movarounnaxr orqali o‘tgan yo‘nalishlari bo‘ylab xalqaro savdo aloqalar yuksaldi. Amir Temur va temuriylar davri O‘rta Osiyoning karvon yo‘llari tizimi va keng ko‘lamdagi halqaro iqtisodiy-madaniy aloqalari rivoji tarixida muhim bosqich bo‘lib, Movarounnahr va Xuroson shaharlari bu jarayonda yetakchi rol o‘ynaganlar. Bunda Mavarounaxr va Xurosonning yagona hokimyatga boysundirilgan markazlashgan davlatligi keng imkonyat yaratib berdi[1].

Temuriylar davrida mamlakat ko‘plab mamlakat-lat bilan savdo aloqalarini rivojlantirdi va bu davr uchun savdo aloqalarini keng rivoj toptirishga o‘zining beqiyos xissasini qo‘shdi. Bu davrda Xirot Hindiston Vo‘lgabo‘yi Sibir va Eron kabi davlatlar bilan mumtazam aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Xitoydan asosan chinni va shunga o‘xshash buyumlar keltirilgan Hindistondan nafis oq rangli ip matolar, nil boyoqlar va shunga o‘xshash buyumlar keltirilgan, Erondan asosan xushbo‘y ziravorlar, Rassiyadan marvarid dur surp va boshqa narsalar olib kelingan, Sibir va Tataristondan qimmatli hisoblangan mo‘yna va shunga o‘xshash narsalar olib kelingan[2]. Yevropadan ham qator maxsulotlar olib kelingan bu maxsulotlar qatoriga movutli cherkaz pichog‘i va farang gazmoli kirgan bu maxsulot juda qimmat maxsulot sifatida etirof qilingan. Shoxrux xukumronligida Ardasher boshliq qator elchilar xitoyga borgan va diplamatik aloqalarni o‘rnatgan. 1419- yilda bunga javoban Li- Do va Jong-Fu Xitoydan elchi sifatida yuborildi. Shu tariqa savdo ishlari rivoj topa boshladi 1420–yilda Movarounaxrdan 520 nafar elchi va savdo karvoni Xitoyga bordi va ular 1422yilda o‘z vatanlariga qaytib keldi. Shohrux va Ulug‘bek zamonida qolgan qo‘shni davlatlar bilan ham savdo ishlari olib borilgan. Tibetdan elchilar Samarqandga kelganligi haqida malumotlar mavjud. 1441-1442 yillarda Hindiston bilan ham savdo aloqalarini tiklash maqsadida elchi Abdurazzoq Samarqandiyni yuboradi. Samarqandiy Kermon va Fors qo‘ltig‘i orqali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldirgan tarixchi olimsifatida etirof qilingan. Bu davrda pul isloxati o‘tqazilgan bo‘lib bu isloxat iqtisodyotni rivoji uchun keng yo‘l ochib bergan. Misol uchun: Ulig‘bek 1428-yilda muomilaga fulusiy pullar islohatini amalgam oshirdi. Qolgan barcha pullar man etildi. Eski pullar endi yangisiga almashtirildi. Tashqi savdoda daromad tamg‘a solig‘idan olingan bu davrda tashqai savdodagi tamg‘a solig’ini oshirgan. Ulug‘bek davrida mamlakat qator yutuqlarga erishdi va temuriylar davlati barqaror tus oldi.

Temuriylar davrida karvon yo‘llarida karvonlar uchun barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan. Bundan tashqari savdo yo‘llarida havsizlikni taninlash maqsadida maxsus qo‘riqlash xizmatlari ham o‘z faolyatini olib borishgan. Bu qo‘riqlov xizmati savdo karvonlarini o‘z manzillariga qaroqchi va jinoyatchilarga uchramasdan yetib olishlarini taninlagan.

Samarqand o‘zining bozorlari bilan keying davrda ham mashhur bo‘lib keldi. Shunonchi XV-XVI asrlarda shahardagi Bozori Amir Tangriberdiqul, Bozori Kuloxbardoron (Sarbadoron) Bozori Masjid Jurjoniya, Bozori Rismon, Bozori Xarroton, Bozori Muhammad Shan singari savdo hududlari tarixiy xujjatlarda tilga olinganki, bular Samarqandning qadimdan hunarmandchilik, savdo–sotiq gullab-yashnagan shaharlardan biri bo‘lib kelganini ko‘r-satadi [2].

XIV asr oxiri va XV asr O‘rta Osiyo fuqaro me‘morchiligi tarixiga, shu jumiadan, bozorlar savdo inshootlari hunarmandchilik ustaxonalarining qurilishi tarixiga yorqin harflar bilan yoziladi. Bu davr Amir Temur va temuriylar hukmronligiga to‘g‘ri kelib, unda Buyuk Ipak yo‘lining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari va katta qismining egalari turonliklar hisoblangan. Samarqand esa bu davrda ushbu yo‘lning markaziy savdo va tranzit shahri bo‘libgina qolmay, balki ilm-fan, san’at, madaniyat, me’morchilik va hunarmandchilikning ham yuksak darajada rivojlangan markaziga aylanadi. Samarqand ustalari va hunarmandlari ishlab chiqargan paxta gazlamalar, teridan tikilgan kiyimlari ipakdan tayyorlangan ustiboshlar, misdan yasalgan idish-tovoqlar, otning egar-jabduqlari, chodir va o‘tovlar, ajoyib va nafis qog‘ozlar butun Sharqu G‘arbda mashhur edi. Shaharga savdo-sotiqni rivojlantirish uchun bozorlar, rastalar, timlar, karvonsaroylar, sarroflar, do‘konlar, hunannandchilik ustaxonalari kerak edi. Temur davrida dastlab hozirgi Registon maydonida qator ochiq savdo rastalaridan tashqari bosh kiyimlarni sotishga mo‘ljallangan maxsus savdo binosi "Timi kuloh furushon" ("Bosh kiyim sotuvchilar timi") bunyod etildi. Amir Temur ushbu inshootni xotini Tumon oqa nomidan bino etadi. Samarqand bozorlari shunchalik serob ediki, turli-tuman issiq iqlim sharoitida sotish uchun savdogarlar va xaridorlarga qulay bo‘lgan katta usti yopiq bozor qurishga zaruriyat tug‘iladi. Shaxarlarning kengayishi axolini yangi turmush tarziga o‘tishiga olib keldi[3].

Shu sababli Temur butun shaharni Registondagi tim orqali o‘tadigan yopiq savdo ko‘chasini qurishga farmoyish beradi. 1936-1939 yillarda Samarqandda tadqiqot olib borgan olim Sh.E. Ratiyaning ma’lumo-tiga ko‘ra, ushbu savdo ko‘chasi Amir Temurning jome masjidi (hozirgi Bibixonim) va saqlanmagan Saroymulkxonim madrasasi binolari orasidagi maydonning janubiy qismida joylashgan timdan boshlanib, to Registon maydonidagi Tumon oqa timigacha davom etgan va undan ochiq bozog

maydoniga chiqilgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, unshbu savdo ko'chasi shahaming janubiy-g'arbiy darvozalaridan biri «Chorsu"gacha davom ettirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday yopiq va keng savdo ko'chasi Temur davriga qadar nafaqat Samarqandda, baiki butun Movarounnahr va Xurosonda ham yo'q edi. Shu bois bunday usti yopiq bozor ko'chasini o'sha davr O'rta Osiyo me'monchilik va shaharsozlik san'atining chinakam yangillklaridan biri deb qarash mumkin edi. Ana shunday usti yopiq bozor ko'chalari keyinchalik Hirot, Isfaxon, Urganch, Xiva, Buxoro va O'shda ham bunyod etiladi. Ispan elchisi Klavixoning xabar berishichaj Temur davrida Samarqandda nafaqat kunduz, balki kechalari ham savdo qiladigan bozorlar mavjud bo'lgan[3]. Shaharda amaldorlar qurdirgan qator karvonsaroylar, kulollar, zargarlar, temirchilar, shishasozlar, qog'ozbozlar uchun ustaxonalar, shinam va qulay do'konlar mavjud edi. Asosiy ko'chalar kesishgan joylarda chorrahadagi shahar bozorlaridan tashqari mahalla markazlarida guzar bozorlari ham ishlab turgan. Bunday bozorlar, odatda, bir necha rastalar ustaxona yoki do'konlardan iborat bo'lgan. Bozorlar nafaqat shahriston ichida, balki unga yondoshgan rabotlar hududida ham ko'p bo'lgan [3].

Rabotlar savdo yo'llari rivoji uchun ulkan hissa qo'shgan joy hisoblanadi. Rabot bozorlarida asosan karvonlar dam olgan va shu yerda savdo ishlari bilan shug'ullangan bo'lib bunday savdolar asosan shaxarga kirish joylarida joylashgan. Rabot bozorlari asosan shahristonga kiriladigan darvozalar va ko'chalar atrofida hamda rabot chorrahalarida joylashgan. Shaharlardagi bunday bozorlar tizimidan tashqari, Buyuk Irak yo'li bo'ylab shaharlararo "yarmarka" bozorlari ham tashkil etilgan. Bunday bozorlar, odatda, karvon yo'llarida, ular to to'xtaydigan rabotlar va karvonsaroylar yonida shakllangan. Karvonsaroylar savdo qilish va dam olish uchun mo'ljallangan[3].

Mashhur musulmon sayyohi ibn Batutaning dalolat berishicha, XIV asrning birinchi yarmida Xorazmning poytaxti Urganch yirik iqtisodiy va madaniy markaz edi. Ayniqsa u Xorazmning bozorlarini diqqat bilan kuzatadi. «Tig'izlik shu darajada ediki, oqibatda, men na orqaga, na oldinga surila olardirn», -deb yozadi u. Sayyoh Urganch bozoridagi mollarni qayd etadi. Yozda Jayxunda ko'plab kema qataovi bo'ladi. Ular Termizdan arpa va so'li olib keladi. Sayyoh mashhur Xorazm qovunlarining mazasini maroq bilan tasvirlaydi. Qovun qoqini tayyorlash usulini ham ko'rsatib o'tadi, «Buxoro va undan keyin Isfaxon qovunlarini hisobga olmaganda, jahonning na Sharqida, na G'arbida Xorazmnikidek qovunlar yo'q. Qiziq uni tilim-tilim qilib kesib, quyoshda quritadilar, keyin xaltalarga solib Xorazmdan Hindiston va Xitoyning uzoq shaharlariga olib ketadilar» deb yozilgan qolyozmalar bizgacha saqlanib qolganx [3].

Xo'sh, nega hammamiz buni eslaymiz? Gap shundaki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ziyolilar, kino sohasi vakillari bilan uchrashuvlarda badiiy filmlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati, jumladan, qishloqlarda klublar, kinoteatrlar tashkil etish zarurligini alohida ta’kidladi. 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni bilan Yoshlar markazlari va barcha qulayliklarga ega zamonaviy yoshlar kinoteatrlari barpo etilishi, jumladan kutubxona va kitob do‘koni. Binobarin, bunday markazlar farzandlarimizning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, iste’dodini yangilash uchun xizmat qilmoqda.

Misol. O‘tgan davrda qishloq klublarida “Balli, yigitlar”, “Ikbol”, “Quvnoqlar va zukkolar” ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilib, ularda ko‘plab yoshlar, maktab o‘quvchilari ishtirok etib, o‘z iste’dodlarini namoyish etishdi. Qolaversa, har bir qishloqda kutubxonalar bo‘ladi, yoshlar qo‘l qovushtirib, badiiy asarlarni o‘qiydi, o‘zaro muhokama qiladi. Bugun-chi? Hududlardagi madaniyat uylari, klublar, kutub-xonalarning ahvoli qanday?

Bunday madaniy ob’ektlar yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, ularni yomon odatlar, turli yot g‘oyalar ta’siridan asrash, oilalarda ma’naviy muhitni yaxshilash, qishloq aholisining madaniy hordiq chiqarishi uchun qator ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish uchun zarurdir. [2]. Lekin, afsuski, tayyor joylardan unumli foydalanilmayapti. Hozir madaniyat bo‘limlari balansida turgan o‘sha madaniyat ob’yektlarini xalqimizga qaytarish vaqti keldi. Bu ish qachon yakunlanishi noma'lumligicha qolmoqda.

Afsuski, keyingi yillarda bu ma’naviyat maskani e’tibordan chetda qolib, ko‘proq e’tibor qaratil-moqda. Ko‘plab qishloqlardagi klublar, madaniyat saroylari xususiylashtirilib, to‘yxona yoki oshxonaga aylantirildi. Ulardan ba'zilari hech narsa qilmasa, shok holatidadir.

Qishloqlarimizning qiyofasi keskin o‘zgarib borayotgan bir paytda bunday binolar va sharoitlarni shunga moslashtirish kerak, afsuski, aksariyat madaniyat muassasalari bugungi kun talablariga javob bermaydi. Binolar ta’mirlanmoqda, asbob-uskunalar, mexanizmlar eski. Viloyat, shahar va tu-man markazlaridagi kinoteatrlar xususiylashtirilgach, faoliyat yo‘nalishi o‘zgartirilib, boshqa maqsadlarda foydalanildi.

Innovatsiyalar klubi. Gonkong. arx. Zaha Hadid
Tailanddagi shahar tashqarisidagi klub.

To‘g‘ri, zamonaviy texnologiya olamida uy sharoitida badiiy filmlarni tomosha qilish imkoniyati cheksizdir. Biroq, bu qulaylik katta ekranlarda film tomosha qilish zavqini keltirmaydi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadal rivojlanishi insoniyatning global muammolarini hal qilishning yagona optimal usullarini izlashdir. Hozirda klub binosining yangi turi – Ish bilarmonlar-klubi shakllantirilmoqda. Ish bilarmonlar-klubi, bir tomondan, dam olish atributi sifatida va ishbilarmonlik aloqasi, ikkinchi tomondan, uning ikkita asosiy tarkibiy qismi: dam olish (ochiq) va biznes (yopiq) ning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Shunday qilib, u klub uchun an'anaviy bo'lgan ko'ngilochar va klub qismlariga qo'shimcha ravishda, ishlab chiqilgan ofis binolari, yig'ilish xonalari, konferentsiya zallari, shuningdek universal maqsadlar uchun bo'sh joylarni o'z ichiga olgan biznes zonasini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari va funktsional tashkilotning yangi shakli Ish bilarmonlar-klubi turini yangi me'moriy echimlarni amalga oshirish uchun eksperimental maydon sifatida belgilab berdi.

Klub binolari dizayni juda murakkab, chunki ular juda ko'p turli xil binolarni o'z ichiga oladi va odamlar soniga qarab yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish kerak.

Shunday qilib, klub binolarining binolari funktsional maqsadlariga ko'ra qismlarga bo'linadi:

- klub, klub (doira) ishi uchun;
- tomosha zali, sahna yoki sahnani o'z ichiga olgan o'yin-kulgi;
- xizmat va ma'muriy maqsadlar.

Klub auditoriyasi ko'p maqsadli - spektakllar, filmlar namoyishi, uchrashuvlar, ma'ruzalar va boshqalar uchun mo'ljallangan. - bularning barchasi ushbu tadbirlarning barchasini amalga oshirish talablariga javob berishi kerak.

Xitoydagi Sky Club uyi Xitoyda velosport klubi

Auditoriya foye bilan bevosita aloqada bo'lishi kerak. Foyedan auditoriyaning ishlashi bilan bir vaqtda boshqa maqsadlarda foydalanilganda, u foyeni chetlab o'tib, qabulxonaga ham ulanishi kerak.

Foye, qoida tariqasida, bitta xonaga joylashtirilishi kerak. Zal sig'imi 600 va undan ortiq o'rinli klub binolarida va raqs zalini tashkil qilishda foyeni bir nechta xonalarga joylashtirishga ruxsat beriladi. Namoyish guruhining binolari sahna (sahna) uchun o'yin maydonchasi va o'yin maydonchasiga xizmat ko'rsatadigan binolardan, shuningdek kino xonasi uchun binolardan iborat.

Xizmat va ma'muriy binolar o'yin-kulgi va klub qismlari uchun alohida ajratilgan ikkita vestibyulni, shuningdek, kassa qabulxonasi, kiyinish xonalari, metodik kabinet, ma'muriy va xizmat ko'rsatish xonalari, navbatchi ma'mur uchun xona va kommunal xizmatlarni o'z ichiga oladi. omborxonalar.

Butun dunyoda klub binolari qurilmoqda va har yili ular talab va dolzarb bo'lib bormoqda.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “Zamonaviy kinoteatrlar tarmog‘ini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori kino ixlosmandlari uchun katta yangilik bo‘ldi [3].

Bugun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan kitobga, kitobxonlikka katta e’tibor qaratilmoqda. Qo'shni eshikda kutubxonalar ochiladi. Albatta, bularning barchasi o‘sib kelayotgan yosh avlodning kitobxonlik madaniyati yuksalishiga, tafakkuri va ma’naviy dunyosining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Qolaversa, kitob o‘qish mashaqqatli mehnat, unga bog‘langan yurak esa adashishdan uzoqdir.

Tabiiyki, bu mulohazalar butun mintaqadagi vaziyatni oqlamaydi. Respublikada kutubxonalar barpo etilmoqda, ta’lim muassasalari qurilmoqda. Lekin tan olaylik, ayrim joylarda madaniyat uylari, qishloq klublari yo‘q. Davlatimiz rahbari har bir ma’ruzasida yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, kitob mutolaa qilish, iste’dodlarni kashf etish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu har birimizni hushyor bo‘lishga, mas’uliyat bilan yondashishga, o‘z hayotimizga mas’uliyat bilan yondashishga undaydi.

Адабиётлар:

1. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.; Ma'naviyat, 2008 yil.
2. 2020 www.archidizain.ru
3. Xalq so‘zi. 2006 yil 3 noyabr
4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2018 y., No 18.09 / 372/1255; 20.09.30 / 0061)
5. A.A. Shadrin /O'quv loyihasi misolida arxitektura dizayni "Zalli kichik jamoat binosi" /. Qo'llanma. Moskva 2016 yil.

UDK: 72.03

ISLOM ARXITEKTURASI NAZARIYALARINING YARALISHI

Mo’minxo’jayeva Nilufar Faxriddin qizi, tayanch doktorant
Toshkent arxitektura qurilish universiteti

Arxitektura juda keng ma’nodagi tushuncha bo’lib, ilk inson yaralishidan bugungi kunga qadar shakillanib kelmoqda. Ibtidoiy jamoa davridan boshlab arxitekturaning o’ziga xos ko’rinishlari yaralgan. Ushbu maqolada dinning arxitektura yaralishidagi o’rni, Islom dinining me’morchilikda yangi tipologik uslublarni yaratishi, “Nazariya -o’zi nima?”-degan savolga javoblar, shuningdek islom arxitekturasi nazariyasining o’rganilish bosqichlarini bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Islom, Qur’on, masjid, madrasa, xonaqoh

Архитектура — это понятие в очень широком смысле, которое формировалось с момента сотворения первого человека до наших дней. Уникальные формы архитектуры создавались со времен первобытного общества. В данной статье описывается роль религии в создании архитектуры, создание новых типологических стилей ислама в архитектуре, ответы на вопрос «Что такое теория?», а также этапы изучения теории исламской архитектуры.
Ключевые слова: Ислам, Коран, мечеть, медресе, ханака.

Architecture is a concept in a very broad sense, which has been formed since the creation of the first man to the present day. Unique forms of architecture have been created since the time of primitive society. This article describes the role of religion in the creation of architecture, the creation of new typological styles of Islam in architecture, answers to the question "What is a theory?", As well as the stages of studying the theory of Islamic architecture.
Keywords: Islam, Qur'an, mosque, madrasa, khanaqah

Kirish. Arxitektura yaralishida “din” ya’ni “ishonch” ning ahamiyati katta bo’lgan. Diniy an’analar, urf-odatlar, asrlar aro ko’zlarni quvontirib, cheksiz xayratga sabab bo’lib kelayotgan ko’plab inshootlarni yaralishiga sabachi bo’lgan. Eng yirik uslublar yaralishida ham dinning o’rni katta bo’lgan. Misol uchun Buddaviylik dini Hindiston, Koreya, Yaponiya, Xitoy arxitekturasini Pagodalar bilan shakillantirgan, Xristianlik dini Vizantiya, Gotika va Roman arxitekturasini, Islom dini bo’lsa musulmon dunyosidagi barcha islom arxitekturasini shakillantirgan. Albatta, mutlaqo diniy sabab ila, arxitektura yaralgan deya olmaymiz. Balki, bu eng katta turtkilardan bo’lgan desak mubolag’a bo’lmaydi.

Inshootlar yaralishi, shakllanishi, juda buyuk arxitektura olimlarining yaralishiga ham sabab bo’ldi. Bir birini takrorlamaydigan ko’p yangi arxitekturaviy qonuniyatlar, uslublar yaraldi. Tarix zarvaraqlariga bularni muxrlash, arxitektura olimlari zimmasiga tushdi. Bu esa o’z o’rnida arxitektura nazariyasi yaralishiga sabab bo’ldi.

Shu o’rinda “nazariya ” nima ?- degan savol uyg’onishi mumkun. Nazariya bu ma'lum bir hodisalarni tavsiflovchi va tushuntirib beruvchi, ushbu sohada ochilgan muntazam aloqalarni yagona birlashtiruvchi printsipga tushiradigan ta'limot, ilmiy bilimlar tizimidir. Arxitektura nazariyasi esa-bu me'morchilikning tabiati, xususiyatlari va uning umumiy qonuniyatlari haqidagi fandir. Arxitektura nazariyasi ijtimoiy hayotning o'ziga xos hodisasi va ijodiy faoliyat shakli sifatida arxitektura haqidagi gumanitar bilimlarning keng qismi xisoblanib, uning genezisi, mohiyati va ijtimoiy funktsiyalari aniqlab beradi. Ushbu bilim sohasi me'morchilik tarixi, umumiy arxitektura nazariyasi, me'moriy kompozitsiya nazariyasi, me'moriy tanqidni o'z ichiga olgan me'moriy tadqiqotlar deb ataladi. Arxitektura nazariyasi haqida keng tushuncha va izoh bergan shaxslardan biri Vitruviydir. U eramizdan avvalgi I ming yillikda yashab, ijod etgan.

Asosiy qism. Islom me'morchiligi atama sifatida musulmonlarning diniy qurilish doirasidan ancha kengroq talqin etiladi, chunki "islom" tushunchasi nafaqat dinni, balki ulkan sivilizatsiyani tavsiflaydi. Ushbu tushuncha xalqlar orasidagi chuqur farqlarga qaramay tarixiy jihatdan bir yarim ming yillik davomida shakllangan madaniyatlar majmuasi, umumiy mafkura - Islom bilan birlashtirilgan. Islom olamining me'morchiligi "tarixiy va badiiy hodisa sifatida birinchi va eng buyuk musulmon davlati-Arab xalifaligi bag'rida tug'ilib shakllangan.

Islom arxitekturasi haqida so’z boradigan bo’lsa, har doim puxta o'ylangan va puxta bajarilgan su’ratlarga asoslangan. O'rta asr musulmon me'morlari, haykaltarosh hamda xattotlarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning geometriya qonunlarini tushunganligini va chizg’ich va sirkullarda mohirligini namoyish etadi. Ularning hisoblash qobiliyati algebra va astronomiya bo'yicha mukammal bilimlarining dalilidir. Har qanday obyekt yoki predmetni yaratishga matematik yondoshish butun islom san'atiga kirib borgan bezaklarga ham ta'sir ko'rsatdi, bu musulmonlarning amaliy bilim shakli sifatida san'atga bo'lgan munosabatining tabiiy natijasi edi.

Ushbu yondashuv arab tilida fan - "art" so'zi ilmni ham, hunarmandlikni ham anglatadi va musulmon faylasuflarining asarlarida o'z aksini topgan. Masalan, Al-Farobiy me'mor hunarmandchiligini "mohir usullar ilmi" ga bog'lagan, bu uning tasnifiga ko'ra matematika fanlari bo'limiga kiritilgan, san'at va geometriya o'rtasida bevosita bog'liqlikni ko'rsatgan. U o'zining risolalaridan birida shunday deb yozgan edi: "Amaliy geometriyada korpusning chiziqlari va sirtlarini agar u yog'ochdan bo’lsa duradgor, temir korpusni temirchi, tosh korpusni esa haykaltarosh ko’ra oladi ...” [1]. Xuddi shunday, amaliy geometriya mutaxassisi chiziqlar, yuzalar, kvadratlar, dumaloq va uchburchak jismlarni materiya sifatida tasavvur qiladi, bu amaliy san'atning asosiy mavzusidir. Qadim zamonlardan buyon Sharqning ko'plab xalqlarida ob'ekt va makonni ikki o'lchovli idrok qilish ajralib turadi.Ushbu san'atni musulmon me'mor va rassomlari meros qilib olishdi. Plastik borliq shaklini yaratish Islom san'atida har doim ham hajmli modellashtirish emas, balki badiiy tekislik o'zgarishi bilan fasad, devor paneli, kitob sahifasi, gilam yoki matolar yasalgan. Binolar musulmon shahar yoki qishloq manzarasi siluetda ifodalangan, devorlar silliq yoki turli ornamentlar bilan bezatilgan, lekin hajmli bo’lmagan. Islom me'morchiligining badiiy qiyofasining asoslari xuddi shunday ornament bezaklarning bir xil yoki o'xshash elementlarda ritmik takrorlanishi tamoyillari, me'moriy shakl elementlarining simmetrik jihatdan bir-biriga mosligi tashkil etadi.

O'rta asrlar musulmon me'morlari ajdodlardan o'zlashtirgan boy madaniy meros va o'zlari rivojlantirgan estetik tushunchalar yangidan-yangi bino turlarini yaratishlariga yordam berdi. Ularga: masjid, minora, madrasa, mariston (kasalxona), xonaqoh, zaviya yoki takiya ,tekke (so'fiylar yashaydigan joy), kubba, gumbad yoki turba

(maqbara), hammom kabi binolar, hamda kompleks binolar: qasr (qal'a-saroy), rabot, karvonsaroy, kabi inshootlar kiradi. Ular bir vaqtning o'zida saroyni ham, shaharni ham bir xil prinsipda qurishga ruxsat beradigan va agar kerak bo'lsa, binodan foydalanish maqsadini bemalol o'zgartira oladigan universal kompozitsion rejalashtirish sxemalarini ishlab chiqdilar. Biroq, islom me'morchiligining aynan shu xususiyati–turli xil binolarni rejalashtirishda universal qonuniyatlardan foydalanishi, ularni o`rganish va diniy, fuqarolik, turar joy va yodgorlik binolari tipologiyalarga ajratishni qiyinlashtiradi.

Islom me'morchiligini o'rganishning tipologik printsipi hozirgacha keng rivojlanishga erishmagan. Ayni paytda, me'morchilikni tiplarini o'rganmasdan, ularning vujudga kelish sharoitlari, shakllanishi,ularning mavjudligi, rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin emas. O'rta asr islom arxitekturasining tarixiy va nazariy muammolarini o'rganish, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash,turli tuzilmalarni bir butunga bog'laydigan belgilar va fazilatlarni tahlil qilish, turli davrlarga va mintaqalarga tegishli bo'lgan tiplarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday o'rganishga ehtiyoj uzoq vaqtdan beri davom etmoqda.Yaqin va O'rta Sharqning o'rta asr me'morchiligining dolzarbligi butun dunyoda olib borilayotgan tadqiqotlar orqali tasdiqlanmoqda.

Islom me'morchiligini tipologik va terminologik o'rganishning boshlanishi 20-asrning birinchi o'n yilligidan, xususan Maks van Bershem va belgiyalik sharqshunos Anri Lammensning asarlaridan boshlanadi.[2] Fridrix Zarre Maks van Bershemning forsiy islom me'morchiligi bo'yicha ishini ko'rib chiqishda, 1922 yilda akademik V.V. Bartold ta'kidlaganidek: "musulmon Forsining ba'zi me'morchilik turlarining rivojlanishini kuzatishga harakat qildi"[3]. Islom diniga aloqador bo'lgan me'morchilik atamalarining etimologiyasini chuqur o'rganilganligi va arablarning arhitekturaga oid tushunchalarining islomgacha islom davri shakllari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatganligida A. Lammensning xizmatlari beqiyosdir. U 1911 yilda o'zining antik mayoqlari, xristianlar qo'g'iroqli minoralari va musulmon minoralarining etimologik va tarixiy davomiyligi, shuningdek, masjidlarning kelib chiqishi va umuman, ularning me'moriy xususiyatlari to'g'risidagi maqolasini nashr etdi. Xuddi shu masalalar u tomonidan 1926 yilda arab dunyosining g'arbiy hududlaridagi islomgacha diniy binolar to'g'risida nashr etilgan asarida ham ko'tarilgan. Biroq, A. Lammensning tadqiqotlari nazariy emas, balki tarixiy xarakterga ega bo'lib, har bir alohida holatda aniq ilmiy haqiqatni aniqlashga qaratilgan edi.

Islom me'morchiligining tadqiqiga bag'ishlangan eng muhim ilmiy hissa 1930-40 yillarda va undan keyin, 1950-60 yillarda islom me'morchiligini monumental tasvirlangan ko'p jildli asar ingliz tarixchisi Sir Keppel Archibald Kemeron Kresvell tomonidan amalga oshirildi.[4] Uni ushbu mehnatlari uchun 1950 yilda Londondagi Qirollik Osiyo jamiyati uyushmasi oltin medal bilan taqdirlash jarayonida, jamiyat prezidenti shunday dedi: "Professor Kresvell nafaqat o'z kasbida etakchilikni qo'lga kiritdi, balki u uni yaratdi".

1983 yilda, hijriy XV asr boshlanishi sharafiga, Dakka shahrida, aftidan nomi jarangdor bo'lmagan, aslida esa masjid va asl me'morchiligi atamalari to'g'risida muhim ma'limotlarni o'z ichiga olgan " Musulmon san'ati va me'morchiligi to'g'risidagi dastlabki taassurotlar" kitobi nashr etildi. Kitob muallifi - Sayid Mahmud-ul-Xasan, Bangladesh Islom san'ati va madaniyati tadqiqot markazi ijrochi rahbari, kitob matniga ko'ra, yetuk arabshunos va tarixchi bo'lgan. Uning tadqiqotlari G'arb ilmiy adabiyotlari va lug'atlari asoslarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan, shuningdek, etimologik manba sifatida Qur'oni Karimga asosiy e'tiborini qaratgan. Shuningdek, uning "Masjid atamasining etimologik manbai "asarida ham qiziqarli ma'lumotlar uchraydi.[5]

O'rta asrlardagi musulmon madaniyati doirasida yaratilgan ijodiy estetik printsiplar musulmonlarning diniy ongi va islomning birligi uchun mas'ullik, me'moriy ob'ektlarning tuzilishi va funktsiyasidan qat'iy nazar, uslubning xususiyatlari va uning osongina taniladigan islomiy turiga mansubligini anglatish islomiy umum madaniyatning bir bo'lagidir. Shu bilan birga, uchta qit'a bo'ylab tarqalgan musulmon mamlakatlarining o'rta asr me'morchiligining evolyutsiyasi har bir mintaqaning mahalliy binosi va badiiy an'analarining faol ta'sirini e'tiborsiz qoldirolmadi. Xuddi shu tarzda, turli davr hukmdorlarning siyosiy sharoitlari va shaxsiy imtiyozlari, ko'pincha turli madaniyatga ega bo'lgan iste'dodli ijrochilarning mahorati va tayyorgarligiga ham bog'liq bo'lgan.

Xulosa. Yuqorida ko'rsatilgan sabablar natijasida, islom arxitekturasi tarixida mintaqaviy va sulolaviy uslublarning rivojlanishi hamda xududiy me'morchilik turlari yuzaga keldi. Har bir mintaqa va davr islom me'morchiligi tarixiga, uning turlari va uslublariga o'z hissasini qo'shdi va dunyo me'morchiligining oltin fondiga kiritilgan go'zal va o'ziga xos inshootlarni insoniyatga taqdim etdi. Islom me'moriy merosini o'rganish bo'yicha bir asr davomida yodgorliklar aniqlandi, ularda ma'lum bir me'morchilik turiga xos bo'lgan xususiyatlar jamlangan. Amalga oshirilayotgan ilmiy ishlarning maqsadi, tubdan yangi narsa - musulmonlarning ibodat joylarini arxitekturaviy turini tanlashdan iboratdir. Tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan turli darajadagi yodgorliklarni ko'p miqdorda ko'rib chiqadigan Islom me'morchiligi tarixiga oid yuqorida aytib o'tilgan fundamental asarlar bilan birga, har bir ilmiy tadqiqotchi o'z tadqiqotlarini asl durdonalarni tahlil qilishga asoslaydi. Bunday tanlov, tadqiqotchilarningning fikriga ko'ra, har bir turning xarakteri va evolyutsiyasini yanada qarama-qarshi va yorqinroq namoyish etishga imkon beradi.

Адабиётлар:

1. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии.-Москва: Изд-во «Наука»,1988.-67

2. Berchem, M. Van. L'architecture musulmane de la Perse //Journal des savants. 1911, Fevrier. P. 54-69
3. Бартольд В.В. Культура мусульманства.-Москва: Издательство «Леном»,1998.-9
4. Hamilton, R.W. Keppel Archibald Cameron Creswell//Muqamas VIII. 1991. P. 128-136. [P. 128
5. Syed Mahmud-ul-Hasan. Glimpses of Muslim art and architecture. Dhaka: Islamic Foundation, 1983. P.37-72.

БЕРДАҚ НОМИДАГИ ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТИ ТАРИХИ ДАВЛАТ МУЗЕЙИ БИНОСИНИНГ АРХИТЕКТУРАВИЙ – КОМПОЗИЦИЯВИЙ ЕЧИМИ ҲАҚИДА

Абекеева А., катта ўқитувчи. Қарақалпоқ давлат университети

Мақолада Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейи биносининг архитектуравий–композицион ечими, ундаги шакллар уйғунлиги, курси, бўсаға-остана, бадиий тугалланиш қисмлари композицияларининг музей биносидаги ўрни ва аҳамияти очиб берилган.
Калит сўзлар: Бердақ номидаги музей, меъморий- композициявий ечим, курси, бўсаға, бинонинг бадиий тугаллик қисми, шакллар уйғунлиги ва мутаносиблиги, ритм, симметрия.

В статье рассматривается общее архитектурно-композиционное решение здания музея имени Бердаха, архитектурная гармония его форм, цоколь, вход-парог, композиционные решения завершающих частей (венчание) в архитектуре и их места и значение.
Ключевые слова: музей имени Бердаха, архитектурно-композиционное решение, цоколь, входная часть, венчание здания, гармония архитектурных форм, ритм, симметрия.

The article discusses the general architectural and compositional solution of the Berdakh Museum building, the harmony of forms, the entrance-threshold, the compositional solutions of the final parts in architectural buildings and its place and significance.
Key words: Berdakh Museum, architectural and compositional solution, basement, entrance part, crowning of the building, harmony of architectural forms, rhythm, symmetry.

Кириш. Қорақалпоқ миллий архитектураси стилини яратиш ва уни миллий қадриятлар билан уйғунлаштириш, XX-XX1 аср Корақалпағистон архитектурасини шакллантиришда Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган архитектор Оринбай Тореииязов (1942-2020)нинг ижодий фаолияти муҳим ўрин эгаллайди.

Мақоламиз мақсади Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейи биносининг муаллифи О.Тореииязовнинг архитектурадаги илмий фаолиятини ўрганиш орқали унинг ўзига хос ижодий методологияси, Корақалпағистон миллий архитектура стилини шакллантиришдаги тутган ўрнини, унинг ижодига мансуб Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейи архитектуравий ечимларини аниқлашдан иборатдир.

Мавзунинг долзарблиги эса, архитектор О.Тореииязовнинг архитектурадаги ижодий фаолиятини, шахсий услубиятини ўрганиш, Қорақалпоғистон архитектурасининг ривожланиш босқичлари, эволюциясиҳақида фикр юритиш ва шу орқали регионимизархитектурасини ривожлантиришга ҳисса қўшиш, О.Тореииязов ижодий услубини архитектура таълимида ўқиётган бўлажак Қорақалпоқ архитекторлари тайёрлашда қўллашнинг муҳимлиги билан белгиланади.

Асосий қисм. Деярли ярим асрлик умрини, архитектурага бағишлаган архитектор Орынбай Тореииязов умрининг сўнги кунларигача шахар ва қишлоқларга кўрк бағишлаган 300 дан ортиқ меъморий объектларни Қорақалпоқистон миллий архитектураси билан замонавийликнинг уйғунлашган колоритига эга бўлган бино ва иншоотлар лойиҳаларини ишлаб чиқишга эришди. Унинг аксарият объектлари Қорақалпоғистоннинг кўпгина шаҳар ва туманларида қурилган бўлсада, у Қазоғистон ва Туркманистон республикаларида ҳам бир қанча муҳим архитектуравий бинолар, ансамбларни яратишга муваффақ бўлди.

Биз мазкур мақолада архитектор О.Тореииязовнинг муаллифлигидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейибиносининг архитектуравий –композицион ечимига тўлиқроқ тўхтаб ўтамиз.



Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 20 май 1998 йили қабул қилган қарори билан халқимизнинг буюк шоири Бердақ (Бердимурат Қарғабой ўғли) бобомиз таваллудининг 170 йиллиги муносабати билан шоир хотирасини мангулаштириш мақсадида Нукус шаҳрида Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети ҳудудида Бердақ номидаги Миллий музей биноси 2002 йили март ойида қад тиклаб ўз ишини бошлади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 13 -апрелдаги 206-сонли қарори ва Қорақалпоғистон Вазирлар Маҳкамасининг 2021-йил 15-апрелдаги 122-қарорларига мувофиқ Бердақ миллий музейи Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейи номи билан қайта ташкил қилинди.

Музейлар халқ турмушини унинг тарихи билан боғлайдиганмаданий-маърифий бинолар қаторига киради. Музей халқнинг ҳужжатига қўшилган умр баёнидир. Унда шу халқнинг халқ,миллат бўлиб шаклланишида ёки шу ернинг қадимий тарихи билан бугунигача босиб ўтилган йўли баён қилинади.

Пойтахтимиз Нукус шаҳри архитектуравий

сиймосининг ҳуснига- ҳусун бағишлаб турган бу савлатли бино муаллифи ўзининг Қорақалпоғистон, Ўзбекистон, Туркманистон ва Қозоғистон республикаларида кўпгина бино лойиҳалари билан танилган, Бердақ номидаги давлат унвони лауреати, Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган архитектор Орынбай Торениязовдир.

Музей биносининг архитектуравий композициявий ечими ҳақида алоҳида фикр юритиб, унинг останасива бадиий тугаллик шаклларига эътибор қаратиб, чуқурроқ таҳлил қилишни мақсад қилиб қўйдик (1-расм).

1-расм. Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейи.

Биринчидан,бинонинг умумий архитектуравийкомпозициясига,унинг бўсаға ва якуний бўлимига тушунча бериб ўтишимиз мақсадга мувофиқдир. Дунёга белгили архитектура дурдоналариниқай бирини кўз олдимизга келтирсак ёки Самарқанддаги таниқли қадимий архитектуравий ёдгорликлар –масалан,Регистонархитектуравий ансамбли,Шоҳи-Зиндадаги архитектуравий комплекслар, Бухородаги Сомонийлар мақбаралари гўзаллигининг сири нимада деб ўйлайсиз? Уларнинг катта савлатли кўринишидами ёки уларнинг рангли нақшларидами? Сомонийлар мақбараси савлатли эмас, нақшлари рангсиз,бироқ ўта гўзал бинодир. Унда уларнинг гўзаллик сири нимада?

Ҳар бир архитектуравий бинонинг гўзаллиги унинг ҳажмидаги шаклларнинг ўзаро пропорцияси,рангларининг бир-бирига яхши уйғунлаштирилганлигида бўлса, иккинчидан, бу бинонинг кўркамлик образи унинг функциявий талабларига тўлиқ жавоб беришида ва учинчидан, шу бино масштабининг атроф-муҳит билан уйғунлашган қилиб боғлантирилганидадир [1].

Бизга маълум бўлгани каби, ҳар бир архитектуравий бинонинг лойиҳавий тузилиши ва ташқи фасад кўринишлари маълум бир композициявий ечимлардан иборат. Архитектуранинг қадимий уйғониш давридан бошлаб қурилган бинолар, бино ва қурилмаларнинг курсиси, кириш қисми (бўсоға-остонаси)ва якуний бўлимларига катта эътибор қаратилган ва улар архитектуравий композициянинг зарур таркиби элементлари бўлиб ҳисобланиб келган [2]. Биноларнинг архитектуравий композициясига, унинг курси, бўсаға ва якуний бўлимлари ҳақида биринчи марта Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети профессори, архитектура фанлари доктори А.С.Уралов ўз илмий ишларида тўлиқ баён қилган [1].

Масалан,неолит,палеолит давридаги икки тош устига қўйилган учинчи тош (дольмен),унгир ёки ибодатхона олдига қўйилган қабила бошлиғининг ҳайкали, устунли айвон фасадида ёки бош кўринишининг якуний бўлимининг карниз, фриз, архитрав ва умумий ордерлар системаси шаклларида кўриниши уларнинг бўсағаси ва якуний композициясининг аҳамияти катта бўлганлигини кўрсатади.

Зардуштийликнинг муқаддас китоби «Авесто»да ёзилишича, ўша даврларда бўсаға (остона)тагига вафот қилган ота-она суяклари кўмилиб қўйилар экан. Уйдан узоқ вақтга кетган ёки уйга келган бегона одамлар шу остонадан тавоб олар экан. Уйга энди тушган келинлар эрининг уйи остонасидан тавоб олиб салом бериш одати ҳам остонанинг муқаддаслигидан, унга эътибор берилганлигидан дарак берар экан [1].

Шарқ халқларида “остона-бўсаға дунёни икки - ички ва ташқибўлакга бўлиб, улар орсидаги чегара вазифасини бажарган” деган тушунча бўлган. Уйнинг ичига яхшилик ҳам ёмонлик ҳам остонадан киради, деб тушунилган. Остонанинг кўриниши қанча чиройли бўлса уйга шунча барака, файз киради, аксинча остона қанча кўримсиз бўлса у уй шунча баракатсиз, файзсиз бўлади, деб ўйлаган [5].

Остона яхшилик ва ёмонлик, ёруғлик ва қоронғулик, янгилик ва эскилик чегараси бўлиб қолмасдан куёшнинг чиқиши ва ботиши, меҳмонни кутиб олиш ва кузатиш каби рамзларни ҳам кўрсатган. Шунинг учун ҳам оиланинг бахтисаодати, бойлиги, баракаси остонанинг меъморий композицияси ва ечимига, унинг қайси томонга қаратилганлигига кўп жиҳатдан алоқадор бўлган. Қáдимги афсоналарда подшоҳлар ва бойларнинг сарой ва қалъа-шаҳарлари, боғ-саройлари ҳақида сўз борганда, одатта, улардаги дарвозаларнинг савлатлилиги, нақшинкор безаклари, осмон ўпар баландлиги, пишиқ мустаҳкамлиги мақталиб, вазифалари келтириб ўтилади [5].

Ҳақиқатдан ҳам, ўрта аср шаҳар қалъаларининг бизга қадар сақланиб қолган дарвозаларининг савлатлилиги, нақшинкор безаклари, ўша афсоналарда ҳақиқат борлигини ва остонанинг катта аҳамиятга эга эканлигини ифода этади. Соҳибқирон Амир Темур ўзининг Самарқанддаги жоме масжидининг остонасини паст ва кичик этиб қурган усталарни жазолаб, қандай этиб такрорий қурдиргани тарихдан маълум.Бугунги кунда ҳатто бутун Ўрта Осиёда ҳам Шахрисабздаги Оқсарай ва Самарқанддаги Амир Темурнинг жоме масжидининг савлатини ёритиб турувчи дарвозаси - пештоқ ва равоғи каби бўсағаостонаси топилмаса керак.Бу эса Амир Темурнинг қурдирган иншоотларининг остона-бўсағасига қанчалик катта эътибор берганлигининг далили бўла олади. Бундан ташқари, Бухоро, Хива шаҳарларидаги кўплаб ёдгорликлар шаҳар - қалъа, хон саройларида ҳам бош фасаддаги кириш ўринлари, остона-бўсағаларини маҳобатли

кўркам этиб безатган. Шунинг билан бирга ўша иншоотларнинг якуний бўлимига ҳам катта эътибор қаратган [3].

Масалан, Самарқанддаги Гўри Амир мақбарасининг якуний композицияси янада кўркам ва савлатли чиққан. Бунинг учун мақбара иншооти ички ва ташқи гумбазлар билан ёпилиб, ташқи гумбаз баланд гардиш устига оддий силлиқ усулда эмас, қовурғали тарзда қурилган. Бундай усулларнинг қўлланилиши иморатларнинг якуний бўлимига фарқли бўлмаслик,унга кўркамлик бағишлаганлиги сабабли кейинги вақтлардазамонавий архитектурада ҳам бинолар якуний бўлимларининг ўрнини, ечимини топишга эришилмоқда.

Ҳозирги замонавий меъморлар ҳам ўз лойиҳаларида ва қурган иншоотларида остона ва якуний композициясига ўзгача эътибор бермоқда. Бу масала, айниқса, белгили йирик жамоат иншоотлари мисолида яққол кўзга ташланмоқда. Бунга Ўзбекистоннинг барча шаҳарларидаги замонавий иншоотлардан кўплаб мисоллар келтириш мумкин.

Энди, Архитектор Орынбай Торениязовнинг муаллифлигидаги кўп сонли ижодларидан бири, Нукус шаҳрининг фахри ҳисобланган Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихидавлат музейибиносининг архитектуравий композициясига, унинг курси,остана ва тугалланиш композициясига алоҳида тўхталиб ўтайлик. Албаттаоддий одам бир қарашда бу бинони Тошкентдаги Темурийлар тарихи музейига ўхшатиши , ҳаттоки Ҳиндистондаги Тож-Махал мақбара-саройини эслаши мумкин.Сабаби музей композициявийшаклининг яхлитлиги томонидан,айниқса биз сўз юритаётган остана ва тугалланиш композицияларининг бироз ўхшашлигини инкор этаолмаймиз. Айни пайтда, бу бинолар архитектуравий композициясининг ўзига хос жиҳатлари бор.

Музей асосан, 3 қаватли бинодан ташкил топган бўлиб, композициявий тарҳи дойра шаклида, йиғноқ симметриявий ҳажмдан иборат (2-расм), ташқи кўринишининг марказий қисми устига ёпилган қовурғасимон чиройли катта гумбаз ва атрофида олтита кичик гумбазчалардан, бинонинг олд тарафида эса ярим айлана шаклидаги пешайвон ташкил этилган бўлиб, уни ритмик композицияда жойлаштирилган 8 та миллий устунлар бино остонасиниянада чиройли, савлатли кўрсатиб, тектоник композициясини яратган. Яъниустунлар фақат гузаллик бадиий кўриниш бўлиб қолмасдан, конструктив тарафдан ҳам мустаҳкамлик, турғунлик беради ва айлана шаклидаги ёпилмани кўтарувчиконструкцияни ҳам бажариб туради. Бинонинг икки ён томонидаги тўғри тўрт бурчакли шакллар ҳам бинога статик турғунлик беради. Устунли пешайвоннинг усттомони ҳам чиройли ритм билан жойлаштирилган нақшли ярим айлана плафонли бостирмабилан ёпилиб, доминант композиция сифатидагт бино гумбазини айланасига ўраб, ўзгача бир уйғунлик бахшида этмоқда. Бинонинг курсиси маълум даражада баландбўлиб, остана-бўсағасига икки тарафдан кўтариладиган ён томонлари кўкаламзорлаштирилган савлатли зинапоялар орқали кирилади.



2-расм. Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейининг 1-қавати тархи.

Музей биносининг тугалланиш композицияси бўлса, бу бино марказидаги баданд савлатли доминант гумбази ва унга симметрик уйғунлаштирилган ва тўлдириб турган ритмик қатор кўринишида жойлашган олти кичик гумбазлардан тузилган. Автор тарафидан безакли уйғунлаштирилган композициявий шакллар, элементлар гармонияси, яъни курси, бўсага ва тугалланиш композициясининг туғри ечилиши орқали шу бинонинг композициявий меъморий яхлитлиги, савлатли гўзаллиги таминланган (3-расм).



3-расм. Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейининг умумий кўринишлари.

Демак, ҳар бир архитектуравий бино композицияси асосан курси (цокол), бўсаға-остана ва тугалланиш қисмларидан шаклланади.Агар бинонинг курсиси туғри ечилмаса, жуда паст бўлса ёки ҳаддан ташқари баланд бўлса ҳам бу бинонинг кўриниши, савлати паст даражада кўринади. Яъни,бинонинг бўсаға-останаси киришқисмига

алоҳида эътибор билан қаралмаса, унинг эстетик даражаси анча паст бўлиб, бино инсонларни ўзига тортмайди. Шу сабабли, айниқса, жамоат биноларининг савлатли кириш қисмига архитекторлар жиддий эътибор қаратишади. Биноларнинг тугалланиш қисмига эса бўсаға –останадан кам эътибор қаратилмаслиги керак. Сабаби ҳар бир бинонинг тугалланиш қисми тўғри ечилмаган бўлса, бу бино тўла битмаган ,нимадир етишмаётгандек хис қилинади ва инсон тарафидан ижобий қабул этилмайди [6].

Музей биносининг ранглиечими эса ахроматик ранглардан фойдаланган бўлиб, нозик кул ранг ва енгил сариқ қаймоқ рангли мармар плиткалар билан қопланиб, ўртасидан қорақалпоқ миллий нақшлари билан безатилган белбоғча сифатида ўралган ва улар бир- бирига ўта мос уйғунлаштирилиб,миллий колоритни ташкил қилган (4-расм).

4-расм. Музей гумбазидаги Қорақалпоқ миллий нақшлари.

Бердақ музейинингичкитархий ечимига тўхталадиган бўлсак, бинонинг бош тарзидан кириш жойида айлана шаклидаги фойе оркали чап тарафда асосий мажлислар залига ва музейнинг ўнг тарафидаги экспозиция хоналарига кирилади.ФойешоирБердақ бобомизнинг портретива ижодларидаги тарихий воқеалар, миллий персонажлар расмлари миллий колоритли ранглардан уйғунлаштириб безатилган. Деворларидаги рангтасвир, безаклар, ичкиэкспозициялар музей биносининг архитектурасига уйғунлаштирилган, қорақалпоқ халқининг этнографиясини, турмуш тарзини, маданиятини тарихини жонлантириб тургандек туйилади (5-6-расмлар).

Учинчи қаватдаги экспозиция залларида эса Бердақ шоирнингкўл ёзмалари,китоблари,ўша даврда фойдаланган миллий кийимлари, уй-рузғор буюмлари, асбоб жиҳозлари билан безатилган қорақалпоқ халқининг ўтови (юрта) савлат тўкиб туради.

Фойенинг ўнг тарафидаги бурчакда зина орқали бинонинг цоколь қаватига тушилади. Бу қаватда фойе орқали адмнистратив хоналар, илмий ходимлар хоналари ва музей фондини сақлаш хоналари жойлаштирилган. Музей экспозициясидаги кўргазма заллар тартиб билан даврларга мос жойлаштирилиб, кўргазма учун асосий ўрин ташкиллаштирилиши ва зарур инвентарлар билан тамийинланиши натижасида кўргазма залида музейга келувчи томошабинлар учун қулай шароитлар яратилган. Музей биноси функционал тарафдан қўлай, конструктив жиҳатдан мустаҳкам ва бадиий жиҳатдан гўзал ва кўркам яратилган. Яъни бу музей биносида таниқли Рим архитектори Марк Витрувийнинг машҳур триадасига мувофиқ архитектуранинг уч тарафи: қулайлик, мустаҳкамлик ва бадиий кўркамлик талаблари тўлалигача таъминланган [7].



5-6-расмлар. Музей интерьерининг ички безаклари.

Хулоса. Якунлаб айтадиган бўлсак, бўлажак архитекторлар ўзлари лойиҳалаётган ҳозирги замонавий бино ва иншоотларнинг умумий архитектуравий композициясига, кириш қисмлари (яъни бўсаға-останаси) ва тугалланиш элементлари композицияси ечимига алоҳида эътибор беришлари зарур, сабаби бунинг ўзига хос тарбиявий ва бадиий-эстетик ҳамда маънавий тарафлари борки, буни унутмаслигимиз зарур .

Адабиётлар:

1. Уралов А.С.Меъморий шаклларни уйғунлаштириш ва безаш.-Самарқанд, 2003

2. Uralov A.S., Raximov A.Q., Saidova B.A. Arxitekturaviy loyihalash asoslari va kompoziciya asoslari.-Samarqand, 2005.

3.Pulatov X. va boshqalar .Arxitekturaviy kompoziciya asoslari.- Тошкент, 2005

4.UralovA.S.,AbekeevaA.A..Arxitekturalıq kompoziciya ham joybarlaw tiykarları.-Тошкент, 2022.

5.Нозилов Д.А.Ўрта Осиё меъморчилигида одатлар, қоидалалар ва рамзий ифодалар.-Тошкент,2011.

6.Основы архитектурной композиции и проектирования.Под редакцией А.А.Тица.-Киев,1976.

7.Пугаченкова Г.А.,Шедевры Средней Азии.-Ташкент.Изд.литературы и искусства, 1986.

УДК 72

МАМЛАКАТИМИЗ ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ МАКТАБ- БОҒЧАЛАР АРХИТЕКТУРА ЛОЙИҲАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Бердикулов Жасур Бегимович, стажёр ўқитувчи; **Омонқулов Фаррух Фарход ўғли,** талаба
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети

Мазкур мақолада мамлакатимизнинг қишлоқ жойларида замонавий инновацион архитектура лойиҳаси асосида мактаб ва боғчаларни шакллантириш масалалари қаралган. Бугунги кунда сифатли таълим олиш учун болаларнинг хавфсиз, шинам ҳудудли, замонавий қурилмаларга эга мактаб-боғчаларда хорижий тажрибаларни қўллаш. Ёш авлодни баркамол ривожланиши учун барча шароитларни таклиф қилиш тўғрисида маълумот берилган.

Калит сўзлар: қишлоқ, хавфсиз, бренд, ҳудуд, замонавий қурилма, мактаб-боғча, хорижий тажриба, инфратузилма, бассейн, спорт, стадион, ёпиқ майдонча, лойиҳа, тенденция, ўқув биноси, жаҳон тажрибаси.

В данной статье рассмотрены вопросы формирование школ и детских садов на основе современного инновационного архитектурного проекта в сельской местности нашей страны. Применение зарубежного опыта в детских садах с безопасной, уютной территорией, современным оборудованием для получения детьми качественного образования уже сегодня. Дана информация о создании всех условий для развития молодого поколения.

Ключевые слова: поселок, сейф, бренд, территория, современное оборудование, детский сад, зарубежный опыт, инфраструктура, бассейн, спорт, стадион, крытая площадка, проект, тренд, учебный корпус, мировой опыт.

In this article, the formation of schools and kindergartens based on the modern innovative architecture project in rural areas of our country. Application of foreign experiences in kindergartens with safe, cozy area, modern devices for children to get quality education today. Information is given on offering all the conditions for the development of the young generation.

Keywords: village, safe, brand, area, modern equipment, kindergarten, foreign experience, infrastructure, swimming pool, sport, stadium, indoor field, project, trend, educational building, world experience.

Мамлакатимизда мактабгача таълим тизимини танқидий ўрганиш ва янада такомиллаштириш юзасидан таклифлар ишлаб чиқиш бўйича комиссия ташкил этилди. Комиссия томонидан мактабгача таълим соҳасидаги қонунчиликни ундаги бўшлиқлар, коррупция ва бошқа ҳуқуқбузарликларни юзага келтирувчи нормаларни аниқлаш нуқтаи назаридан таҳлил этиш, шунингдек, мактабгача таълим соҳасида давлат сиёсатини самарали рўёбга чиқаришга тўсқинлик қилувчи тизимли муаммоларни аниқлаш ҳамда комплекс ўрганиш ишлари амалга оширилади. Бунда зарур инфратузилмани яратиш ва мактабгача таълимнинг хусусий секторини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Агар бугунги кунда сифатли таълим олиш болаларнинг ёшлигидан хорижий тилларга меҳри билан чамбарчас бўлиши кераклигини тушунадиган ота-она бўлсангиз, у ҳолда фарзандингиз баркамол ривожланиши учун барча шароитларни таклиф қилишга тайёрмиз.

Биз — хавфсиз, шинам ҳудудли, уч маҳал яхши овқатли, замонавий қурилмаларга эга мактаб ва боғчамиз. Ихтиёрий дарсларнинг кўп тармоқли дастурини таклиф этамиз ва албатта, бизда Буюк Британия, Япония ҳамда Жанубий Кореянинг малакали педагоглари фаолият олиб боришади.

Ишлаб чиқилган таълим тизимимиз болаларда ташкилотчилик, мустақил фикрлаш, ўзи ва атрофдагиларни ҳурмат қилишга асосланган. Мақсадимиз - таълимда зўр ривожланишни кўрсатадиган, ўзига ишонадиган шахсларни тарбиялаш.

Таълим бўйича хорижий тажрибалардан Жанубий Корея услуби — бу аллақачон классикага айланиб улгурган ва умуман жаҳон бренди даражасида тан олинган. Унда билимларнинг назарий томонига эмас, балки амалий ишларга катта урғу берилади ва бунда боланинг характери ҳамда қизиқишларини инобатга олинади. Бу эса болаларнинг имкониятларини кашф қилишга ёрдам беради.

Қишлоқ жойларида мактаб-боғчанинг ўқув биносини жаҳон тажрибасида мактаб таълимини ривожланишига ҳисса қўшаётган, сўнгги тенденцияларга жавоб берадиган техник қурилмалар билан жиҳозлаш.

Умуман олганда биномиз интерьери ва архитектураси сизни ўз майдони билан ҳайрон қолдиради. Ҳар бир хонада интерактив доска ўрнатиш, физика ва кимё синфларида эса махсус лойиҳалаштирилган илмий-рақамли лабораторияларни шакллантириш, ўқитувчилар ҳам таълим жараёнида замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фаол фойдаланиш, замонавий кутубхона биносидан кенг қамровда, барча фанлар бўйича электрон ва босма адабиётларга эга бўлиши лозим. Биринчи қаватда ўқув хоналари билан бир қаторда кийиниш хоналари, овқатланиш ва тиббиёт бўлимлари, иккинчи қаватда душ ва ҳаммомлари, сорт заллари, учинчи қаватда медиа кутубхонаси, ўқитувчилар хонасини режалаштириш ва бьарча қулайликларни яратиш.

Стадион ва ёпиқ майдонча болалар бутун йил бўйи спорт билан шуғулланишлари имконини бериш. Бундан ташқари, мактаб ва болалар боғчаси иккита бассейнга эга бўлади: бири — каттароқ болалар учун, иккинчиси — болалар боғчаси тарбияланувчилари учун. Ҳаво алмашишининг замонавий тизими бинода ҳароратнинг кескин фарқланиб кетиши олдини олишни аниқлаш.

Мактаб-болалар боғчаси биноси нафақат кичик болаларга мўлжалланиши, балки уларнинг ота-оналарига ҳам барча шароитларни яратиш лозим. Ҳар бир ота-она эрталабдан боласининг сумкасига шошиб овқат контейнерини жойлашингиз, кейин уни мактабга олиб бориш учун машинани қўзғатиш ва яна ишга отланишига тўғри келмайди. Ота-оналар иш вақтини тежаш учун хорижий тажрибалар асосида мактаб-боғча автобуси болаларингизни уйингиздан олиб кетади ва олиб бориб қўяди.

Ишонтириб айтиш мумкинки, фарзандингизни ўқишга олиб кетиш учун замонавий ва қулай автобусларни ташкил этиш, ҳамда унда ҳаракатланиш завқ беради. Ўз навбатида, таълим нархига қўшилган сифатли уч маҳал овқат вақтингиз ва балки ҳатто пулингизни ҳам тежашда ёрдам беради.

Ўзбекистонннинг энг чекка қишлоқларида ҳар бир шаклланиб келаётган кичик шахсга ҳурмат ва меҳр билан, энг бошидан руҳлантирувчи таълим муҳитини яратиш. таълим олиш — фақатгина хорижий тил ўрганиш ва таълим олишнинг энг яхши усулигина бўлиб қолмай, шунингдек, бошқа давлатларнинг маданиятини ўрганиш учун ҳам имкониятларни яратиш.

Таълим тизимимиз давомида ўқувчилар алмашиш дастури ҳам мавжуд. Бунда энг аълочи болалар ўзларининг илк «командировка»ларига йўл олишади. Тил ўрганишга тўлиқ йўналтириш ва тенгдошлари билан доимий мулоқот ёшликдан хорижий тилда гаплашиш қобилиятларини юқори даражада шакллантириш.

Шу билан бирга мазкур мажмуа ҳудудида видео-назорат ўрнатиш мақсадга мувофифдир. Бу биринчи навбатда таълим жараёни ва унинг сифати, ҳамда хавфсизлик учун зарур бўлса, бундан ташқари ота-оналар ҳам фарзандларини мактаб ва болалар боғчасида кузатиб туришларига имкон беради.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, қишлоқлардаги мактабгача таълим тизимини танқидий ўрганиш ва янада такомиллаштириш юзасидан таклифлар ишлаб чиқиш. Мактабгача таълим соҳасидаги қонунчиликни ундаги бўшлиқлар, коррупция ва бошқа ҳуқуқбузарликларни юзага келтирувчи нормаларни аниқлаш нуқтаи назаридан таҳлил этиш, шунингдек, мактабгача таълим соҳасида давлат сиёсатини самарали рўёбга чиқаришга тўсқинлик қилувчи тизимли муаммоларни аниқлаш ҳамда комплекс ўрганиш ишларини амалга ошириш. Бунда қишлоқ жойларида зарур инфратузилмани яратиш ва мактаб-боғчанинг хусусий секторини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш ва мамлакатимиз келажаги бўлган ёш авлодни ҳар томонлама етук бўлиб ўсишига замон талабига жавоб берадиган болалар боғчалари архитектура лойиҳаларини яратишдан иборат.

Адабиётлар:

1. Ш.М. Мирзиёев. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. “Ўзбекистон” нашриёти. Тошкент 2017 й.

2. Ш.М. Мирзиёев.”Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” “Ўзбекистон” нашриёти. Тошкент 2017 й.

3. Байджанов И. С. «Чет эл замонавий архитектураси» Ўқув қўлланма

4. Мирзаев М.К. Туманни режалаштириш асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, ТАҚИ, 2000.

«Таълим». Манба қуйидаги манзилда мавжуд: https://data.oecd.org/education.htm (2019 йил 21 сентябрь ҳолатига кўра).

UDK 656.14

ASOSIY PIYODALAR VA VELOSIPED ALOQALARINI RIVOJLANTIRISh (Nukus shahri misolida)

Jumabaev D.M., Xotamov A.T. Toshkent arxitektura qurilish universiteti

Ushbu maqolada Nukus shahri piyodalar va velosiped aloqalarining bugungi kundagi holati va uning faoliyatidagi asosiy muammolar hamda velosipedda aloqalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: piyodalar yo‘lagi, piyodalar harakati, velotransport, velosiped yo‘laklari, velosiped aloqalari, harakat xavfsizligi.

В данной статье рассмотрено современное состояние пешеходного и велосипедного сообщения в городе Нуку-

се и основные проблемы в его эксплуатации, а также развитие велосипедного сообщения.
Ключевые слова: Пешеходные дорожки, пешеходное движение, велосипедный транспорт, велосипедные дорожки, велосипедные связи, безопасность движения.

This article discusses the current state of pedestrian and bicycle communication in the city of Nukus and the main problems in its operation, as well as the development of bicycle communication.
Key words:Pedestrian paths, pedestrian traffic, bicycle transport, bicycle paths, bicycle links, traffic safety.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmonida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ***36-maqsad: ...“Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o‘rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish*** *[1]***.**

Yaxshi rivojlangan piyodalar infratuzilmasi shahar hayotining sifati bilan bevosita bog‘liq. Bu shahar maydoni va shahar hayotining boshqa jihatlari uchun katta potentsial qiymatni tashkil qiladi. Avvalo, u shaharni raqobatbardoshlik bilan ta'minlaydi, ko‘chalar va yo‘llarda xavfsizlik darajasini oshiradi, aholini ko‘chalarga qaytaradi [3].

O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlarimizga ko‘ra, odamlar ko‘proq piyoda, velosipedda yoki umumiy foydalanishdagi yo‘lovchi transportidan foydalanishni afzal ko‘rishadi.

Insonparvar transport tizimi piyodalar shaharlari mafkurasini qo‘llab-quvvatlaydi va ko‘proq odamlarga ko‘proq yurish va velosipedda yurish imkonini beradi. Shahar makonini rivojlantirishning bunday stsenariysi, agar shahar ko‘chalarida transport vositalarining hajmi kamaytirilsa, uning hukmronligi ehtimoli chiqarib tashlansa, shahar muhiti va ayniqsa ko‘cha maydoni sifati oshsa, bu ko‘chalarda qolishni yanada qulay qiladi [3].

Nukus shahri piyodalar yo‘laklar marshrutlari tizimini tugunli, chiziqli, bog‘lovchi elementlar to‘plami sifatida shakllantirish ko‘zda tutiladi: piyodalar yo‘laklari, hiyobonlar, maydonlar, jamoat yo‘lovchi transporti to‘xtash joylari, jamoat ahamiyatiga molik joylar (muzeylar, majmualarga xizmat ko‘rsatadigan do‘konlar), zinapoyalar, rampalar, ko‘priklar, piyodalar o‘tish joylari kabi. Piyodalar tizimining elementlari, ularning joylashuvi, maqsadiga qarab, dam olish hamda aloqa funktsiyasini bajaradi.

Nukus shahrining piyodalar tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar allaqachon o‘rnatilgan piyodalar aloqalariga asoslanadi. Shaharning har bir mahallasida aholiga xizmat ko‘rsatish ob'ektlari kontsentratsiyasi zonasida joylashgan o‘z piyodalar yadrosi mavjud. Mahalliy piyodalar tizimlari umumiy shahar piyodalar tarmog‘iga birlashtirilgan.

Piyodalar mintaqasining eng katta zichligini shaharning markaziy qismida ko‘rishimiz mumkin. Istiqbolda T.Qayipbergenov ko‘chasining tarixiy qurilishi kvartallaridan uzoqlashib, piyodalar tarmog‘ini kamaytirish taxmin qilinmoqda, umumiy foydalanishdagi dam olish joylari o‘rtasidagi aloqa funksiyasini, turar joy guruhlari, jamoat yo‘lovchi transporti to‘xtash punktlari va jamoat biznes komplekslarini yurish funksiyasini bilan almashtirish nazarda tutilmoqda [2].

Ko‘pgina piyoda yo‘llar tarmog‘i ko‘chalar tarkibida shakllangan. Ko‘chaning transport funktsiyasidan tashqari, shahar qurilishiga shuningdek shahar magistrallari, jamoat markazlari o‘rtasidagi aloqa rolini bajarish bilan birga mustaqil jamoat maydonini quyidagicha hosil qilish kerak:

tranzit va bir qator funktsiyalar uchun mo‘ljallangan - dam olish (yurish, kafe), aloqa, hududning o‘ziga xosligi, yashil koridor.

Piyodalar harakati kengroq ekologik barqarorlik va iqtisodiy farovonlikka hissa qo‘shadi - agar hamma narsa yaxshi tashkil etilgan bo‘lsa, aholining barcha guruhlari uchun qulaylik ta'minlansa, tashrif buyuruvchilarni jalb qilish, do‘konlar va xizmat ko‘rsatish ob'ektlarining tirbandligini oshirish imkoniyati mavjud.

Perimetrli ko‘p qavatli binolarda ko‘chalarni rivojlantirish uchun birinchi qavatlardan tijorat va ijtimoiy foydalanishni rag‘batlantirish kerak, bu faol jabhani (vitrinalar, kirish joylari), ijtimoiy nazorat zonasini tashkil qiladi va piyodalar harakatini oshiradi, avtomobilga bog‘liqlikni kamaytiradi. Kafe va restoran teraslari uchun tashkil etilgan joylar ko‘chalardagi faollik darajasiga ayniqsa yaxshi ta'sir qilishi mumkin.

Piyodalar o‘tish joylari piyodalar tizimining ulanishi va uzluksizligida alohida rol o‘ynaydi. Shaharning Markaziy qismida, mahalliy piyodalar tizimlarining piyodalar yadrosi chegaralarida piyodalar harakati uchun eng qulay sharoitlarni yaratish kerak. Jismoniy to‘siqlar, tez harakatlanish tezligi yoki katta tirbandlik ko‘chalarni kesib o‘tishni qiyinlashtirishi mumkin, shuning uchun favqulodda vaziyatni keltirib chiqarishi yoki piyodalarning erkin harakatlanishini istisno qilishi mumkin. Shaharning ushbu qismlarida piyodalar o‘tish joylari yerga asoslangan bo‘lishi kerak.

Piyodalar infratuzilmasining asosiy karkasini Do‘stli kanali yo‘qasi, O‘zbekiston guzari ko‘chasi va Dosnazarov ko‘chalariga chiquvshi Abdambetov, Qoraqalpog‘iston, Rashidov, Beruniy, va Jumanazarov ko‘chalar tomonidan shakllantiriladi. Bu yo‘nalishlarda joylashgan bozorlar, bog‘lar va maydonlar piyodalar uchun diqqatga sazovor joylar va piyodalar tizimining tugunlari hisoblanadi.

Mahalliy muammolar Seulning yaqinligidan kelib chiqadi, bu biznesni rivojlantirish uchun ham, shahar atrofidagi hudud uchun ham afzallik hisoblanadi va Seul yaqinidagi ko'plab yangi shaharlarda bo'lgani kabi Songdo yotoqxona hamjamiyatiga aylanishi xavfini tug'diradi. Hozirda Songdoda bandlik darajasi kutilganidan pastroq va shahar ancha bo'sh ko'rinadi (2013 yil ma'lumotlari).

Xulosa. Yuqorida muhokama qilingan shaharlar va XXI asrda qurilayotgan boshqa ko'plab shaharlar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari va muammolari joyning geografiyasi, iqlimi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy konteksti, resurslarning etishmasligi, madaniy qadriyatlar va boshqa jihatlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, har qanday shaharni rejalashtirish strategiyasini ishlab chiqishda dizaynerlar bunday murakkab va dinamik ob'ektlarning ko'lami, o'sish sur'ati, rivojlanishi va boshqaruvi bilan bog'liq umumiy muammolarga duch kelishadi. Yangi shaharlarning yashovchanligiga ishora qiluvchi deyarli har bir ta'rifda ular kerakligi ko'rsatilgan barqaror, ixcham, moslashuvchan, yashil, bog'langan, raqobatbardosh, ochiq, mazmunli va farovon. Bu talablarning barchasi asosan jamiyat tomonidan belgilanadi.

Katta miqyosdagi shahar loyihalari iqtisodiy maqsadga muvofiq emasligi, buzilmasligi va dinamizmning yo'qligi kabi turli xil xavf-xatarlarga duchor bo'ladi, bu Ikkinchi Jahon urushidan keyin va mustamlakachilikdan keyingi davrda qurilgan ko'plab yangi shaharlarning tajribasi bilan tasdiqlanadi. Bundan tashqari, texnologik innovatsiyalarning hozirgi yuqori sur'atida shaharlar qurilishi tugagunga qadar eskirib qolishi xavfi ham mavjud. Shu sababli, shaharlarni rejalashtirishda texnologiyalarning o'zaro almashinish imkoniyatini va ularni shaharning istalgan tarkibiy qismlarida amalga oshirish bilan bog'liq o'zgarishlarni, shuningdek, innovatsiyalarni joriy etishni ta'minlash uchun etarli darajada moslashuvchanlikni ta'minlash kerak.

Zamonaviy yangi shaharlar mavjud shaharlarning donoligi va funksionalligini uyg'unlashtirib, o'tmishdagi xatolarni hisobga olgan holda, bugungi kunda ko'rib turganimizdek, kelajakka nazar tashlab, shahar hayotining modellarini qayta ixtiro qilish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Bunday shaharlar innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar bilan tajriba o‘tkazish, ularni rivojlanishning dastlabki bosqichlarida eski shaharlarning go‘zalligi va energiyasi bilan integratsiya qilish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

Yangi shaharlar noldan qurilgan shaharlardir va shuning uchun ideal holda ularni loyihalash va rejalashtirish odamlar hayotini yaxshilaydigan yechimlarni amalga oshirish, shuningdek, mavjud shaharlar muammolarini hal qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Ular atrof-muhitga zarar etkazmaydigan, mavjud shaharlarning hayoti va faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan shahar hayotini tashkil qilishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Moser, S. New Cities: Opportunities, Visions and Challenges Cityquest - KAEC Forum 2013: Summary and

Analysis Report / Sarah Moser // New Cities Foundation [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.newcitiesfoundation.org/wpcontent/uploads/2014/05/PDF-CityquestKAECForum-Report-Sarah-Moser.pdf

2. Building New Cities: Challenges, Opportunities and Recommendations : Summary and analysis of themes emerging from Cityquest - KAEC Forum 2014 // New Cities Foundation : [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.newcitiesfoundation.org/wpcontent/uploads /2015/03/Building-New-Cities-Cityquest-KAEC-Forum-2014.pdf

3. Wilkinson, T. Typology New Towns / Tom Wilkinson // Architectural Review. – 2016. – № 1432. – с. 26. 5. Wiley, J. Dongtan, China's Flagship Eco-City : An Interview with Peter Head of Arup // Architectural Design. – 2008. – №5. – с.64

4. Shun Kong Leng C. Iskandar Malaysia. Iskandar Regional Development Plan. Available at: http://www.iesingapore.gov.sg/~/media/IE%20Singapore/Files/Events/iAdvisory%20Series/Malaysia/7_Updates_on_Iskandar_developments.pdf

5. New Songdo City : Songdo International Business District. KPF. Available at: http://www.kpf.com/projects/new-songdo-city

УДК 721.021.028

DREZDEN MISOLIDA GERMANIYADA SHAHARSOZLIKNING XUSUSIYATLARI

Balgayeva Sh.A., doktorant (DSc), Dotsent (PhD),
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Maqolada Germaniyadagi shaharsozlik konsepsiyasining qoidalari va huquqiy asoslari batafsil muhokama qilinadi. Ishda asosiy e'tibor ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda Drezdenning shaharsozlik rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish muammosiga qaratilgan. Tadqiqot natijasida Germaniyadagi munitsipalitetlarning fazoviy rejalashtirish tuzilmasining xususiyatlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: shaharsozlik, qonunchilik bazasi, fazoviy rejalashtirish, Germaniya, Drezden.

В статье подробно рассматривается регламент и нормативно-правовая база градостроительной концепции Германии. Основное внимание в работе уделяется проблеме составления и реализации градостроительного планирования Дрездена с учетом экологических, экономических и социокультурных особенностей. В результате проведенного исследования были выявлены особенности пространственно-планировочной структуры муниципальных образований Германии.

Ключевые слова: градостроительное планирование, нормативно-правовая база, пространственное планирование, Германия, Дрезден.

The article discusses in detail the regulations and legal framework of the urban planning concept in Germany. The main attention in the work is paid to the problem of drawing up and implementing the urban planning of Dresden, considering environmental, economic, and socio-cultural characteristics. As a result of the study, the features of the space-planning structure of German municipalities were revealed.

Keywords: urban planning, legislative framework, space-planning, Germany, Dresden

Tez rivojlanayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitning zamonaviy sharoitlari jamiyatni hududiy tashkil etishning belgilangan tizimini o'zgartirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bunda hududni fazoviy rejalashtirish vositasi bo'lib, uning bir qismi shaharsozlik hisoblanadi.

Hududiy rejalashtirish iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik rivojlanishning muhim omili bo‘lib, u hududni kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan prognozli va barqaror sharoitlar yaratish, investitsiyalarni jalb etish va mahalliy aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar kafolatini yaratish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va madaniy merosni asrab-avaylashga hissa qo'shish bilan birga. Shundan kelib chiqqan holda, hududiy rejalashtirish barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish, aholi turmush sifatini oshirish va tabiiy va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish balansini shakllantirishning asosiy elementi hisoblanadi, bu esa o‘z navbatida BMTning xalqaro hujjatlarida keng e’tirof etilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga sodiqlik va ko'plab mamlakatlarda fazoviy rejalashtirish tizimlarini modernizatsiya qilishga qiziqish ortib borayotgani rivojlanishning ushbu bosqichida rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan O’zbekistonda fazoviy rejalashtirish tizimlarini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish imkoniyati mavjudligini anglatadi. Ko'pchilik rivojlangan Germaniya kabi davlatlar BRM ga asoslangan fazoviy rejalashtirish tizimlarini joriy etishda allaqachon muvaffaqiyatga erishdi, bu esa ularning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi va rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan muvaffaqiyatli tajribasidan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

"Shahar rejalashtirish" deganda shaharlar ichida fazoviy rivojlanish bo'yicha qarorlar qabul qilishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Nazariy jihatdan, shaharsozlik - bu hududiy rejalashtirishning bo'limi bo'lib, u o'z navbatida aholini taqsimlash, turli xil faoliyat turlari va turli xil miqyosdagi obyektlar bo'yicha qarorlar tayyorlash bilan bog'liq ko'p qirrali harakatlar majmuini nazarda tutadi.

Shaharsozlikning hozirgi bosqichining o'ziga xos xususiyati BRM larni hisobga olgan holda hududning fazoviy o'zgarishini tartibga solish zarurati, shuningdek, shaharsozlik tizimlarini rivojlantirishning amaliy nazorat qilinishidir. Bu xususiyatlar munitsipalitetlarning muvozanatli ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishini o'z ichiga olgan zamonaviy Germaniyaning shaharsozlik tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Rivojlanish maqsadlarini belgilashda nemis fazoviy rejalashtirish institutlari federal hukumat yoki quyi darajadagi boshqa ixtisoslashtirilgan rejalash-

tirish agentliklari tomonidan belgilanadigan ko'p sonli talablarga rioya qilishlari kerak. Bundan tashqari, mamlakatning barcha rejalashtirish organlari o'rnatilgan iyerarxiya tizimiga muvofiq qarama-qarshi oqim prinsipi bo'yicha ishlaydi: har bir keyingi past darajadagi qonun hujjatlari, dasturlari va fazoviy rejalari yuqori darajadagi fazoviy rejalashtirishning tegishli hujjatlariga zid bo'lishi mumkin emas, lekin shu bilan birga, yuqori darajadagi rejalarni tuzishda munozarali masalalar va quyi darajadagi muammolar hisobga olinadi [3].

Butun Germaniya hududi uchun fazoviy rejalashtirishning hal qiluvchi vazifasi, shuningdek, ushbu mintaqaviy rejalashtirish vakolatidan kelib chiqadigan mintaqaviy va fazoviy rejalashtirish, fazoviy tashkil etish turlari va turli xil hududiy tuzilmalarni hisobga olgan holda federal hududning maqbul rivojlanishi hisoblanadi. shuningdek, munitsipalitetlarni yoki unga bo'ysunuvchi, mintaqaviy, hokimiyatlarni rejalashtirishni muvofiqlashtirish. Bu yerda asosiy tamoyil Germaniya Konstitutsiyasining 72 va 75-moddalarida tasvirlangan federal qonunchilikni tartibga solish huquqi bo'lib, uning maqsadi quyi darajadagi hududiy rejalashtirish uchun asos yaratishdir. Germaniyada ushbu konstitutsiyaviy tamoyilni amalga oshirish uchun turli nazorat sohalari - shahar, viloyat, federal yer, federatsiya, Yevropa Ittifoqi bilan rejalashtirish tizimi ishlab chiqilgan. Rejalashtirishning har bir darajasi mazmuni, xususan, tegishli reja va dasturlarning batafsillik darajasi bilan farqlanadi. Rejalashtirish tamoyillari, ularda shakllantirilgan maqsad va vazifalar odatda nazorat zonasining hajmi kamayishi bilan aniqroq bo'ladi. Ushbu tizimdagi eng kichik birlik shaharsozlik konseptsiyasi amalga oshiriladigan shahar darajasidir [2].

Germaniyaning fazoviy rejalashtirishining asosi yuridik kuchga ega bo'lmagan, lekin ayni paytda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarini fazoviy rejalashtirish uchun asos bo'lgan Yevropa taraqqiyot doirasi hisoblanadi. Federal darajada, fazoviy rejalashtirish hududiy rejalashtirish to'g'risidagi asosiy qonun (Raumordnungsgesetz / ROG) orqali mintaqaviy fazoviy rejalashtirishni tartibga solish huquqidan foydalanadi. Federal yerlarning qonun hujjatlari qoidalari. Bundan tashqari, federal darajada, ROG bilan bir qatorda, nemis fazoviy rejalashtirishning ikkinchi muhim elementi - bu yerdan ruxsat etilgan foydalanishni belgilaydigan Qurilish qonuni. U shaharsozlik to'g'risidagi qonunga asoslanadi, bu esa o'z navbatida qurilish loyihalari maydoniga talablarni belgilaydi [6].

Quyi mintaqaviy darajani hisobga olgan holda, federal yerlar darajasida fazoviy rejalashtirish barcha shtatlar hududida amal qiladigan davlat rejalashtirish to'g'risidagi qonunlar (Landesplanungsgesetz) bilan tartibga solinadi, shahar-yerlar (Berlin, Bremen va boshqalar) bundan mustasno Gamburg). Ularning asosiy quroli hududiy tuzilishning hududiy rejalari bo'lib, ularning nomlari har bir alohida yer uchun har xil nomga ega. Masalan, Drezden joylashgan Saksoniya federal yerida ular quyidagi nomlarga ega: mintaqaviy reja (Regionalpläne) va yerni rivojlantirish rejasi (Landesentwicklungsplan / LEP) [6]

Har bir federal yer, o'z navbatida, mintaqalardan iborat bo'lib, ularning har biri ko'pincha federal davlatning 10-30 foizini qamrab oladi. Ushbu rejalar yerni rivojlantirish rejalari asosida shakllantiriladi va mahalliy xususiyatlarga ko'ra hududning fazoviy rivojlanishining umumiy tamoyillari va maqsadlarini belgilaydi va shu bilan keyingi shahar BRM rejalashtirish uchun asos yaratadi [6].

Shahar rejalashtirish munitsipal darajada hududiy rejalashtirishni nazarda tutadi. Mahalliy darajada fazoviy rejalashtirishning avtonomiyasining bir qismi sifatida munitsipal hokimiyat organlari o'z hududlarining shaharsozlik va fazoviy tuzilishini shahardan foydalanishni rejalashtirish orqali mustaqil ravishda tartibga soladi. Shahardan foydalanishni rejalashtirish munitsipalitet hududida qurilish va boshqa maqsadlar uchun yerdan foydalanishni tayyorlash va yo'naltirish uchun mo'ljallangan.

Munitsipal fazoviy rejalashtirishning qonunchilik asosi Germaniya qurilish qonunining bir qismi bo'lgan, yerning huquqiy sifatini va undan foydalanishga yaroqliligini belgilaydigan shaharsozlik qonuniga asoslangan Federal qurilishni rejalashtirish to'g'risidagi qonun (Bauplanungsrecht) hisoblanadi. Qurilish loyihalari uchun hudud talablarini belgilaydi. Binolarni rejalashtirish to'g'risidagi qonun talablarni tartibga soladi, tartibli shahar rivojlanishini ta'minlash uchun yerdan foydalanishni boshqarish va tayyorlash; yerdan foydalanishni rejalashtirish bunda asosiy o'rin tutadi. Huquqiy manbalar va qonunning asosiy vositalari Federal Qurilish kodeksi (BauGB) va kodeksga asoslangan qoidalar: Binolardan foydalanish to'g'risidagi qaror (BauNVO); rejaning belgilari to'g'risidagi farmon; baholash qarori. BauGBning birinchi bo'limida aytilishicha, shaharni rivojlantirish va tarkibiy rejalashtirish uchun zarur bo'lgan yerdan foydalanish rejalarini tayyorlash vakolati mahalliy hukumat va jamoatchilikka tegishli. Munitsipalitetlar ikki turdagi qonun hujjatlarida belgilangan yerdan foydalanish rejalarini ishlab chiqishlari shart: asosiy hujjat bo'lgan yerdan foydalanish rejasi (FNP, Flächennutzungsplan), uning me'yoriy asosi qurilish rejasi (B-reja, Bebauungsplan) [5].

FNP munitsipalitetning butun hududi uchun yerdan foydalanish turining asosiy xususiyatlarini ko'rsatadi, bu kutilayotgan shahar rivojlanishi va jamiyatning rejalashtirilgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, bu FNPni yangi rivojlanish hududlarini belgilash uchun muhim qiladi. FNP, shuningdek, yuqori mintaqaviy va milliy rejalashtirishning talablari va rivojlanish strategiyasidan kelib chiqishi kerak bo'lgan majburiy qurilish rejalarini (BPlan) ishlab chiqish uchun asos sifatida foydalanilgani uchun munitsipalitet uchun zarur rejalashtirish vositasidir.

Misollarga o'tadigan bo'lsak, 1999 yilda qabul qilingan Drezden FNP 2002 yilgi Integratsiyalashgan shaharni rivojlantirish kontseptsiyasini (INSEK) o'z ichiga oldi, bu aslida yangi rayonlashtirish rejasining maqsadlari sifatida ushbu kontekstda ishlab chiqilgan ko'rsatmalarga ega bo'lgan fazoviy model edi. INSEK bilan birgalikda shahar kengashi 2016-yilda

“Drezden kelajagi 2025+” loyihasini qabul qildi, bu esa shahar taraqqiyoti yo‘nalishini mantiqiy davom ettirmoqda. Shunday qilib, FNP Drezden shaharning fazoviy rivojlanish jarayonini qo'shimcha loyihalardan foydalangan holda kompleks rejalashtirish ishiga aylantiradi [4].

Rejaning texnik tomoni haqida gapiradigan bo'lsak, shahar FNP rejasi (asosiy reja) chizmasidan va asosli matndan iborat bo'lgan mantiqiy asosdan iborat bo'lib, unda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik vaziyatdan kelib chiqqan holda maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. shahar, qo'shimcha rejalar, dastlabki deklaratsiyaning ekologik hisoboti. FNP 1:10 000 dan 1:50 000 gacha masshtabga ega. Shunday qilib, Drezden FNP 1:15 000 masshtabga ega.Mashtabni arxitektor (odatda munitsipalitet) tanlaydi va ikkalasi ham maketdagi detallar darajasiga bog‘liq va rejalashtirish maydonining kattaligi bo'yicha.

Agar biz FNPni tuzish tartibi haqida gapiradigan bo'lsak, u 3 bosqichda amalga oshiriladi:

− Birinchi bosqichda mahalliy ma'muriyat FNP ni ishlab chiqish to'g'risida qaror qabul qiladi, shundan so'ng jarayonga o'z tuzatishlarini kiritadigan jamoat manfaatlari vakillari (muassasalar va idoralar) kiritiladi.

– Rivojlanishning ikkinchi bosqichida bu vakillarni qayta jalb etishdan tashqari, ixtisoslashgan muassasalar va qo‘mitalar ham jalb etilmoqda. Har bir bunday diqqatga sazovor joydan so'ng, olingan takliflar tahlil qilinadi, ular rejani ishlab chiqish jarayonida ahamiyatiga qarab hisobga olinadi.

- Uchinchi bosqichda jamoatchilikni tanishtirish maqsadida ommaviy namoyish o'tkaziladi, shundan so'ng FNP shahar kengashi tomonidan deklarativ rezolyutsiya shaklida qabul qilinadi.

FNPga qo'shimcha ravishda, Germaniyaning har bir shahrida har bir yer uchastkasi uchun aniq maqsadni belgilaydigan va shuning uchun faqat tor belgilangan maydonni qamrab oladigan ramka rejasi (Rahmenplan) mavjud. Ramka rejasi katta maydonlar uchun shahar, fazoviy va me'moriy loyihalsh yo'nalishini ta'minlaydi, shuningdek, makondan kichik miqyosda foydalanishni belgilashi mumkin va shuning uchun ko'pincha fazoviy rivojlanishni rejalashtirish uchun mazmun asosi hisoblanadi. Rejalashtirish tizimida bosh reja FNP va B-Plan o'rtasida bo'ladi. Bu normativ hujjat emas va uchinchi shaxslarga nisbatan bevosita yuridik kuchga ega emas. Munitsipalitetlar ushbu rejani o'zlari ishlab chiqadilar va uni tashqi sharoitlar va ehtiyojlarga qarab moslashtiradilar va o'zgartiradilar, bu esa rejalashtirish maqsadlari uchun kengroq kontekst yaratadi, ularni yanada shaffof qiladi, shuningdek, kichik miqyosli yondashuvdan foydalanish orqali qarorlar qabul qilish jarayonini soddalashtiradi.

Drezden 1990 yildan buyon ushbu rejalashtirish vositasidan keng foydalanmoqda, shu davrdan boshlab shahar kengashi va shaharning shaharsozlik qo'mitasi bir nechta asosiy rejalarni belgilab oldi, ularning ba'zilari hali ham Drezdenni rivojlantirishni rejalashtirishda muhim qo'llanma hisoblanadi. 2008 yilda shahar kengashi shaharni hududiy rejalashtirishning strategik asosi sifatida Drezdenning markaziy qismidagi (Neyshtadt, Altshtadt) shahar kontekstini saqlab qolish uchun ichki shahar rejalashtirish bo'yicha yangi strategiyani qabul qildi. Shahardagi o'zgaruvchan iqtisodiy va demografik vaziyat 1994 yildagi xuddi shu nomdagi strategiyani almashtirdi. Umuman olganda, rejalashtirish strategiyalari shaharning qaysi yo'nalishda rivojlanishi kerakligini aniqlaydi va shu bilan butun shaharning keyingi barcha sohaviy rejalashtirish va faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan Drezden murakkab dizayn va arxitektura yechimiga ega noyob shahar bo'lib, ichki rejalashtirish strategiyasini amalga oshirishda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, funksional jihatdan madaniy va tabiiy meros obyektlariga ega bo'lgan shaharning ichki qismi "tramvay xalqasi" deb ataladigan hududdan tashqarida shahar atrofi bilan chambarchas bog'langan. Shunday qilib, shaharning markaziy qismini rivojlantirish istiqbollarini ko'rib chiqishda shahar hokimiyati ushbu hududlarni, shuningdek, ichki halqa yo'li atrofida murakkab o'tish uchastkalari mavjudligini hisobga oladi. Ikkinchidan, shahar markazida birgalikda shaharning markaziy qismining tabiiy va ekologik asosini tashkil etuvchi va ma'lum bir tabiiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hududlar (shahar bog'lari va Elba o'tloqlari) mavjud. Shu sababli, shaharning markaziy tumanlarini rejalashtirish faoliyati va rivojlanishida ushbu zonalarning bir martalik rivojlanishi hisobga olinadi va shaharning markaziy qismining shaharsozlik rivojlanishi va shaharning tabiiy va ekologik asoslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik diqqat bilan ishlab chiqilgan. Uchinchidan, ichki rejalashtirish strategiyasini amalga oshirish bosqichma-bosqich zichlik tamoyilini hisobga oladi, uning maqsadi Yevropa shahri an'analarida shahar landshaftini yaratish uchun shaharning markaziy qismini va uning atrofidagi hududlarni mo"tadil rivojlantirishdir. Shu bois, yangi strategiya doirasida avvaldan rejalashtirilgan qurilish zichligi asta-sekin kamayib boradi - shahar markazidan boshlab va undan keyin ichki halqa yo'lidan tashqarida, qo'shni hududlarni qamrab olgan holda - ochiq maydonlarni mustahkamlash va uy-joy sifatini yaxshilash foydasiga. Shahar ichkarisida va uning atrofidagi kelajakdagi qo'shimchalar mavjud qurilish fondiga mos keladi va tomning pastroq balandligi va kichik maydonning individual rivojlanishiga yordam beradi.

Umuman olganda, Drezdenning ichki shaharsozlik strategiyasini ko'rib chiqayotganda shuni ta'kidlash joizki, unda yuqoridagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha belgilangan maqsadlar bilan bir qatorda, u Drezdenni zamonaviy shahar sifatida yanada rivojlantirish bo'yicha shaharsozlik ambitsiyalarini tasdiqlaydi va ushbu strategiyani belgilaydigan strategiyalarni belgilaydi.

B-Plan rejalashtirish strategiyasi uchun loyiha rejalarini ko'proq maqsadli ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. FNPdan farqli o'laroq, u butun munitsipalitet uchun yozilgan bo'lib, yerdan foydalanishning tayyorgarlik rejasini shakllantiradi va uning qo'llanilish sohasidagi har bir alohida mulk uchun shaharsozlik tartibi to'g'risida qonuniy

majburiy qoidalarni o'z ichiga oladi. Rejaning eng muhim ta'riflari tarkibidan foydalanishning turi va hajmini aniqlash, shuningdek, rivojlanish haqiqatda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yerni aniqlash kiradi. Bundan tashqari, ushbu reja, masalan, transport vositalari yoki qishloq xo'jaligidan foydalanish uchun hududlarni belgilaydi. B-rejasi qurilish ruxsatnomalarini berish va zarur ishlanmalarni qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Germaniyada hududiy va shaharsozlikning tizimli mexanizmlari va ularni amalga oshirishning aniq tartibga solingan huquqiy tartibi mavjud.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Germaniyaning shaharsozlik kontseptsiyasi munitsipal darajada amalga oshiriladi, bu mamlakatning fazoviy rejalashtirish tizimidagi hududiy shakllanishning minimal birligidir. Munitsipal hokimiyat organlari o'z hududlarini shakllantirishning hududiy tuzilishini va shahar rejalashtirishni federal qurilish qonuni (Bauplanungsrecht) shaklida qonunchilik asosida shahardan foydalanishni rejalashtirish orqali mustaqil ravishda tartibga soladi. Ushbu qonun shaharning tartibli rivojlanishini ta'minlash uchun yerdan foydalanishga qo'yiladigan talablar, tayyorgarlik va boshqaruvni tartibga soladi, uning asosiy vositasi va qonunchilik bazasi Federal Qurilish kodeksi (BauGB) bo'lib, u o'z navbatida munitsipalitetlar rioya qilishlari kerak bo'lgan tartib va tamoyillarni belgilaydi. Yerdan foydalanish rejasi (FNP) shaharsozlikning asosiy tarkibiy qismidir, chunki u tor shaharsozlik rejalarini ishlab chiqishni ta'minlaydi va u munitsipalitetning butun hududi uchun yerdan foydalanish turining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Shuningdek, shahar darajasidagi fazoviy rejalashtirishning muhim qismi bu katta maydonlar uchun shahar, fazoviy va arxitektura loyihalash yo'nalishini tuzadigan va makondan kichik hajmdagi foydalanishni belgilaydigan ramka rejalari (Rahmenplän). Ular doirasida ichki shaharsozlik strategiyalari ishlab chiqiladi, ular o'z navbatida shaharni rivojlantirishning maqsad va vazifalarini yoritib, shaharni rejalashtirish va loyihalashning barcha muammolarini hisobga olgan holda shaharni rivojlantirish yo'nalishini belgilaydi. Shunday qilib, shaharni rivojlantirish rejasi doirasidagi barcha sohaviy rejalashtirish va butun shahar faoliyati uchun asos bo'ladi. Xususan, Drezdenning ichki rejalashtirish strategiyasi shaharning markaziy qismidagi (Neyshtadt/Altshtadt) tarixiy muhitini saqlashga, shuningdek, butun shahar hududining ekologik va ijtimoiy-madaniy muvozanatini saqlashga qaratilgan. aniq bo'linish funktsional vazifalari bilan bir-biriga nisbatan shahar hududining fazoviy rivojlanishi uchun normativ hujjatlar ierarxiyasiga. Mas'uliyatni taqsimlash va me'yoriy hujjatlarning o'zaro ta'siri Drezdenda tumanlarni rivojlantirishni tashkil etishni takomillashtiradi va shu bilan tarixiy qiyofasini saqlab qolish orqali shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mexanizmini amalga oshiradi.

Germaniyaning fazoviy rejalashtirish tizimi va shaharsozlik qonunchiligi tajribasi O'zbekiston shaharlarida quyidagi jihatlar bo'yicha qo'llaniladi:

− vertikal va gorizontal ravishda bog'liq bo'lgan rejalashtirish ishlari turlarini, buyurtmachilarni, pudratchilarni va jamoatchilik vakillarini o'z ichiga oluvchi fazoviy va shaharsozlik tizimini ishlab chiqish;

− hududiy rejalashtirish darajalari o'rtasida hududiy rejalashtirish hujjatlari mazmuni bo'yicha nemis qarshi oqim tizimiga o'xshash aloqa yo'laklarini qurish va almashish jarayonini takomillashtirish;

− respublika va mintaqaviy darajadagi hududiy rejalashtirish hujjatlari mazmunini munitsipalitet darajasiga muvofiqlashtirish imkoniyati bo'yicha nizom va ko'rsatmalar yaratish;

− barcha darajadagi hududiy rejalashtirish hujjatlarini tayyorlashda jamoatchilik ishtiroki uchun normativ talablarni joriy etish;

− O'zbekiston shaharlarining bosh rejalariga tuzatishlar kiritish amaliyotini modernizatsiya qilish va Germaniya shaharlarida ramka rejalarini qabul qilish va ulardan foydalanishga o'xshash shahar makonini rivojlantirish strategiyasini belgilash.

Ushbu chora-tadbirlar Rossiya shaharlarining barqaror ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va ekologik rivojlanishini ta'minlashga, shuningdek, shaharsozlikning me'yoriy-huquqiy bazasidagi xatolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Лимонов Л. Э. Региональная экономика и пространственное развитие в 2 т. Том 2: учебник для вузов / Л. Э. Лимонов [и др.]; под общей редакцией Л. Э. Лимонова; под редакцией Б. С. Жихаревича, Н. Ю. Одинг, О. В. Русецкой. —2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Изд-во Юрайт, 2019. —367 с.

2. Проект «Внедрение экологических принципов в территориальное планирование России (ЭкоРус)» Комплекс 2/7 – Рекомендация №2: Усиление учета экологических аспектов в процессе территориального планирования Российской Федерации / под науч. ред. П. П. Спирина, Вольфганга Венде. – Дрезден, Санкт-Петербург: Изд-во НИИП Градостроительства, 2014. – 25 с.

3. Bundesministerium des Innern und für Heimat [Электронный ресурс] / Raumordnung, Raumentwicklung & Regionalpolitik. – Deut. – Режим доступа: https://www.bmi.bund.de/DE/bauenwohnen/raumordnung-raumentwicklung/raumentwicklung-node.html. – Дата доступа: 19.12.2021

4. Dresden [Электронный ресурс] / Planen und Bauen. – Deut. – Режим доступа: https://www.dresden.de/de/stadtraum/planenbauen.php. – Дата доступа: 21.12.2021.

5. Raumordungsgesetz: Das Bundesgesetz zur Änderung des Baugesetybuchs und your Neuregelung des Rechts der Raumordung vom. 18 ugust 1997 // Bundestag. – 1997. – 254 S.

6. Bundesministerium des Innern und für Heimat [Электронный ресурс] / Raumordnung, Raumentwicklung & Regionalpolitik. – Deut. – Режим доступа: https://www.bmi.bund.de/DE/bauenwohnen/raumordnung-aumentwicklung/raumentwicklung-node.html. – Дата доступа: 19.12.2021

УДК: 72.03

БОБУР ЁХУД БОҒЛАР ШАҲЗОДАСИ

Рахимов Л.А., арх.ф.б.фал.док. (PhD). Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети

Мазкур мақолада муаллиф, Чорбоғ концепциясининг яралишидан тортиб унинг эволюцион ривожланиш даврларини очиб беришга ҳаракат қилган. Бундан ташқари Чорбоғ ғоясининг ривожланишида Бобурнинг ўрнини ҳамда у қўшган ҳиссасини далиллар билан изоҳлашга уринган.

Таянч иборалар: Форс боғлари, Темурийлар чорбоғлари анъанаси, Бобур архитектураси, Бобур даври чорбоғлари, Боғи Фатҳ, Боғи Дўлпур, Боғи Нилуфар.

В данной статье мы попытаемся анализировать возникновение чарбагов и эволюции этого типа садов. Кроме этого мы попытаемся выяснить роль Бобура в эволюции садов типа чарбаг.

In given article we will try to analyze history of architecture of Charbag` gardens and it`s evolution process. Moreover, we will try to clear up the role of Babur in formation of such kind of gardens.

Бобур яратган боғларни таҳлил қилиш учун энг аввало бу боғларнинг яралиш эволюцияларини ҳам хронологик, ҳам архитектуравий шаклланиши жиҳатларидан ўрганиш зарурдир. Бобур яратган боғлардаги меъморий услублар, қадимий “чорбоғ” концепциясига асосланган бўлиб, бундай боғлар Бобурдан олдин ҳам кўп воҳаларда қурилиб келинган. Шу боисдан боғ яратиш санъатида бу ғоялар Бобурга қайси анъаналардан мерос бўлгани, ҳамда унинг ўзи бу санъатни ривожлантиришга қўшган шахсий ҳиссасини аниқ далиллар билан келтириш давр талабидир.

Боғ бунёд этишнинг “Чорбоғ” услуби форсий анъаналардан мерос қолган бўлиб, бу услубдаги боғлар Форс мамлакатида Аҳамонийлар давридан бошлаб қурилиб келинганлиги Кир II (м.авв. 500 й.) давридаги битиклардан маълум.[1] Чорбоғ услуби дастлаб Қадимги Эронда Кир II томонидан бунёд этилган Пасаргада боғида шаклланти-рилган.[2] Бу турдаги боғларнинг жуда кўп бор қурилганлиги Сосонийлар давридаги адабиётларда ҳам учрайди. Ҳатто Бобил “Осма боғлари” ҳам, айнан шу услубда барпо этилганлиги тўғрисида маълумотлар бор. Мусулмонлар даврида эса бу услубдан кенг фойдаланилган. Чунки, узоқ 30 км. масофагача ер остки каналлари ёрдамида сувни етказиб, чиройли гуллардан иборат ям-яшил боғ яратиш, ўша даврда мисли кўрилмаган иш бўлган. Форс боғларини Шарқнинг йирик шоирлари Фирдавсий, Саъди, Шерозий ҳамда Умар Ҳайёмлар ўзларининг асарларида олқишлаб тилга олганлар.[3]

Форс боғлари аниқ лойиҳалар асосида қурилган бўлиб, боғнинг тархи тўртта квадратдан ташкил топган. Квадратлар орасида сув йўллари мавжуд бўлиб, уларда нилуфар ва лилия гуллари ноз таратиб турган. Бундай боғлар халқда “Чорбоғ”лар, яъни (тўртта квадратдан иборат боғ) сифатида ҳам аталиб келинган. Тўртта кичик сув йўлаклари тўғри бурчак асосида боғ марказида туташиб, тўрттала қисмларни бирлаштирган. Йўлак атрофлари эса, сарв (кипарис) ва чинор дарахтлари билан безатилган. Сарв дарахти доимо ям – яшил тусли бўлиши билан Форс мамлакатида мангулик рамзи сифатида машҳур бўлган. Чинор дарахти эса ўзининг улкан бўй-басти, майин ва салқин муҳитлилиги билан боғнинг сокин бўлишини таъминлаган. Форс боғи долонли терасали бўлиб, боғ асосини сув ташкил этган. Сув гоҳ катта йўлак бўйлаб, гоҳ кичик йўлак орқали бир хил, яъни бир меъёрда оқиб турган. Бундай меъёрни сақлаб туриш учун сув қувурлари каналлар ва шаршаралар аниқ ўлчам ва режа асосида қурилишини тақазо этган. Шу боисдан бундай боғларни кўрган шоирлар қуйидагича тарифлаганлар: “тиниқ оқар сувлар тошқинланиб, зулматда чўмган сарв дарахтларига гўё мовий нурафшон нур ҳадя этгандек жилога кирарлар, буни кўрган кўм кўк осмон ҳам лол қолгандек”. Дарҳақиқат, форс боғлари жуда кўркам ва сокин шабода муҳитига эга бўлган.[3]

Пиндер Уилсоннинг таъкидлашича “Ахамонийлар даврида шаклланган бундай боғлар Сосонийлар даврида павильонлар қўшилуви натижасида янада ривожланади. Аббосийлар даврига келиб, Форс маданиятига мансуб боғлар ислом маданиятига сингдирилиб, Самаррадаги саройда қўлланилади. Аббосийлар ҳукмронлигининг кенгайиши натижасида Форс боғларининг ғояси Шарқий Эрондан Сицилиягача бўлган воҳаларга тарқалади. Сомонийлар даврида “Чорбоғ” Ўрта Осиё ҳудудларига кириб келади ва бу услуб Темурийлар даврида машҳур Самарқанд боғларининг яралишига сабаб бўлади”. [4] Демак, Темурий давридаги Самарқанд боғлари форс чорбоғлари анъанаси бўйича шаклланган. Бу боғларни лойиҳалаган деярли барча меъморлар Эрондан олиб келинган. Чорбоғларни яратиш учун асосий масала сув бўлганлиги маълумдир. Зарафшон дарёсининг кўплаб ирмоқлари бу масалага ечим сифатида асқотган. Самарқандда Амир Темур чорбоғ услубида жуда кўплаб боғлар яратган. 1404 йилда Испания элчиси Клавихо ўзининг кундалигига шахсан ўзи кўрган Боғи – Дилкушо (Кўнгилни очувчи боғ), Боғи – Шамол (Шамолли боғ) ва Боғи – Нав (Янги боғ) каби боғларни ёзиб қолдиради. Унинг маълумотига кўра “Бу боғ катта девор билан ўралган бўлиб, олтита катта қувурлари бор. Бу қувурлардан сув йўлаклар узра тошиб, биридан кейингисига ўтади. Боғда бешта йўлак мавжуд бўлиб, атрофида баланд ва серсоя дарахтлар қад ростлаб турибди. Дарахтлар орасидаги йўлак катта шаҳар хиёбонига ўхшайди. Бешта катта йўлакдан кичик йўлакчалар боғнинг барча қисмига ўтиш учун хизмат қилади. Боғнинг марказида сунъий тепалик қурилган”.[5]

Дарҳақиқат, ўша давр Самарқанд шаҳарсозлигида бундай услубнинг кенг қўлланилиши, яъни боғлар ичидаги йўлаклардан бошланган сувлар билан таъминланган дарахтли хиёбонлар қурилиши ва бу хиёбонлар шаҳарнинг марказий қисмларига, жумладан сарой ва қароргоҳларга келиб қўшилиши жуда авж олган эди.

Бобур Самарқандда бобо калони Амир Темур қурдирган серсув чорбоғларда жуда кўп маротаба бўлиб, уларнинг қурилиш услубини яхши тушунган. Самарқандни бир неча бор эгаллаган ва бу боғларни кўриб шоҳиди бўлган. Ҳатто, ўзининг "Бобурнома" асарида уларни қуйидагича таърифлайди: "Самарқанднинг боғлари ва маҳаллалари, яна неча туманлари бу (Зарафшон) сув билан ободон. Темурбекнинг ва Улуғбек Мирзонинг иморатлари, боғлари Самарқанд маҳаллаларида кўпдир. Самарқанднинг шарқида икки боғ солган, унинг бири йироқроқ бўлиб, Боғи Бўлдудир, яқинроғи Боғи Дилкушо (кўнгилочар)дир. У ердан Феруза дарвозасигача хиёбон қилиб, икки тарафида терак дарахтлари эктирган. Дилкушо боғида ҳам баланд кўшк солдирган. У кўшкда Темурбекнинг Ҳиндистондаги урушлари тасвирланган. Яна Кўҳак тепалигининг этагида Конигилнинг қора суви устида (бу сувни Обираҳмат ҳам дейдилар) бир боғ солган. Нақши Жаҳон деб номланган. Мен кўрган пайтда бу боғ бузилган эди, номи ҳам қолмаган эди. Яна Самарқанднинг жанубида Боғи Чанор бўлиб, қалъага яқиндир. Яна Самарқанднинг қуйи қисмида Боғи Шамол ва Боғи Биҳишт бор. Султон Аҳмад мирзонинг замонида ҳам бек ва кичик беклар кўп боғ-боғчалар барпо этдилар. Шу жумладан, Дарвеш Муҳаммад Тархо Диннинг чорбоғича сафолик ва ҳаволик, кўзни яшнатадиган чорбоғ кам. Боғи Майдондан қуйироқ, тепалик устида Қулба яланглигига туташ бир чорбоғ солибди. Бу яланглик унинг пастида ястаниб ётади. Чорбоғда ҳам паст-баланд ерларни пухта режа асосида тузатиб, қайрағочлар, сарв ва оқ тераклар экканлар, хийла кўркам манзилдир". [6]

Бу маълумотлардан кўриниб турибдики, Бобур нафақат боғларга таъриф берган, балки боғларнинг ўзига хос хусусиятларини тушунтириб берган, танқид қилган, ҳамда ўзи ҳам боғ яратиб амалиётда бу билимларини қўллашга ҳаракат қилган.[7] Бобур боғ яратиш ва уни ободонлаштириш илмларини моҳирона эгаллаган. Айниқса, террассасимон боғларни яратиш услубига ошно бўлган. Айнан 1508 йилда Қобулда шу услубда Боғи – Вафони қурдиради ва тоза оқар сув бўлишига эътибор беради.[1] Бу боғ хусусида у Бобурномада шундай ёзади: "Одинапур кўрғонининг олдида, жануб тарафдаги бир баландликда тўққиз юз ўн тўртинчи (1508) йили бир чорбоғ солдим. У Боғи Вафо деб номланган, сойга туташ; сой қўрғон билан боғ орасидадир: норунжи, турунжи ва анори кўп бўлади. Паҳархонни енгиб Лаҳўр ва Диналпурни олган йилим кейла (банан) келтириб эктиргандим, кўкарган эди. Ундан бурунги йили шакарқамиш ҳам эккан эдилар, шакарқамишлар яхши бўлганди. Ери баланд, оқар суви муттасил, ҳавоси қиш пайти мўътадил, боғнинг ўртасида бир кичикроқ тепалик ястанган; бир тегирмон суви бу боғнинг ўртасидан ва боғнинг ичидаги тепаликнинг устидан ҳамиша оқиб туради. Боғ ўртасидаги чорчаман (тўртбурчак гулзор) шу тепалик устида барпо этилган. Боғнинг ғарби-жанубий тарафида ўнга ўн ўлчовидаги ҳовуз, атрофи бутунлай норунж дарахтларидир; анор дарахтлари ҳам бор. Бу ҳовузнинг теварак-қирғоқлари батамом себаргазордир. Боғнинг энг сўлим ери ушбудир. Норунжлар сарғайган маҳали кўп яхши кўринади; хийла яхши боғ бунёд топди".[6] Айнан шу боғни тадқиқ этган Саид Резави ўзининг асарида қизиқ маълумотни келтиради: "Боғи Вафо қурилишидан олдин бунёдкорликда меъморий чизма хусусида Ҳинд заминида ҳеч қандай маълумот мавжудлиги ҳалигача очилмаган. Бобур Ҳндистондаги ассимметрик ва лойиҳасиз қурилган биноларни танқид қилган. Акбарнома асарида ишланган ва Виктория ва Алберт Музейида сақланган расмда Бобур ва унинг олдида тўртбурчак шаклли қоғозда ишланган лойиҳани яққол кўриш мумкин. Бу тасвирда Бобурнинг Боғи Вафони лойиҳа чизмаси асосида бунёд этилиш жараёни акс эттирилган".[8] Бундан кўриниб турибдики, Бобур боғларни аниқ пухта лойиҳа асосида бунёд этган, ҳамда меъморлар билан бевосита бунёдкорлик ишларида қатнашган.

Бобур яна шунга ўхшаш Боғи – Калон сифатини ҳам қуйидагича баён этади: "Исталифчалик кент бу яқин орада маълум эмас. Бу кентда Боғи Калон (катта боғ) номли Улуғбек мирзога тегишли боғ бор эди. Мен эгаларига пулини бериб олдим. Боғдан ташқари баланд чинорлар бор. Чинорларнинг ости ям-яшил, сафоли бир манзилдир. Боғнинг ўртасидан бир тегирмон сув ҳамиша оқиб туради. Бу ариқ бўйида боғ ўртасида чинор ва бошқа дарахтлар ўсган. Бурун бу ариқ эгри-бугри ва кўримсиз эди. Менинг кўрсатмам бўйича, бу ариқни тўғри режа билан кўримли қилдилар. Жуда яхши ер бўлди". [6]

Булардан ташқари, Боғи – Бинафша, Боғи – Подшоҳи, Боғи – Чинор каби боғларни ҳам Қобулда бунёд этади. Кўриниб турибдики, Бобурга чорбоғ услубида боғ яратиш анъаналари қадим форсий боғларига асосланган Амр Темур давридаги Самарқанд боғларидан мерос бўлган. Бироқ, Бобурнинг боғларга бўлган ўзгача муҳаббати, қурилган боғларида тоза оқар сувга эътибори, нодир дарахтлар ва гуллар билан ҳамоҳанглигини таъминланишида Бобурнинг ҳиссаси беқиёсдир.

Ҳинд халқи азал – азалдан дарё ўтган жойлар яқинида ҳаёт кечирганлар. Ҳатто ҳинд марказий ибодатхонаси – "тиртҳас"лар ҳам, айнан дарё ёки кўл соҳилларида қурилган. Негаки, ҳинд диний қарашларида маъбудларга сажда қилиш пайтида, жой сокин, ҳамда тоза сув бўлиши таъкидланади. Бунга мисол тариқасида милодий V асрга тегишли Брхат – Самхита (Brhat-Samhita) асарида ёзилган сатрларни келтириш мумкин: "Ибодат учун катта қудуқ қазилиб, сувга тўлдирилиши керак, ҳамда боғ яратиб, шу ерда ибодатхона

ташкил этиш лозимдир”. “Маъбудлар табиий ёки сунъий яралган сувли боғлар атрофига келишади”. “Маъбудлар ўрмонлар, дарёлар, тоғлар, ҳамда шаршарали боғлари бор шаҳарларда яшайдилар”.[9]

Булардан кўриниб турибдики, ҳинд халқи азал – азалдан ўз динини сув ва табиий муҳит билан чамбарчас боғлаб келган. Қадимий ҳинд халқи фақатгина табиий боғлар яратибгина қолмай, балки сув каналлар ўтказиб, сунъий боғларни яратиб келганлар. Бундай боғлар яратилганлиги ҳақида машҳур Рамаяна (Ramayana) эпосида ҳам кўплаб маълумотлар бор.

Аммо, 1526 йилда Бобур шимолий Ҳиндистонга келганида табиий муҳитнинг аянчли аҳволда эканлигини ва яқинроқда тоза оқар сувли боғни кўрмаганлигини ачиниб ёзиб қолдиради. Унинг ёзишича, “Ҳиндустоннинг шаҳар ва вилоятлари жуда бесафодир. Ҳамма шаҳарлари, ҳамма тураржойлари бир хил қурилган, боғлари девор билан ўралмайди. Ерларининг аксар қисми тептекис. Баъзи дарё ва анҳорларнинг қирғоқлари баҳор ёмғирлари туфайли ювилиб кетганки, у ерлардан юриб ўтиш ҳам қийин. Далаларининг баъзи ерларида чангалзорлари бор”.[6]

Панипат жангидан кейин 1526 йилнинг май ойида Бобур Аграга келади. Бу давр йилнинг энг иссиқ вақти бўлганлиги учун, Бобур иссиқ ҳароратдан, гармсел ва чангдан жуда қийналади. У Бобурномада шундай ёзади: “Доим Ҳиндустоннинг битта катта камчилиги — унда оқар сувнинг йўқлиги, деб ўйлаб юрардим. Қаердаки ўрнашишимиз лозим бўлса, чархлар ясаб, оқар сув ўтказиб, режа билан боғлар барпо қилсак бўлади. Аграга келганимиздан бир неча кун кейин мана шу ишни деб Жуун дарёсидан ўтиб, боғ қуриш учун ерларни кўриб чиқдик. Бу ерлар шу қадар кўримсиз ва хароб эдики, уни кўнглимиз тортмай ва қониқмай яна сувдан кечиб, кетдик. Бу ернинг кўримсиз ва ёқимсизлиги туфайли чорбоғ ҳақидаги фикрларим ҳам хаёлдан кўтарилди. Аммо Аграга бунча яқин бошқа бўш ер ҳам йўқ эдики, бир неча кундан сўнг иложсиз, шу ернинг ўзида иш бошладик. Аввал катта қудуқ қазилди, ҳозир ҳаммом суви ўша ердан олинади. Яна анбилий дарахтлари ўсиб ётган ва саккиз бурчакли ҳовуз қурилган бир бўлак ерда ишладик. Ундан сўнг катта ҳовуз ва ҳовли барпо бўлди. Кейин тош иморат олдидаги ҳовуз ва толор қурилди. Ундан сўнг „Хилватхона" боғчаси ва уйлар бино бўлди. Ундан сўнг ҳаммом қурилди. Бундай кўримсиз ва бетартиб Ҳиндда яхши тартибли бинолар ва текис боғлар барпо этилди. Ҳар гўшада, ҳар бурчакда ёқимли гулзорлар, ҳар бир гулзорда тартиб билан экилган яхши гул ва настаранлар етилди. Яна Халифа, Шайх Зайн, Юнус Али ва кимга дарё ёқасидан ер теккан бўлса, чиройли, яхши йўсинда боғча ва ҳовузлар барпо этдилар. Лаҳур ва Диналпур усули билан чархлар ўрнатиб, оқар сувлар келтирдилар. Ҳинд халқи бу тартиб ва кўринишдаги жойларни ҳеч қачон кўрмаганликлари боис Жууннинг бу иморатлар жойлашган тарафига Қобул деб ном қўйишибди”.[6]

Бундай маълумотлардан шуни таъкидлаш жоизки, Бобур аниқ лойиҳа билан бир текисликдаги ерларда сунъий тепаликлар қуриб, сунъий шаршара ва сувли долонлар (террасса) ташкил эттиради. Боғ аниқ симметрия қонунияти асосида қурилиб, боғ саҳнларидан сув биридан, кейингисига ўтиш услубида курилади. “Бобур томонидан Чорбоғ аниқ симметрик ҳолатда дарё соҳилида қурилади ва кейинчалик Шоҳ Жаҳон айнан шу боғнинг рўпарасида Тож Маҳал мақбарасини бунёд этади”.[10]

Бобур Аграда бўлганида асосий маблағларни сиёсий ишларга эмас, балки боғ – роғлар яратишга қратгани ҳам халқ орасида “Бобур - боғлар шаҳзодаси” деб ном олишига сабаб бўлди.

Бобур Дўлпурда (Dholpur) Боғи – Нилуфар чорбоғини, Фотех Секрийда (Fatehpur Sikri) Фатҳ – Боғини чорбоғ услубида бунёд эттиради. Бундан кўриниб турибдики, Бобур форсий ва Самарқанд боғ яратиш анъаналарини Ҳиндистонга аста – секин кирита бошлайди. У Самарқанд, Ҳирот ва Қобулдан олиб келган бу анъаналар кейинчалик майдонлар яратиш, турар жой бинолари олдида оқар сувлар билан қувурлар ва фавворалар билан мажмуа бунёд этиш анъаналарининг шаклланишига олиб келди.[3]

Бобур томонидан Аграда қурилган боғлар ичида фақатгина Рамбағ (Rambagh) номли боғ бизларгача етиб келган. Бу боғ Жамна дарёсининг шарқий чап соҳилида, Буланд – Боғ ва Чиника – Рауза боғлари ўртасида жойлашган. Бу боғнинг асл номи Боғи – Гулафшон бўлиб, вақт ўтиши билан Боғи – Ором деб аталиб келинган. Ҳақиқий номи давр ўтиши билан бутунлай унутилган.[11] Унинг асл ҳолати жуда кўп бор ўзгартирилган. Шунга қарамасдан, боғ таъмирланган бўлсада, унинг аслий кўриниши нечоғлик маҳобатли ва бетакрор бўлганлиги яққол кўзга ташланади. Боғи – Гулафшонда сув аввало катта қувурга тўпланган ва қия йўлак асосида сув кичкина шаршарага қуйилган. Сув айнан шу шаршарадан энли террасалар узра йўлаклардан оқиб келиб, барча супалар атрофларини эгаллаган. Сув яна пастки боғга, яъни иккинчи терасса саккизта йирик сув йўлаклари бўйича ўтган. Ҳар бир йўлакнинг икки томонидан зина бўлган. Йўлаклардан сув кичкина шаршарага қуйилиб, бу ердан кичик ирмоқчалар асосида сув боғларни суғориш учун керакли жойларга етиб борган. Бундан кўриниб турибдики, боғ учун қўлланилган оқар сув нафақат бежирим архитектурани яратибгина қолмай, балки боғ учун зарур бўлган сувни керакли миқдорда ва керакли жойга боришини ҳам таъминлаб турган.[3]

Боғи Гулафшон мисолида, Бобур боғнинг аниқ ва моҳирона архитектурасини яратибгина қолмай, балки боғнинг тархи билан бирга оқар сув тизимининг ечимини ҳам аъло даражада топганини кўрсатади. Бундай услуб шак шубҳасиз ўша пайтдаги Ҳиндистон боғлари орасида янгилик ҳисобланарди.[11]

Бобур катта боғлар яратди, у боғлар яратибгина қолмай келажак авлодлари учун боғ яратиш

анъаналарини ҳам очиб беради. Бу ҳақда тарихчи Абул Фадл ўзининг "Ain – i –Akbari" асарида қуйидагича ёзади: "Олдин ҳинд халқи ўзлари учун оддий боғлар бунёд этганлар, Бобур Ҳиндистонга келганида эса, боғлар аниқ режа асосида муҳташам қилиб қурила бошланди. Бобур архитектурада боғ санъатини маҳобатли бунёд этиш анъаналарини ўрнатган шахсдир".[3]

Дарҳақиқат, Бобур бу анъана туфайли ўрта асрлар архитектурасида туб бурилиш яратди. Негаки, олдин бино лойиҳалашда архитекторнинг ўзи билан кифояланган бўлса, энди эса, бино лойиҳаси учун архитектор, унинг боғ лойиҳаси учун эса, боғ лойиҳачиси ва сув муҳандиси биргаликда маслаҳатона мажмуавий ишлашга тўғри келган. Бундай мажмуавий лойиҳа давомида барча ҳаракатлар асосий мақсадга йўналтирилиши, оддий деталлардан тортиб кичик деталларгача биргаликда ишлаб, бир ечимга келишни тақазо этади.

Адабиётлар:

1. Hooshangi F. Isfahan, City of Paradise A study of Safavid urban pattern and a symbolic interpretation of the Cahar-Bagh gardens: Master of Architecture. University of Carleton, 2000.

2. Stronach D. "Parterres and Stone Watercourses at Pasargadae: Notes on the Achaemenid Contribution to the Evolution of Garden Design,"// Journal of Garden History, vol.14, I994.

3. Nath R. History of Mughal Architecture. Vol.I. Early Mughal Architecture. The Formative period: Babur and Humayun. - New Delhi: Abhinav Publications, 1982.

4. Wilson. R.P."The Persian Garden"//Islamic Garden, Washington D.C., Dumbarton Oaks and Trustees for Harvard University, 1976.

5. Wilber D.N. Persian Gardens &Gardens Pavilions, Charles E. Tottle Company. 1962.

6. Бобур Заҳириддин Муҳаммад Бобурнома – Тошкент.: "O`qituvchi" НМИУ 2008.

7. Gharipour M. Pavilion structure in Persian Gardens: reflections in the textual and visual media: Doctor of Philosophy. University of Georgia, 2009.

8. Rezavi Syed Ali Nadeem. Mughal Architechture: Organization, Inspiration and Design. Indian History Congress, 75th Session Jawaharlal Nehru University 28-30 December 2014.

9. Brhat-Samhita of Varahamira ed. A.V. Tripathi, Varanasi, 1968.

10. Cunningham A., Beglar J.D., Carlleyle A.C.L. Archeological Survey of India (reports for the year 1871-72). Vol –IV, Calcutta: Office of the Superintendent of Government Printing, 1874.

11. Nath R. Some Aspects of Mughal Architecture. New Delhi: Abhinav Publications, 1976.

УДК 72.013

ҲИНДИСТОНДАГИ ТОЖМАҲАЛ (XVI АСР) АРХИТЕКТУРАСИДАГИ ҲАНДАСАВИЙ УЙҒУНЛАШТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Джумақулов Фозил Узоқович, докторант (PhD)
Samarqand davlat Arxitektura-qurilish universiteti

Мазкур мақолада, Ҳиндистондаги Тожмаҳал мажмуасининг ҳандасавий уйғунлаштириш хусусиятлари ва мутаносиблик сирларини топиш тадқиқ қилинган. Шунингдек, Тожмаҳал ансамбли ва боғ ландшафти "Мукаммал квадрат" асосида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: ҳандаса, нисбат, уйғунлаштириш, квадрат, тамойил.

В данной статье исследуются секреты геометрической гармонии и пропорций комплекса Таджмахал в Индии. Также был проанализирован ансамбль Таджмахал и садовый ландшафт на основе «Идеального квадрата».

Бобурнинг набираси Акбар ҳукмронлик қилган даврда (1556-1605) қури-лиш янада ривожланди. У Агра шаҳри қурилишига, айниқса, катта эътибор берди. Замондошларининг фикрига кўра, бу шаҳар ўша даврда энг гўзал шаҳарлардан бири бўлган. XVII аср меъморчилигида серҳашамликка интилиш кучайди, оқ мармар қурувчиларнинг севимли материали бўлиб қолди. Шоҳжаҳоннинг буйруғи билан унинг марҳума рафиқаси хотирасига қурилган Аградаги Тожмаҳал масжид-мақбараси (1632-1650) оқ мармардан қурилган муҳим ёдгорлик, ҳинд санъатининг нодир дурдонаси саналади.

Бу бинони қуришда Ҳиндистон, Туркия, Ўрта Осиё ва Афғонистон усталари қатнашган. Кенг ва кўркам гумбаз атрофига қурилган тўрт минора Тожмаҳалга тугаллик ва кўркамлик бахш этади. Уни енгил, гўё юқорига, фазога интилаётгандек қилиб кўрсатишга хизмат қилади. Бинодаги арка ва устунлар бу енгилликни янада оширади. Тожмаҳалнинг акси унинг қаршисидаги ҳовуз сувида товланиб, бутун мажмуа жозибасини янада кучайтиради. Деҳлида Шоҳжаҳон даврида қурилган Жоме масжиди ҳам оқ мармардан тайёрланган, миноралари эса қизил мармар билан пардозланган [1; 255-Б].

Агра шаҳрида қурилган Тож Маҳал ансамблли "қўш" ансамбл комбинацияси тамойили асосида тузилган, иккита Чорбағ сифатида яратилган. Агранинг шарқий чеккасида, Жамна дарёсининг шимолий қирғоғидаги бу боғнинг ўлчамлари 400х645 ярд (бир ҳовли - 91,44 см) бўлган. Ушбу боғнинг марказий қисми аслида Чорбоғ бўлиб, режадаги квадрат бўлиб, томонлари 400х400 ярд. Мажмуанинг кириш қисми шимол томондан Чорбоғга туташган. Унинг олдида 80х80 ярд квадрат майдон мавжуд. Майдон марказида, унинг жанубий томонида, тўрт бурчагида ёнма-ён гулдаста миноралари бўлган кўп хонали чартоқ кўринишидаги кириш айвон жойлашган. Кириш павилонининг ён томонларида ҳовли дарвозаларига олиб борувчи галереялар жойлашган. Чорбоғнинг қарама-қарши учида, унинг бутун эни бўйлаб баландлиги 16 ярд бўлган мармар стилобат бор. Унинг устига режа бўйича квадрат шаклида қўшимча устунли подиум ўрнатилди, асосий бино

баландлиги 7 ярд ва кенглиги 140 ярд бўлиб қад ростлаган бўлиб, мажмуада кундалик ҳаётда Тож Маҳал номи билан машҳур бўлган Мумтоз Маҳал-бегим мақбараси жойлашган. Ушбу парк олтин қисмнинг 400:645 нисбатига кўра тузилган [2; С-37].

Илова -1

Ўрта Осиё ва хорижий олимларнинг меъморчиликда ҳандасавий уйғунлаштириш тўғрисидаги илмий асарларини ва илмий тадқиқот натижаларини ўрганиш жараёнида томонлари узунликлари бутун сонлардан иборат бўлган, тўғри бурчакли учбурчак, яъни миср учбурчаги (томонларининг узунлиги 3:4:5 га тенг бўлган) менда катта қизиқиш уйғотти ва унинг ёрдамида квадрат ҳосил қилдим.

Миср учбурчаги бу - катетлари 3 ва 4 га, гипотенузаси 5 га тенг бўлган тўғри бурчакли учбурчакдир.

Миср учбурчаги 3 : 4 : 5 нисбатни ҳосил қилади

АВС - Миср учбурчаги (Муаллиф чизмаси)

бу тўртбурчак 3 : 4 нисбатда қурилган.

АВС - Миср учбурчаги асосида ясалган, АДВС - тўғри бурчакли тўртбурчак (Муаллиф чизмаси).

Миср учбурчаги ёрдамида ясалган тўғри бурчакли тўрбурчакни энига тўрттасини ва бўйига учтасини қўйиб қуйидагини ҳосил қиламиз.



Тўғри бурчакли тўрбурчакни энига тўрттаси ва бўйига учтаси ёнма-ён қўйилгандан кейин, уларни барчасини бирлаштириб қуйидаги квадратни ҳосил қиламиз.

Ҳосил бўлган квадрат (Муаллиф чизмаси)

Ҳосил бўлган бу квадрат, Миср учбурчаги асосида ясалгани учун олтин қоидага бой ва "мукаммал квадрат" хисобланади.



Томонининг узунлиги а=12 бўлган "Мукаммал квадрат" (Муаллиф чизмаси).

Илова - 2





Тожмаҳал мақбараси тарҳини модул тўри асосида ҳандасавий уйғунлаштириш услуби. Бу ерда а=12 см бўлиб, "мукаммал квадрат"нинг томони хисобланади (Муаллиф чизмаси).



Тожмаҳал мажмуаси умумий тарҳининг ҳандасавий уйғунлаштириш услуби. Тарҳда катта модул 4 та кичик модулга тенг. Кичик модул эса 1м=100а га ва 100а=1200 см га тенг. (Муаллиф чизмаси).

Илова - 3



Мажмуа тарҳининг миср усбурчаги асосида уйғунлаштириш услуби. (Муаллиф чизмаси).



Тожмаҳал фасадининг модул асосидаги таҳлили. (Муаллиф чизмаси).

Ҳинд тарихчиси Л. П. Шарманинг таъбири билан айтганда, "Тожмаҳал ўзининг улуғворлиги ва жилоси билан, нафақат Бобурийлар меъморчилигининг, балки бутун жахон меъморчилигининг бетакрор намунасидир". Бу улкан обидани бунёд этишда бош меъмор Устод Исо бошқош бўлган, атроф боғни эса Бобурий Шоҳжаҳон таклифи билан Ранмал исмли ҳинд боғбони режалаштирган [3; 110-Б].

Хўш энди, Тожмахал мақбарасининг қурилишида қўлланилган уйғунлик масалаларини "Мукаммал квадрат" асосида таҳлил қиламиз. "Мукаммал квадрат" бу - миср учбурчаклари ёрдамида ясалган квадрат хисобланади (Илова-1).

"Мукаммал квадрат" асосида мақбара ён томони 1000а ёки 12000 см (12000 см ҳақиқий ўлчами) ва баландлиги тахминан 62а ёки 744 см (740 см ҳақиқий ўлчами) бўлган квадрат шаклдаги майдон устида жойлашган, ушбу майдоннинг тўрт бурчагида тўртта минора мавжуд, мақбара симметриянинг қатъий қоидаларига биноан қурилган бўлиб (Илова-2), 600а ёки 7200 см (7200 см ҳақиқий ўлчами) қиррали кесилган бурчаклари бўлган квадрат бўлиб, томонларида равоқлар жойлаштирилган ва бир неча қаватдан иборат; тархда, мақбара биноси томонини, мақбара майдони томонига нисбати 7200:12000= 0,6 га тенг, яъни 3:5 олтин нисбатга тенг; Тожмаҳал масжид ва мақбарасининг қурилиш майдони 1200ах3200а ёки 14400х38400 см га тенг яъни бу кенглик ва узунлик нисбати 3:8 бўлиб, 3:4 нисбатдаги иккита тўрт-бурчакни бирлаштиришдан хосил бўлади, кейин ҳар бир тўртбурчакнинг ярми одатдаги 3: 4: 5 тўғри бурчакли учбурчак бўлиб чиқади, бу эса бурчак ва ён томонларни

мос тугунли арқон билан текширишга имкон беради; энди Тожмахалнинг ички ва ташқи боғларининг биргаликда умумий эни ва бўйи узунлиги 38400ax57600 см тенг ва нисбати 2:3 га тенг бўлган олтин нисбатни беради; демак томонлари нисбати 24:36 га тенг бўлган тўртбурчакни, 1600 марта катталаштирсак 38400x57600 см га тенг нисбатдаги боғнинг кенглиги ва узунлиги келиб чиқади (Илова -3).

Олимларнинг тадқиқотларида, бу мажмуани симметрия қонун-қоидалари асосида қурилганлигини кўп бора такидлашган. Албатта, олимларнинг фикрлари жуда тўғри лекин Тожмахал нафақат симметрияга балки, миср учбурчаги ва "мукаммал квадрат"га асосланганлигини ҳам тадқиқот натижаларидан кўришингиз мумкин.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev Sh. Arxitektura tarixi.-Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018.
2. Ахмедов М.К. Пути развития средневековых архитектурных ансамблей Узбекистана.-Тошкент: "фан ва технология", 2014.
3. Satimov G'. Boburiyzodalar.- Toshkent: "Sharq", 2016.

UDK: 719: 711.1: 72.04.01

DIZAYN-KOD TAMOYILLARIGA ASOSAN SHAHAR TARIXIY HUDUDLARINI TOIFALASH YECHIMLARI

Tajibaev Jur'at Xamroyevich, tayanch doktorant
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Ushbu tadqiqotda Buxoro va Samarqand shahrining tarixiy hududlari uchun dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqish, shahar dizayn-kod elementlari bo'yicha muammolarni aniqlash, tarixiy hududlarni dizayn-kod qoidalari doirasida zonalash, muhit elementlari va ularning madaniy me'ros obyektlariga vizual ta'sir haqida so'z boradi. Tarixiy ko'chalarni toifalash asosida shaharning kichik me'moriy elementlarini tartibga solish muammolari yoritiladi.

Kalit so'zlar. Dizayn-kod qoidalari, tarixiy shahar, madaniy me'ros obyektlari, dizayn-kod elementlari, ko'chalarni toifalash, visual ta'sir hududi, himoya hududi.

In this study, the development of design-code rules for the historical areas of Bukhara and Samarkand cities, identification of problems related to urban design-code elements, zoning of historical areas within the design-code rules, environmental elements and their visual impact on cultural heritage objects the word goes. Based on the classification of historical streets, the problems of organizing small architectural elements of the city are highlighted.

Key words. Design code rules, historical city, cultural heritage objects, design code elements, street classification, visual impact area, protection area.

В данном исследовании приведены разработка норм дизайна для исторических территорий городов Бухары и Самарканда, выявление проблем, связанных с элементами градостроительного кода, зонированием исторических территорий в рамках правил дизайна, элементами окружающей среды и их визуальным воздействием на объекты культурного наследия. На основе классификации исторических улиц выделены проблемы организации малых архитектурных элементов города.

Ключевые слова. Нормы проектирования, исторический город, объекты культурного наследия, элементы норм проектирования, классификация улиц, зона визуального воздействия, охранная зона.

Kirish. Dunyoning rivojlangan shaharlari o'zining dizayn-kod qoidalariga ega. Dizayn-kod qoiadalarining amaliyotga tadbiq etilishi natijasida shahar aholisi turmushining o'sishi, xizmat ko'rsatish sifatining oshishi, turizmning rivojlanishi, havfsizlik darajasining sezilarli darajada o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Amerika va Yevropaning aksariyat davlatlarida ham dizayn-kodlarni ishlab chiqish yuqori natijalar keltirgan. O'zbekiston shaharlarida ham so'ngi yillarda dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqish borasida hukumat tomonidan qator topshiriqlar berilgan.

O'zbekistonning yirik sanoat shaharlari kabi tarixiy shaharlarida ham dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqishga talab mavjud. Bunday shaharlardan eng ko'zga ko'ringanlari bu Buxoro hamda Samarqand shahrlaridir. Ayna ushbu shaharlarning tarixiy markazlarida, tarixiy hududlari uchun dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy jamoamiz bilan tadqiqot olib bormoqdamiz.

Adabiyotlar tahlili.

Tadqiqot ishini olib borishda ko'plab chet va o'zimizning tadqiqotchi olimlar izlanishlari o'rganildi. Jumladan dizayn-kodlarni shakllantirish bo'yicha chet el tajribalari tahlil qilindi, shahar muhitini maqsadli hududlarga bo'lish, dizayn-kod elementlarini tashkil etish borasida S.Elmurodov [1], [2], Z.Matniyazov [3], J.Tajibaev [4], [5], [6], va boshqa tadqiqotchilar izlanishi ko'rib chiqildi. Har bir shahar o'ziga xosligi, madaniy va etnik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos dizayn-kodiga muhtoj. Shu sababli bu sohada izlanish olib borayotgan olimlarning mehnati juda qadrli.

Asosiy qism. Tadqiqot davomida Buxoro va Samarqand shahrining tarixiy hududlarida bo'ldik va dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqish uchun u yerdagi tarixiy obidalarni o'rgandik. Bu yerda dizayn-kod obyektlarining juda xilma-xilligi va turli xil uslubdaligi muhitning visual buzilishiga olib kelinganligini yaqqol ko'rish mumkin. Tarixiy obidalaning fazo va jabhalariga reklama obyektlarining noto'g'ri o'rnatilganligi, savdo obyektlarining noto'g'ri joylashtirilishi, hududning to'g'ri taqsimlanmaganligi tufayli avtomobil to'xtab turishi uchun joylar yo'qligi binolarga jiddiy talofot yetkazayotganligi achinarli holat (1, 2-rasmlar).



1-rasm. Buxoro tarixiy hududlarida shahar elementlarining noto'g'ri qo'llanilishi

2-rasm. Samarqand tarixiy hududlarida shahar elementlarining noto'g'ri qo'llanilishi

Bunday holatlarga dizayn-kod qoidalari orqali yechim topilishi mumkin. Biz buni bilamiz, ammo, dizayn-kod qoidalari qanday shartlar asosida tashkil etiladi? yoki ular uchun ham qandaydir qonun-qoidalar ham bormi? Bu kabi savollarga yechim bo'lishi kerak albatta, ayniqsa tarixiy shaharlar uchun dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqilayotganda.

Demak, biz dizayn-kod qoidalarini ishlab chiqishdan oldin uning o'zi nimaligini, peredmet va obyektini to'liq o'rganishimiz, uni tashkil etishdagi shartlarni bitta shablonga solib olishimiz to'g'riroq bo'ladi. Izlanishlar shuni ko'rsattiki turli davlatlarda qilingan dizayn-kod qoidalari faqat shu shaharning o'zi amal qiluvchi qoidalar to'plamidan iborat va bu qoidalar boshqa bir shahar uchun mos kelmaydi. Ya'ni turli shaharlar dizayn-kodini yaratish uchun inobatga olish kerak bo'lgan umumiy tamoyillar mavjud emas.

Dizayn-kod nafaqat yo'l belgilarining dizaynini, balki bino fasadidagi belgilarni, konditsionerlarni, derazalar va kirishlarni loyihalash qoidalarini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, hududlarning dizayn-kodini ishlab chiqish doirasida mavjud ko'cha va yo'l tarmog'ini, maydonlarni tasniflash amalga oshirildi. Profillarning mumkin bo'lgan variantlari ishlab chiqilib, ko'chalarning funktsional zonalari aniqlanadi. Ko'chalarni loyihalashda xorijiy standartlar tajribasi hisobga olinadi, unga ko'ra tartibga solishning quyidagi elementlari ajralib turadi: qatnov qismi, qisqa muddatli dam olish joylari bo'lgan piyodalar (trotuarlar), velosiped yo'llari, transport to'xtash joylari, to'xtash joylari, ko'cha mebellari, reklama elementlari, navigatsiya, piyodalar o'tish joylari, harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlar uchun ko'chalarni obodonlashtirish normalari, ko'chalarni funktsional va me'moriy yoritish, shu jumladan landshaft dizaynini ham ishlab chiqish talab etiladi.

Jahon tajribasi asosida hamda dunyoda ishlab chiqarilgan dizayn-kod qoidarini tahlil qilish natijasida shaharning tarixiy hududlari uchun bunday qoidalarni ishlab chiqish tartibini aniqlashimiz mumkin. Biz bu jarayonni bosqichma-bosqich ochib berishga harakat qildik.

Birinchi navbatda ko'rilayotgan hudud tahlil qilinadi yani hududning holati aniqlanadi. Shaharning tarixiy hududlarini aniqlash hamda uning chegarasini belgilash muhim sanaladi. Buning uchun shaharning tarixiy karkazini aniqlash zarur. Dastlabki o'rganish doirasida tarixiy aholi punkti chegaralaridagi va undan tashqaridagi ko'chalar, ya'ni ularning profillari va o'lchamlari, me'morchilikni vizual idrok etish nuqtalari tahlil qilinadi. Shaharning ba'zi ko'chalari asosan haydovchilar tomonidan, boshqalarida esa piyodalar tomonidan qabul qilinadi. Shuningdek, shaharning markaziy qismidagi asosiy diqqatga sazovor joylarni bog'lovchi va shaharning turistik doirasini tashkil etuvchi ko'chalar aniqlanadi. Bu jarayon boshqacha qilib aytganda ko'chalarni toifalash deyiladi. Ko'chalar toifalanishiga qarab dizayn normalari ishlab chiqiladi. Ammo bu hali hammasi emas. Dizaynnning qanday bo'lishi birqancha faktorlarga ham bog'liq jarayon hisoblanadi.

Keyingi bosqichda dizayn-kod qoidalari ta'sir etuvchi hududning xaritasi ishlab chiqiladi, unda

ko'chalar turlariga qarab toifalarga ajratib ko'rsatiladi. Ko'cha toifasi dizayn-kod qoidalarini shaharda qanday amalga oshirilishini ham belgilab beradi. Qoidalarni amalga oshirishni shaharning turistik doirasini tashkil etuvchi markaziy ko'chalardan boshlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Tarixiy hududda joylashgan jamoat joylari ni toifalash piyodalar va transport oqimlarining intensivligiga qarab belgilanadi. Dizayn-kod qoidalari uchun shaharning tarixiy hududida harakat oqimining intensivligi quyidagicha turkumlanishi mumkin:

1-turkum: piyodalar tirbandligi yuqori va tirbandligi kam bo'lgan hududlar. Ushbu turkumga madaniy meros ob'ektlarining vizual ta'sir zonalari kiradi.

1-turkum: piyodalar va transport oqimlari o'rtacha bo'lgan joylar: ko'chalar va asosiy maydonlarni bog'laydigan asosiy ko'chalar.

3-turkum: Intensiv transport va intensiv bo'lmagan piyodalar oqimi bo'lgan joylar: avtomobil yo'llari va transport maydonlari.

Dizayn-kod hududlarini toifalashda Madaniy meros obyektlarining (MMO) vizual ta'sir hududlarini aniqlash metodologiyasi ham mavjud. Ushbu metodologiya davlat, mahalliy, mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan MMOlarga, shuningdek, yangi aniqlangan obyektlarga e'tibor qaratishni va ularning himoya hududlarini ko'rib chiqishni taklif qiladi. Cheklovlar vizual idrokni haddan tashqari yorqin va vizual jihatdan ustun bo'lgan narsalardan saqlashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar.

Rossiya federal qonunlariga ko'ra MMOning muhofaza hududlari aholi punkti chegaralarida joylashgan yodgorlik uchun - yodgorlik hududining tashqi chegaralaridan 100 m masofada, aholi punkti chegaralarida joylashgan ansambl uchun - ansambl hududining tashqi chegaralaridan 150 m masofada belgilanadi. Aholi punkti chegaralarida joylashgan MMO hududining tasdiqlangan chegaralari bo'lmagan taqdirda, himoya hududining chegaralari MMO tashqi devorlarining tashqi konturidan yoki chiziqdan 200 m masofada o'rnatiladi [7].

MMOning vizual ta'sir hududi - bu himoya hududi ichida binolarning jabhalari oralig'idan MMO visual idrok etiladigan maydonlar. MMOning vizual ta'sir hududi vizual to'siqlarsiz himoya hududi sifatida belgilanadi (3-rasm). Doimiy (kapital) bo'lmagan binolar (nostatsionar obyektlar), 3 metrdan baland bo'lmagan devorlar va yarimshaffof panjaralar visual to'siq hisoblanmaydi. Bunday to'silgan joylar visual ta'sir hududiga kiritiladi. Shuningdek, parklar, maydonlar, bulvarlar va umumiy foydalanish joylari bo'lgan kichik yashil maydonlar ham MMOning visual ta'sir hududiga kiritiladi. Balandligi 10 metrdan yuqori bo'lgan hamda 30° darajadan kam bo'lmagan qiyalikdagi releflar visual to'siq bo'lishi mumkin, uning to'siq tarafidagi hududlar visual ta'sir doirasidan chiqarilishi mumkin. Ta'sir hududidagi suv obyektlari va unga tushgan barcha akslar to'siq sifatida qaralmaydi hamda visual ta'sir hududidan chiqariladi. Agar sanoat hududlari MMOning himoya hududiga kirsa, MMOning vizual ta'sir hududi ushbu sanoat hududlarning chegara to'siqlari yoki binolarning jabhalari bilan belgilanadi.



3-rasm.

Vizual to'siqlar: *Bino va inshootlarning jabhalari, 3 metrdan baland bo'lgan bo'sh devor va yarimshaffof panjaralar, relief va qiyaliklar, ko'prik va estakadalar, shovqindan himoya qiluvchi ekranlar*.

Dizayn-kod qoidalariga asosan jamoat joylarini tasniflash tizimi transport faolligi indeksi (TFI) va piyodalar faolligi indeksi (PFI) orqali belgilanadigan foydalanish intensivligi bilan bog'liq. Ko'chalarni tasniflashda ularning kengligi hisobga olinadi [8]. Tasnifga muvofiq, reklama konstruksiyalari, tablolar, NSO va savdo yarmarkalarni joylashtirishga cheklovlar qo'yiladi. Shaharsozlik norma va qoidalariga ko'ra shaharning ko'cha va maydonlari turli toifadagi hududlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin: magistrallar, asosiy shoh ko'chalar, birlashtiruvchi ko'chalar, mahalliy ko'cha, piyodalar ko'chasi, transport maydonlarii, bosh maydon, mahalliy maydonlar va boshqalar. Dizayn-kod qoidalaiga ko'ra ko'cha va maydonlar quyidagi toifalari aniqlandi:

1-toifa - piyodalar tirbandligi yuqori va tirbandligi kam bo'lgan hududlar: mahalliy ko'chalar, piyodalar ko'chalari va mahalliy maydonlar. 1-toifaga madaniy obyektlarning vizual ta'sir qilish hududlari, meros obyektlari va tarixiy binolarga ega ko'chalar ham kiradi.

2-toifa - intensivligi o'rtacha bo'lgan piyodalar va transport qatnovi hududlari: ko'chalar va asosiy maydonlarni bog'laydigan ko'chalar.

3-toifa – intensivligi yuqori bo'lgan transport va intensivlik darajasi bo'lmagan piyodalar hududlari: magistral yo'llar va transport maydonchalari.

Xulosa: Tarixiy shaharlarda an'anaviy arxitektura va madaniyatini hisobga olgan holda hududiy dizayn-kodlarni ishlab chiqish birinchi navbatda shu hududni o'rganishdan boshlanadi. Qoidalarni shakllantirishning dastlabki bosqichi quyidagi tamoyillar asosida belgizanishi tavsiya etiladi:

1) Buxoro va Samarqand shahrlarining tarixiy hududlri uchun dizayn-kod qoidalarini ishlab

chiqishda hududning tarixiy markazini aniqlash, uning chegaralarini belgilash, hamda haritasini chizish kerak bo'ladi. Bu dizayn-kod xaritasida ko'chalar toifalarga ajratilib ko'rsatilishi zarur.

2) Tarixiy hududlarda Madaniy meros obyektlarining muhofaza hamda visual ta'sir chegaralarini e'tiborga olish shahar elementlarini o'rnatishda katta ahamiyatga ega.

3) Ko'chalarni toifalarga ajratishda yuqorida o'rganilgan omillar hamda ko'cha intensivligini hisobga olish zarur. Bundan tashqari dizayn-kod qoidalarini uning bo'limlariga asosan mos ravishda ishlab chiqish, hudud tarixini aks ettiruvchi dizaynda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Elmurodov, S., Matniyazov, Z., Tajibaev, J., Tajibaeva, D., & Jabborova, I. (2022). Principles of Using Mobile Shopping Facilities in Historical City Environment (On the example of Bukhara). Journal of Architectural Design, 13, 14-20.

2. Elmurodov S., Tajibaev J., Matniyazov Z., Ikramova M., Meliboeva G. Methods of Correct Placement of Counters and Information Boards in Historical Monuments. Journal of Architectural Design. Volume 13| December 2022 ISSN: 2795-7608.

3. Elmurodov, S., Matniyazov, Z., Tajibaev, J., Saidxonova, U., & Abdujabborova, D. (2022). Principles of Location of NonStationary Trade Objects in the Zoning Method. Journal of Architectural Design, 13, 8-13.

4. Tajibaev, J., Elmurodov, S., Matniyazov, Z., Mirdjalolov, D., & Shoumarova, D. (2022). Methods of Studying the Architectural Style and Environment Formation in Creating Design-Code Rules of the City of Bukhara. Journal of Architectural Design, 13, 21-27.

5. Tajibaev, J., Elmurodov, S., Matniyazov, Z., Sattorov, Z., & Rahimboyev, N. (2022). The Significance of the National Architectural Style in the Development of Design-Code Rules for the Historical Centers of the City of Bukhara. Journal of Architectural Design, 13, 28-32.

6. Tajibaev J. Identifying Historical Centers of Cities and Developing Design Code Rules for Them (In the case of Samarkand and Bukhara). Journal of Architectural Design. Volume 13| December 2022 ISSN: 2795-7608.

7. Дизайн-код Калининграда. Общие правила размещения и оформления нестационарных торговых объектов. версия от 11.04.2018

8. Лейзерова А.В. Архитектурно-градостроительная типология культурно-исторических островов. Вестник ТГАСУ т. 22, № 5, 2020.

UDK: 712.7: 72.04.01

TARIXIY SHAHAR KO'CHALARIDAGI MA'LUMOT PESHTAXTALARI HAMDA YO'L KO'RSATGICHLAR DIZAYN-KODINI TARTIBGA SOLISH (BUXORO SHAHRI MISOLIDA)

Matniyazov Zafar Erkinovich, arx.b.f.d., dotsent; **Elmurodov Samidullo Salim o'g'li,** dotsent;
Rasul-Zade Lobar Ulmasovna, arx.f.n., professor; **Shoumarova Dilnoza Abduxabirovna,** katta o'qituvchi
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Maqolada dizayn-kod mavzusi buyicha o'rganilgan va tadbiq etilishi kutilayotgan loyihalar haqida fikr mulohaza qilinadi. Reklam obyektlariga qo'yiladigan talablar ko'rib chiqiladi. Hozirda kunda shahar tashqi ko'rinishiga reklama va bsohqa ma'lumotlar obyektlarining ta'siri va hududdagi muammolar aks ettiriladi.

Kalit so'zlar: dizayn-kod qoidalari, tarixiy shaharlar, reklama obyektlari, ko'chalar, shaharsozlik, atrof-muhit dizayni, landshaft, kichik me'moriy shakllar.

In the article, the design-code topic is studied and the projects that are expected to be implemented are considered. Requirements for advertising objects are considered. Currently, the impact of advertising and other information objects on the appearance of the city and the problems in the area are reflected.

Key words: design code rules, historical cities, advertising objects, streets, urban planning, environmental design, landscape, small architectural forms.

В статье исследуется тема дизайн-кода и рассматриваются проекты, которые предполагается реализовать. Рассмотрены требования к рекламным объектам. В настоящее время отражено влияние рекламы и других информационных объектов на облик города и проблемы в районе.

Ключевые слова: правила проектирования, исторические города, рекламные объекты, улицы, градостроительство, средовой дизайн, ландшафт, малые архитектурные формы.

Kirish. Dizayn-kodi tushunchasi boshqa davlatlarga nisbatan bizda yaqinda paydo bo'ldi. Ammo bugungi kunda bu bosh reja va hajmli va fazoviy qoidalar bilan bir qatorda hududlarni kompleks rivojlantirish uchun standart tomonidan belgilangan qulay shahar muhitini yaratishning uchta asosiy vositalaridan biridir. U tablolar, savdo binolarining kirish guruhlari, statsionar bo'lmagan savdo obyektlari va reklama inshootlari, shahar umumiy ko'rinishi va navigatsiya elementlarini joylashtirish hamda tashqi ko'rinishini loyihalash qoidalarini birlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili. Dizayn-kod haqida boshqa davlat mutaxasislari ko'p izlanishlar va o'rganishlar natijasida bir qancha ma'lumotlar keltirib berishdi. Rossiya mutaxassislari shaharlarining dizayn-kodi qanday paydo bo'lganligi va uning zarurati to'g'risida ko'plab fikrlar bildirishgan. Aslida, bu shahar ko'chalari uchun qoidalar to'plamidir. Bu qoida juda ko'p jahalarda as qotishi kutilayotgan vaziyat hisoblanib avvalo shaharni estettik did bilan qilinishi reklama bergan hamda undan foydalanuvchilar eng asosiysi shaharni umumiy korinishini sayyohlar uchun tartibli va tushunarli qilinishi kerakli hisoblanadi [1]. Qonun qoida nizomdan kelib chiqiladigan bo'lsa bu haqida qaror hamda nizomlarda keltirilgan ya'ni reklama va malumotlarni qo'yish bo'yicha qarorlar qabul qilingan hamda bunga rioya qilinishi kerak buladi.

Dizayn-kodining asosiy afzalligi uning ko'rinishi-

dir. Qonunchilikda belgilangan obodonlashtirish qoidalaridan farqli o‘laroq, dizayn-kodi shahardagi turli inshootlardan foydalanish va joylashtirish, uning ko‘rinishini belgilab beruvchi qulay va zamonaviy yo‘riqnomadir [2]. Dizayn-kodi har doim ma'lum bir shahar yoki mintaqa uchun ishlab chiqilgan, chunki u hududning mahalliy o'ziga xosligini, madaniy va etnik xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Dizayn-kodi minimal investitsiyalar bilan shahar muhitini jiddiy o'zgartirishga, o'ziga xoslik va vizual birlikni aniqlashga imkon beradi.

Dizayn-kodi - bu yorliqlar va reklamalarni loyihalash va joylashtirishni tartibga soluvchi nizom. Dizayn-kodining kiritilishi "vizual shovqin" ni kamaytiradi - grafik materiallar va ob'ektlarning tartibsiz va ortiqcha ishlatilishi [3].

Asosiy qism. Dizayn-kodi shahar me'moriy matosining yaxlitligining muhim elementidir. “Bu shunchaki qoidalar va tavsiyalar majmui emas, bu shahar qiyofasini qanday shakllantirish bo‘yicha tuzilmalarni, ya’ni belgilar, fasadlar, kapital bo‘lmagan qurilish loyihalari va boshqalarni o’z ichiga oladi. Respublika shaharlarida tartibga soluvchi turli qoidalar mavjud, ammo ishlab chiquvchilardan tortib tadbirkorlargacha amal qilinishi zarurbo’lgan, hamma amal qiladigan dizayn-kodi mavjud emas.

Shuning uchun, ko'cha reklama bannerlari, kirish guruhlari, obodonlashtirish elementlari yaxshi dizayn-kodi, joyning tarixiy o'ziga xosligini va uning xususiyatlarini hisobga olgan holda, idrok etish uchun shahar makonining vizual izchil tasvirini yaratishga imkon beradi [4].

Dizayn-kodi shahar aholisining psixo-emotsional holatiga bevosita ta'sir qiladi. Ta'kidlanishicha, bugungi kunda me'morlar estetikani yaratishi, binolarni me'yorlaridan kelib chiqqan holda Dizayn-kodini belgilovchi qat'iy tartibga soluvchi qoidalar to'plamini yaratishi kerak. Bu bir tomondan binoning xavfsizligi uchun javobgar bo'lsa, ikkinchi tomondan, shart-sharoitlarni belgilaydigan bo’lishi joiz. Yashash muhitida dizayn-kodi bilan madaniyatning o‘ziga xosligini ochib berishi va mamlakat tarixini hikoya qilishi, bir-biriga hurmatni singdirishi - bu nomoddiy dunyo toifasiga kiradi va inson madaniyatiga ta'sir qiladi. Madaniyatdan biz darhol eng yaxshi insoniy fazilatlarni rivojlantirishga ko'prik tashlashimiz mumkin

Dizayn-kodi ma'lumotlar va reklama tuzilmalarini joylashtirish va ko'rinishini tavsiflaydi, tablolar, taxtalar, plaketlar, derazalarni bezash va ayvonlar mujassam qilish mumkin. Shahar atrofini bayramona bezash, shahar navigatsiyasini qanday to'g'ri joylashtirish bo'yicha tavsiyalar, manzillarni ko'rsatish stendlari ko'rish mumkin. Hududning arxitektura va shahar ahamiyatidan kelib chiqqan holda, to'xtash pavilyonlarini, statsionar bo'lmagan savdo obyektlarini joylashtirish va loyihalash bo'yicha umumiy talablar asosida kiosklar, archa bozorlarining pavilyonlari, yozgi kafelarni tartibga soladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dizayn-kod asosan 3 turdagi axborot-reklama inshootlarini joylashtirish va tashqi ko‘rinishini tartibga soladi: binolarning jabhasiga o‘rnatiladigan, mustaqil va manzil taxtalari. Fasaddagi axborot va reklama konstruksiyalari asosan tomga o'rnatish moslamalari, ma'lumot taxtalari, shaffof konstruktsiyalar va boshqalar kiradi. Axborot va reklama konstruktsiyalariga axborot stendi, yo’lka belgisi, navigatsiya stelasi, navigatsiya belgisi hamda festival bezaklarini kiritish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Ma’lumotlar taxtasi

Ko’pchili dizayn-kod to’plarida quyidagi turdagi mustaqil tuzilmalar uchun qoidalar mavjud: ma'lumot stendlari, ustunlar, navigatsiya stelalari, navigatsiya belgilari va festivallarni bezash uchun mo'ljallangan inshootlar. Ushbu toifalarning hech biriga kirmaydigan tuzilmalarni joylashtirish hudud xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va mahalliy hukumat o’rganlarining ruhsati bilan o’rnatishga ruhsat etiladi [5].

Ushbu qoidalardan qat'iy tarzda barcha mustaqil axborot va reklama tuzilmalariga nisbatan qo'llaniladi ularning turi va joylashuvi bo'yicha normalar belgilaydi. Axborot va reklama inshootlarini o'rnatish va ulardan foydalanish muhandislik infratuzilmasi obyektlarining ishlashiga xalaqit bermasligi kerak. Tuzilmalar xavfsiz bo'lishi, qurilish normalari va qoidalariga, shuningdek tegishli turdagi inshootlarga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq loyihalashtirilgan, ishlab chiqarilgan, yig'ilgan va o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Axborot tuzilmalarini o'rnatish va demontaj qilish bo'yicha ishlarni bajarishda odamlarning shaxsiy xavfsizligini va harakat xavfsizligini [6], shuningdek binolar, inshootlar, mulklarning xavfsizligini ta'minlash uchun barcha choralarni ko'rish kerak. Har qanday axborot va reklama tuzilmalari shamol va qor yuklarini hisobga olgan holda o'rnatilishi kerak.

Tahlil va natijalar. Alohida tuzilmalar maxsus jihozlarning o'tishiga to'sqinlik qilmasligi kerak Erkin tuzilmalardan yorug'lik ustunlarigacha bo'lgan

masofa kamida 2 m bo'lishi kerak. Reklama taxtalarini, shu jumladan video ekranlilarni joylashtirish taqiqlanadi. Ma'lumot va reklama joylashtirish taqiqlanadi to'siqlarda 2m. Svetoforlar, yo‘l belgilari va boshqa texnik inshootlarga axborot va reklama joylashtirish taqiqlanadi 1-zona hududida joylashgan mustaqil tuzilmalar orasidagi masofa kamida 120 m bo'lishi kerak. Axborot stendi - bu reklamalar, ma'lumotnomalar, hudud xaritalari va e'lonlarni joylashtirish uchun kichik o'lchamli mustaqil tuzilma. Axborot stendi tashqi yoritish bilan jihozlangan bo'lishi mumkin, agar kabel stend strukturasida yashiringan bo'lsa. Stendning maksimal umumiy balandligi 2,1 m, maksimal kengligi 1,5 m (2,3-rasmlar).



2-rasm. Axborot tuzilmalarini o'rnatish



3-rasm. Axborot tuzilmalarini o'rnatish

Axborot stendi bir tomonlama va ikki tomonlama axborot maydonlari bilan tuzilishi mumkin. Bir tomonlama dizaynning orqa tomoni dekorativ ramka bilan to'ldirilishi kerak. Agar stendlar reklama uchun ishlatilmasa, ularni guruhlarga ajratish kerak va har bir guruhda 3 tadan ko'p bo'lmagan dizayndan foydalanish tavsiya etiladi. Axborot stendlari birinchi navbatda piyodalar uchun barcha turdagi ko'chalarga o'rnatilgan va mo'ljallangan bo’ladi. Binolar bilan funktsional bog'langan stendlar jabhaga yaqin joylashtirilishi mumkin [7]. Axborot stendida binova inshootlarga yo'lning chetidan kirishni to'sib qo'ymasligi kerak. Ko’p hollarda stendlar orasidagi masofa kamida 100 m bo'lishi talab etiladi, shu bilan birga, reklama uchun foydalanilmasa, 3 tagacha stendni ketma-ket joylashtirishga ruxsat beriladi. Stendlar yoki stendlar guruhlari boshqa tuzilmalar o’rtasidagi minimal masofa 120 m bo’lishi zarur (4-rasm).

Yo'lak belgisi - bu reklama va menyular joylashtirilgan kichik o'lchamdagi mustaqil mobil tuzilma. Shuningdek, yo’lak belgisi savdo nuqtasi o'z belgisiga ega bo'lmagan hollarda ham qo'llanilishi mumkin. Reklama ustunini joylashtirish muddati savdo nuqtasining ish vaqti bilan cheklangan. Ustunning maksimal balandligi 1,2 m maksimal kengligi 0,8 m. Ustunlar atrofdagi binolar va kichik me'moriy shakllar bilan birlashtirilishi kerak, vizual shovqin yaratmasligi kerak, shuning uchun ranglar yorqin bo'lishi mumkin emas. Ustunning ko'rinishi u o'rnatilgan maydonga bog'liq.



4-rasm. Reklama stendi

Navigatsiya stelasi - bu atrofdagi hudud, diqqatga sazovor joylar va transport infratuzilmasi elementlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish uchun mo'ljallangan mustaqil axborot tuzilmasi. Ma'lumotlar birinchi navbatda piyodalarga qaratilgan. Navigatsiya stelalari piyodalar (shu jumladan sayyohlar) zich oqimi bo'lgan aholi punktining asosiy va ikkinchi darajali ko'chalarida, shuningdek, sayyohlar orasida eng mashhur bo'lgan tabiiy obyektlardan keyingi joylarda qishloq chegaralarida joylashtirish uchun mo'ljallanadi. Stela yaxshi ko'rinadigan joyda turishi kerak [8]. Piyodalarning axborot tizimi uzluksiz bo'lishi zarur. Navigatsiya stelarini 300 m dan ortiq bo'lmagan masofada o'rnatish tavsiya etiladi. Tuzilishning joylashuvi piyodalar va harakatchanligi cheklangan odamlarning harakatlanishi uchun qulay bo'lishi va ko'chalarni mexanizatsiyalashgan tozalashga xalaqit bermasligi kerak [9]. Navigatsiya stelasi harakat yo'nalishida joylashgan yo'l belgisi yoki svetofordan kamida 4 m masofada joylashgan bo'lishi kerak. Stellarni jamoat transporti bekatlari yaqinida va asosiy ijtimoiy tashkilotlarga kirish joylari yaqinida joylashtirish tavsiya etiladi (5,6-rasmlar).



5-rasm. Reklma va malumotlat taxtasi

6-rasm. Reklama taxtalarining noto’g’ri o’rnatilishi

Tarixiy shahar misolida oladigan bo'lsak ushbu na'munadagi malumot taxtalari xozirgi zamon talabiga javob bermaydi hamda joylashgan hududi masofa yozuv qismi rangi har bir elementiga axamiyat berish talab etiladi [10]. Yurtimizdagi islohotlardan kelib chiqqan holda turistlarni jalb qilish, shahar hududida estetik ko'rk beradigan infratuzilmani to'g'ri shakllantirish kerak buladi. Bu xolatda har bir malumot obyektlari shahar xuxudidan kelib chiqib kodlanadi va shaharning har bir elementi shu asnosida yaratiladi [11], [12]. Betartib joylashtirilgan taxtalar yozuvlar va reklama tablolari kabi ma'lumot beruvchi obyektlarning har birini alohida joyga moslab qilinishi kabi tarixiy hududlar uchun ham alohida talab me'yorlari asosida bo'lishi joiz (7,8-rasmlar).

6-rasm. Ma'lumot taxtalarining noto'g'ri o'rnatilishi



6-rasm. Ma'lumot taxtalarini joylashtirish bo'yicha takliflar

Xulosa. Xulosa qilib shu aytish kerakki dizayn kodi bejiz ishlab chiqilib uni tadbiq etish kiritilishi ko'zda tutilganni yo'q yurtimizga yanada ko'rk berib did hamda estetik zavq berish uchun uslub tartibni hamohang qilgan xolda umumiy yaxlit aniqlik kiritish imkonini beradi. O'z o'zidan shu aniqki bu tartiblilikni uslubni dizayn taraflama yondashish kerak bo'lib dizaynerlarning xissasi katta bo'ladi. Ular bilan birga ushbu muammoga yechim topiladi. Xar bir ko'chaga binoga o'zgacha umumiylikni saqlab qolgan xolda dizayn takliflar beriladi.

1) Dizayn kodlarni ishlab chiqilib ularni har bir inshoatlarga kerakli talablar asosida qo'llaniladi. Kichik bir elementlarni xam nazardan chetda qoldirmasdan har biri bilan aloxida ishlab chiqilishi kerak. Piyodalar uchun xam, mashina xaydovchilar uchun ham o'qilishi tushunarli bo'lgan malumot bannerlarini va yo'l ko'rsatgichlarning tartibi xisobga olinishi zarur.

2) Me'moriy uyg'unlikni ta'minlagan holda dizayn-kod qoidalari orqali tartibga solinuvchi kichik me'moriy shakllardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Kichik me'moriy shakllardan to'g'ri va unumli foydalangan holda tarixiy shaharlarimizga yanada ko'proq turistlarni o'ziga jalb etish maqsadida turli qulayliklar yaratish imkoniyatlarini ochib berilishi tavsiya etiladi.

3) Qoida sifatida shuni takidlash kerakki kichik me'moriy shakllarni jamoat hududlarida joylashtirishda O'zbekistonda endi yo'lga qo'yilayotgan Dizayn-kod qoidalariga moslash, uning elementlarini to'smasligi yoki harakatlanuvchilarga halaqit bermasligini ham inobatga olish zarur hisoblanadi. Xar bir tashrif buyurgan mehmonlarga xalqimizning yoshu qari vakillariga yurtimizdan iliq tasurot qoldirish maqsadida shahrimizda servis xizmatini yaxshilashga dizayn-kod qoidalari juda foydali va manfaatli hamdir.

Adabiyotlar:

1. Дизайн-код правила размещения и оформления нестационарных торговых объектов в псков дизайн-код псков 2018.

2. В Узбекистане внедрят «дизайн-код» городской среды -https://kun.uz/ru/news/2020/11/29/v-uzbekistan-evnedryat-dizayn-kod-gorodskoy-sredy

3. Строительство и эксплуатация объектов ландшафтной архитектуры. Теодоронский В.С. и др. 2008. Глава 7.

4. Saidov A.A. "Ergonomika". Darslik. Toshkent. 2018.

5. Reyimbaev Sh., Adilov Z., Matniyazov Z. Role of the design code in improving the quality of the urban environment. Academicia: an international multidisciplinary research journal.

6. Elmurodov S.S. Nostatsionar savdo obyektlarning turli davrlardagi funksional. "Arxitektura, qurilish va dizayn ilmiy-amaliy jurnali" Toshkent, 2021 y.

7. Малые формы в застройке и благоустройстве городов / Колли Н.Я., Артамонов В.А., Тарасова Е.А., Толстой И.А. - М.: Стройиздат, 1964 г.

8. Дизайн-код. Правила размещенияии оформления нестационарных торговых объектов в пскове/ Псков 2018 й.

9. Adilov Z.X., Matniyazov Z.E., Tadjibaeva D.M., Tadjibaev J.X., Elmurodov S.S. (2020) "Landscape Design Projects for 4r-173 Call-Mountain Road Side", International journal of advanced research in science, engineering and technology. Vol. Issue 12, December 2020. ISSN: 2350-0328. pp. 16238-1624

10. http://vitalik.kz/новый-центр-города-русский-самарканд

11. http://need.estate/ru/news/asia/4664-rus09varla-uvidet-samarkand-spotknutsya-i-umer

12. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D0%B0%D0%B9%D0%BB:Mirzo_Ulugbek_street_in_Samarkand .jpg

13. lex.uz/ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.08.2021 y. 485-son.

UDK: 712.7: 72.04.01

TARIXIY SHAHARLARNI DIZAYN-KODINI ISHLAB CHIQISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI

Matniyazov Zafar Erkinovich, arx.b.f.d., dotsent; **Tajibaev Jur'at Xamroyevich,** tayanch doktorant,
Saidxonova Umida Ziyodullayevna v.b.dotsent,
Tajibayeva Diyora Muhammadsobir qizi tayanch doktorant,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Maqolada dizayn-kod mavzusi bo'yicha xorij tajribasi, dizayn-kod haqida umumiy tushunchalar, uning yo'nalishlari va ushbu yo'nalishlar bo'yicha yurtimizning tarixiy hududlaridagi muammolar haqidagi fikrlar mulohaza qilinadi.
Kalit so'zlar: dizayn-kod qoidalari, tarixiy shaharlar, ko'chalar, yo'l qoplamalari, landshaft, visual shovqin, osma yozuvlar.

The article discusses foreign experience on the topic of design code, general concepts about design code, its directions and the problems in the historical regions of our country in these directions.
Key words: design code rules, historical cities, streets, pavements, landscape, visual noise, hanging signs.

В статье рассматривается зарубежный опыт по теме дизайн-кода, общие понятия о дизайн-коде, его направления и проблемы в исторических регионах нашей страны в этих направлениях.
Ключевые слова: правила проектирования, исторические города, улицы, тротуары, ландшафт, визуальный шум, подвесные вывески.

Kirish. Dizayn-kodi - bu stilistik jihatdan birlashtirilgan, qulay va xavfsiz shahar muhitini yoki boshqa jismoniy makonni yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan dizayn qoidalari, talablari va tavsiyalari to'plami. Oddiy qilib aytganda, dizayn kodlari bo'yicha qo'llanma, masalan, belgilar, jabhalar, kirish joylari, reklama konstruktsiyalari, kiosklar, yo'l belgilari, ko'cha mebellari, derazalar, konditsionerlar, yoritish va boshqalarni qanday joylashtirish va loyihalashni tushuntiruvchi yo'riqnomadir. Dizayn-kodi o'z oldiga shaharda muhitni yaxshilash, turli hil reklamalardan vizual tozalash, arxitektura yodgorliklarini asl holicha saqlab qolish, madaniy va tarixiy salohiyatini oshirish, qulay va havfsiz jamoat joylarini yaratish kabi vazifalarni qo'yadi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot ishini olib borishda ko'plab chet va o'zimizning tadqiqotchi olimlar izlanishlari o'rganildi. Jumladan dizayn-kodlarni asoslash bo'yicha D.Romanova, K.A. Donguzov, Y.I. Mannasova, A. Sivsova, shahar muhitini tashkil etish borasida Lang Jon, dizayn-kod elementlarini tashkil etish borasida Elmurodov, S., Matniyazov, Z., Saidxonova, U., Abdujabborova, D. va boshqa tadqiqotchilar izlanishi tahlil etildi. Har bir shahar o'ziga xosligi, madaniy va etnik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos dizayn-kodiga muhtoj. Shu sababli bu sohada izlanish olib borayotgan olimlarning mehnati juda qadrli.

Tadqiqot metodologiyasi. Yevropa mamlakatlarida "dizayn-kodi"ni ishlab chiqarish bo'yicha yuqori tajribaga ega. Misol uchun Angliyani tajrbasini olib qaraylik. Londonda ilk marotaba 1666 yilda shaharga tushgan yong'in sababli shaharni qayta qurilayotgan paytda dizayn-kodidan foydalanilgan. Yevropa davlatlarida dizayn-kodi – bu ko'zga ko'rinmas lekin shahar aholisi uchun qulay, havfsiz va estetik chiroyli muhitni yaratuvchi qoida sifatida tushuniladi [1].

Berlinda esa Shahar yo'llari qoplamalaridagi yo'l ko'rsatuvchi belgilar (navigatsiyalar)ga katta ahamiyat beriladi. Bu yerda Shahar ko'chalari qoplamasi uchun beshtagacha turli hildagi plitkalardan foydalaniladi. Bunday har xil rang va fakturaga ega bo'lgan yo'l qoplamalari va plitkalar aholiga manzillarini tez va oson topishlariga katta yordam bo'ladi. Masalan velosiped haydovchi yo'lovchilar uchun choksiz plitkalardan, piyoda yuruvchi yo'lovchilar uchun esa mayda silliq fakturali plitkalardan foydalangan holda yo'lkalar yaratiladi. Bundan tashqari tabiatni asrab avaylash maqsadida daraxtlarning pastki qismiga ildizlariga zarar yetmasligi uchun shag'al to'shab qo'yiladi. Shahar yo'llariga shu kabi dag'al yoki silliq qoplamalar qoplash nafaqat sog'lom yo'lovchilar balki ko'zi ozish nogironlar uchun ham manzilni aniqlashda qulay hisoblanadi [2].

Gollandiyaning Middelburg shahrida piyodalar va avtomobillar zonalarini alohida ajratib ko'rsatishda rangli plitkalardan foydalaniladi: kulrang yo'l markazini, olov rang esa yo'l chetini belgilashda qo'llaniladi. Bu plitkalar kim uchun va qayerga o'tish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Masalan piyodalar o'tishi uchun belgilangan rangdagi plitkali yo'laklarda avtomobil yurishi mumkin emas yoki aksincha. Bu esa o'z navbatida turar joy binolari atrofida avtomobillar tartibsiz tarzda qo'yilib yo'llar to'silib qolishini oldini oladi.

Praga ko'chalari dunyoga eng mashxur yo'l bruschatkasi hisoblanib, kichik marmar va granit toshlardan qoplangan. Shahar ko'chalaridagi yo'l qopmalamalari huddi mozaika bezaklari bilan bezatilgan yuzani eslatardi. Bunday uslub maydonni nafaqat fakturasi, rangi bilan balki bruschatkalar terilish yo'nalishi bilan ham yo'l ko'rsatuvchi hisoblanadi (1-rasm).

Ma'lumki farovon turmush tarsiga qaramay Yevropa davlatlarida jinoyatchilik darajasi yuqori hisoblanadi. Jinoyatchilikni oldini olish maqsadida Shahar ko'chalarini yorug' keng qilib loyihalash, Shahar infratuzilmasini yaxshilashga indiladilar. Masalan: Germaniyada qahvahonalarni keng maydon o'rtasiga joylashtirishadi, bu usul bilan jamoatchilik top'lanib qolishini, hilvat ko'chalarda jinoyatchilik sodir etilishini oldini oladi. Myunhenda esa ko'cha o'rindiqlarini yo'l bo'ylab emas burchak ostida

joylashtiriladi, bu usul ko'chaning doimiy har tomondan kuzatuv ostida bo'lib turishini taminlaydi [3].

1-rasm. 1) Berlin ko'chalari. 2) Middelburg ko'chalari, 3) Praga ko'chalari

Dizayn-kodi ko'zga tashlanmaydigan vositalar yordamida turli xil muammolarni hal qiladi. Venada, avtobus to'xtash joylari atrofidagi yo'laklarni sathini sal yuqoriga ko'tarib qo'yish bilan ko'pgina yo'l transport hodisalarini oldini olingan. Gamburg shahrida esa hayvonlar axlati uchun mo'ljallangan urnalar daraxt tanasiga joylashtiriladi bu bilan esa Shahar tozaligi saqlanadi. Rotterdam shahrida esa velosiped haydovchilari uchun shunday urna o'ylab topishganki haydovchilar velosiped haydab ketayotib ham urnaga axlatni tashlash mumkin.

London va Berlinda ko'chalardagi yozuvli belgilar va reklama konstruksiyalari o'rnatish uchun qat'iy qoidalar mavjud. Kim o'rnatilgan qoidani buzsa rasmiylat tomonidan jarimaga tortiladi va jazolanadi. Natijada Shahardagi binolar jabxalari "vizual shovqindan" himoyalanadi va binolar o'zining asl go'zalligini yoqotmagan holda saqlanadi.

Rossiyada birinchi ko'zga ko'ringan muhim dizayn kodlaridan birini 2013 yilda "Artemy Lebedev" studiyasi ishlab chiqgan. Moskva uchun yaratilgan ushbu hujjat poytaxtning tarixiy markazidagi 11 ko'cha, jumladan, Vozdvijenka, Kamergerskiy ko'chasi, Noviy Arbat va Tverskaya ko'chalari uchun reklama va axborot tuzilmalarini joylashtirishning me'moriy-badiiy konsepsiyasini o'z ichiga olgan [4].

Bugungi kunda O'zbekistonning ham "dizayn-kodi" ustida ish olib borilmoqda. Shu kungacha Respublikamizning birorta hududi uchun dizayn-kodi joriy etilmagan edi. Ammo 2020 yilning noyabr oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qulish vazirligiga shahar muhitini an'anaviy arhitektura va madniyat elementlarini, shuningdek tabiiy iqlim-sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy "dizayn kod" larni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha topshiriq bergan edi. Topshiriqga ko'ra bu masala 2022 yil 1- iyuldan amalda qo'llanilishi kerak edi. Lekin bu masalalani amalga oshirish murakkab bo'lib, hududlarni o'ziga hos hususiyatlarini topib shu asosda aynan shu hudud uchun "dizayn kod"larni ishlab chiqish oson emas. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'plab loyiha institutlari, xorijiy mutaxasislar va arxitektura universitetlari shu masala ustida ish olib bormoqdalar.

Ma'lumki dunyo davlatlarida eng ahamiyatga molik joylar bu ularning tarixiy yodgorliklari joylashgan hududlari hisoblanadi. O'zbekistonda ham turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan hududlar bu tarixiy Shaharlarimiz Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Termiz, Shahrizabz kabi Shaharlardir. Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro viloyati tanlab olindi. Buxoro viloyatiga tashrif buyurganingizda bu yerda joylashgan qadimiy obidalar ko'pligi sizni hayron qoldiradi. Poi-Kalon me'moriy ansambli, ulug'vor Sitorai Moxi Xosa saroyi, Varaxsha va Poykent qadimgi manzilgohlari, Naqshbandiya so'fiylik tariqatining yettita taniqli namoyondalari maqbaralari hech bir sayyohni befarq qoldirmaydi. Ushbu diqqatga sazovor joylarning ro'yxatini cheksiz davom ettirish mumkin. Faqat Buxoroni o'zida o'rta asrlarga tegishli bo'lgan bir yuz ellikdan ortiq me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, ularning aksariyati YUNESKO ning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan [5].

Buxoro viloyatini "dizayn-kodi"ni ishlab chiqish bo'yicha muammolarni o'rganish jarayonida tarixiy binolarimiz atrofida turli shakldagi, turli hajmdagi, har xil rangdagi kichik arxitekturaviy shakllar, reklamarga ko'zimiz tushdi (2-rasm).

2-rasm. Buxoro shahrining tarixiy ko'chalarida kuzatilgan negativ holatlar

Asrlar mobaynida saqlanib kelgan buyuk tarixiy obidalarimiz atrofi bunday "vizual shovqin" bilan to'sib tashlanganligi birinchidan binoning go'zalligini to'laligicha ko'rishga halaqit bersa ikkinchidan

bu yerga tashrif buyuradigan turistlar sonini kamayib ketishiga ham sabab bo'ladi. Dizayn-kodi ishlab chiqishda bir necha yo'nalishlarda ish olib borish mumkin masalan: bino jabhalaridagi reklama va osma yozuvlar, yo'l ko'rsatuvchi belgilar, nostatsionar savdo binolari, to'siqlar, to'htash joylari, katta ko'cha yuzalaridagi qoplamalar kabi [6], [7], [8].

Tahlil va natijalar.

Yuqorida aytganimizdek Buxoro viloyati Respublikamizning eng ko'p turistlar tashrif buyuradigan viloyatlaridan biri hisoblanadi. Bu esa ko'chalarda jamoatchilik qatnovi zichligini anglatadi. Ayniqsa tarixiy hududlarda turistlar sonini ko'pligi bu yerdagi avtotrasport va piyodalar yo'llarini qayta loyihalab chiqishga mutojligini anglatadi. Hududlarda avtotransportlar qatnovchi asosiy yo'llar, piyodalar uchun yo'llar va avtoturargohlar uchun joylar ajratilmagan. Dunyo tajribasidan ko'rinib turibdiki birgina shahar ko'chalaridagi yo'l qoplamalarini "dizayn kod"i ga mos ravishda loyihalashning o'zida bir nechta muammolarga yechim topish mumkin jumladan, nogiron insonlarni Shahar ko'chalarida adashmasdan manzilga yetib borishi, yo'l transport hodisalari sonini kamayishi, shaharda ekologik toza muhitni shakllanishi kabilar.

Shahar ko'chalarini loyihalashda eng avvalo ko'chda jamoat transporti va aholi harakati qanchalik darajada ko'pligiga e'tibor qaratish lozim. Har bir katta avtotransport ko'chalari yoqasida piyodalar va velosiped haydovchilari uchun yo'lkalar tashkil etilgan bo'lishi kerak.

Ko'chalar loyihasida asosiy funksional zonalar bular:

1. asosiy yo'l - avtotransportlar yurishi uchun yo'l;
2. piyodalar uchun yo'lakar;
3. bufer chizig'i - piyodalar va avtotransportlar yo'llarini bir biridan ajratib turuvchi yo'l.

Qo'shimcha funksional zonalar**:**

4. kichik hajmdagi avtotransportlar qatnovi uchun mo'ljallangan yo'l (kvadratsikl, qorda yuruvchi avtoulov va boshqalar kabi);
5. avtoturargoh – avtotranspotrlar to'xtab turishi uchun mo'ljallangan yo'l;
6. texnik zona – yo'l belgilari va injenerlik asbob uskunalari uchun mo'ljallangan joy;
7. yashil hudud;
8. aholiga umumiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari uchun mo'ljallangan yo'l;
9. xonadonoldi hududlari.

Shahar ko'chalari yo'llarini loyihalashda yuqorida keltirib o'tilgan funksional zonalarda qanday materiallardan foydalanish kerak degan savol ham asosiy masalalardan biridir. Yo'l qopmalasi uchun material tanlashda eng avvalo shu zonaning iqlim sharoitini, aholining zichlik darajasini, va iqtisodiy tomonlarni hisobga olish zarur. Yo'l qoplamalari uchun quidagi materiallardan foydalanish mumkin: yog'och, sun'iy tosh, tabiiy tosh [9].

Yog'ochdan ishlangan yo'l qoplamalari asosan piyodalar uchun mo'ljallangan yo'laklarda, ayrim holatlarda esa bufer chizig'i o'rnida ishlatish mumkin. Yog'ochdan ishlangan yo'l qoplamalari shahar parklarida yashil hududlar ustidagi kichik yo'laklarda ham keng qo'llanilmoqda. Yog'och qoplamali material yomg'ir qorga uncha chidamli bo'lmaganligi sababli uning ustini maxsus lak bilan himoyalangan bo'lishi kerak [10].

Maydalangan tabiiy tosh yoki shag'al asosan rekreatsion hududlarda, shaharning tabiiy landshaft hududlarida, xonadon oldi va jamoat binolari hovli yuzlarida qo'llaniladi. Tabiiy mayda toshdan foydalanilgan zonalar atrofi kichik toshchalar sochilib sachrab ketmasligi uchun chegaralar bardyur bilan himoyalab o'rab chiqiladi.

Tabiiy tosh har xil shakl va kattalikdagi toshlar o'zining ko'p yilga chidamligi, bosimga chidamliligi, tarixiy obidalarga mos kelishi bilan yaxshi hisoblanadi. Bu turdagi materiallarni piyodalar yo'lkalarida, texnik hududlarda, va jamoatchilikga umumiy xizmat ko'rsatish yo'llarida qo'llash mumkin. Bundan tashqari tarixiy obidalarning landshaft hududlarida, shaharning park hududlarida qo'llash mumkin.

Beton plitkalar og'ir bosimga chidamligi, ustidan kerakli rang qoplama bilan bo'yash mumkinligi, ba'zi hollarda marmar, mayda shaga'al qoplamasi yopishtish qoplash mumkinligi bu materialning afzalligidir. Beton plitkalardan piyodalar o'tish yo'laklarida, jamoatchilikka umimiy xizmat ko'rsatish yo'laklarida, texnik zonalarda foydalanish mumkin. Beton plitkalarni yerga bir tekistlikda tahlanganligiga ahamiyat berish lozim. Plitkalarni zararlanganlarini almashtirib turish yomg'ir suvlari to'planib qolmasligi uchun yetarlicha qiyalik berilganligiga ahamiyat berish kerak.

Asfaltbeton yo'l qoplamasi uzoq muddatga chidamli, sirg'anib ketishga chidamli va bir tekisda silliq yuzaga egaligi bilan yaxshi hisoblanadi. Yo'lning barcha funksional zonalarida qo'llash mumkin. Asfaltbeton yuzali qoplamalar uzoq muddat xizmat qilishi uchun har xil iqlim sharoiti sababli yuzaga kelgan yoriqlarni vaqtida yamab turish lozim.

Xulosa qilib aytganda "dizayn-kodi" har bir shaharda ayniqsa tarixiy shaharlar uchun ishlab chiqilganda:

1) Qadimiy, asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan obidalarni chiroyini to'sib qo'ymaslik, uni tarz qismini turli hildagi reklama va osma ma'lumotlar bilan to'ldirib tashlamasligi kerak.

2) Shaharni "visual shovqin"dan halos etish, piyodalar va avtotrasportlar harakati uchun qulayliklar yaratish kabi bir qancha muammolarni hal qiluvchi tavsiyalar sifatida turli hududlar uchun alohida ishlab chiqish juda muhimdir.

3) Respublikamizning tarixiy hududlari uchun dizayn kodlar ishlab chiqish yurtimiz ko'chalari yanada chiroyli bo'lishi, tadbirkorlar daromadi yanada oshishi, nogiron aholi qatlami adashmasdan shaharda harakatlana olishi, jinoyatchilik va yo'l transport hodisadisalari soni kamayishi, tarixiy shaharlarimizga tashrif buyuruvchi turistlar soni yanada ko'payishi uchun sabab bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Романова Д. Дизайн-код существующего государственного благоустройства / Д. Романова // В сбор-

ние:Традиции и инновации в строительстве и архитектуре. Градостроительство. Сборник статей. Под редакцией М.В. Шувалова. Самара, 2018. С.264-266.

2. Urban Inside. Путеводитель по Берлину. [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://urban-inside.com/ (дата обращения: 23.05.2022).

3. К.А. Донгузов., Ю.И.Маннасова. Зарубежный опыт дизайн-кодирования городских пространств. https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-dizayn-kodirovaniya-gorodskih-prostranstv

4. Госзаказ для Артемия Лебедева. https://iz.ru/news/575587.

5. Elmurodov, S., Matniyazov, Z., Saidxonova, U., & Abdujabborova, D. (2022). Principles of Location of NonStationary Trade Objects in the Zoning Method. *Journal of Architectural Design*, *13*, 8-13.

6. Shoumarova, D., Tajibaev, J., Elmurodov, S., Saidkhanova, U., & Matniyazov, Z. (2022). Regulation Of Advertising Objects in the Development of the Design Code of Historical Cities. (In The Case of the City of Bukhara). *Journal of* Architectural *Design*, *13*, 56-63.

7. Matniyazov, Z. E., Saidkhanova, U. Z., Shaumarova, D. A., Elmurodov, S. S., Daminova, U. O., & Abdujabborova, D. D. (2022). Distinctive aspects of hotel interior design and equipment. *Journal of northeastern university*, *25*(4).

8. Elmuradov, S. S., Abdukhabirovna, S. D., Ziyodullayevna, S. U., & Olimovna, D. U. (2022). Possibilities of application of parametric design in architectures. *asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(12), 190-197.

9. Lang Jon. Urban Design: A Typology of Procedures and Products, 2003.

Фитонцидлилик ўрмонларнинг соғломлаштириш хусусиятларини оши-ради. Уларни кўпинча кўринмас санитарлар деб аташади. Улар ҳавони тоза-лайди. Қайинзор ўрмонининг бир куб метр ҳавосида тахминан 450 микроб (операция қилинадиган хонанинг йўл қўйиладиган нормаси – 500 микроб) бў-лади. Оддий шаҳар ҳавосининг 1 м^3 ида ўн минглаб микроблар мавжуд бўлади.

Ҳар хил ўсимликларда фитонцидлилик бир хил эмас. Бир соат мобайни-да 1 га қарағайзор - 0,154– 0,392 кг, қайинзор - 0,028–0,310 кг, кедрзор эса 0,114 дан 0,719 кг гача “ҳаво витамини”ни ишлаб чиқаради. Фитонцидлигининг фа-оллиги билан Оққарағай «чемпион» ҳисобланади, 1 га оққарағайзор худди шундай шароитларда бир соат ичида 0,7 кг фитонцид ишлаб беради.

Дарахтлар энг кўп фитонцид моддасини йилнинг ***июн-август ойларида***, яъни вегетатив массасининг фаоллик даврида, асосан ***куннинг иккинчи ярмида, 15-16 ларда*** тарқатади. Япроқбарглилардан фарқли ўлароқ игнабаргли ўсимликлар фитонцид ишлаб чиқишни қишда ҳам давом эттиради.

Шаҳар ҳаво бассейнининг тозаланиши ва алмашинуви асосан шамол таъсирида амалга ошади. Аммо, шу нарса маълумки, ўрмон-парклари яшил кўкаламзорларида ҳатто шамолсиз сокинликда ҳам ҳавонинг гирдобсимон ҳаракати кузатилади. Локал ҳаво оқимининг шаклланиш қонунияти эксперимен-тал исботланган, унинг йўналиши ва жойнинг умумий шамол режимидан фарқланувчи тезлиги аниқланган[4]. *Парк шамоли* билан *умумий шамолнинг* алоқаси йўқлиги яшил кўкаламзорлар ҳаво массасининг мустақиллиги, ўзига хослигини билдиради. Бу ҳодиса динамик конвекциядан фарқли ўлароқ ҳаво оқимининг термик конвекциясига дахлдордир. Дарахтлар тагидаги шамол фақат маҳаллий микроиқлим кўрсаткичларига таъсир қилади, шу билан биргаликда катта соғломлаштириш аҳамиятига ҳам эга.

Ер юзаси ҳаво алмашинувига шамол кучли таъсир кўрсатади. У ҳавода мавжуд бўлган сув парларини, газ кўринишидаги моддаларни тарқатади, чангни, уруғларни ва бошқа муаллақ заррачаларни бир жойдан бошқа жойга кўчиради.

Ўсимликлардан ажралиб чиқадиган фитонцид моддалар ҳам ўнлаб километр масофаларга тарқалиши мумкин. Уларнинг соғломлаштирувчи эффекти фақат модданинг биологик фаоллиги даврининг муддатига боғлиқ бўлади.

Шаҳар ҳавосининг яхшиланиши нуқтаи назаридан ўрмон ва парклар иложи борича шаҳарга яқинроқ жойлашиши керак. Бу талаб ҳамма вақт ҳам бажарилавермайди. Шунинг учун ўрмон-паркларнинг шаҳардан максимал узоқлиги санитгигиеник талаблар асосида 10 км дан кўп қабул қилинмайди. Аммо, бу ўлчам ҳам қатьиян ўзгариши ва рельефга боғлиқ ҳамда асосий йўналиш ва шамолнинг ўртача йиллик тезлигини ҳисобга олган ҳолда ўзгартиришлар киритилиши мумкин[7].

Адабиётлар:

1. В Г Атрохин. Лесоводство. Изд. 2-е. М., Лесная промышленность, 1976, с. 88.
2. В. Н. Власюк. Лес и его роль в охране окружающей среды. Таллин, 1976, с.65. (НТО лесной промышленности).
3. В. Н. Власюк. Фитонцидные п ионизационные свойства основных древесных пород зеленой зоны г. Москвы — Автореф. дис. па соиск. учен. степ. канд. биол. наук. М., 1970, с. 21.
4. С. А. Яблоков. Исследование движения воздушных потоков в зеленых насаждениях. — В кн.: Вопросы озеленения городов. Вып. 34. М, Изд-во Моск. лесотехн. ин-та (МЛТИ), 1971, с. 133-141
5. А. А. Молчанов. Лес и окружающая среда. М., Наука, 1968, с. 244.
6. Л.И.Литвинова, Ф.М.Левон. Зеленые насаждения и охрана окружающей среды. Киев. Здоровья, 1986. 16 с.
7. М.М.Игнатенко и др. Лесопарки ленинграда. Ленинград. Стройиздат, 1980. с.144-154.

СТИЛЬ ТУШУНЧАСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ АРХИТЕКТУРАДА ТАЛҚИН ҚИЛИНИШИ

Кушманов Т.Ф., катта ўқитувчи; **Мирзаев Д.Ф.**, талаба
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети

This article presents various ideas related to the concept of style and explains the meaning of the concept of style.

Key words. Concept of style, history of style concept, content of style concept, criterion of style concept, category.

Ушбу мақолада стиль тушунчасининг пайдо бўлиши ва замонавий архитекторларнинг стиль тушунчасига бўлган қарашлари ёритилган.

Калит сўзлар: стиль концепцияси, стиль концепцияси тарихи, функционализм, стиль тушунчаси.

Ижтимоий соҳалар ҳақида гап кетганда ёки санъатшунослик ва хусусан Архитектура тарихи ва назарияси ҳақидаги кўпгина адабиётларда “стиль” сўзи кўп тилга олинмоқда. Маълум бир ижодий соҳа тизимини ташкил қилувчи унсурларни бошқасидан фарқламоқ учун “стиль” сўзи тушунчасидан кенг фойдаланилади. Ижтимоий ҳаётимизга бунчалик кенг кириб борган бу тушунча атрофидаги қарашларни таҳлил қилишга ва унга таъриф беришга ҳаракат қиламиз.

Стиль тушунчасини ёритиб беришни унинг ибтидосидан бошлаш мақсадга мувофиқ бўлса керак. “Стиль” сўзи қадимги юнон филологиясидан келиб чиққан бўлиб, махсус ёзув тахтачасига ёзиш учун мўлжалланган метал ёки суяк чўплар шу ном (“stylos”) билан аталган. Юнончадан лотинчага у “стилюс” (“stylus”) бўлиб ўтган ва фикрни ифода қилишнинг бир усулини билдира бошлаган [1,с.82]. Санъатшунослик фанининг асосчиси И.И. Винкельман биринчи бор бу сўзни санъат тарихига олиб кирган. У 1763 йилда чоп эттирган “Қадимий санъат тарихи” асарида “стиль” категориясидан фойдаланиб санъат тарихини ўрганиш моделини яратишга ҳаракат қилган. Ўшандан буён 260 йил ўтибдики, стиль ҳақидаги билимлар кўпайиб, натижада стилга муҳим бадиий ва эстетик категория сифатида қарай бошланди. Ўшандан буён стиль мезонлари ёрдамида маълум бир даврдаги меъморий шаклллар аниқланиб келинмоқда.

Лекин, стиль тушунчасига аниқ таъриф бериш ҳақида гап кетганда кўпгина ноаниқликларга дуч келамиз. Буни атоқли санъатшунос олим, академик В.В. Виноградов сўзлари ҳам тасдиқлайди: “Санъатшунослик, адабиётшунослик ва тилшунослик соҳаларида стиль атамаси ва стиль тушунчаси каби кўп маъноли ва қарама-қарши фикрларга эга бўлган беқарор ва субъектив равишда ноаниқ атамани топиш қийин” [2,с.7]. Б.Р. Виппернинг бу борадаги сўзларини келтириш мумкин: “Стиль санъатнинг объектив кўриниши” – “у мураккаб, кўп қиррали ва кенг тушунча” [3,с.5]. Дарҳақиқат, стиль тушунчаси ҳақида қарашлар жуда турли-туман, унинг мавжудлиги, мазмун-моҳияти ҳақида бир-бирини инкор қиладиган фикрлар ҳам жуда кўп.

XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошларида стиль тушунчаси архитектуранинг асосий категорияларидан бирига айланган эди. Унинг меъзонлари ёрдамида санъат ва архитектурадаги долзарб муаммолар ечимини топишга ҳаракат қилинган, Германияда “Югендстиль”, бошқа Европа давлатларида “Ар Нуво” деб аталган янги ҳаракат санъат, хусусан архитектура назарияси ва амалиётидаги энг илғор йўналишлардан бири эди, ҳатто ўша вақтлари Голландияда замонавий санъатни тарғиб қилган ҳаракатни “De Stile” деб аташган. Бироқ, ўтган асрнинг 20- йилларидан бошлаб замонавий Европа архитектураси намоёндалари стиль тушунчасини инкор қилувчи фикрлар айта бошлашди: Вальтер Гропиус “Биз стиль эмас янги усул топишга ҳаракат қилганмиз” деган сўзлари билан ўша вақтдаги кўпгина ёш архитекторларнинг стиль тушунчасига бўлган ижобий қарашларининг ўзгаришига олиб келган бўлса[4,с.143]; бугунги кунда функционализм услубининг асосчиларидан бири деб қараладиган Ле Корбюзьенинг “ Стиль – бу ёлғон”[5,с.10], “Архитектура ҳар хил стиллар билан ҳеч қандай умумий жиҳатларга эга эмас” [6,с.237] деган сўзлари стилга эклектика рамзи сифатида қаралишига сабабчи бўлди.

Бу сўзлар стиль тушунчасининг архитектура назарияси ва тарихидаги узоқ йиллик ҳукмронлигига ўқилган ҳукм эди. Тадқиқотларимиз шуни кўрсатдики, бугунги кун баъзи замонавий архитекторларнинг стиль тушунчасига бўлган қарашлари ҳам салбий: “Мени инкор қиладиганларга шуни айтишим мумкинки, мен – стилсиз - эклектик архитекторман, чунки мен қурган бинолар турли-туман. Дарҳақиқат, ҳар доим нолдан бошлайман, берилган ҳар бир топшириққа доим аниқ жавоб ахтараман, ва мен учун ҳар бир бино ўзига хос бўлиши керак ...” деб стиль ҳақидаги қарашларини баён қилган эди Жан Рувелл (Jean Nouvel) [7, с. 254].

“Замонавий архитектура масаласи – қийшиқ ёки оддий юзалар стили масаласи эмас, уларнинг синтези масаласидир” деб Ханс Холляйн (Hans Hollein) ҳам ўзининг эклектикага мойиллигини билдирган [8].

Бундан ташқари, бугунги кунда меъморий элитани ташкил қилувчи архитекторлар стиль ҳақида инкор қилуви фикрларни билдирганки, қуйида уларни келтириб ўтаман:

Доминик Перро (Dominique Perrauit) “Мени стиль қизиқтирмайди, мени муҳитларни ташкил қилиш тажрибаси қизиқтиради” [9,с.34];

Антонио Читтерио (Antonio Citterio) “Мен ўз ишимга “стиль” нуқтаи назаридан қарамайман. Ҳар бир лойиҳа ўзига хос бўлиши керак – бино Миланда ҳам, ва Москвада ҳам бир хил “ишлай” олмайди ” [9,с. 170];

Дэвид Чипперфильд (David Chipperfield) “Мен ўзимнинг стилим бор деб ҳисобламайман, мураккаблаштириб юборилган нарсалар мени қизиқтирмайди, ундан кўра менга объектларнинг типологияси ва уларнинг қандай “ишлаши” муҳимроқ” [9,с.188];

Рафаэль Виньоли (Rafael Vinoly) “Архитектор “стиль” га хизмат қилиши керак эмас, фарқи йўқ Африкада қурасизми ёки Шведцияда, ҳамма жойда яхши лойиҳа кутишади. Агар бизнинг касбимизга яхшироқ ёндошилса, ҳар бир лойиҳа устида чуқур ўйлаб ишланса, улар бир бирини такрорлаши мумкин эмас” [9,с.157];

Уильям Олсоп (Willian Alsop) “Стиль – умуман ҳамма нарса бўлиши мумкин бўлган замонавий архитектурадаги мантиқсиз категориядир” [9,с.202];

Питер Цумптор (Peter Zumthor) “Мен ҳеч нарсани кўчирмаяпман, мен ҳеч нарсани такрорламаяпман – мен ҳозир ишлаяпман. Бу стиль эмас, сўзсиз стиль эмас. Бу - оламни ўрганиш ва ўзингнинг нарсаларингни ўзингдан келиб чиқиб

яратиш. Бугунги кун учун ҳозир нарсалар яратиш ” [10,с.138];

Н.В. Лызлов “Стиль – бу ёки танқидчилар учун, ёки эпигонлар (кўчирмакашлар – изоҳ Т.Кушмановники) учун. Бу ижод эмас таснифлаш усулидир” [11];

Питер Айзенман (Peter Eisenman) “Бошқа архитекторлар сингари менда асосий ягона ғоя йўқ, Масалан, Ричард Мейер ўзининг биноларини қаерда жойлашишидан қатиий назар, бир хил усулда қуради. Менинг ишларим мантиқийдир ва улар маълум бир мантиққа асосланади. Шунинг учун мен Сантьяго, Берлин ва Аризона Фениксида бир хил бино қура олмайман. Шунинг учун менда стиль йўқ. Френк Гери ва Майкл Грейвз бинолари бир-бирига ўхшаб кетади. Меники эса –йўқ” [12];

Рем Колхас (Rem Koolhas) “Мен ўзимни бир вақтнинг ўзида меъморий “луғат”нинг ҳам ичкарисида, ҳам ташқарисида ҳис қиламан. Бу луғатни яратишда бизнинг “OMA” компаниямиз ҳам қатнашган. Шунинг учун ҳам биз доим унинг ташқарисига чиқишга ҳаракат қиламиз. Баъзан, “луғат”дан ёки стильдан чиқиш учун уни мантиқсиз бўлишгача олиб боришга тўғри келади” [13,с. 116-117];

Одилл Декк (Odile Decq) “Мен доим ўз лойиҳаларимга янги саргузаштга, янги тарихга қарагандек қарайман, ва шунинг учун уларни бирон бир стилга тўғри келади деб ҳисобламайман” [14];

Бьярке Ингельс (Bjarke Ingels) “Рем Колхас мен учун муҳим кашфиёт бўлган. У мени нафақат чиройли биноларни лойиҳалашга, бальки сиёсий, ижтимоий жараёнларда архитектурадан фойдаланишга, ҳар хил шаклларни мустақил ифода қилишга ўргатди. Унинг учун архитектурада асосийси эстетика эмас. Архитектура стилидан эмас, ғоясидан келиб чиқиб баҳоланади ” [15].

Ушбу фикрлардан кейин шундай саволлар пайдо бўлади: наҳотки, стиль санъат ва архитектуранинг муҳим категорияси сифатида аҳамиятини йўқотиб бормоқда?, Стиль тушунчаси керакми ёки йўқми? Бу саволга шундай жавоб бериш мумкин: *стиль тушунчаси меъморий объектларни таҳлил қилишда муҳим меъзон бўлиб қолаверади. Баъзи архитекторларнинг ўзига хосликка интилиши яхши албатта, лекин ижодий “мен” ини стиль тушунчасидан ташқарида деб ҳисоблаши арихитектура тараққиёти тамойилларини аниқлашда чалкашликларга олиб келади, шундай экан замонавий архитектурани ўрганишда стиль тушунчасидан фойдаланиш жуда муҳим.* “Санъатда стилсизлик бўлиши мумкин эмас” – деган эди Хаузе. Бу фикрни Б. Брехт бошқачароқ талқин қилади. Унинг фикрича, санъат стилсиз бўлиши мумкин эмас, чунки санъат “ҳаёт протоколи” ни эмас, “ҳаёт стили” ни яратади. Унинг қайд қилишича, “Агар ўзларини реалистлар деб атайдиган голландиялик рассомларнинг ижоди ўрганилса, уларнинг стили – уларнинг замондошларининг стили эканлиги маълум бўлади. Улар ҳаммасини ҳаётдан олганлар ” [16, с.238].

Стиль тушунчасининг санъатдаги муҳимлиги ҳақида журналист Е. Барабаш ҳам айтиб ўтган: “Бугунги кун бадиий асарларида стилнинг бўлиши жуда долзарб, усиз санъатда тартибсизлик юз бериши мумкин” [17].

Стилнинг замонавий архитектурадаги ўрни ҳақидаги А.Г.Раппапорт фикрларини ҳам келтиришимиз мумкин. “Стилсиз ўзига хослик анъаналари мазмунсиз. Вақт ўтиши билан санъатнинг паёнсиз оламида образлар ўзига хос қиёфасини йўқотиб боради ва бу тартибсизликка олиб келади. Бундай тартибсизликнинг бартараф этилиши умумий йўналишларнинг мавжудлигига боғлиқдир. Стиль ўз вақтида шундай йўналиш бўлиб хизмат қилган. Замонавий архитектура тажрибаси шуни кўрсатдики, стилсиз нафақат “меъморий шакл” категорияси, балки гўзаллик тушунчаси ҳам ўз аҳамиятини йўқотади. Стилсиз шакл ҳам, гўзаллик ҳам йўқ” [18]. Бу фикрларни С.П. Заварихин ҳам тасдиқлайди. “Эртакдаги баҳодирникидан фарқли ўлароқ, бугунги кун муаллифлари, яъни яратувчиларининг олдида учта эмас ўттиз учта йўл бор, бу йўллардан олдинга технологик тараққиётнинг нурли чўққиси сари юриш ҳам ёки орқага қараб судралиш ҳам мумкин ва, умуман, ҳар қандай ижодий манзил томон бориш мумкин. Ягона услубий йўналишдан маҳрум бўлган архитектура “қандай эшитилса, шундай ёзилади” тамойиллари асосида ҳар хил шаклларда ўса бошлайди” [19].

Кўриниб турибдики, замонавий архитектурани таҳлил қилиш, унинг тараққият йўлларини аниқлашни стилсиз амалга ошириб бўлмайди. *Стиль – архитектурани ташкил қилувчи барча унсурларни боғлаб турувчи ўзак вазифасини бажаради.* Т.Ю. Быстрованинг фикрича, стиль сунъий яратишнинг иложи бўлмаган ва тушуниш мумкин бўлган “Маданият қалби” ни ўзида ифода этади [20, 246-247 бетлар].

Стилнинг мазмун – моҳиятини тушуниш учун собиқ Иттифоқ энциклопедик луғатидаги таърифга эътибор қаратамиз: ”Стиль – ягона ғояни амалга оширишга қаратилган образлар тизими, бадиий ифодалаш воситаси, ижодий усулларнинг бирлигидир ” [21, с. 1269]. Таниқли олим Р.С. Мукимов стилга шундай таъриф беради: “Меъморий стиль – бу маълум бир тарихий тараққиёт жараёнида тўпланадиган ва бир тарихий давр маданиятини бошқасидан фарқлайдиган, композиция усуллари, меъморий шакллар яхлитлигини билдирадиган бадиий категориядир” [22,с. 6]

Стиль ҳақидаги барча фикрларни тўплаб олимлар қуйидаги мураккаб ва лекин салмоқли таърифни беришган: “*Стиль - бу сезги органлари билан ҳис қилинадиган асарнинг бадиий тузилишини, унинг дастлабки модели (“қалб”, мазмун, стиль манбаи –рассомнинг ҳаётдан олган таассуротлари ва тушунарсиз йўналишлари)ни ташкил қилиш асосида бадиий асарнинг барча жиҳатларини (ички тузилиши, мазмунининг ташқи кўринишидаги ифодаси ва тарихий ўзига хослигини) очиб бериш тамойилидир”* [23,с.226] .

Стиль тушунчаси ҳақида айтилган фикрлар қанчалик қарама-қарши бўлмасин, у маълум бир давр ижтимоий – иқтисодий ҳаётини, инсонлар тафаккурини ўзида акс эттирадиган бадиий санъат ва хусусан архитектурани таҳлил қилишга ёрдам берадиган мураккаб категория бўлиб қолаверади. Стиль мезонлари орқали бадиий асар шаклларининг мазмунини қай даражада ифода этилганлигини таҳлил қилиш мумкин.

Хуллас, санъат ривожланиб, тараққий этиб борар экан стиль тушунчасига бериладиган таъриф ҳам унга мос равишда ўзгариб, мукаммаллашиб бораверади.

Адабиётлар:

1. Каплун А.И. Стиль и архитектура. – М.: Стройиздат, 1985.
2. Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. М., 1961.
3. Виппер Б.Р. Введение. В кн.: Ренессанс – барокко – классицизм. Проблема стилей в западноевропейском искусстве XV-XVII веков. - М., 1966.
4. Gropius Walter. Scope of total Architecture. New York, 1955. Цит. по кн.: Вальтер Гропиус. Границы архитектуры. – М.: Искусство, 1971.
5. Le Corbusier. Vers une architecture. Paris, s.d. Цит. по кн.: Ле Корбюзье. Архитектура XX века. - М., 1970.
6. Le Corbusier. L'Art decoratif d'aujourd'hui. Paris, 1925. Цит. по кн.: Мастера архитектуры об архитектуре. - М., 1972.
7. Рябушин А. В. Архитекторы рубежа тысячелетий / А. В. Рябушин. – М.: Искусство XXI век, 2005. – 288 с.
8. Коробьина И. М. Архитектура «NEXT» : [Электронный ресурс] / И. М. Коробьина // Вестник Европы. – 2003. – №10. – URL: http://magazines.russ.ru/vestnik/2003/10/korob25.html, свободный. – (Мурожаат вақти:12.06.2020 й.).
9. Словесные конструкции: 35 великих архитекторов мира : Сборник статей / под ред. Е. Микулиной. – М.: КоЛибри, Азбука-Аттикус, 2012. – 240 с.
10. Цумтор П. Об архитектуре / записала Ирина Коробьина // Проект International. – 2007. – №18. – С. 136-139.
11. Лызлов Н. В. Интервью с Николаем Лызловым / записал Григорий Ревзин // Проект Классика. – 2008. – №25. – С. 72-76.
12. Eisenman P. I Am Not Convinced That I Have a Style [Электронный ресурс] / записал V. Belogolovsky // ArchDaily : official site. – Dublin, 2008-2017. – URL: 218 https://www.archdaily.com/785334/interview-with-peter-eisenman-i-am-notconvinced-that-i-have-a-style, свободный. – (Мурожаат вақти:12.06.2020 й.).
13. Паперный В. З. Fuck Context? / В. З. Паперный. – Екатеринбург: Tatlin, 2011 – 120 с.
14. Декк О. Интервью с Одиль Декк [Электронный ресурс] / записала Елизавета Клепанова // Architectural Digest : официальный сайт журнала. – М., 2012- 2016. – URL: http://www.admagazine.ru/arch/12527_intervyu-s-odil-dekk.php, свободный. – (Мурожаат вақти:10.06.2020 й.).
15. Ингельс Б. Архитектура как социальный заказ [Электронный ресурс] / записал Владимир Белоголовский // Люди: официальный сайт издательства «Tatlin Publishers». – Екатеринбург, 1999-2017. – URL: https://tatlin.ru/articles/arxitektura_kak_socialnyj_zakaz, свободный. – (Мурожаат вақти:13.06.2020 й.).
16. Брехт Бертольд. Рабочий дневник (1938-1955). Составление, перевод с нем. И примечания Е.Кацевой. - М.: Новый мир, 1976. №5.
17. Актуально ли сегодня понятие стиля : опрос Русского журнала (22.03.2002 г.) [Электронный ресурс] // Архив : Русский журнал. – М.: 1997-2014. – URL: http://old.russ.ru/culture/20020322_zzz.html, свободный. – (Мурожаат вақти:14.06.2020 й.).
18. Раппапорт А. Г. Стиль и среда [Электронный ресурс] / А. Г. Раппапорт // Авторский блог Александра Гербертовича Раппапорта «Башня и лабиринт. – 2011. – URL: http://www. papardes. blogspot.ru / # ! http: // papardes. blogspot. Com / 2011 / 10 / blogpost 14.html, свободный. – (Мурожаат вақти:14.06.2020 й.).
19. Заварихин С. П. Приглашение к диспуту куда движется архитектура? / С. П. Заварихин // Архитектон: известия вузов. – 2002. – №2. – С. 22.
20. Быстрова Т. Ю. Вещь. Форма. Стиль: Введение в философию дизайна / Т. Ю. Быстрова. – Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 2001. – 288 с.
21. Советский энциклопедический словарь / Гл.ред. А.М.Прохоров. – 3-е изд.- М.: Сов. Энциклопедия, 1984.- 1600 с.,ил.
22. Мукимов Р.С., Мукимова С.Р. Стили, направления и школы в архитектуре и искусстве.- Душанбе: ОО "ICOMOS в Таджикистане", 2009. – 205 с., ил.
23. Лосев А. Ф. Проблема художественного стиля / А. Ф. Лосев. – К.: Collegium; Киевская Академия Евробизнеса, 1994. – 288 с.

ҚУРИЛИШ КОНСТРУКЦИЯЛАРИ, БИНО ВА ИНШООТЛАР СТРОИТЕЛЬНЫЕ КОНСТРУКЦИИ, ЗДАНИЯ И СООРУЖЕНИЯ

УДК 624.012

СТАЛЬНАЯ БАЛКА, ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЕННАЯ ЗАТЯЖКОЙ

Фридман Г.С. доцент, к.т.н**., Туракулова Ш.М.,** докторант
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

В статье приводится расчет стальной двутавровой балки, предварительно напряженной шпренгельной затяжкой. Расчет производится в программном комплексе ЛИРА САПР версии 2015 года в геометрически нелинейной постановке. Приведен анализ работы балки в стадиях предварительного напряжения и под нагрузкой, показана экономическая эффективность предварительно напряженной балки по сравнению с обычной.

Ключевые слова: двутавровая балка, ЛИРА САПР, предварительное напряжение, геометрическая нелинейност.

Maqolada oldindan zo'riqtirilgan shpringelli tortmali qo’shtavr po'lat balkaning hisobi keltirilgan. Hisoblash 2015 yil versiyasidagi LIRA SAPR dasturiy paketida geometrik chiziqlini hisobga olib amalga oshiriladi. Oldindan kuchlanish va yuk ostida bo'lgan bosqichlarda balkaning ishlashi tahlili berilgan, an'anaviy bilan solishtirganda oldindan zo'riqtirilgan balkaning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: qo’shtavr to’sin, LIRA SAPR, oldindan kuchlanish, geometrik nochiziqlik.

In article calculation steel a i-beam preliminary intense with by an sprengel inhaling is resulted. Calculation is made in a program complex LIRA CAD of version 2015 in geometrically nonlinear statement. The analysis of work of a beam in stages of preliminary pressure and under loading is resulted, economic efficiency of preliminary intense beam in comparison with usual is shown.

Key words: beam, LIRA CAD, prestressing, geometric nonlinearity.

Предварительное напряжение в металлических конструкциях осуществляется с целью повышения их несущей способности и жесткости. Расход стали при этом снижается за счет применения затяжек из высокопрочных материалов (стальные канаты, пучки проволоки и др.) [1].

Проектирование предварительно напряженных конструкций в ПК ЛИРА САПР имеет следующие особенности [2]:

1. Для моделирования предварительного напряжения используется геометрически нелинейный конечный элемент КЭ-308 (форкопф).

2. Расчет конструкций следует выполнять в геометрически нелинейной постановке, задавая вместо РСУ последовательности загружений.

Обычно первой задается последовательность загружения в стадии изготовления конструкций – эта вся или частичная постоянная нагрузка вместе с предварительным напряжением. Остальные последовательности включают нагрузки стадии изготовления и эксплуатации. Это особенно важно потому, что усилия в элементах конструкции в стадии изготовления могут иметь обратный знак по отношению к усилиям от полезных нагрузок.

Рассмотрим балку из составного двутавра, предварительно напряженную шпренгельной системой в виде затяжки из стального каната и поддерживающих ее элементов. Пролет балки – 18 м, материал – сталь 09Г2С.

Вначале рассчитаем обычную балку (без предварительного напряжения). Это необходимо для первоначального подбора сечения балки, а затем и сравнения показателей обычной и предварительно напряженной балок.

Расчет обычной балки.

Полагая, что шаг балок равен 6 м, примем для нее постоянную нагрузку 1,2 кН/м^2 и временную (полезную) нагрузку 22 кН/м^2. Тогда погонные нагрузки будут равны:

$q_{пс} = 1{,}1 \cdot 1{,}2 \cdot 6 = 7{,}92$ кН/м;

$q_{пз} = 1{,}2 \cdot 22 \cdot 6 = 158{,}4$ кН/м.

В ПК ЛИРА САПР создадим новую задачу, задав для нее 2-ой признак системы (плоская рама). Введем 6 элементов балки длиной по 3 м, затем объединим их в один конструктивный элемент. Зададим связи по концам балки, выполним упаковку и перенумерацию системы.

Схема балки с нумерацией узлов и элементов показана на рис. 1, а 3-D проекция балки – на рис. 2.



Рис. 1. Схема балки с нумерацией узлов и элементов

Рис.2. 3-D проекция балки

Далее введем нагрузки и параметры РСУ.

Введем один тип жесткости в виде составного двутавра (стенка –1050х12 и пояса –450х20 мм); после первого подбора сечений жесткость будет скорректирована. Введем также параметры конструирования балки.

Результаты расчета.

Подобрано следующее сечение балки: стенка –1700х14 и пояса –560х25 мм. Поскольку эти размеры сильно отличаются от принятых, заменим принятые размеры на подобранные. Повторный расчет показал их совпадение.

Масса балки равна

(170·1,4+2·56·2,5)·18·0,785=7319,34 кг =7,32 тн.

Проверим максимальный прогиб балки от загружений 1 и 2:

$$f_б = 0,2 + 3,96 = 4,16 \text{ см} < L/400 = 1800/400 = 4,5 \text{ см}.$$

Проверка выполняется.

Расчет предварительно напряженной балки.

Рассмотрим теперь балку со шпренгельной затяжкой. За основу возьмем обычную балку, поэтому файл предыдущей задачи сохраним под другим именем. Шпренгельные стойки расположим на расстоянии 1,5 м от опор, а затяжку – на 1 м ниже балки. Поскольку шпренгельные стойки и раскосы крепятся к низу балки, т.е. ниже оси балки на 0,85 м, используем для стойки жесткие вставки соответствующей длины. Стойки и раскосы примем из замкнутых гнутосварных профилей, а затяжку – из стального каната марки ЛК-3 6х25(1+6, 6+12)+7х7(1+6).



Рис. 3. Схема предварительно напряженной балки

Общий вид предварительно напряженной балки показан на рис. 3.

На рис. 4 показана 3-D проекция балки. Здесь видно, что жесткие вставки стоек длиной 0,85 м обеспечивают соединение элементов крепления затяжки на уровне низа балки.

Рис. 4. 3-D проекция балки

Для затяжки заменим тип конечного элемента на КЭ-308, а для стоек и раскосов – на КЭ-310. Зададим типы жесткости и параметры конструирования для этих элементов.

В загружении 1 зададим затяжке предварительное напряжение, равное 500 кН. Схема этого загружения показана на рис. 5.



Рис. 5. Схема загружения 1

Далее вместо РСУ зададим моделирование нелинейных загружений (меню Расчет-Шаговая). Примем две последовательности загружений: 1 (загружение 1) и 2 (загружения 1 и 2). Кроме того, зададим для текущего варианта конструирования подбор сечений по усилиям (не по РСУ).

Выполним расчет и обратимся к его результатам. На рис. 6 и 7 показаны деформированные схемы конструкции при нелинейной последовательности загружений 1 и 2.

Рис. 6. Деформированная схема конструкции при последовательности загружений 1



Рис. 7. Деформированная схема конструкции при последовательности загружений 2

Здесь видно, что предварительное напряжение затяжки (последовательность 1) приводит к обратному выгибу балки. Прогиб середины балки от 2-ой последовательности загружений равен 3,29 см, что меньше прогиба обычной балки, т.е. жесткость балки достаточна.

На рис. 8 показаны результаты подбора сечений элементов. Здесь видно, что в балке уменьшилось сечение поясов; сечения затяжки и поддерживающих ее элементов по сравнению с принятыми увеличились.



Рис. 8. Текущие и подобранные сечения элементов конструкции

Масса балки равна

(170·1,4+2·50·2) ·18·0,785 = 6188,94 кг = 6,19 т.

Масса затяжки равна 15 ·5,845 = 87,68 кг; масса элементов крепления затяжки равна 2·(1 + 1,75) ·24,4 = 134,2 кг. Тогда общая масса конструкции будет равна

6188,94 + 87,68 + 134,2 = 6410,82 кг = 6,41 тн.

Экономия стали по сравнению с обычной балкой составляет

$$\frac{7,32 - 6,41}{7,32} \cdot 100\% = 12,43\%.$$

Отметим, что для предварительно напряженных балок возможна оптимизация с варьированием схемы расположения затяжки и величины ее предварительного напряжения.

Адабиётлар:

1. Металлические конструкции: Специальный курс. / Под ред. Е.И. Беленя. – М., Стройиздат, 1991. – 687 с.

2. Водопьянов, Р.Ю., Титок В.П., Артамонова А.Е. «Программный комплекс ЛИРА САПР 2015. Руководство пользователя» / Под ред. акад. РААСН А.С. Городецкого. – М., Электронное издание, 2015. – 460 с.

DUNYO MAMLAKATLARIDA EKSPLUATATSIYA QILINAYOTGAN KO‘PRIKLAR XAVFSIZLIGI VA ULARNING MONITORING TIZIMLARI TAHLILI

Axmedov Sherzod Baxodirovich t.f.n. dotsent; **Baxromova Yulduz,** tayanch doktorant
Toshkent davlat transport universitetii

Mamlakat taraqqiy etgani sari yo’l muhandisligi inshootlariga bo’lgan talab ham oshib bormoqda [21]. Davlatimiz rahbari yo’llarning o’tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga ko’proq e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlab kelmoqdalar. Jumladan: -hamma joyda yo’l qurib yoki kengaytirib bo’lmasligini, ko’p narsa qatnovni to’g’ri tashkil etishga ham bog’liqligini, endi yo’llarning, chorrahalarning o’tkazuvchanligini oshirish, raqamlashtirish orqali aholiga qulaylik yaratish kerakligini, hamda milliy qadriyatimizga ko’ra, yo’l va ko’prik qurish - savob ish ekanligini muhtaram Prezidentimiz [1] Shavkat Mirziyoev doimo ta’kidlab kelmoqdalar. Ushbu maqolada ko`priklarni loyihalashga qo`yiladigan talablar va ekspluatatsiya qilinayotgan ko`priklarni monitoring qilish masalasi muhokama qilingan.

Kalit so’zlar: ko`prik o`tish joyi, ko`prikning gidravlik va konstruktiv elementlari, pastki sath.

По мере развития страны растет и спрос на дорожные инженерные сооружения [21]. Глава государства подчеркнул необходимость уделять больше внимания повышению пропускной способности дорог. В частности: - уважаемый президент Шавкат Мирзиеев всегда подчеркивал, что не везде можно строить или расширять дороги, многое зависит и от правильной организации движения, теперь необходимо повысить пропускную способность дорог, перекрестков, создать удобства для населения посредством цифровизации, а также, в соответствии с нашей национальной ценностью, строительство дорог и мостов-дело благородное. В данной статье рассмотрены требования к проектированию мостов и мониторингу эксплуатируемых мостов.

Ключевые слова: мостовой переход, гидравлические и конструктивные элементы моста, меженный уровень.

As the country develops, the demand for road engineering structures also grows [21]. The Head of State stressed the need to pay more attention to increasing the capacity of roads. In particular: - dear President Shavkat Mirziyoyev has always stressed that it is not possible to build or expand roads everywhere, much depends on the correct organization of traffic, now it is necessary to increase the capacity of roads, intersections, create amenities for the population through digitalization, and also, in accordance with our national value, the construction of roads and bridges is a matter of noble. This article discusses the requirements for the design of bridges and monitoring of operational bridges.

Keywords: bridge crossing, hydraulic and structural elements of the bridge, inter-level.

Har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri mamlakatning transport inshootlari infratuzilmasini rivojlantirish, yangi yo’llarini qurishdir. O’zbekiston Respublikasining geografik murakkab mintaqada joylashganligi, issiq iqlim sharoiti murakkabligi sharoiti bo‘lishiga qaramasdan har yili ko’plab ko‘prik inshoootlari qurilmoqda [1].

XXI asrning oxirgi 20 yil ichida olib borilgan tadqiqot natijalari hamda ilmiy manbalar tahlil qilinganda [30]: o‘lchami 25 m gacha bo’lgan kichik ko’priklar salmog‘i tog’li hududlarda esa 1000 dan ortiqni tashkil etishi ma’lum bo‘lmoqda. Transport yo’nalishlarining uzluksiz va xavfsiz ishlashi uchun sun’iy inshootlar butun foydalanish muddati davomida iste’molchilar va ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan ularga qo’yiladigan talablarga javob berishi kerak.

Ko‘prik o‘tish joyi deb suvli to‘siqlarni yo‘l bilan kesib o‘tish uchun turg‘izilgan muhandislik inshootlari kompleksiga aytiladi.

Ko‘prik o‘tish joyi deb suvli to‘siqlarni yo‘l bilan kesib o‘tish uchun barpo etilgan muhandislik inshootlari majmuasiga aytiladi.

Uning tarkibiga ko‘prik, ko‘prikka bardosh yo‘li, suvni izga soluvchi inshoot, qirg‘oqni mustahkamlovchi jihozlar va muzyorar (1-chizma).

Ko‘prik daryo o‘zani va qayirining bir qismini yopadi. Ko‘prikka bardosh yo‘lining ko‘prikka bog‘lanish joyi bilan ulanishini ta'minlaydi.

Ular yerning ko‘tarmasi va estakala ko‘rinishida barpo etiladi.

Suv oqimini yo‘naltiruvchi to‘g‘ondan - ko‘tarma g‘ov (travers) va suvni izga soluvchi inshoot ko‘rinishida, daryo qirg‘oqlarini yuvilib ketishdan himoyalash uchun foydalaniladi.



a

b

1-chizma. Ko‘prik o‘tish joyi profili va plani [1]: 1-ko‘prikka bardosh yo‘li; 2- suv oqimini yo‘naltiruvchi to‘g‘on; 3-ko‘prik; 4-suv sathining hisobiy balandligi; 5-qirg‘oqni mustahkamlash; 6-ko‘tarma g‘ov (travers)

Bunday to‘g‘onlar trapetsiya ko‘rinishidagi yer ko‘tarmasi asosida qirg‘oq tayanch oldida quriladi. Suv oqimini yo‘naltiruvchi to‘g‘onlar suv oqimini ko‘prik tuynugiga yuqori tomondan bir maromda oqib kirishini ta'minlaydi.

Ba'zan, suv oqimining yuqori tomonidan, qisqa to‘g‘on sifatida, ko‘tarma g‘ov (travers) o‘rnatiladi. Ko‘tarma g‘ov (travers) o‘z navbatida suv oqimi tezligini kamaytirib daryo qirg‘oqlarini yuvilishdan himoya qiladi.

Muz kesar – ko‘priklar oraliq tayanchlarini muz oqishidan himoyalovchi inshootdir. Ular ko‘prikning daryo oqimining yuqori tarafida barpo etiladi.

Ko‘prik – bu sun'iy inshoot bo‘lib, yer osti qismida joylashgan quvurlardagi harakatlanishdan

farqli ravishda, qatnov uning konstruksiyalari bo‘yicha amalga oshiriladi (2-chizma).



2-chizma. Ko‘prik elementlari [1]:
1- ko‘prikka bardosh yo‘li ko‘tarmasi*; 2-ko‘tarma konusi; 3- qirg‘oqdagi tayanch**; 4- ustki qismidan transport qatnaydigan oraliq qurilma; 5-oraliq qurilma; 6-tayanch; 7-poydevor.

*(Ko‘prikka bardosh yo‘li - ko‘prik inshootiga tutash, transport vositalarining ko‘prikka chiqishi va undan tushishi uchun xizmat qiluvchi joyning ko‘tarmali qismi.)

**(Qirg‘oqdagi tayanch - oraliq qurilma va ko‘tarma tuprog‘i bosimini qabul qiluvchi, ko‘prikning unga yondosh ko‘tarma bilan tutashish joyidagi oxirgi tayanchi)

Ko‘prikning konstruktiv elementlari – oraliq qurilmalar, tayanchlar va qirg‘oqdagi massiv tayanchlar.

Ko‘prikning gidravlik elementlari – bu ko‘prik ostidagi ishchi maydon va suv sathlari.

Suv sathlari: mejen sathi (MS)- toshqinlar oralig‘ida daryodagi o‘rtacha yozgi suv sathi; ko‘p yillik (tarixiy) baland suv sathi (KYBSS) - ko‘prikli o‘tish tumanida bevosita belgilari bo‘yicha kuzatiladigan yoki aniqlanadigan ko‘tarilishning eng baland sathi balandlik belgisi; yuqori muz ko‘chishi sathi (YUMKS) - ko‘prik tayanchi qoziqoyoqlari rostverkalarida eng ko‘p egiluvchan holatni yuzaga keltiradigan muz ko‘chishining eng yuqori sathi; quyi muz ko‘chishi sathi (QMKS) - ko‘prik tayanchlari qoziqoyoqlari rostvertkalarida eng ko‘p ko‘ndalang kuchlarni yuzaga keltiradigan kristall muzlar katta maydonining eng quyi o‘tish sathi; kema yuradigan hisobiy sath - daryo sinfiga bog‘liq ravishda qabul qilinadigan va hisob orqali belgilanadigan, suv transport vositalaridan foydalanishni ta'minlovchi sath.

Ko‘prikning asosiy o‘lchamlari:

L-ko‘prik uzunligi;

B-ko‘prik kengligi;

l_0 –ko‘prik oralig‘i (tuynugi);

H-ko‘prik balandligi;

H_0-ko‘prik ostidagi bo‘sh balandlik;

h-qurilish balandligi.

Ko‘prik uzunligi (L) deganda ko‘prik o‘qi bo‘yicha o‘lchanadigan, uning boshi va oxiri orasidagi masofa tushuniladi.

Ko‘prik kengligi (B) deganda ko‘prikning chetki panjaralari orasidagi masofa tushuniladi.

Ko‘prik oralig‘i (l_0) deganda esa oqimning oqishiga perpendikulyar bo‘lgan hisoblangan suv sathi bo‘yicha olingan, oraliq tayanchlar qalinligi hisobdan chiqarib tashlanadigan qirg‘oq tayanchlari yoki ko‘tarma konuslarining ichki qirralari orasidagi gorizontal o‘lcham, ya'ni oraliqlar summasi tushuniladi

$$L_0=l_{01}+ l_{02} +l_{03},$$

bu yerda l_{01}, l_{02} va l_{03} lar oraliq masofalar.

H - Ko‘prik balandligi - qoplamaning eng yuqori nuqtasidan yoz chillasidagi o‘rtacha suv sathigacha bo‘lgan masofa.

H_0 - ko‘prik ostidagi bo‘sh balandlik bo‘lib oraliq qurilma eng pastki nuqtasidan suv sathining - doimiy solishtirish tekisligiga nisbatan hisoblanadigan suv yuzasining balandligigacha bo‘lgan masofa.

h - qurilish balandligi esa qatnov polotnosi yuqori qismidan qatnov qismi o‘qi bo‘ylab oraliq qurilma eng pastki nuqtasigacha bo‘lgan masofa.

O‘zbekiston Respublikasida foydalanilib kelinayotgan shaharsozlik norma va qoidasiga [2] ko’ra, doimiy yuklar, vaqtinchalik va boshqa yuklardan iborat. Zamonaviy ko’priklarni loyihalash bo‘yicha dunyo amaliyotiga foydalanilayotgan standartlar [3, 4] har xil turdagi yuk va ta’sirlarni hisobga oladi. Bundan tashqa turli koeffitsientlarni hisobga olish tartibini belgilab bergan [5, 6, 7, 8]. Yuqorida sanab o’tilgan holatlardan kelib chiqadigan bo’lsak, kuchaytirilgan inshootlar - ko’priklarning geodinamik xavfsizligini bashorat qilishi qiyin [9, 10]. Shu bilan birga, inshootlarning xizmat qilish muddati qisqaradi, eng yomon holatda, ko’priklar qulab tushadi [11-13].

O’zbekiston Respublikasida xavfsizligining muhim jihati transport inshootlari tizimlarining xavfsizligi hisoblanadi [18, 19, 20]. Ko’priklarning texnik xavfsizligi muammolari turli jihatlarda butun dunyoda, shu jumladan: R.Q.Mamajonov [40], T.M.Muqumov [42], O.B.Burxonov [43], I.G.Ganiev [31-34], S.A. Bokarev [21], A.I. Vasilev [22], S.R. V.P. Yeremeev [23], L.I. Iosilevskiy [24], V.M. Kruglov [25], E.N. V.N. Smirnov [26], A.M. Uzdin. [27], V.I. Shesterikov [28], G.S. Shestoperov [29], U.Z.Shermuxamedov [30] va boshqalarning ilmiy asarlarida atroflicha ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Olimlarning hissasi va quruvchilarning mahorati tufayli ko’p ming kilometrlik temir yo’l va avtomobil yo’llarining keng yo’l inshootlari parki barpo etildi.

Inshootlarning xavfsizligini boshqarish uchun materiallar va inshootlarning xususiyatlari, ularning yuklanish shartlari va boshqa ma’lumotlarning o’zgarishi to’g’risida ma’lumotlar yig’iladi.

Keyin esa texnik holat baholanadi va ta’mirlash ishlari rejalashtiriladi.

Ko’priklar holatini baholash metodologiyasi, amaldagi me’yoriy hujjatlarda belgilangan va uchta baholash parametrini belgilaydi: yuk ko’tarish qobiliyati, xavfsizlik va chidamlilik (1.1-Shakl). Amaldagi qoidalarga ko‘ra, odatda uch guruhga bo‘lingan ko‘prik konstruksiyalarida katta miqdordagi yuklar harakat qiladi. Bular: doimiy, vaqtinchalik va boshqalar. Ko‘prikni loyihalash standartlari [19, 36] har xil turdagi yuk va ta’sirlarni hisobga oladi, ularga turli koeffisientlarni tartibga soladi [34, 35, 37, 38].

Ko‘priklarni loyihalashda xavfli geologik va oraliqlarga bo‘linishiga alohida e’tibor beriladi [34, 37].

Адабиётлар:

1. https://president.uz/uz/lists/view/5169.
2. Salixonov S.S., Transport inshootlarini loyihalash va qurish, 2021.
3. ShNQ 3.06.04-14 “Ko‘priklar va quvurlar”,

O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, T., 2014 y., 312 bet.

4. SHNQ 2.05.03-12 "Ko`priklar va quvurlar", “Ko‘priklar va quvurlar”, O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, T., 2012 y.

5. Саламахин С.С., Инженерные сооружение в транспортном строительстве, Москва, 2007.

SEISMIC-RESISTANT STRUCTURES IN SOUTH KOREA: DESIGN AND CONSTRUCTION PRACTICES

Yusupkhodjaev S.A.[1], PhD., Assoc.**, Makhmudov J.I.**[2] Grad. Student
[1,2]Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Uzbekistan
[2]Exchange student at Hongik University, South Korea

This article discusses earthquakes and highlights the importance of designing and constructing buildings to withstand seismic forces with a focus on the experiences of South Korea. The paper provides examples of buildings and structures in Korea that use seismic-resistant materials such as reinforced concrete, steel, and masonry to withstand earthquakes. The article also explores the methods and approaches used in Korea to ensure earthquake resistance of buildings, including building codes, seismic evaluations, and seismic retrofitting. Overall, the article provides a useful overview of earthquake-resistant design and construction in South Korea.

Keywords: earthquake, seismic resistance, reinforced concrete, steel, masonry, building codes, seismic evaluations, seismic retrofitting

Ushbu maqolada Janubiy Koreya tajribasiga e'tibor qaratgan holda seysmik kuchlarga bardosh beradigan binolarni loyihalash va qurish muhimligi haqida ma’lumotlar berilgan. Maqolada Koreyadagi temir-beton, po'lat va tosh kabi seysmik chidamli materiallardan foydalaniladigan bino va inshootlar misollari keltirilgan. Shuningdek, Koreyada binolarning zilzilabardoshligini ta'minlash uchun qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar, jumladan, qurilish me'yorlari, seysmik baholash va seysmik qayta jihozlash ko'rib chiqiladi. Umuman olganda, maqola Janubiy Koreyadagi zilzilaga chidamli dizayn va qurilish haqida foydali ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: zilzila, seysmik qarshilik, temir-beton, po'lat, tosh, qurilish qoidalari, seysmik baholash, seysmik qayta jihozlash

В этой статье представлена информация о важности проектирования и строительства зданий, способных противостоять сейсмическим воздействиям, с акцентом на опыте Южной Кореи. В статье приведены примеры зданий и сооружений в Корее, в которых используются сейсмостойкие материалы, такие как железобетон, сталь и камень. В нем также рассматриваются методы и подходы, используемые для обеспечения сейсмостойкости зданий в Корее, включая строительные нормы и правила, сейсмическую оценку и сейсмическую модернизацию. В целом статья содержит полезную информацию о сейсмостойком проектировании и строительстве в Южной Корее.

Ключевые слова: землетрясение, сейсмостойкость, железобетон, сталь, камень, строительные нормы, сейсмическая оценка, сейсмоусиление.

Earthquakes are a recurring natural phenomenon that can occur anywhere, anytime. Even in areas where earthquakes are not common, a single earthquake can cause extensive damage and loss of life if buildings are not properly designed and constructed to withstand seismic forces. However, there are several countries around the world that are prone to earthquakes due to their locations. For example, Japan, Indonesia, Turkey, Nepal, Peru and so on. These are just a few examples of countries that are prone to earthquakes due to their locations. Other countries that are located along fault lines or on tectonic plate boundaries may also be at risk of earthquakes. Let us take an example of South Korea.

South Korea is not generally considered a high-risk area for earthquakes, and major earthquakes are relatively rare in the country. However, there have been a few notable earthquakes in South Korea's history, including:

- *September 12, 2016:* A 5.8 magnitude earthquake struck the city of Gyeongju, located in the southeastern part of the country. The earthquake was the strongest ever recorded in South Korea, and caused damage to several historical buildings and temples in the area.
- The 2017 Pohang earthquake, measuring magnitude 5.4 on the Richter magnitude scale, struck Heunghae, Pohang, North Gyeongsang Province, South Korea on November 15, 2017. It is tied with the 2016 Gyeongju earthquake as the country's strongest earthquake in modern history, and the most destructive ever recorded with "an estimated 300 billion won (US$290 million) in damage."

While earthquakes of this magnitude are not uncommon in other parts of the world, they are relatively rare in South Korea. However, the country has taken steps to prepare for earthquakes and to improve the seismic safety of buildings and infrastructure. In particular, seismic-resistant materials play a crucial role in ensuring the earthquake resistance of buildings. These materials are designed to withstand the ground motion and other forces generated during earthquakes, thereby reducing the risk of structural damage and collapse. The use of seismic-resistant materials is an essential part of earthquake-resistant design and construction. In Korea, seismic-resistant

materials are widely used in the construction of buildings, bridges, and other structures. The most commonly used seismic-resistant materials in Korea are reinforced concrete, steel, and masonry. Let us have a look at each material with its usage in buildings:

1. **Reinforced Concrete:** Reinforced concrete is a composite material made of concrete and steel reinforcement. It is commonly used in the construction of buildings and bridges due to its high strength, durability, and ability to withstand seismic forces. Some examples of reinforced concrete structures in Korea include:

- ***Lotte World Tower:*** This skyscraper in Seoul is currently the fifth-tallest building in the world and was constructed using reinforced concrete. The building is designed to withstand earthquakes up to magnitude 9.0 on the Richter scale.
- ***Incheon Bridge:*** The Incheon Bridge, which connects Incheon International Airport to the mainland, is the longest cable-stayed bridge in Korea. The bridge was constructed using reinforced concrete and is designed to withstand earthquakes up to magnitude 7.0 on the Richter scale.

2. **Steel:** Steel is another commonly used seismic-resistant material in Korea. Steel structures are designed to be lightweight, yet strong enough to withstand the forces generated during earthquakes. Some examples of steel structures in Korea include:

- ***Busan Cinema Center:*** The Busan Cinema Center, located in Busan, is a multi-purpose facility that includes a cinema, outdoor theater, and exhibition spaces. The building features a steel roof structure that can withstand winds up to 200 km/h and earthquakes up to magnitude 7.0 on the Richter scale.

Seongsan Bridge: The Seongsan Bridge, located in Seoul, is a cable-stayed bridge that features a steel superstructure. The bridge is designed to withstand earthquakes up to magnitude 7.0 on the Richter scale.

3. **Masonry:** Masonry is a building material made of stone, brick, or concrete blocks. Masonry structures are commonly used in Korea for low-rise buildings and retaining walls. Some examples of masonry structures in Korea include:

4. ***Changdeokgung Palace:*** Changdeokgung Palace is a UNESCO World Heritage Site located in Seoul. The palace was constructed using traditional Korean masonry techniques and is designed to withstand earthquakes up to magnitude 7.0 on the Richter scale.

- ***Geumjeong Fortress:*** Geumjeong Fortress, located in Busan, is a historic fortress that dates back to the Joseon Dynasty. The fortress features stone walls and is designed to withstand earthquakes up to magnitude 7.0 on the Richter scale.

These examples demonstrate the effectiveness of using reinforced concrete, steel, and masonry as seismic-resistant materials in Korea. In addition to these materials, Korea also uses other seismic-resistant materials, such as fiber-reinforced polymers (FRPs) and damping devices. FRPs are lightweight and have high tensile strength, making them ideal for strengthening existing structures. Damping devices are used to absorb seismic energy and reduce the motion of the building during an earthquake.

In addition, South Korea is a densely populated country with a high concentration of buildings and infrastructure. This means that even a moderate earthquake has the potential to cause significant damage and disruption. Structural measures can help to mitigate these risks and ensure that buildings and infrastructure are able to withstand seismic forces and remain functional in the event of an earthquake. Let us explore the methods and approaches used in Korea to ensure earthquake resistance of buildings.

Building Codes and Standards: Korea has well-established building codes and standards that define the requirements for building design and construction to ensure their earthquake resistance. The Korea Building Code (KBC) is the primary code that governs the design, construction, and safety of buildings. The KBC includes provisions for earthquake-resistant design, seismic load calculations, and structural detailing requirements. The KBC also prescribes the minimum design life of buildings, which includes the expected seismic hazard level during that period.

Seismic Hazard Assessment: Seismic hazard assessment is a critical component of ensuring earthquake resistance in buildings. Korea has a well-developed seismic hazard assessment program that provides information on the expected seismic hazard in different regions. The Korea Meteorological Administration (KMA) is responsible for seismic hazard assessment, and they provide information on ground motion parameters, such as peak ground

acceleration (PGA), peak ground velocity (PGV), and spectral acceleration (SA), which are used in the design of earthquake-resistant structures.

Seismic Design and Analysis: Seismic design and analysis are essential for ensuring the earthquake resistance of buildings. In Korea, the seismic design of buildings is carried out in accordance with the KBC provisions. The seismic design process involves the determination of seismic loads and the design of structural elements to withstand these loads. The seismic analysis involves the use of computer programs (ETABS, SAP2000, MIDAS) to simulate the behavior of structures during earthquakes and assess their performance.

Building Materials and Construction Techniques: Building materials and construction techniques play a crucial role in ensuring the earthquake resistance of buildings. In Korea, there are strict requirements for building materials, and only high-quality materials that meet the KBC standards are permitted for use. The use of reinforced concrete and steel structures is prevalent in Korea, as they offer high seismic resistance. Construction techniques, such as base isolation and energy dissipation devices, are also used to enhance the earthquake resistance of buildings.

Structural measures are essential because earthquakes can generate extremely high forces that can cause significant damage and even collapse buildings that are not properly designed to withstand these forces. The consequences of such failure can be catastrophic, resulting in loss of life, injuries, and economic damage. Therefore, the importance of structural measures cannot be overstated, as they are the primary means of ensuring the safety of buildings and their occupants during seismic events. Korea has well-established building codes and standards, seismic hazard assessment programs, and design and analysis procedures that ensure the earthquake resistance of buildings. The use of high-quality building materials and construction techniques further enhances the earthquake resistance of buildings in Korea.

Адабиётлар:

1. "Earthquake-Resistant Materials and Structural Design Technologies in Korea," a report published by the Korean Institute of Construction Technology.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_earthquakes_in_South_Korea
3. ChatGPT, GPT-3.5 architecture

UDK 624.012.43

STRENTH PROBLEMS OFINDIRECTLY REINFORCED COMRESSED ELEMENTS OF SPATIAL STRUCTURES

Tleubayeva T.A. – senior teacher., **Razzakov N.S.** – senior teacher., **Aslonov M.M.** – senior teacher
Samarkand state architecture and construction university named after Mirzo Ulug'bek

The paper proposes a universal method for calculating the strength of diaphragms eccentrically compressed spatial elements with convential and indirect reinforcement.

Key words: Spatial structures, indirect reinforcement, strength problems, 2P elements, optimal solutions.

Фазовий конструкцияларнинг зич арматураланган қисилувчи элементларининг мустаҳкамлик муоммоси

Кириш. Бугунги кунда республикамиз иқтисодиётининг асосий бўғини бўлган автомобиль йўллари орқали давлатлар билан ҳамкорликни янада ривожлантириш учун янги транспорт магистралларини қуриш ва фойдаланилаётган йўлларни қайта таъмирлашни тақазо қилмоқда. Республикада жами - 209496 км автомобиль йўллари мавжуд бўлиб, шундан: умумий фойдаланишдаги автомобиль йўллари - 42869 км ни, ички хўжалик йўллари - 141882 км ни, идоравий йўллар - 24745 км ни ташкил этади [1]. Республикада 39417 км тупроқ йўллари мавжуд [2].

Автомобиль йўлларида ҳаракатланувчи автомобилларнинг тури, сони ва уларнинг таркибида оғир юк автомобилларининг ҳаракатланиши натижасида йўл қопламасида турли хил деформациялар юзага келмоқда. Натижада талаб этилган хизмат муддатидан аввал автомобиль йўллари таъмирталаб бўлиб қолмоқда. Бу эса алоҳида технологик жараённи амалга оширувчи машиналар ишчи органининг ва грунтлар билан ўзаро таъсиридаги қонуниятларни тадқиқ этишни талаб қилади. Шунинг учун йўлларни барпо этишда, йўл тузилмаси таркибий элементларнни қуриш технологиясига катта аҳамият берилади. Умумий ҳолатда барпо этилаётган автомобиль йўлларида ер қазиш ва йўл қурилиш машиналари ёрдамида амалга ошириладиган ишлар қуйидагилардан иборат [3, 4]: тайёргарлик ишлари; йўл пойини барпо этиш; асос қатламининг тош материалларини ётқизиш ишлари; асфальтбетон ёки цементбетон қопламаларини ётқизишдаги комплекс иш жараёни; йўл тузилмасига безак бериш (маркировка) ва кўкаламзорлаштириш ишлари.

Юқорида кўрсатилган қурилиш босқичларининг барча технологик жараёнларида яъни автомобиль йўллари йўл тузилмаси таркибий элементларидаги грунтларда зичлаштириш жараёнлари амалга оширилади. Бу иш турларини амалга оширишдан мақсад ҳар бир қатламдаги грунтларнинг меъёрий ҳужжатларда кўрсатилган зичлаштириш коэффициенти қийматларини таъминлашдан иборат [5, 6].

Асосий қисм. Бизга маълумки, йўл тузилма таркибидаги йўл пойи грунтларнини зичлаштиришда катоклар (зичлаштирувчи машиналар) муҳим ўрин эгаллайди [7,8]. Зичлаштирувчи машиналарниг асосий вазифаси грунтларнинг талаб этилган зичлаштириш коэффициенти қийматларини муқобил намликка мос равишда амалга ошириши шарт. Каток ишчи органи яъни валец билан грунт орасидаги ўзаро таъсирнинг мазмун моҳиятини ўрганишда статик ва динамик таъсир этувчи кучлар хусусиятини ўрганишни тақазо этади. Шу жиҳатдан жараённи динамик тавсифларини ўрганишда шунингдек каток валеци ва грунт ўзаро таъсирини тадқиқ қилишда 1-расмдан фойдаланмиз.



1-расм. Каток валеци ва грунт орасидаги таъсир этувчи кучларни аниқлаш схемаси

Зичлаштирувчи машина ва грунтнинг ўзаро таъсир этувчи кучларнинг уриниш нуқтасидаги ўзаро таъсир этувчи кучларни аниқроқ таҳлил қилиш мақсадида 2-расмда кўрсатилган схемадан фойдаланамиз.



2-расм. Уриниш нуқтасидаги ўзаро таъсир этувчи кучлар схемаси

Каток валецини зичланадиган грунт билан ўзаро уриниш нуқтасидаги жараённини Лагранжнинг II-тур тенгламалари орқали ифодалаймиз.

$$\frac{\partial}{\partial t}\left(\frac{\partial E_k}{\partial \dot{\alpha}}\right)-\left(\frac{\partial E_k}{\partial \alpha}\right)=Q_\alpha \qquad (1)$$

Бу ерда: Q_a - умумлашган куч; E_k - каток кинетик энергияси; α - каток валеци марказий уриниш нуқтаси билан марказий ўқ орасидаги бурчак.

Умумлашган координата сифатида α бурчакни оламиз.

Умумий ҳолатда кинетик энергияни қуйидаги ифода билан аниқлаймиз:

$$E_k = E_1 + E_2 = \frac{1}{2}m\vartheta^2 + \frac{1}{2}I_z\omega^2 \qquad (2)$$

Бу ерда: E_1-илгариланма ҳаракатдаги кинетик энергия;

E_2 -айланма ҳаракатдаги кинетик энергия;

m -каток валецини массаси;

ϑ - чизиқли тезлик;

I_z - ўққа нисбатан инерция моменти;

ω - бурчак тезлик.

Каток валеци цилиндр кўринишида бўлганлиги учун ўққа нисбатан инерция моментини ушбу ифода билан аниқлаймиз:

$$I_z = \frac{1}{2}m(R^2 - r^2) \quad (3)$$

Бу ерда: R-валецнинг ташқи радиуси; r - -ички радиус.

Кинетик энергияни аниқлаш (2) ифодасини қуйидагича келтирамиз:

$$E_k = \frac{1}{2}m\dot{x}^2 + \frac{1}{2}I_z \cdot \ddot{\alpha}^2 \quad (4)$$

Кинетик энергиядаги чизиқли тезликни бурчак орқали ифодалаймиз:

$$E_k = \frac{1}{2}m\dot{\alpha}^2 \cdot R^2 + \frac{1}{2}I_z \cdot \ddot{\alpha}^2 \quad (5)$$

Чизиқли тезликни координата ўқи орқали ифодалаймиз:

$$\dot{x} = \omega \cdot R \quad (6)$$

Чизиқли тезлик ифодасидаги бурчак тезликни бурчак орқали ифодалаймиз:

$$\dot{x} = \dot{\alpha} \cdot R \quad (7)$$

Кинетик энергия ифодасидан умумлашган тезлик ва умумлашган координата бўйича олинган ҳосилаларни аниқлаймиз:

$$\frac{\partial E_k}{\partial \dot{\alpha}} = mR^2\dot{\alpha} + I_z \cdot \dot{\alpha} \qquad \frac{\partial E_k}{\partial \alpha} = 0 \quad (8)$$

Натижада (1) ифода қуйидаги кўринишга келади:

$$\frac{\partial}{\partial t}\left(\frac{\partial E_k}{\partial \dot{\alpha}}\right) = mR^2\ddot{\alpha} + I_z\ddot{\alpha}, \quad (9)$$

Ишчи орган ва грунт орасидаги ўзаро таъсир нуқтасидаги элементар иш ифодаси қуйидаги кўринишда ифодаланади:

$$\delta A = -P \cdot \delta y - T \cdot \delta x + M \cdot \delta\alpha - M_q \cdot \delta\alpha \quad (10)$$

Бу ерда: P - валецга таъсир этувчи нормал куч;

T - горизонтал силжитувчи куч;

M - буровчи момент;

M_q - қаршилик моменти бўлиб, қуйидаги ифода билан аниқлаймиз:

$$M_q = \frac{1}{2}I_z \cdot \varepsilon + R_Q \cdot R \quad (11)$$

Каток валеци ва грунт орасидаги ўзаро таъсир нуқтасининг координаталарини қуйидагича ифодалаймиз:

$$\left.\begin{array}{l} x = R \cdot \sin\alpha \\ y = R \cdot \cos\alpha \end{array}\right\} \quad (12)$$

Каток валеци ва грунт орасидаги ўзаро таъсир нуқтасининг координаталари (12) ифоданинг дифферианциали ушбу кўринишда бўлади:

$$\begin{array}{l} \delta x = R \cdot \cos\alpha \cdot \delta\alpha \\ \delta y = -R \cdot \sin\alpha \cdot \delta\alpha \end{array} \quad (13)$$

(13) дифферианциал ифодадан фойдаланган ҳолда умумлашган куч қуйидагича аниқланади:

$$Q_\alpha = -P \cdot R\sin\alpha + T \cdot R\cos\alpha + M - M_q \quad (14)$$

Аниқланган (9) ва (14) ифодалардан фойдаланиб Лагранжнинг 2 – тур тенгламаси (1) ни ушбу кўринишда ифодалаймиз:

$$\left(mR^2 + I_z\right)\ddot{\alpha} = -P \cdot R\sin\alpha + T \cdot R\cos\alpha + M - M_q \quad (15)$$

(15) ифодадаги бурчак α етарлича кичик бўлганлиги муносабати билан,

$\sin\alpha = \alpha$ га ва $\cos\alpha = 1$ га тенг бўлади. Натижада (15) ифодани ушбу кўринишга келтирамиз:

$$\left(mR^2 + I_z\right)\ddot{\alpha} + PR\alpha = TR + M - M_q \quad (16)$$

(16) дифференциал тенгламанинг умумий ечимини шу тенгламанинг бир жинсли қисмининг умумий ечими билан дифференциал тенгламанинг ихтиёрий хусусий ечимининг йиғиндисидан иборат бўлади:

$$\alpha = \alpha_1 + \alpha_2 \quad (17)$$

(16) дифференциал тенгламанинг бир жинсли қисмининг умумий ечими аниқлаймиз:

$$\left(mR^2 + I_z\right)\ddot{\alpha}_1 + PR\alpha_1 = 0 \quad (18)$$

(18) ифодани ечимини қуйидагича қидирамиз:

$$\alpha_1 = e^{kt}; \ \ddot{\alpha}_1 = k^2e^{kt} \quad (19)$$

Натижада (18) ифода ушбу кўринишга келади:

$$\left(mR^2 + I_z\right)k^2 + PR = 0 \quad (20)$$

$$k = \mp i\sqrt{\frac{PR}{mR^2 + I}} \quad (21)$$

(17) ифодадаги α_1 ни тригонометрик кўринишда қуйидагича ёзиш мумкин:

$$\alpha_1 = C_1\cos kt + C_2\sin kt \quad (22)$$

(17) дифференциал тенгламанинг хусусий ечимини қуйидаги кўринишда излаймиз:

$$\alpha_2 = A \quad (23)$$

(23) ифодани (16) дифференциал ифодага қўйиб, ўзгармас A ни аниқлаймиз:

$$A = \frac{TR + M - M_q}{PR}; \quad (24)$$

Натижада $\alpha_2 = \frac{TR + M - M_q}{PR}$ (25)

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда (16) ифоданинг умумий ечимини қуйидагича келтирамиз:

$$\alpha = C_1\cos kt + C_2\sin k + \frac{TR + M - M_q}{PR} \quad (26)$$

Бошланғич шартлардан фойдаланиб (26) ифодадаги интеграллаш доимийси C_1 ва C_2 ларни аниқлаймиз:

$t = 0$ да $\alpha = 0$ у ҳолда

$$C_1 = -\frac{TR + M - M_q}{PR} \quad (27)$$

$t = 0$ да $\dot{\alpha} = 0$ бўлганда $C_2k = 0$; $C_2 = 0$

Излаётган тенгламамизнинг умумий ечими қуйидаги кўринишга келади:

$$\alpha = \frac{M_q - TR + M}{PR}\cos\sqrt{\frac{PR}{mR^2 + I}}t + \frac{TR + M - M_q}{PR} \quad (28)$$

Келтирилган ифодалар орқали, автомобиль йўлларини барпо этишда йўл тузилма таркибидаги йўл пойи грунтларинии катоклар билан зичлаштиришда жумладан, ишчи орган ва уриниш нуқтасида ўзига хос динамик тавсифларни аниқлаш имконияти мавжуд. Ҳисоб схема асосида катокнинг, кинематик ва динамик хусусиятларини ўрганиш орқали, зичлаштирувчи машиналар ишчи органининг рационал параметрларини аниқлаш ва ҳисоблаш имкониятини беради. Шунингдек, юқорида келтирилган ҳисоб схема ва формулалар асосида йўл тузилма таркибидаги қатламнинг турли грунтларини бошқа турдаги машиналар билан зичлаштиришнинг хусусиятларини тадқиқ этишга ёрдам беради.

Хулоса. Йўл тузилма таркибидаги йўл пойи грунтларнини зичлаштириш жараёнидаги каток ишчи органи ва грунт орасидаги ўзаро таъсир кўрсаткичларини аниқлашда статик мувозанат тенгламаларини тузиш орқали тўлиқ ёритиш етарли эмас. Зичланаётган қатлам грунтининг уриниш нуқтасида ҳаракатланаётган каток ишчи органининг кинематик ва динамик хусусиятлари орқали мазкур жараённинг динамик тавсифларини аниқлаш имконияти пайдо бўлади. Келтирилган динамик ифодалар орқали зичлаштирувчи машиналар ишчи органларини технологик, геометрик ва кинематик параметрларини тадқиқ этиш бўйича назарий асосларни ишлаб чиқишга асос бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish. https://mintrans.uz/-uz/yol-xojaligini-rivojlantirish

2.O‘zbekistonda 39 ming kmdan ortiq tuproq yo‘l mavjud. https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekistonda-39-ming-kmdan-ortiq-tuproq-yol-mavjud-aqshda-ham-425-ming-km-shunday-yol-bor-avtomobil-yollari-qomitasi-raisi-29-05-2021.html

3. Ю.Г. Бабаскин, И.Н. Вербило. Технология дорожного строительства: Учеб. пособие. - Мн.: БНТУ, 2003. –С 40-183 с.

4. Т.Ю. Полякова, Р.М. Джафаров, С.М. Дмитриев, А.А. Каменецкая. Учебный англо-русский и русско-английский терминологический словарь-минимум «Автомобильные дороги»: Серия «Учебные терминологические словари-минимумы». Вып. 2 /– М.: МАДИ, 2014. – 196 с.

5. А.Д. Каюмов. Автомобиль йўллари пойидаги грунтларнинг мустаҳкамлиги,турғунлиги ва уни зичлаштириш. Монография.ТДТУ, -Т.: 2022, -72-75 б.

6. R.M. Xudaykulov Sho‘rlangan gruntli yo‘l poyi ko‘tarmasining turg‘unligini baholash. Monografiya. Toshkent 2021 y. 151 b.

7. А.В. Захаренко, В.Б.Пермяков, Л.В.Молокова. Дорожные катки, теория, расчет, применение Монография. Санкт-Петербург Краснодар 2022. 145-148 с.

8. Р.М. Худайкулов, Т.Қ. Ханкелов, С.И. Комилов. Автомобиль йўллари пойида ишлатиладиган грунтларни зичлаштиришда фойдаланиладиган катокларнинг ўрни. Механика ва технология журнали. №. 1. НМҚИ. 2023 й. 205-212 б.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ СТАЛЕЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ПЛИТ ПЕРЕКРЫТИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СТАЛЬНЫХ ПРОФИЛИРОВАННЫХ ЛИСТОВ В КАЧЕСТВЕ АРМАТУРЫ (ЧАСТЬ 1 - СОСТОЯНИЕ ВОПРОСА)

Убайдуллоев Мусохон Нуруллоевич - профессор кафедры;
Убайдуллоев Олимхон – старший преподователь; **Эдилов Абдирауф** – магистр.
Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет

Мақолада пўлат профилли листлардан фойдаланган ҳолда пўлат-темирбетонли ораёпма плиталарини лойиҳалаш бўйича маълумотларнинг қиёсий таҳлил натижалари келтирилган. Ушбу маълумотлар лойиҳалаш ва қурилиш соҳасидаги мутахассисларга масаланинг ҳолати – 1-қисмда (1-мақола), шунингдек Ўзбекистон Республикасининг табиий-иқлим шароитида бино ва иншоотлар учун пўлат-темирбетонли ораёпма плиталарини қўллашдаги муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари – 2-қисмда (2-мақолада) танишиш имконини беради.

Kalit so'zlar: po‘lat-temirbetonli konstruktsiyalar, po‘lat-temirbetonli orayopma plitalari, po‘lat profilli to’shama (list), echilmaaydigan qolip, seysmik xavfsizlik.

В статье изложены результаты обзорного анализа сведений о проектировании сталежелезобетонных плит перекрытий с использованием стальных профилированных листов. Представленные данные позволяют специалистам в области проектирования и строительства ознакомиться с состоянием данного вопроса в части – 1 (статья 1), а также с проблемами и путями их решения при применении сталежелезобетонных плит перекрытий для зданий и сооружений в природно-климатических условияхРеспублики Узбекистан в части – 2 (статья 2).

Ключевые слова: сталежелезобетонные конструкции, сталежелезобетонные плиты перекрытия, профилированный настил (лист), несъемная опалубка, сейсмическая безопасность.

The article presents the results of a review analysis of information on the design of steel-reinforced concrete floor slabs using steel profiled sheets. The presented data allow specialists in the field of design and construction to get acquainted with the state of this issue in part - 1 (Article 1), as well as with the problems and ways to solve them when using steel-reinforced concrete floor slabs for buildings and structures in the natural and climatic conditions of the Republic of Uzbekistan in part - 2 (Article 2).

Key words: steel-reinforced concrete structures, steel-reinforced concrete floor slabs, profiled flooring (sheet), fixed formwork, seismic safety.

Введение. Стратегия развития Нового Узбекистана на период до 2030 года предусматривает дальнейший рост капитального строительства с учетом увеличения населения Республики и ограниченности территорий, несмотря на их нахождение в труднодоступных сейсмоопасных районах

7, 8 и 9 баллов, что вынуждает увеличивать высоту жилых зданий в сельской местности до 4 этажей, а в городской черте до 25 и более. Это связанно с дополнительными затратами денежных средств, а также материальных и трудовых ресурсов, с учетом обеспечения сейсмической безопасности зданий и сооружений (из 359 населенных пунктов 345 находятся в сейсмоопасных зонах), при возможном неблагоприятном сочетании природных факторов, включая и экологические. Все это привело к резкому увеличению потребности в монолитном бетоне и железобетоне, поскольку он еще долго будет основным и доминирующим строительным материалом в современном сейсмостойком строительстве. Но вместе с тем, благополучие зданий и сооружений непосредственно зависит от качества их проектирования и строительства [1, 2, 3, 7].

Сокращение применения сборного железобетона и широкое использование монолитного железобетона и стального проката в строительстве требует улучшения и совершенствования основных показателей действующих конструктивных решений с учетом специфики Узбекистана. Также требуется изучение и внедрение широко используемых в мировой практике высоко эффективных и экономичных конструктивных систем с применением энергосберегающих технологий и местных строительных материалов [4, 5, 6, 8, 9, 10]. При этом надо учитывать особенности производства и контроль качества строительных работ, которые не рассматривались и не нашли применения по сложившимся традициям в отечественной школе проектирования из сталежелезобетонных плит перекрытий. Хотя, были безуспешные попытки строительства зданий из сталежелезобетонных плит перекрытий с использованием в качестве несъёмной опалубки и рабочей арматуры профилированных листовых профилей с повторяющимися по ширине листа гофрами различной формы, изготавливаемых из рулонной стали методом холодного проката [2, 3, 4, 7,11, 12].

Актуальность и основные задачи. Монолитные сталежелезобетонные перекрытия (МСЖП) с применением стальных профилированных листов применяется во многих странах мира [6], в том числе в России, Белоруссии, Украине, хотя нормативно-технической документации по их расчету и проектированию недостаточно [5, 8, 9,10].

Цель исследования - формирование у отечественных проектировщиков понятия о преимуществах применения этих конструкций, позволяющих улучшить показатели эффективности и экономичности проектируемых зданий и сооружений в сейсмоактивных районах, по сравнению с монолитным, так как в монолитном строительстве самыми трудоемкими и затратными являются работы по устройству монолитных железобетонных перекрытий в деревянно-щитовой или металлической опалубке, включая арматурные работы, затраты на ремонт и обновление форм - непосредственно которыми заняты порядка 30…40% рабочих от общего их количества на строительной площадке [5, 8, 9, 10].

Применение стальных профилированных листов в качестве арматуры и несъемной опалубки для монолитного сталежелезобетонного перекрытия, свидетельствует о высокой эффективности их изготовления и работы конструкций, так как они сочетают в себе достоинства сразу двух материалов объединенных конструктивно-объединительными устройствами: *бетон обеспечивает работу на сжатие, а стальные листы - на растяжение или сжатие* (рис. 1 [5]). Такое сочетание обладает большой жесткостью, образуя жесткие горизонтальные диски при относительно малой конструктивной высоте перекрытия и этажа.

В качестве стальных профилированных листов подходят несущие профнастилы марки «Н», для изготовления несущих конструкций и опалубок в различных зданиях и сооружениях. Высокая несущая способность, антикоррозийные свойства позволяют металлопрофилю выдерживать серьезные нагрузки, увеличивают срок службы. Его используют, когда к потолкам здания не предъявляются особые требования. Например, из профлиста марки Н75 получается надежная и прочная несъемная опалубка, которая в последствии становится каркасом для железобетонного перекрытия.



Рис. 1. Конструкция сталежелезобетонной плиты, армированная стальным профилированным настилом: ***1*** – стальной профилированный настил с рифлеными стенками гофров; ***2*** – элемент балочной клетки; ***3*** – монолитный бетон плиты; *4* – стержневой упор; ***5*** – сетка противоусадочного армирования; ***6*** – соединение гофрированных профилей между собой; **7** – рабочая арматура.

В результате, железобетонные перекрытия объединяют вертикальные конструкции в единый и неизменяемый каркас, а также обеспечивают пространственную работу каркаса и позволяют уменьшить число связей и рам, что создает большую свободу объемно-планировочных решений. При этом снижается: масса перекрытия на 30–50 % по сравнению со сборными и монолитными железобетонными перекрытиями традиционной конструкции; расход бетона до 30 %, в сравнении с традиционными конструктивными решениями; снижается металлоемкость балок каркаса в результате их совместной работы с плитой а также трудоемкость опалубочных и арматурных работ. При этом появляется возможность прокладки коммуникаций вдоль гофров настила, что в свою очередь, обеспечивает снижение себестоимости конструкций и сокращение сроков строительства в 1,5…2 раза [5, 8, 9, 10].

Несмотря на многочисленные исследования,

указывающие на эффективность и рациональность этих конструкций за рубежом, а также разработок с внедрением в практику проектирования и строительства в отечественном строительстве, применение сталежелезобетонных конструкции отстает и даже не расматривается в сравнении другими конструкциями в Республике Узбекистан на сегодняшний день. Решение вопроса проектирования и строительства новых зданий, усиления и восстановления реконструируемых зданий различного назначения, включая реставрацию архитектурных памятников в городах Средней Азии, в частности, в Самарканде, Бухаре, Хиве и др., с использованием сталежелезобетонных конструкций, является актуальной задачей [1, 2, 3, 4, 7, 11, 12].

Анализ результатов исследования и их обсуждения, а также основные выводы приведены в следующей статье. При этом следует отметить:

- монолитные сталежелезобетонные перекрытия (МСЖП) по сравнению с традиционными перекрытиями, обладают рядом преимуществ, соответствуя современным технологиям изготовления и монтажа, простоте узловых сопряжений, как на стадии разработки проектов зданий и сооружений, так и при строительстве;

- из-за отсутствия нормативной базы, проектирование этих конструкций в Республике Узбекистан до настоящего времени не нашло достойное место среди других современных энерго- и материало-сберегающих решений или разработок;

- на сегодняшний день в Республике Узбекистан имеется возможность использования монолитных сталежелезобетонных перекрытий практически для многих типов экономически обоснованных решений зданий и сооружений, а также при строительстве гаражей, частных малоэтажных домов (потребуется устройство потолка, который сможет закрыть вид стальных гофр), малых складов с плоской кровлей, сельскохозяйственных построек, с учетом их сейсмической безопасности;

- при проектировании и строительстве можно использовать профилированные листы, которые выпускаются в большом количестве в Республике Узбекистан.

Интерес к этому вопросу объясняется еще и тем, что теоретическое обоснование данных конструкций и их строительство в большом объеме, выполнялось в основном за рубежом, применительно к их региону. Поэтому создание нормативной базы для нашего региона поспособствует и позволит полноценно использовать их преимущества – технологические, эстетические, производственно-экономические и эксплуатационные качества. Это позволит обеспечить сейсмостойкость строительства и сейсмическую безопасность населения Республики Узбекистан.

Адабиётлар:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 30.05.2022 г. № УП-144 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения сейсмической безопасности Республики Узбекистан». https://lex.uz/ru/pdfs/6039508

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 21.02. 2022 г., № пп-139 «О дополнительных мерах по поддержке строительства жилья и промышленности строительных материалов». https://lex.uz/ru/docs/5871094.

3. КМК 2.01.03-19. Сроительство сейсмических районах/ Министерство строительства Республики Узбекистан. - Ташкент, 2019. - 111 с.

4. ГОСТ24045-94. Межгосударственный стандарт: Профили стальные листовые гнутые с трапециевидными гофрами для строительства/М: ЦНИИПСК, 1995. - 19 с.

5. СП 266.11325800. 2016. Сталежелезобетонные конструкции. Правила проектирования. Москва: НИЦ «Строительство», 2016. -124 с.

6. EN1994-1-2:2005. Design of composite steel and concrete structures - Part 1-2: General rules - Structural fire design. European committee for standardization comite europeen de Normalisation Europaisches Komitee for Normung, Management Centre: rue de Stassart, 36 B-1050 Brussels, 2005. – 111 с.

7. Убайдуллоев М.Н. Проектирование зданий (сооружений) с учетом сейсмических нагрузок по КМК 2.01.03-19 [Текст]/ Убайдуллоев М. Н.,Убайдуллоев О., Убайдуллоева Н., Насруллаев Л. // Вестник международной ассоциации экспертов по сейсмостойкому строительству, DOI: 10.38054 /iaee-202223.2/2022(14). - 69…74 с.

8. Тамразян, А. Г. К учету профилированного настила как рабочей арматуры при расчете монолитных сталежелезобетонных плит перекрытий/ А. Г. Тамразян, С. Н. Арутюнян. - Текст// Промышленное и гражданское строи-тельство. - 2016. - № 7. - С. 64-68. - Библиогр.: с 68 (8 назв.). - ISSN 0869-7019.

9. Постанен С.О. Сталежелезобетонные перекрытия по профилированному стальному настилу / С. О. Постанен, А. Ю. Березкина, В. В. Комиссаров, М. О. Постанен. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. № 26 (130). - 2016. с. 74-76.

10. Санников И.В. Монолитные перекрытия зданий и сооружений/ И.В. Санников, В.А. Величко, С.В. Соломонов, Г.Е. Бимбад, М.Г. Томильцев.- Киев: Будівельник, 1991. – 152 с.

11. https: //uzsm.uz/ru/about/organizations/ listy-profilirovannye-iz-stali/.

12. https: //www.poetalon.ru/useful/ articles/ profnastil-dlya-opalubki-perekrytiy/.

“БИНО-ПОЙДЕВОР-ЗАМИН” ТИЗИМИНИНГ ДЕФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИ ВА ЁНДОШУВЛАРИ

Абдураимова Хадича Рахманкуловна, т.ф.ф.д., доцент в.б.
Тошкент архитектура қурилиш университети

Ушбу мақолада “Бино-пойдевор-замин” тизимини ҳисоблашда, учта зарур мустақил блокдан иборат мураккаб комплекс муаммонинг ечими келтирилди. Заминнинг қаттиқлигини, бинонинг бикирлигини баҳолаш, бино ва

деформацияланадиган замин билан ўзаро таъсирини ҳисобга олган ҳолда туташ (контакт) каби масалалар ечимлари тавсия қилинган. Ушбу ечимларнинг асосий мақсади, заминнинг қаттиқлигини ҳисобга олган ҳолда заминдаги ҳақиқий (фактический) юкларни ва унинг деформацияларини, шунингдек бинонинг ер усти конструктив элементларидаги зўриқишларни аниқлаш ҳоллари келтирилган, бунинг учун бино билан заминнинг биргаликда ҳисоблаш талаблари тавсия этилди.

Калит сўзлар: конструкция, замин чўкиши, деформация, пойдевор, бикир, зўриқиш, кучланганлик-деформация

В данной статье представлено решение сложной комплексной задачи, состоящей из трех необходимых самостоятельных блоков при расчете системы «Здание-фундамент-грунт». Были рекомендованы решения таких проблем, как оценка жесткости грунта, жесткости здания и взаимодействия со зданием и деформируемым грунтом. Основным назначением этих решений является определение реальных (фактических) нагрузок на грунт и его деформаций, а также напряжений в надземных конструктивных элементах здания с учетом жесткости грунта, для которого выполняются требования для совместного расчета здания и земли.

Ключевые слова: конструкция, просадка грунта, деформация, фундамент, жесткий, напряжение, усиление-деформация.

This article presents a solution to a complex complex problem, consisting of three necessary independent blocks in the calculation of the "Building-foundation-soil" system. Solutions were recommended for issues such as evaluation of ground stiffness, building stiffness, and interaction with the building and deformable ground. The main purpose of these solutions is to determine the real (actual) loads on the soil and its deformations, as well as stresses in the above-ground structural elements of the building, taking into account the stiffness of the soil, for which the requirements for the joint analysis of the building and earth are met.

Key words: construction, soil subsidence, deformation, foundation, rigid, stress, reinforcement-deformation.

Илмий-техник тараққиётнинг ўсиши билан аҳолининг тобора кўпроқ янги бино ва иншоотлар қуришга бўлган эҳтиёжи ортиб бормоқда. Шу билан бирга, бинолар конструкциялари оралиғи ва қаватлар сонининг ошиши нуқтаи назаридан, уларнинг замонавий лойиҳалаш ечимлари мураккаблашади.

Бино ва иншоотларни қуришда, грунт қатламлари ўта нотекис бўлган заиф заминларга, кўпинча катта, бир неча минг тоннагача нотекис юкларни ўтказиш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилиш керак бўлади. Бундай ҳолда, ер усти конструкцияларини, замин грунтларининг ўта нотекис чўкишини ҳисобга олган ҳолда лойиҳалаш керак бўлади. Биноларни хавфли нотекис чўкишлардан сақланишнинг икки йўли мавжуд.

Биринчиси, чўкишнинг абсалют қийматлари пасайишини максимал камайтириш, у ҳолда нотекис чўкиш текислиги ҳам минимал даражага тушади. Бу усулнинг камчилиги унинг қимматлиги (чуқур устун қозиқли пойдеворни ўрнатишга эҳтиёжлиги) ва баъзи ҳолларда уни амалга оширишнинг мумкин эмаслигидир.

Иккинчи усул, ер усти конструкцияларини, замин чўкишининг тарқалишини ҳисобга олиб лойиҳалаштиришдир. Бунинг учун бино ва заминнинг биргаликда ҳисоблашни талаб даражада бажариш зарурдир. Бино ва заминнинг биргаликда деформацияланиши масаласини ўрганиш натурал кузатувлар натижаларига асосланади.

Ҳар хил бикирликдаги бинолар учун заминнинг нотекис деформацияларини ўрганишда катта тажриба тўпланган.

Бу муаммо устида қуйидаги олимлар илмий тадқиқот ишларини бажармоқдалар: Т.Ш. Ширинкулов, Б.Д. Васильев, В.Г. Симагин, П.А. Коновалов, М.Ю. Абелев, Д.Е. Польшин, Е.А. Сорочан, С.Л. Голубев, Н.Н. Клименко, Г.К. Шилов, Ю.Н. Посяда, А.М. Дондыш ва бошқалар[1,2,3,4].

Тадқиқотларнинг аксарияти асосан бир томонлама бўлиб, улар фақат замин грунтларининг моделини такомиллаштиришга ва ташқи таъсирлар остида пойдеворлар учун тегишли туташ муаммоларга амалий қулай ечимларни ишлаб чиқишга бағишланган. (пойдевор устидаги конструкцияларнинг бикирлиги ҳисобга олинмаган).

Замин ва пойдеворнинг туташ нуқталарига мос келадиган вертикал кўчишларининг тенглиги тўғрисидаги шартни бажариш билан бикирлиги чекланган пойдеворни ҳисоблаш муаммолари ҳал қилинган. Аслида, пойдеворлар ҳар доим пойдевор устидаги конструкциялар билан боғлиқ бўлади.

Шунинг учун биз “бино-пойдевор-замин” тизимининг биргаликда ишлашини кўриб чиқамиз. Шундай қилиб, ташқи таъсирлар остида пойдевор ва замин билан ўзаро туташ(контакт) шартларидан, балкасимон пойдеворнинг ҳақиқий ишлаш ҳолатлари кескин фарқ қилади. Бу қоида, айниқса, пойдевор конструкциялари махсус бикирлиги билан ажралиб турадиган ва балкасимон пойдеворга маҳкам ўрнаштирилган катта ўлчамли (каркас, йирик панелли ва бошқалар), замонавий конструкцияли бинолар пойдеворларига тегишлидир.

Балкасимон пойдеворларнинг эркин эгилишининг олдини олишда, бир бутун сифатида ифодаланадиган пойдевор конструкциясига, унинг устига жойлаштирилган конструкциялар бикирлиги таъсири натижасида пойдевор салқилигининг ҳисобланган қийматлари сезиларли даражада камаяди ва шу сабабли иқтисодий самарага эришилади.

“Бино-пойдевор-замин” тизимида барча ҳаракатларни амалга оширадиган асосий бўғин бино ҳисобланади, чунки якуний таҳлилда унинг хизмат кўрсатиш қобилиятига асосий эътибор берилади.

Деформацияланадиган заминлардаги биноларни кузатиш ва экспериментал тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатадики, уларнинг хизмат кўрсатишга яроқлилиги ва мустаҳкамлиги бутун бинонинг деформацияланиш қийматлари ва унинг

таркибий конструктив элементлари билан аниқланади.

Шундай қилиб, балкасимон пойдеворлар ҳисоблаш схемаларининг афзаллиги уларнинг соддалиги ва “бино-пойдевор-замин” тизимининг кучланганли-деформацияланганлик ҳолати ҳақидаги маълумотларни ва дастлабки маълумотларнинг ҳар хил вариантлари билан тезда олиш имкониятини беради.

“Бино-пойдевор-замин” тизимини ҳисоблашда учта мустақил блокдан иборат мураккаб комплекс масалани ҳал қилиш зарур бўлади:

- заминнинг моделини танлаш, қаттиқлик хусусиятларини баҳолаш;
- бино конструкциясининг бикирлигини баҳолаш, яъни, алоҳида элементларнинг тузилиши ва мослашувчанлигини (податливость) ҳамда улар орасидаги алоқаларни ҳисобга олган ҳолда унинг ҳисоблаш моделини танлаш;
- бино конструкциясининг деформацияланадиган замин билан ўзаро таъсирини ҳисобга олган ҳолда, яъни, туташ масаласини ҳал қилиш;

Заминнинг қаттиқлик хусусиятларини аниқлаётганда, грунтларнинг деформацияланишига таъсир қилувчи турли хил омиллар ҳисобга олинади.

Бино конструкцияларининг бикирлик хусусиятларини аниқлаётганда, панелли девор уланишларининг эгилувчанлигини баҳолаш, кўндаланг деворлар ва ораёпмаларнинг умумий эгилиш бикирлигига таъсирини, бетон деформация модулининг ўзгаришини, бетон ва ғишт термаларининг ёрилишини эътиборга олиш керак.

Заминнинг ҳисоблаш моделини танлаш ва унинг қаттиқлик хусусиятларини аниқлаш:

Бино ва иншоотларни қуриш амалиётидан маълумки, нол цикли капитал қурилиш ҳажмининг 30% ни ташкил этади. (Унга лойиҳалашдан, ер усти қисмларини йиғишгача амалга ошириладиган барча босқичлар киради).

Пойдевор – бу ер усти қисми билан замин орасида боғловчи конструктив элемент ҳисобланади. Шунинг учун у зўриқишсиз, бинога таъсир қиладиган барча юкларни қабул қилиши ва уларни заминга узатиши, бинони талаб даражада мустаҳкамлигини, бикирлигини ва устворлигини таъминлаши керак.

Кўпчилик бино ва иншоотларнинг заминида жойлашган пойдеворлари балка, плита ва рамалар сифатида ҳисоблана бошлаган ва уларнинг ишлаши, “бино-пойдевор-замин” тизимининг кучланганлик-деформацияланганлик ҳолатига таъсир кўрсатган.

Мазкур мақолада, таклиф қилинган муаммонинг ечими, реал шароитларга яқин бўлган “бино-пойдевор-замин” тизимини ҳисоблашда янгича ёндашув амалий аҳамиятга эга. Турли вақтларда тадқиқотчилар қаттиқ грунтли заминнинг турли хил ҳисоблаш моделларини таклиф қилишган. Ҳозирги вақтда муҳандислик амалиётида замин грунтларининг механик моделлари қўлланилади:

Ушбу мақолада эса ночизиқли бир жинсли бўлмаган эластик замин моделини таклиф этамиз. Заминнинг деформацияланиш модули (E_o), деформацияларнинг интенсивлигига боғлиқ бўлиб, у функционал равишда яширин шаклда ўзгаради. Пуассон коэффициентини (ν_o), доимий деб қабул қиламиз, чунки грунтнинг деформацияланиш хусусиятларига таъсири унчалик аҳамиятли эмас.

У ёки бу грунт моделини танлашнинг ўзи мақсад эмас, ҳар қандай моделни ишлатишнинг якуний натижаси, бу заминнинг бикирлигидир.

Ҳозирги вақтда кўплаб тадқиқотчиларнинг эътиборини, яъни заминнинг бир жинсли бўлмаган грунтлардан ташкил топган модели жалб қилмоқда. Ушбу мақолада заминнинг модели, яъни грунтнинг эластиклик модули, замин чуқурлиги бўйича даражали қонун асосида ўзгариши ҳисобга олинган.

Бу усул деформацияланувчан заминда жойлашган конструкциялар назарияси ечимларининг муҳандислик ёндошуви ва математик ҳисоблашнинг аниқлигини бирлаштиради. Ушбу усул замин грунтларининг реактив босими ва чўкишини яқинлаштиришга асосланган; масалани ечишда Гегенбауэр махсус полиноми қўлланилган.

Ушбу соддалаштириш балкасимон ва плита шаклидаги пойдеворларнинг замин грунтлари билан ўзаро таъсири бўйича турли хил муҳандислик муаммоларини, шу жумладан мураккаб геометрияга эга бўлганларни, аниқлик даражасида, мураккаб дифференциал ва интеграл ҳисобни четлаб ўтишга имкон беради. Нисбатан соддалиги ва кўп қирралилиги уни қурилиш ва геотехник ҳисоблашлар соҳасида кенг амалий қўлланилишига олиб келади.

Замин грунтларининг моделини танлашда, унинг қаттиқлиги ва тақсимланиш имкониятларига эътибор берилади. Бино конструкциялари учун асосий вазифа уларнинг бикирлигини баҳолашдир. Умуман, бино конструкцияларининг деформацияланиши, заминнинг нотекис деформациялари таъсирига қаршилик кўрсатиши билан белгиланади.

Конструкциянинг ҳар қандай кучланиш ҳолати, ўзига хос бикирлигига мос келади. Мисол учун, конструкцияларнинг бикирлиги, чўзилиш-сиқилишда – EF, силжишда – GF, эгилишда – EJ, буралишда – IE лар билан белгиланади. Юқоридагилар шуни кўрсатадики, конструктив элементнинг деформацияланиш тури қанчалик мураккаб бўлса, кўндаланг кесимнинг геометрик характеристикаларини шунчалик аниқлашга тўғри келади. Бироқ, элементнинг бикирлиги, нафақат унинг кўндаланг кесими ўлчамлари ва тегишли модулнинг қиймати билан белгиланади, балки бикирлик етарли даражада бўлмаса моддий харажатларни талаб қиладиган кўндаланг кесимнинг катталиги, материалнинг мустаҳкамлиги ва деформацияланиш хусусиятлари параметрларини оширишга тўғри келади.

Бинонинг бикирлиги, унинг элементлари ўртасида зўриқишларни қайта тақсимлаш хусусиятига эга. Агар бинонинг бикирлиги заминга нисбатан чексиз бўлса, бино қутисининг элементлари орасидаги зўриқишларнинг бино узунлиги бўйлаб

қайта тақсимлаш қобиляти максимал бўлади. Агар бинонинг бикирлиги эгилувчан бўлса, бино узунлиги бўйлаб зўриқишнинг қайта тақсимлаш қобилияти бўлмайди. Агар бино бикирлиги чекланган бўлса, унинг қайта тақсимлаш қиймати ҳажми нолдан максималгача ўзгаради. Агар бино устки конструкциясининг бикирлиги ҳисобга олинмаса, у ҳолда юк устунлар орқали пойдеворга ўтказилади, пойдевордаги зўриқишлар асосан юкни юклаш усули билан аниқланади. Бундай ҳолда, пойдеворнинг умумий эгилиши содир бўлади, бу замин моделининг деформацияланувчи хусусиятлари орқали аниқланади ва замин моделига қараб, эгувчи момент қийматларининг тарқалиши бироз ошади. Бинонинг оптимал конструктив схемасини белгилаш учун, бино ва заминнинг биргаликда ишлаши натижасида юзага келадиган қўшимча зўриқишлар минимал бўлишига эътибор берилади. Бу ҳолга, бинонинг чегаравий нотекис деформациясини чеклаш шарти, эстетик, технологик ва бошқа талабларга мувофиқ унинг бикирлигини максимал камайтириш орқали амалга оширилади.



1-расм. Биноларнинг бикирлиги бўйича турлари: *а)* бикирлиги чексиз; *б*) бикирлиги эгилувчан; *в)* бикирлиги чекланган; 1) амалга ошиши керак бўлган заминнинг потенциал деформацияси; 2) бинонинг амалга оширган чўкиши; 3) амалга ошиши керак бўлган заминнинг потенциал деформацияси ва бинонинг амалга оширган чўкиши орасидаги фарқ.

Агар нотекис чўкишини камайтириш зарур бўлса, бинонинг бикирлиги чегараланадиган қийматга тенг бўлиши керак, унинг бикирлигини янада кўпроқ оширсак юқоридаги натижа асоссиз ҳисобланади. Бинонинг бикирлигини камайтиришга юк кўтаручи деворлар сонини камайтириш ва уларнинг қалинлигини оралиқ деворлар (простенки) ёки устунлар билан алмаштириш орқали, шунингдек ора ёпмалар, балкасимон пойдеворларнинг қалинлигини камайтириш орқали эришилади. Бу усул, бинонинг умумий оғирлигининг заминга таъсирини камайтиради, бу эса чўкишнинг абсалют қийматини камайишига олиб келади, натижада "бино-пойдевор-замин" тизимининг биргаликда ишлаши учун янада қулай шароит яратади. Бино конструктив элементларининг кўндаланг кесимини ва заминга тушаётган юкларни камайтириш натижасида қурилишнинг умумий нархини пасайтиришга эришилади.

"Бино-пойдевор-замин" тизимининг ўзаро биргаликда ишлашини ҳисоблашда, намоён бўладиган асосий самарадорликлар.

Бино ва фазовий грунт массасининг ишлашини моделлаштиришда аниқланган қонуниятларни кўриб чиқамиз. Таҳлил қилинган қонуниятларнинг кўпчилиги грунтлар механикасида узоқ вақтдан бери маълум бўлган, лекин алоҳида ҳисоблашларнинг амалда қўлланилиши шуни кўрсатадики, бу самарадорликлар биноларнинг ер усти конструкциялари лойиҳаловчилар томонидан ҳисобга олинмаган. Конструкция ва заминнинг биргаликдаги ишлашини ҳисобга олишнинг асосий натижаси – бу заминдаги кучланишларнинг ва конструкциядаги зўриқишларнинг қайта тақсимланишини таъминлашдир. Конструкциянинг бикирлигини ҳисобга олмаган ҳолда, ҳисоблаш натижаларига қараганда нотекис чўкиш камаяди, нотекис чўкиш билан боғлиқ бўлган конструкцияларда қўшимча зўриқишлар пайдо бўлади. Натижада, бинонинг ўртача чўкиши кам даражада ўзгаради, лекин ҳисоблаш натижасида нотекис чўкиш сезиларли даражада ўзгаради.

Грунтлар механикаси дарслигида бикир пойдевор таг юзасидаги реактив босим тарқалиши ҳақидаги муаммонинг ечимини эластиклик назарияси формулалари бўйича аниқланади. Бу ечим бикир пойдеворнинг чеккалари таг юзасидаги чексиз кучланиш қийматлари билан тавсифланади. Албатта, ҳақиқий материалларда чексиз кучланишлар бўлиши мумкин эмас. Шунинг учун, грунтнинг мустаҳкамлик хусусиятларини ҳисобга олганда, туташ (контакт) босимнинг эпюраси ўсиб борувчи "поғонага" ўхшаш (седло) шаклга эга бўлади. Пойдевордаги юкларнинг ошиши билан туташ (контакт)реактив босим бироз текисланади, юк чегаравий ҳолатга яқинлашганда (судралувчи юзалар пайдо бўлиши) эпюра шакли тубдан ўзгаради. Табиийки, бу нотекис реактив босим эпюраси бинонинг ер усти конструкцияларидаги кучланишларда акс эттирилиши лозим. Балкасимон пойдеворларнинг бикирлиги, деворларнинг бикирлигидан анча паст бўлади, шунинг учун бинонинг бўйлама ва кўндаланг юк кўтарувчи деворлари орқали нотекис кучланишлар сезилади.

Шунга қарамасдан, юқоридаги мулоҳазалар аниқ бўлишига қарамай, бинонинг ер усти конструкцияларини ҳисоблашда, бинонинг чекка зоналарида кучланишларнинг ошиши камдан-кам ҳолларда ҳисобга олинади. Шу билан бирга, бундай юкларни заминга жойлаштириш нафақат чўкишнинг ривожланишига, балки балкасимон пойдеворнинг эгилишига олиб келади (2-расм). Кўриниб туриблики, деформациянинг бундай тасвири мутлақо реал эмас, чунки юк кўтарувчи деворлар бундай нотекис чўкишини ривожланишига йўл қўймайди.

Марказий қисмдаги чўкишнинг абсалют қиймати деярли ўзгармайди, шунинг учун биз агар фақат чўкишни ҳисоблаш билан чеклансак, биз замин ва ер усти конструкцияларининг биргаликдаги ишини ҳисобга олсак, жиддий ўзгаришларга олиб келмайдиган нотўғри натижага эга бўлардик. Бинонинг ер усти конструкциялари кучланиш майдонида қандай ўзгаришлар рўй беришини кўриб чиқамиз. Биноларнинг эгилишга

чидамлилигини таъминлайдиган юк кўтарувчи деворларнинг чекка пастки зоналарида (биринчи 3-4 қават) кучланишнинг ўсиши кузатилади. Оддий зўриқишлар бу зоналарда 3 баробар, ўрта қисмида эса деярли 3 марта камайиши (разгрузка) содир бўлади.



2-расм. Балкасимон пойдевор ва унинг атрофидаги грунт чўкишининг (м) деформацианган схемаси ва контурлари (изолинии)

Ҳақиқатан ҳам, агар биз бу деворларнинг бикирлигини ҳисобга олсак, замин бикир балкасимон пойдевор остида ишлайди (3-расм).



3-расм. Бинонинг чўкиши (м) ва атрофидаги грунтнинг деформацияланган схемаси ва контурлари (изолинии)

Тўртинчи қаватдан юқорида бу таъсир йўқолади ва биргаликда, алоҳида ҳисоблаш схемаларига мувофиқ кучланиш тақсимотининг ўхшаш (сходная) тасвири кузатилади. Шуни такидлаш керакки, меъёрий ҳужжатларга асосланиб, ҳисоблашда бинонинг фақат пастки қаватларининг бикрлигини ҳисобга олиш имконини беради. Шундай қилиб, балкасимон пойдеворнинг бино ер усти элементлари ва замин билан бирга ишлаши, устки қаватдаги ора ёпманинг ишлаши туфайли амалга оширилади. Балкасимон пойдеворнинг нотекис юкланиши ва эластик замин хусусиятларининг бир хил эмаслиги туфайли юзага келадиган конструкциянинг умумий эгилиши нафақат эгилишга олиб келади, балки балкасимон пойдеворда ва ертўла плита ёпмасида мембранали зўриқишлар гуруҳининг пайдо бўлишига олиб келади (аниқроғи барча ора ёпма плиталарида). Бу мембранавий зўриқишлар (Н) ички жуфт кучларни ҳосил қилади, улар эгувчи моментни сезиларли даражада қабул қилади ва шу билан бирга балкасимон пойдеворнинг эгилишини камайтиради (4-расм), мембрана зўриқишларининг қийматлари камаяди, бу эса балкасимон пойдеворларни арматурлаш ҳолатига унчалик таъсир кўрсатмайди.



4-расм. Балкасимон пойдеворнинг ҳисоблаш моделини қуриш схемаси: а) эластик заминдаги балкасимон пойдевор; б) балкасимон пойдевор ва ораёпма плитасининг биргаликда ишлаши;

Кўриб турганимиздек, биргаликда ҳисоблаш натижалари билан геотехник эмас, балки ер усти конструкцияларини лойиҳаловчини кўпроқ қизиқтириши керак, чунки бинони лойиҳалашда зўриқишларнинг уч баробар кўпайишини эътиборсиз қолдириб бўлмайди.

Носозликлар пайдо бўлиш эҳтимолини тўғри баҳолаш учун бино конструкцияларида пайдо бўладиган зўриқишларни аниқлаб, кейин уларни биргаликда ҳисоблаш зарур. Шунлай қилиб, кўп сонли тажрибалар асосида қуйидаги хулосага келамиз: биноларнинг чўкишини аниқлашда унинг ҳисоблаш схемасига бинони киритмаслик, балки унинг оғирлигини ташқи юк шаклида қабул қиламиз. Агар пойдеворда пайдо бўладиган кучланишларни аниқлаш зарур бўлса, унда “бино-пойдевор-замин” тизимининг биргаликда ишлашини ҳисобга олиш керак бўлади.

Хулоса қилиб шуни такидлаймизки, мураккаб муҳандислик-геологик шароитда, ноёб (уникал) бинолар қуришда меъморий концепцияни шакллантириш босқичида, бино ва заминни биргаликда ҳисоблаш зарур, аммо бу ҳақда батафсил тадқиқотлар етарли эмас, бино ва заминнинг ўзаро биргаликда таъсирини ҳисоблаш, ҳатто оддий биноларнинг конструкцияларидаги зўриқишларни ҳам тўғри баҳолаш мумкин эмас.

Адабиётлар:

1. Ширинкулов Т.Ш., Зарецкий Ю.К., Махмудов С.М. Ползучесть и консолидация грунтов.Издательство “ФАН”.1986г.

2. Ширинкулов Т.Ш. Расчет инженерных конструкций на неоднороlном оснований.Прочностьи сейсмостойкость сооружений Т.2008г.

3. Махмудов С.М.Расчетные модели для проектирования конструкций зданий . Монография.Т.2019г.

4. Сорочан Е.А., Трофименков Ю.Г. Основания, фундаменты и подземные сооружения. Справочник проектировщика. - М.: Стройиздат, 1985. - 480 с;

5. Makhmudovich M. S. et al. Research Of The Work Of The System" Base-Foundation With A Damping Layer-Building" On An Inhomogene Soil Base //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – Т. 12. – №. 7. – С. 2006-2015.

6. Rakhmankulovna A. Kh., Makhmudovich M. S. Innovative designs and technologies in foundation engineering and geotechnics //International Journal of Scientific and Technology Research. – 2020. – Т. 9. – №. 1. – С. 3803-3807.

7. Абдураимова Х. Р. Энергосберегающие технологии в строительстве //Вестник современной науки. – 2017. – №. 2-1. – С. 49-54.

8. Khakimov, Gayrat Akramovich. "The nature of the change in the connectivity of moistened loess soils during

vibration." American Journal of Applied Science and Technology 2.06 (2022): 26-41.

9. Khakimov G. A. Changes in the Strength Characteristics of Glinistx Soils under the Influence of Dynamic Forces International Journal of Engineering and Advanced Technology, IJEAT //Exploring innovation. – 2020. – С. 639-643.

10. Machmudov, S. M., and Sh Kh Samieva. "Quantitative assessment of the reliability of the system" foundation-seismic isolation foundation-building"." central asian journal of stem 2.2 (2021): 445-452.

11. Махмудов, С. М., and Ш. Х. Самиева. "Конструктивные решения сейсмоизолирующих фундаментов зданий." научные революции как ключевой фактор развития науки и техники (2021): 36-38.

УДК.624.072. 011. 1

ЕЛИМЛАНГАН ЁҒОЧ КОНСТРУКЦИЯЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНЛАРИ

Махматкулов Т. –т.ф.н., профессор в.б., Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети

Елимланган ёғоч конструкцияларни мустаҳкамлигига таъсир кўрсатувчи муҳим омиллардан бири тайёрлаш технологияси талабларига қатьий амал қилиш ҳисобланади. Мақолада мазкур масалада ўтказилган изланиш натижалари таҳлил қилинган ва тегишли хулосалар умумлаштирилган.

Калит сўзлар:Ёғоч материаллар,мустаҳкамлик, кесиш жараёни, ишлов бериш, тахталарнинг текислик даражаси, тахталарни бириктириш. елим турлари, намликнинг таъсири, елимлаш режими. оптимал босим миқдори, сифат кўрсаткичлари.

Основными показателями влияюшей на прочность деревянных конструкций являются технология изготовления конструкций. Статьи приводится результаты и анализ проведенных исследований по этой тематике.

Ключевые слова:Деревянные материалы, прочность, виды распиловки, обработка, шероховатость поверхности древесины, способы соединений, виды клеев, влияние вдажности, склеивание древесины,оптимаьные параметры давлений, качественные показатели.

The main indicators affecting the strength of wooden structures are the technology of manufacturing structures. The article provides the results and analysis of the research on this topic.

Keywords: Wooden materials, strength, types of sawing, processing, wood surface roughness, joining methods, types of adhesives, influence of humidity, wood gluing, optimal pressure parameters, quality indicators.

Елимланган ёғоч конструкцияларни тайёрлаш жараёнида материалларга механик ишлов беришда турли хил асбоб ва ускуналардан фойдаланилади. Улар ёрдамида ёғоч материаллар кесилади, текисланади, ўйилади ва бошқа техник жараёнлар бажарилади.Материалларни кесиш учун рамали, дискали ва лентали арралардан фойдаланилади. Рамали арраларнинг асосини қалинлиги 1,8...2,2 мм ли пўлатдан тайёрланган арралар ташкил қилади. Юмалоқ арралар қалинлиги 1...5,5 мм ли диаметри 200...1250 мм пўлат дискалардан иборат бўлиб материалларни бўйлама ва кўндаланг кесиш учун қўлланилади.

Материалларни текислаш ва фрезерлаш бир бирига ўхшаш жараёнлар бўлиб материалларга бир ва икки томонлама ишлов бериш демакдир. Фрезернинг тишлари элементларга ҳар хил кўриниш бериш мақсадида турли шаклларда бўлади.Текисловчи асбобларнинг асосини қалинлиги 8...12 мм (қалин) ва 2,5...5 ни (юпқа) бўлган пичоқлар ташкил қилади. Пичоқларнинг узунлиги эса 100...1800 мм бўлади. Баъзи ҳолларда текислаш 2 ва 4 томонлама амалга оширилади, масалан С16-5П қурилмаси ёрдамида. Фрезерларнинг пичоғи ўзгарувчан бўлиб махсус айланувчи элементларга бириктирилади.

Кичик ўлчамдаги тахта материалларни узунлиги ва ён қирралари бўйлаб улаш учун 4 шпинделли тиш кесувчи стоноклар ёрдамида амалга оширилади ва бу мақсадда ШО-151-5, ШД-10-3, ШД-15-3 каби станоклардан фойдаланилади. Асбобнинг айланиш тезлиги минутига 3500...5700 мартани ташкил этади.

Элементларга қўлда механик ишлов бериш учун дискали электр арралардан ИЕ-5106, ИЕ-51025 фойдаланилади.. Паркетли полларни текислаш учун эса СО-40А, СО-97 типидаги станоклардан фойдаланилади.

Ёғоч материалларга ишлов беришда сиртларнинг текислиги уларга қандай асбоблар билан ишлаб берилганлигига боғлиқ бўлади. Нормага асосан бу кўрсаткич, рамали арра билан кесишда 500...2500 мкм га, лентали арра билан кесишда 130... 500 мкм га, дискали аррада кесишда 150... 750 мкм га, текислашда 25... 130 мкм га, фрезерлашда эса 30... 200 мкм га тенгдир. Шу сабабли, сиртларнинг текислиги нормага асосан 12 синфга бўлинган.

Ёғоч конструкциялар тайёрлаш учун асосан танаси текис игна баргли дарахт материалларидан фойдаланилади. Материалларнинг сифат ва тоифалари ҚМҚ 2.01.08-98 – "Ёғоч конструкциялари" талабларига жавоб бериши керак [2].

Конструкциялар тайёрлаш учун ишлатиладиган тахта материалларнинг қалинлиги эгри чизиқли элементлар учун 33 мм гача, тўғри чизиқли элементлар тайёрлаш учун эса 42 мм гача бўлиши лозим.

Қалинлиги 33 мм дан катта тахталардан елимланган ёғоч конструкцияларни тайёрлашда елимланган пакетларда пайдо бўладиган ички кучланишларни мувозанатлаштириш мақсадида эни 3 мм га тенг бўлган бўйлама (компенсацион) қирқимлар тайёрланади.

Елимланган контрукциялар тайёрлашда энг муҳим ишлардан бири елимларнинг турини тўғри танлашдир. Чунки, елимлар мустаҳкам, намликка ва узоқ муддатга чидамли ҳамда технологик

жиҳатдан қулай бўлиши лозим.

Конструкциялар тайёрлаш учун елимларни турини танлаш биноларнинг эксплуатация шароитларидан келиб чиққан ҳолда ҚМҚ талаблари асосида иссиқ ва совуқ усулларда амалга оширилади [2].

Кимё саноати томонидан ёғоч материалларни совуқ усулда елимлаш учун нисбатан оғир ҳарорат-намлик шароити учун мўлжалланган, мустаҳкам ва узоқ муддатга чидамли резорцинли ФР-12 типидаги елим тавсия этилган. Бу елимнинг муҳим афзалликларидан бири смоланинг узоқ муддат сақланиши (9 ойгача), қотирувчи модда сифатида инсон соғлиги учун зарарсиз, сақлаш ва ташиш осон кукун кўринишидаги – параформалдегиддан фойдаланиш ҳисобланади.

Юқори намлик шароитида (70 % ва юқори) эксплуатация қилинадиган ёғоч конструкциялар тайёрлашда фенол-резорцинли ФРФ-50, алкилрезорцинли ФР-100 ёки ДФК-1АМ, карбамид-меломинли КС-В-СК типидаги елимлардан фойдаланиш тавсия этилади. Намлик шароити 70 % гача бўлган биноларда эксплуатация қилинадиган ёғоч конструкциялар тайёрлашда КФ-Ж типидаги карбамид елим ва унинг турли модификацияларидан фойдаланилади. Ёғочга металл, шиша-пластик, асбестцемент ва фанера каби материалларни елимлаш учун асоси ЭД-16 ва ЭД-20 смолалардан ташкил топган эпоксид елимлар қўлланилади [1].

Елимларнинг энг асосий кўрсаткичлари унинг қовушқоқлиги ва ёпишқоқлик муддатлари ҳисобланади.Технологик жараёнларда елимнинг шартли қовушқоқлиги ВЗ-4 типидаги асбоб ёрдамида аниқланади.

Маълумки, елимларнинг асосий элементи ҳисобланган смолаларнинг нархи юқорилиги сабабли, уларнинг таннархини камайтириш, миқдорини кўпайтириш, елимни ёғоч материаллар юзасига тақсимланишини яхшилаш мақсадида смоланинг 8 баробаригача миқдорда ёғоч уни қўшилади.

Эффективный теплоизоляционный слой в системах наружного утепления расположен снаружи несущей стены, из-за этого на утеплитель может попадать влага за счет внешних атмосферных воздействий (дождь, снег), что приводит к ухудшению теплозащиты здания. Поэтому снаружи необходимо применять облицовочный материал. Принципиальное отличие систем навесных вентилируемых фасадов от других наружных систем утепления состоит в том, что за счет воздушного потока, который циркулирует между тепловой изоляцией и облицовочным материалом, влага удаляется с поверхности утеплителя, тем самым не нарушая теплового баланса здания. Циркуляция воздушного потока в зазоре создается естественным путем за счет разности температур на улице и внутри помещения.

Навесной вентилируемый фасад представляет собой закрепленную на несущей стене конструкцию из эффективных утеплителей, направляющих для крепления облицовочного материала и самой облицовки. В зависимости от используемой теплоизоляции, параметров самого здания, фирмы производителя и других параметров схема крепления и количество слоев в системе может различаться. Наиболее часто используемая схема крепления навесных вентилируемых фасадов представлена на рис. 1.



Рис. 1. Принципиальная схема крепления навесных вентилируемых фасадов 1 - профиль; 2 - несущий кронштейн; 3 - паранитовая прокладка, 4 - несущая стена; 5 - дюбель; 6 - ветрогидроизоляция; 7 - теплоизоляционный материал; 8 - облицованный материал; 9 - кляммер.

К несущей стене (4) с помощью паранитовой прокладки (3) крепится несущий кронштейн (2), на котором закреплен профиль (1) в данном примере вертикальный. От длины кронштейна зависит расстояние воздушного зазора.

Одно из самых слабых мест конструкции - металлический кронштейн, проходящий сквозь теплоизоляционный материал, т.к. он всегда делается из металла и охлаждается при низких температурах. Для защиты стены от промерзания используют паранитовую прокладку, устойчивую к морозам.

К несущей стене (4) посредством дюбелей (5) и профиля (1) закрепляется слой теплоизоляционного материала (7), сверху покрытый ветрогидроизоляцией (6).

Толщина теплоизоляционного слоя определяется специальными инженерными расчетами и зависит от материала несущих стен здания, климатических условий, этажности и т.д. Стоит заметить, что в зависимости от материала несущей стены с невысокой плотностью и прочностью методы крепления теплоизоляции могут отличаться от традиционных, а иногда и удорожать саму конструкцию. При выборе теплоизоляционного материала и ветро-гидроизоляции уделяют внимание и его паропроницаемости, чтобы пар не задерживался в утеплителе.

Облицовочный материал (8) прилегает к профилю (1) и закреплен с помощью кляммеров (9). Материал облицовки ограничивается алюминиевыми панелями, каменными, керамогранитными, полимерными плитами.

Основные преимущества наружной теплоизоляции с помощью систем «вентилируемых фасадов»:

1. Практически незаменимы при многоэтажном строительстве и реконструкции (более 9 этажей).

2.По данным заводов-изготовителей срок службы 40-50 лет.

3. Удобная конструкция системы повышает оперативность устранения возникающих неполадок.

4. Придает современный и привлекательный вид зданию.

5. Хорошая звукоизоляция и защита здания от

внешних погодных воздействий.

6. Эффективное удаление атмосферной влаги и водяных паров изнутри дома, скрывает основные дефекты стен.

Рис. 2. Примеры применения систем навесных вентилируемых фасадов, фото с сайта www.alucom.ru

Система навесных вентилируемых фасадов наиболее часто применяется при новом строительстве и реконструкции многоэтажных зданий с высотой более 9 этажей, но при этом используется и в зданиях с высотой менее 9 этажей, т.к. придает постройке современный вид, а при реконструкции позволяет скрыть все дефекты и неровности стен (рис. 2). Несущая нагрузка на фасад здания при установке системы довольно значительная и требует тщательного инженерного расчета при проектировании и монтаже.

При покупке систем и непосредственно при установке требуется тщательный анализ предлагаемого продукта и рынка услуг. Фирм, занимающихся продажами навесных вентилируемых фасадов с индивидуальными особенностями, в Республики очень мало. Средний срок окупаемости системы вентилируемых фасадов от 8 до 15 лет и зависит от большого числа параметров, как самого здания, так и самой системы.

Адабиётлар:

1.Указ Президента И. А. Каримова «О мерах по дальнейшему развитию альтернативных источников энергии» от 1.03.2013 г.
2.Закон Республики Узбекистан «О рациональном использовании энергии» от 25.04.1997 г.
3.КМК 2.01.04-18 «Строительная теплотехника». Госкомархитектстрой Республики Узбекистан, Ташкент, 2011 г.
4.Пособие по проектированию новых энергосберегающих решений по строительной теплотехнике (к КМК 2.01.04-97*) (первая редакция). Ташкент, 2012 г.
5.Афанасьев, А.А. Индустриальные методы облицовки фасадов зданий при их утеплении Текст. /А.А. Афанасьев, Е. П. Матвеев, ГПВ. Монастырев П. В. // Промышленное и гражданское строительство. 1997. -№ 6. - с. 49−51..
6.Табунщиков, Ю. А. Научные основы проектирования энергоэффективных зданий Текст./ Ю. А. Табунщиков, М.М. Бродач// М.: АВОК, № 1, 1998 г.

УДК621.327

PO‘LAT TOLALARI BILAN DISPERS ARMATURALANGAN BETONDAGI TOLANING OPTIMAL MIQDORINI ANIQLASH

Razzaqov S.J., B.Maqsud o‘g‘li, Namangan muhandislik-qurilish instituti

Qurilish konstruksiyalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish, temir-beton konstruksiyalarni tayyorlash jarayonlarida beton qorishmasini po‘lat tolalar bilan dispers armaturalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Fibrotolali temir beton nafaqat temir-beton elementlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishga imkon beradi, balki ulardagi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarni ham yaxshilaydi: betonning cho‘zilishdagi kuchlanishini, yoriqbardoshligini, zarb bardoshligini, shuningdek, yuk ko‘tarish qobiliyatini ham oshiradi. Maqolada shu yo‘nalishda o‘tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: konstruktsiya, beton qorishmasi, po‘lat tolalar, dispers armaturalash, Fibrotolali temir beton, cho‘zilishdagi kuchlanish, yoriqbardoshligi, zarb bardoshligi, yuk ko‘tarish qobiliyati.

Одной из основных задач является повышение несущей способности строительных конструкций, армирование бетонной смеси стальной фиброй при изготовлении железобетонных конструкций. Фибробетон позволяет не только повысить несущую способность железобетонных элементов, но и улучшить следующие их специфические свойства: повышает прочность бетона на растяжение, трещиностойкость, ударопрочность и несущую способность. В статье представлены результаты экспериментов, проведенных в этом направлении.

Ключевые слова: конструкция, бетонная смесь, стальные волокна, дисперсная арматура, фибробетон, предел прочности при растяжении, сопротивление разрушению, ударопрочность, несущая способность.

One of the main tasks is to increase the bearing capacity of building structures, va keng qo‘llanilishiga yordam beradi. Qurilish amaliyotida beton uzoq vaqtdan beri qurilishni асосий материали ҳисобланиб келган, ammo turli omillarga bog‘liq bo‘lgan reinforcing the concrete mixture with steel fibers in the manufacture of reinforced concrete structures. Fiber-reinforced concrete allows not only to increase the bearing capacity of reinforced concrete elements, but also to improve their following specific properties: increases concrete tensile strength, crack resistance, impact resistance and load-bearing capacity. The article presents the results of experiments carried out in this direction.

Keywords: construction, concrete mixture, steel fibers, dispersed reinforcement, fiber-reinforced concrete, tensile strength, fracture resistance, impact resistance, load-bearing capacity.

Betonning boshqa qurilish materiallariga nisbatan afzalliklari uning jahon qurilish amaliyotida tez betonning murakkab kompozitsion tuzilishi betonning xususiyatlarini doimiy ravishda o‘rganish va takomillashtirish zarurati bilan bog‘liq.

Shuni ta’kidlash kerakki, beton juda xilma-xil xususiyatlarga ega noyob qurilish materialidir. Beton turli xil iqlim zonalarida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi va atrof-muhitning agressiv ta’siriga masalan harorat o‘zgarishiga, radiatsiya ta’siriga va boshqalarga

bardosh bera oladi.

Beton mahalliy material xisoblanib unga ishlatiladigan materiallar Respublikamizda yetarlidir. Temirbeton konstruktsiyalardagi betonning mustahkam oshirish muhim vazifasidan biridir, bundan tashqari, konstruksiyalarning yuk ko‘tarish qobiliyatiga zarar yetkazmasdan tannarxini pasaytirish birinchi o‘ringa chiqadi. Qurilish konstruktsiyalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullaridan biri temirbeton elementlarni po‘lat tolalar bilan dispers арматурапалашдир.

Fibrotemirbeton nafaqat temirbeton elementlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishga imkon beradi, balki ularga quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarni ham beradi: betonning eng yuqori дарзбардошлик qobiliyatini oshiradi.

Temirbetonni po‘lat tolalar bilan dispers арматурапалаш temir-beton elementlarning mustahkamligini oshirishga imkon beradi, bu esa keyingi natijada materiallarni tejashga olib keladi.

Yuqoridagilarni hisobga olib betonni po‘lat tolalari bilan dispers armaturalash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o’tkazildi.

Ushbu sinovda «Namangansement» zavodining PS400D20 sementidan foydalanildi. Sementning haqiqiy zichligi 3,1 g/sm^3, to‘kma zichligi 1,33 g/sm^3, me’yoriy quyuqligi 14%, donadorlik darajasi 8,2%, 28 sutkalik mustahkamlik chegarasi siqilishda 34,4 MPa, egilishda 7,1 MPa hamda solishtirma yuzasi 3000-3500 sm^2/g ni tashkil etdi.

Namunalarda mayda to‘ldiruvchi sifatida zichligi 1025 kg/m^3 va o‘lchamlari 0-6 mm hamda namligi 3,1% bo‘lgan Namangan viloyati To‘raqo‘rgon tumani Namangan kareridan olingan qum, yirik to‘ldiruvchi sifatida esa zichligi 815 kg/m^3 va o‘lchamlari 5-24 mm bo‘lgan granit chaqiqtosh (sheben)lardan foydalanildi. Kub-namunalar uchun foydalanilgan mayda va yirik to‘ldiruvchilarning ko‘rinishi 1-rasmda ko‘rsatilgan.

1-rams. Eksprimental tadqiqot ishida ishlatilgan mayda va yirik to‘ldiruvchilar

2-rasm. Po‘lat tolalarining ko‘rinishlari

Ushbu sinov ishlarida quyidagi 2-rasmda ko‘rsatilgan Uzbekistonning Toshkent viloyatida joylashgan ProCab O‘zbekiston-Buyuk Britaniya qo‘shma korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan po‘lat tolalaridan foydalanildi. Tolaning xossalarining ko‘rsatkichlari 1-jadvadda keltirildi.

1-jadvad

Po‘lat tolasining asosiy ko‘rsatkichlari

Tola turi	Zichligi kg/m^3	Elastiklik moduli, GPa	Cho‘zilishdagi mustahkamlik, MPa	Diametri	Uzunligi, mm
Po‘lat tola	7850	200	250	0,3 mm	10, 20, 30, 40, 50

Po‘lat tolalarining miqdorini o‘lchashda, o‘lchash aniqligi yuqori bo‘lgan “SF-400” modeldagi tarozidan foydalanildi. Po‘lat tolalarini o‘lchash jarayoni 3-rasmda ko‘rsatilgan.

Beton tarkibiga po‘lat tolalarini qo‘shish orqali loyihaviy ko‘rsatkichi bo‘yicha B25 sinfli beton olish uchun laboratoriya sharoitida tajriba ishlari olib borildi. Ushbu sinov quyidagi 2-jadvalda ko‘rsatilganidek, amaldagi DAST 27006-2019 davlatlararo standart talablari asosida ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlar ko‘rsatkichlari asosida o‘tkazildi.



3-rasm. Po‘lat tolalarini o‘lchash jarayonining ko‘rinishi

2-jadval

B25 sinfli betonning umumiy ko‘rsatkichlari

Loyihadagi beton sinfi	Beton qorishmasining xajmiy og’irligi, kg/m^3	Sement markasi PS400 D20, kg	5-25 mm yirik to‘ldiruvchi (chaqiqtosh), kg	0-6mm Mayda to‘ldiruvchi (kvarts qumi), kg	Suv, l	Suv/sement nisbati
B25	2460	440	815	1025	180	0,41

Tajriba namunalari "Bunyodkor-3" MCHJ ga qarashli qurilish-sinov laboratoriyasida tayyorlandi. Tajribalarni o‘tkazish uchun 6 ta seriyada tomonlari 100x100x100 mm bo‘lgan beton asosida tayyorlandi.

Beton qorishmalarini maxsus tayyorlangan (4-rasm) qoliplarga joylashda standart tayyorlash talablari jarayonlariga va namunalardagi beton qorishmasini zichlashga alohida e’tibor qaratildi.

$R = \frac{\alpha P}{A}$ bu yerda: R - buzuvchi kuch, kg; A - ko‘ndalang kesim yuzasi, sm^2; a -namuna-kubga o‘tish koeffitsienti

4-rasm. Tayyorlangan kub-namunalarni vibratorda sinalishi



5-rasm. Po‘lat tolalari qo‘shilgan beton kub-namunalari

Tayyorlangan namunalar xonada saqlangandan so‘ng qoliplardan olindi hamda namunalarga belgi qo‘yilib, me’yoriy qotish kamerasida 28 sutka davomidagi saqlandi. Sinovga tayyorlangan kub namunalari 5-rasmda ko‘rsatilgan.

Namunalar pressning quyi plitasining markaziga o‘rnatildi (6-rasm). Sinovda tashqi yuk miqdori uzluksiz oshirib borildi. Bunda yuk berish tezligi 0,3-0,5 MPa/s ni tashkil qildi. Betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi quyidagi formula yordamida xisoblandi

6-rasm.Kub namunalarini sinash jarayoni

Eksperimental natijalar tahlili: Tajribalarda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy ilmiy natjalar olindi. Ular bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi, tegishli jadval va grafiklarga kiritildi. Oddiy beton kub-namunalari va po‘lat tolali beton kub-namunalarning sinovdan so‘ng ko‘rinishi 7-rasmda ko‘rsatilgan.

a)

b)

7-rasm. Og‘ir begon (a) va fibrobeton (b) dan tayyorlangan kub namunalarining sinovdan keyingi umumiy ko‘rinishi

Po‘lat tolali va po‘lat tolasiz tayyorlangan beton kub namunalarining tajriba sinovlari orqali olingan natijalarini jadval hamda diagramma ko‘rinishida qo‘rsatilgan.

Kub-namunalarning 28 kunlik mustahkamlik ko‘rsatkichlarini jadvalda ko‘rishimmiz mumkin

Ko‘rsatkich	Po‘lat tolani uzunligi	Po‘lat tolani miqdori %					
		0.5	1	1.5	2	2.5	3
		Siqilishga bo‘lgan mustahkamligi, MPa					
28 kunlik mustahkamligi	0	32.7					
	10	40,3	41,5	42,6	43,3	44,6	45,9
	20	41,4	42,8	43,2	44,8	45,5	46,9
	30	42,5	43,2	44,5	46,8	43,5	40,2
	40	43,9	44,6	43,2	42,5	40,2	35,5
	50	44,5	45,8	43,1	41,2	39,5	34,4



7-rasm. 10-20-30-40-50mm uzunlikdagi po‘lat tolasi qo‘shilgan betonning kubik mustahkamlik ko‘rsatkichlar

Uzunlikdagi po‘lat tolalari bilan beton 3% miqdorigacha dispers armaturalanganda, tolasiz betonga nisbatan betonning siqilishdagi eng yuqori ko‘rsatkichlari 10 mm da 40 % ga 20 mm da 43 % ga oshdi bu tolamizda siqilishga bo‘lgan ko‘rsatkichlari pasayish kuzatilmadi.

Uzunlikdagi po‘lat tolalari bilan beton dispers armaturalanganda, tolasiz betonga nisbatan

betonning siqilishdagi 2% miqdorigacha eng yuqori ko‘rsatkichlari 30 mm da 43 % ga, 1% miqdorigacha eng yuqori ko‘rsatkichlari 40 mm da 43 % ga, 0,5% miqdorigacha eng yuqori ko‘rsatkichlari 50 mm da 43 % ga oshdi, undan yuqori miqdordagi tolamizda siqilishga bo‘lgan ko‘rsatkichlari pasayish kuzatilmadi.

Tadqiqot natijalarini ishlashda po‘lat tolali beton mustahkamligining oshishida qaysi omil ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini matematik statistikaning dispers-tahlil usuli qo‘llanilib o‘rganilganda, namunalar hajmiga nisbatan qo‘shilgan po‘lat tolasining (μ_v, %) miqdori hamda uzunliklarining ta’sirlari ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

Адабиётлар:

1. B.Maqsud o’g’li Po’lat tolalari bilan dispers armaturalangan temirbeton Qurilishda innovatsiyalar, binolar va inshootlarning seysmik xavfsizligi, Xalqaro miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferentsiya NamMQI 15-17 dekabrь, 2022 yil

2. Б.Мақсуд ўғли Повышение несущей способности строительных конструкций путем армированиуа железобетонных элементов стальной фиброй Zamonaviy mashina sozlikda innovasion texnologiyalarini qo`llashning ilmiy asoslari:tajriba va istiqbollar mavzusida xalqaro miqiyosida илмий-амалий конференtsиуа NamMQI 23-24 sentyabr 2022yil

3. Xakimov. SH, B.Maqsud o’g’li Metal fibrotolalari bilan dispers armaturalangan temir- beton Farg’ona politexnika instituti ilmiy-texnika jurnali. Maxsus 2-son ISSN 2181-7200, 2022 y.

4. Martazayev.A, Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan ko’ndalang egilishdagi temirbeton to’sinning mustahkamligi va kuchlanganlik-deformatsiyalanuvchanlik holati ilmiy tadqiqot ishidan 2022y

5. Бахотский.И.В, прочность фиброжелезобетонных конструкций в условиях кручения с изгибом: Автореф. дис. канд. техн. наук. — М., 2013

6. Хегай.М.О, напруженно - деформированное состоуание и прочhность фиброжелезобетонных элементов круглого сеченuуа при поперечhном изгибе: Автореф. дис. канд. техн. наук. — М., 2013

AVTOYO’L TEMIRBETON KO’PRIKLARNING GIDROIZOLYATSION TIZIMLARIDA ZAMONAVIY MATERIALLAR

Zokirov F.Z.
Toshkent davlat transport universiteti

Ushbu maqolada ko’prik inshootlarining asosiy nuqson va shikastlanish sabablari va chet el ko’priksozligida mavjud bo’lgan gidroizolyatsion tizimlar, ularning texnik xarakteristikalari va qurilish montaj ishlarida samarali foydalanish usullari keltirilgan. Shuningdek ushbu gidroizolyatsion materiallarni mamlakatimiz ko’priksozligida qo’llash bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: Temirbeton, ko’prik, gidroizolyatsion tizimlar, gidroizolyatsion membrana, korrektirovka, ko’prik polotnosi, sifatli bog’lanish, mustahkamlik, suv o’tkazmaslik, harorat intervali.

В данной статье рассматриваются основные причины дефектов и повреждений мостовых конструкций и гидроизоляционные системы, имеющиеся в зарубежном мостостроении, их технические характеристики и способы эффективного использования в строительно-монтажных работах. Также даны рекомендации по применению этих гидроизоляционных материалов в мостостроении нашей страны.

Ключевые слова: Железобетон, мост, гидроизоляционные системы, гидроизоляционная мембрана, корректировка, мостовое полотно, качественное соединение, прочность, водонепроницаемость, температурный интервал.

This article discusses the main causes of defects and damage to bridge structures and waterproofing systems available in foreign bridge construction, their technical characteristics and ways of effective use in construction and installation work. Recommendations on the use of these waterproofing materials in the bridge construction of our country are also given.

Key words: Reinforced concrete, bridge, waterproofing systems, waterproofing membrane, correction, bridge fabric, high-quality connection, strength, water resistance, temperature range.

Kirish: So’nggi 40-45 yil ichida temirbeton ko’priklarning ekspluatatsion ishonchliligi va chidamliligini baholash muammosi ko’plab mamlakatlar, shu jumladan O’zbekiston uchun ham dolzarb bo’lib bormoqda. Ayniqsa, agressiv muhit va vaqtinchalik yuklarning ortishi natijasida yuzaga kelgan turli xil nuqson va shikastlanishlar ko’prik inshootlari umrboqiyligini kamayishiga sabab bo’lmoqda. Ko’priklarda asosan beton himoya qatlamining yemirilishi, armaturalarning korroziyasi, konstruksiya elementlaridagi charchoqlar kabi nuqsonlar keng tarqalgan. Amaliyotdan bizga ma’lumki, temirbeton ko’priklarning barcha nuqson va shikastlanishlari nomukammal texnik yechimlar, agressiv muhitlarning ta’siri, loyihalashdagi xatolar va qurilish montaj ishlarini texnologik normalar asosida bajarmaslik tufayli paydo bo’ladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, asosiy muammo esa ko’priklarda gidroizolyatsion tizimlarning nomukammal yechimidir. Mamlakatimiz ko’priksozligida xozirgi kunda asosiy gidroizolyatsion material sifatida o’ramli (рулонний) materiallardan foydalanib kelinmoqda. Bunga asosiy sabab esa ushbu

material alternativ turining mavjud emasligida edi. Ammo, so’nggi bir necha o’n yilliklar davomida Jahonning soha mutaxassislari va fuqorolik infrastrukturalari qurilishi muhandislari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida, ko’prikning ekspluatatsion muddatini uzaytirish va qurilish montaj ishlarining texnologik jarayonlarini tezlashtirish uchun suyuq gidroizolyatsion membranalar tavsiya etilmoqda (1, 2-rasmlar).



1-rasm Zamonaviy materiallar qo'llanilgan ko'prik polotnosi



2-rasm An'anaviy materiallar qo'llanilgan ko'prik polotnosi

Asosiy qism. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida temirbeton ko'priklarning chidamliligi muammosining ko'lami shu qadar yuqori darajaga yetdiki, bu temirbeton ko'priklarning ekspluatatsion holatini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlarining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Misol uchun tadqiqotlar natijasida Rossiya federatsiyasida temirbeton ko'priklarining o'rtacha xizmat qilish muddati 40-60 yil ekanligi aniqlandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya federatsiyasi transport inshootlarining aksariyati XX asr me'yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uzoq muddatli ekspluatatsiya tufayli hozirda ta'mirlash yoki rekonstruktsiya qilishni talab qilmoqda. Federal yo'llarda joylashgan ko'priklar umumiy sonining (5100 dan ortiq) 12% qoniqarsiz holatda, 45% esa belgilangan me'yoriy talablarga javob bermaydi.

Ukraina Respublikasida temirbeton ko'priklarning ishlash muddati o'rtacha 45-50 yil. Temirbeton ko'priklarning katta qismi, ya'ni 82% qoniqarsiz holatda kelgan. 2004 yildan 2022 yilgacha ta'mirlash yoki rekonstruksiya qilishni talab qiladigan ko'priklar soni deyarli 10 baravar ko'paydi.

AQShdagi temirbeton ko'priklarning 23% (134000) ta'mirtalab holatga kelib qolgan, 39% (226000) ko'priklar ekspluatatsion talablarga javob bermaydi. Ko'priklar umumiy sonining 42% foizida korrozion nuqsonlar borligi aniqlangan.

Shuning uchun xam gidroizolyatsion tizim ko'prikni loyihalash va qurishning muhim jihati hisoblanadi. Gidroizolyatsiya ko'prik konstruksiyalarining asosiy himoya chizig'i hisoblanib, u inshoot elementlarini suv va nam muhit ta'siridan himoya qiladi. Natijada inshootning ekspluatatsion muddati ortadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ko'priksozligida an'anaviy gidroizolyatsion material sifatida xizmat muddati cheklangan bitumli membranalar, poliuretan va pvx membranalar keng qo'llanilmoqda (3-rasm). Hozirda foydalanilayotgan gidroizolyatsion materiallarning asosiy kamchiliklaridan biri bu, ularda choklar va bo'g'inlarning mavjudligi. Shuningdek, ushbu materiallar oraliq qurilmalarga yetarli darajada mustahkam yopishishi uchun, yuqori darajadagi issiqlik yordamida montaj qilish jarayonining murakkabligi. Bu o'z navbatida quruvchilarga qurilish montaj jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi. Issiqlikning belgilangan me'yorlardan oshishi yoki kamayishi o'ramli gidroizolyatsion materiallar strukturalarining buzulishiga yoki aksincha inshoot yuzasiga mustahkam yopishmasligiga sabab bo'ladi.

3-rasm Ko'prik inshootlarida gidroizolyatsion materiallarni montaj qilish (bitumli membranalar)

Tavsiya etilayotgan, jahonning ilg'or tajribalarida sinalgan gidroizolyatsion materiallar suyuq holatda montaj qilinishi natijasida ko'prik inshootining butun yuzasi bo'ylab monolit va to'liq bog'langan membranani xosil qiladi. Natijada ushbu membranali gidroizolyatsion tizim inshoot konstruksiyasi elementlariga suvning va agressiv muhitning kirib borishi migratsiyasini oldini oladi. Suyuq gidroizolyatsion membrana ko'prik konstruksiyasi elementlarining xar qanday murakkab geometrik shakllarining butun sirti bo'ylab teng taqsimlanadi. Shunday qilib, membrana ko'prik inshooti yuzasi bo'ylab choksiz tizim sifatida ishlaydi (4-rasm). Suyuq holatda qo'llaniladigan ko'prik gidroizolyatsion membranalarining asosiy afzalliklari dan biri, yuqori samarali va suyuq holatda qo'llaniladigan gidroizolyatsion tizimning ko'prik inshooti yuzasi, membrana va asfalt qoplama ostki sirti o'rtasida kimyoviy bog'lanishi sababli ekstremal iqlim sharoitida ham uzoq muddatli ekspluatatsion talablarga javob beradi. Shuningdek ko'p qatlamli "ELIMINATOR®" gidroizolyatsion tizimining yopishqoqligi va chidamliligini qurilish montaj jarayonining real vaqt holatida tekshiruv sinovlarini amalga oshirish mumkin.

ELIMINATOR kabi sovuq qo'llaniladigan suyuq mahsulotlardan foydalanish orqali, ko'prik gidroizolyatsiyalarini montaj qilish jarayonida issiqlik bilan ishlov berish amaliyotiga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etish orqali qo'shimcha xarajatlar va qiyinchiliklarning oldini oladi.

3-rasm Ko'prik inshootlarida gidroizolyatsion materiallarni montaj qilish (suyuq xolatda sepiluvchi membranalar)

Ko'prik gidroizolyatsion tizimlari uchun maxsus ishlab chiqilgan suyuq holatda qo'llaniladigan gidroizolyatsion membranalar ko'prik konstruksiyalari elementlarini muddatidam oldin shikastlanishlarini oldini oladi va exterimal sharoitlarda ko'prik konstruksiyalarining xizmat qilish muddatini oshirish uchun mukammal yechim hisoblanadi.

Odatda o'ramli gidroizolyatsiya materiallarini montaj qilish o'rniga suyuq gidroizolyatsiyani purkash ancha tezroq, sodda va samarali bo'lgan tejamkor usuldir. Xozirda mamlakatimizda an'anaviy ishlatilib kelinayotgan gidroizolyatsion tizimlarning o'rniga sovuq va suyuq xolatdagi gidroizolyatsion tizim membranalidan foydalanib qurilish montaj ishlari amalga oshirilganda, issiqlik bilan ishlov berish jarayonida paydo bo'ladigan potensial xavflarni chetlab o'tish imkoni bo'ladi [5]. Bu turdagi potensial hatarlar ko'plab qurilish mintaqalarida ushbu ish uchun qo'shimcha qoidalarni qabul qilishga majbur qiladi. Masalan, aksariyat hududlarda bosh pudratchilar issiqlik bilan ishlov berish jarayonlarini amalga oshirishga ruxsat berishlari va ishni nazorat qilishlari uchun maxsus o'qitilgan ishchilarni, shuningdek yong'in nazorati nazoratchilarini yollashlari kerak. Bu esa o'z navbatida qo'shimcha sarf xarajatlarni ortishiga sabab bo'ladi.

Odatda ko'prik inshootlari og'ir transport yuklarining uzoq muddatli ta'sirida hamda exterimal iqlim sharoitlarida ishlaydi, bu esa inshoot gidroizolyatsion tizimiga qo'shimcha bosim o'tkazishi mumkin. Bunday sharoitlarda samarali ishlashni ta'minlash uchun suyuq qo'llaniladigan gidroizolyatsiya membranalarning (masalan ELIMINATOR) maxsus ishlab chiqilgan turini tanlash maqsadga muvofiqdir.

Mahsulot tavsifi: ELIMINATOR® gidroizolyatsiya membranasining (GCP's formerly Stirling Lloyd's) amaliy texnologiyalari shuni ko'rsatadiki, ushbu maxsulot metal va temirbeton konstruksiyalarni nam va agressiv muhitdan himoya qilish uchun ishlab chiqilgan zamonaviy gidroizolyatsion tizimdir. Shuningdek, ushbu membrana qattiq va egiluvchan yuzalarni, turli murakkab geometrik shakllarni xam xech qanday choklarsiz qoplaydi. ELIMINATOR membranasi metal va temirbeton konstruksiyalarni suv va xlorid ionlarining korroziyasidan samarali himoya qiladi.

Afzalliklari va xususiyatlari:

✓ Yaxlit choksiz ishlashi tizimi. Metal, temirbeton va asfalt qoplama kabi komponentlar o'rtasida sifatli hamda samarali yopishqoqlikni ta'minlaydi

✓ ELIMINATOR membranasi -10ºC dan 50ºC gacha harorat o'zgarishlarida o'zining hususiyatini yo'qotmaydi.

✓ Yuqori darajadagi namlik va haroratning keskin o'zgarishlariga chidamli hamda yilning ixtiyoriy davrlarida qo'llash imkonini beradi

✓ Qurilish montaj ishlarining tezligi, kuniga 2000 m^2 dan ortiq yuzalarni qoplash

✓ Haroratning turli intervallarida yuqori yoriqbardoshlilik

✓ Kimyoviy ishqorlarga qarshilik

✓ Qatlamlarga mukammal yopishish

✓ Konstruksiya yuzalariga yuqori bog'lanish kuchi

✓ Asfalt qoplamasi uchun yuqori bog'lanish kuchi

✓ Balast va yo'l to'shamasi materiallari bosimiga yuqori qarshilik

ELIMINATOR membranasi xozirgi kunda butun dunyo bo'ylab ko'plab qurilish tashkilotlari tomonidan avtoyo'l va temir yo'l ko'priklarida ishlatilib kelinmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniya avtoyo'l ko'priklari (BBA HAPAS UK), Buyuk Britaniya temir yo'l ko'priklari (Network Rail UK), Fransiya avtoyo'l ko'priklari (CEREMA), Fransiya temir yo'l ko'priklari (SNCF), Belgiya (UBATC-ATG), Finlandiya (SILKO), Polsha (IBDM), AQSh (AREMA), Australiya (NSW), Xitoy, Kanada, Shvetsiya, Chexiya, Hindiston kabi mamlakatlarda keng foydalanib kelinmoqda.

Foydalanishdagi cheklovlar: ELIMINATOR membranasi komponentlarining yaroqlilik muddati tavsiya etilgan tarzda saqlanganida, ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oyni tashkil qiladi. Maksimal qo'llash harorati 50°C.

Xavfsizlik va ishlov berish: Foydalanishdan oldin har bir tizim komponenti uchun mahsulot yorlig'i va xavfsizlik talablari yo'riqnomalari bilan tanishib chiqishlari kerak. Barcha foydalanuvchilar ushbu mahsulot bilan ishlash davrida mehnat xavfsilzligi talablari bilan tanishishlari va ularga rioya qilishlari kerak.

Saqlash va saqlash muddati: Yaroqlilik muddatiga qat'iy rioya qilinishi, salqin va quruq joyda, himoyalangan sharoitda, to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushmaydigan joyda saqlanishi, saqlash harorati 25°C dan oshmasligi, shuningdek, ochiq olov yoki oziq-ovqat mahsulotlari yaqinida saqlanmasligi kerak [1]. Qo'llanilishi - ELIMINATOR membranasini -10°C dan +50ºC gacha bo'lgan haroratda qo'llash mumkin.

Asfalt qoplamasining tavsiya etilgan maxsimal harorati 250ºC gacha, membrananing maxsimal qo'llanish harorati +50ºC ni tashkil qiladi.

Yuzalarni tayyorlash: Har qanday gidroizol-yatsion tizimining muvaffaqiyatli ishlashi davri, gidroizolyatsion material yotkiziladigan yuzaning tekisligiga va sifatiga bog'liq.

Temirbeton konstruksiya yuzalariga gidroizol-yatsion membranalarni montaj qilishdan oldin, ushbu konstruksiyalar tabiiy sharoitda 7 sutka (168 soat)dan kam bo'lmagan muddatda quritilishi kerak. ELIMINATOR membranasini ishlatishdan oldin konstruksiyalar betonining minimal siqilishga bo'lgan qarshiligi 20N/mm^2 (3000 psi) bo'lishi kerak. Agarda, siqilish bo'lgan qarshilik sinovini o'tkazish mumkin bo'lmagan hollarda, membranani qo'llashdan oldin membrananing betonga minimal yopishishi 0,7MPa bo'lgan muqobil variantning sinovi o'tkazilishi kerak. Oraliq qurilma yuzasi toza, quruq va tizimli ravishda mustahkam bo'lishi kerak. Unda yog'lar, kimyoviy birikmalar va boshqa sirtni ifloslantiruvchi moddalar bo'lmasligi kerak.

ELIMINATOR membranasidan asfalt-beton yoki chaqiqtosh qoplamasi ostidagi ko'priklarida gidroizolyatsion material sifatida foydalanilganda, ko'prik konstruksiyalarining yuzalari xususiyatlariga qarab, ELIMINATOR membranasiga yopishtiruvchi va biriktiruvchi qo'shimchalar qo'llanilishi kerak.

Materialni ishlatishdan oldin kerakli barcha uskunalar va jihozlarni aseton bilan tozalash kerak.

ELIMINATOR membrana komponentlari: (standart va tropik navlar)

1-jadval

392 KG tarkibida		
Nomlanishi	Qadoqda	Komplektda
Eliminator A qismi	200 kg	4
Eliminator B* qismi	192 kg	4
BPO katalizatori (392 kg tarkibga kiritilmagan)	8 kg	N/A

**Eliminator B qismi 2 ta qatlam uchun sariq va oq yoki o'rtacha kulrang ranglarda taqdim etiladi, rang kodli.*

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, suyuq holatdagi qoplama ko'prik gidroizolyatsiyasi uchun potentsial yechim bo'lishi mumkin. Ushbu material ekologik zararsiz va korroziyaga yuqori chidamli. Uning ishlash samaradorligini ta'minlash uchun qurilish ishlari davrida materialni montaj qilish texnologiyasiga e'tibor qaratish zarur.

Bundan tashqari, ko'prik uchun ratsional gidroizolyatsion tizimni tanlashda moddiy xarajatlar ham hisobga olinishi kerak. Umuman olganda, suyuq membrana qatlamini gidroizolyatsiya materiali sifatida ishlatish an'anaviy usullarga istiqbolli muqobil bo'lishi mumkin, ammo uning turli xil ko'prik konstruksiyalarida va muhitlarida ishlash yaroqliligini o'rganish uchun keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Texnik yo'riqnoma №TL-0030(AP) "GCP gidroizolyatsiyasining saqlash muddati bo;yicha, saqlash va ishlov berish"
2. Liu, J., Ren, G., & Yuan, S. (2019). Application of aluminum sheet on bridge deck pavement waterproofing. Materials Today: Proceedings, 19(1), 229-234.
3. Dajian, W., Xiaoyan, Z., & Jihang, L. (2016). Application of aluminum sheet in highway tunnel waterproofing. Journal of Tunnels and Underground Space Technology, 57, 109-115.
4. Zhang, Y., Wang, G., Chen, Y., & Zhang, Z. (2017). Experimental research on waterproof aluminum panel used in tunnel construction. Journal of Constructional Steel Research, 128, 274-281.
5. U.S. Occupational Safety & Health Administration (OSHA)
6. https://www.nichireki.co.jp/english/product/method/method_list05/
7. https://gcpat.com.au/en-gb/bridge-deck-waterproofing
8. Saidxon, S., Zokirov, F., G'anisher, M. (2022). Increasing the load-bearing capacity of superstructures of operating reinforced concrete bridges. Toshkent Davlat Transport Universiteti.
9. Salixanov, S., & Zokirov, F. (2022). Ekspluatatsiya qilinayotgan temirbeton ko'prik oraliq qurilmalari yuk ko'taruvchanligini hozirgi zamon yuklarini o'tkazish uchun oshirish. Toshkent Davlat Transport Universiteti.
10. Салиханов, С., & Zokirov, F. (2022). Мостовое полотно с применением современных гидроизоляционных материалов. Tashkent State Transport University.
11. Shermuxamedov U. Z., Zokirov F. Z. Application of modern, effective materials in rail road reinforced bridge elements//Journal of tashkent institute of railway engineers. – 2019. – Т. 15. – №. 3. – С. 8-13.
12. Yaxshiev E. T., Zokirov F. Z., Karimova A. B. Research of system conditions for formation of failure on mathematical models by the results of the research of reinforced concrete bridges//Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers. – 2019. – Т. 15. – №. 3. – С. 36-41.
13. Salixanov S. S. New Type of Road Bridge Riding Cloth Construction Using Self-Tensioning Concrete //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – 2019. – Т. 6. – №. 11. – С. 11655-11657.
14. Salikhanov S. et al. Determination of deformations and self-stress in concrete on stress cement//E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 264. – С. 02056.

УДК 624.01

ТОЛАЛАР АСОСИДА ДИСПЕРС АРМАТУРАЛАНГАН ФИБРОБЕТОН КОНСТРУКЦИЯЛАР УСТИДА ЎТКАЗИЛГАН ТАДҚИҚОТЛАР – ТАҲЛИЛ

Мартазаев А.Ш. Мирзамахмудов А. Наманган муҳандислик-қурилиш институти

Мақолада толалар асосида дисперс арматураланган фибробетоннинг физик-механик хусусиятларини аниқлаш бўйича олиб борилган илмий тадқиқотларнинг таҳлили байон этилган.

Таянч сўзлар: фибробетон, тола, дисперс арматуралаш, конструкция, деформация, мустаҳкамлик.

В статье описан анализ научных исследований, проведенных по определению физико-механических свойств дисперсно-армированного бетона на основе фибры.
Ключевые слова: фибробетон, фибра, дисперсная арматура, конструкция, деформация, прочность.

The article describes the analysis of the scientific research conducted to determine the physical and mechanical properties of fiber-based dispersed reinforced concrete.
Key words: fiber concrete, fiber, dispersed reinforcement, construction, deformation, strength.

Замонавий конструкциявий материаллардан бири бу - дисперсли арматураланган бетонлардир. Бундай бетонлар кенг доирадаги композицион материалларнинг бир тури бўлиб, бугунги кунда саноатнинг турли соҳаларида кенг қўлланилмоқда. Дисперсли арматуралаш бетон матрицасининг ҳажми бўйлаб тенг тарқаладиган толалар-фиброларни қўллаш орқали амалга оширилади.

Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кўплаб мамлакатларда базальт толалар асосидаги фибротемирбетон конструкцияларнинг ҳақиқий ишини ўрганиш бўйича муайян назарий ва экспериментал тадқиқотлар ўтказилган. Жумладан, К.Л.Кудяков [1] статик ва қисқа муддатли динамик юклар таъсирида композит шиша арматуралар ва базальт толалар асосида тайёрланган эгилувчи бетон конструкцияларнинг мустаҳкамлиги ва дарзбардошлигини тадқиқ қилган. Ушбу бажарилган илмий ишда кенглиги b=100 мм, баландлиги h=200 мм ва элементнинг умумий узунлиги l=2200 мм бўлган тўртбурчак кесимли 10 дона тўсин тайёрланган. Тўсинларда шиша композит арматуралар фойдаланилган. Статик юк остида синалган базальт толасиз тўсинлар учун дарзларни ҳосил қилувчи момент 2,4 кН·м ни, бузувчи момент 16,3 кН·м ни ташкил этган бўлса, бу кўрсаткич толали тўсинларда мос равишда 10,6 кН·м ва 21,8 кН·м ни ташкил этган. Қисқа муддатли динамик юкланишда толасиз тўсинларда бузувчи момент 18,3 кН·м ни, базальт толалари қўшиб тайёрланган тўсинларда эса 24,5 кН·м ни ташкил этган.

К.Л.Кудяков томонидан ишлаб чиқилган технологик усул ёрдамида базальт толаларини μ_{bf}=0,5% миқдорида қўшиб тайёрланган фибробетон, толасиз бетонлар билан солиштирилганда, сиқилишдаги мустаҳкамлик 51,2% гача, чўзилишдаги мустаҳкамлик 28,8 % гача ошган[1].

З. Ясмин, М. Ханенлар эгилувчи темирбетон тўсинларда базальт ва металл толаларнинг таъсирини ўрганиш учун экспериментал тадқиқот ишларини олиб боришган. Илмий тадқиқот ишида кесим ўлчамлари 150x250x1200 мм бўлган темирбетон тўсинлар тайёрланган. Базальт ва металл толаларни цемент массасига нисбатан мос равишда 2,5% ва 15% миқдорида қўшиб тўсин тайёрланган. Синов натижалари шуни кўрсатадики, базальт толалари асосида тайёрланган тўсинларнинг юк кўтариш қобилияти 30% гача ва максимал эгилиши деярли 2,4 мартага ошган. Бундан ташқари, металл толали тўсинларнинг юк кўтариш қобилияти 47% гача ошган. Чегаравий солқилик оддий тўсинлар билан деярли бир ҳил натижа кўрсатган. Базальт ва металл толалар тўсинларнинг солқилигини оширган. Шу билан бирга дарзлар ҳосил бўлиши ва тарқалишини кечиктирган[2].

P. Nihal ва Shinu Shajee [3]лар металл ва базальт толали темирбетон тўсинлар бўйича экспериментал ҳамда аналитик илмий тадқиқот олиб боришган. Бетоннинг умумий ҳажмининг 0%, 0,25%, 0,50%, 0,75%, 1,0% гача миқдорида базальт ва металл толалари билан 12 та темирбетон тўсинлар тайёрланган. Тўсинлар нормал ва қия кесимлар бўйича мустаҳкамликка текширилган. Юк таъсирида оддий бетонларда кўплаб микро ва макро дарзлар ҳосил бўлади. Тасодифий жойлаштирилган, толаларнинг қўшилиши дарзларнинг тарқалишини тўхтатишга ёрдам берган. Бундан ташқари муаллифлар ANSYS 16.1 дастуридан фойдаланган ҳолда тўсинларни аналитик тадқиқ қилишган. Металл толалар ва базальт толалар билан мустаҳкамланган тўсинларнинг оддий тўсинларга нисбатан юк кўтариш қобилияти мос равишда 11,3% ва 9,2% га ошган.

Julita Krassowska ва Andrzej Lapko [4]лар базальт ва металл толаларидан фойдаланган ҳолда тайёрланган темирбетон тўсинларда хусусиятларини тадқиқ қилишган. Тўсинларда узунлиги 50 мм бўлган металл ва базальт толаларидан фойдаланилган. Базальт толаларнинг диаметри 16 мкм, эластиклик модули 90 ГПа бўлган. Бетоннинг эгилишдаги чўзилиш мустаҳкамлигини аниқлаш учун кесим ўлчамлари 100x100x400 мм бетон призмаларга 1,5% металл толалари ҳамда 20 кг/м^3 миқдорида базальт толалари қўшиб лаборатория шароитида синалган. Синов натижасида эгилишдаги чўзилиш мустаҳкамлиги, толалар қўшмай тайёрланган намуналарга нисбатан базальт толалари қўшилган намуналарда 62% га, металл толалар билан тайёрланган намуналарда 42% га ортган. Экспериментал тадқиқот ишида кесим ўлчамлари 80x120x1100 мм бўлган металл толали тўсинлар ҳамда кесим ўлчамлари 80x160x2000 мм бўлган базальт толали тўсинлар тайёрланган. Қия кесим бўйича тўсинларнинг юк кўтариш қобилияти оддий тўсинларга нисбатан базальт толали тўсинларда 42-45% га, металл толали тўсинларда 40-50% га ўсганлиги қайд этилган.

Shiping Li, Yibei Zhang, Wujun Chen [5]лар қайта ишланган тўлдирувчилар ва базальт толалар билан тайёрланган текис эгилишга ишловчи темирбетон тўсинларнинг мустаҳкамлигини ўрганиш бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб боришган. Намуна тўсинларнинг кесим ўлчамлари 210x300x4000 мм ва ҳисобий узунлиги 3800 мм ни ташкил этган. Тўсинлар B40 синфли бетондан тайёрланган. Базальт толасининг узунлиги 15 мм, диаметри 15 мкм, эластиклик модули 95-115 ГПа, чўзилишдаги мустаҳкамлиги 3500–4500 МПа, зичлиги 2,72 г/см^3 ташкил этган. Олинган

натижалар шуни кўрсатадики максимал эгувчи момент қиймати толасиз тўсинларда 69,08 кН·м, базальт толаларини 0,2% миқдорида қўшиб тайёрланган темирбетон тўсинларда 78,94 кН·м ни ташкил этган, яъни оддий тўсинларга нисбатан 14,3% га ўсгани кузатилган. Ушбу илмий тадқиқот ишида конструкцияларнинг мустаҳкамлигини ошириш, дарзлар кенгайишини камайтириш учун энг самарали миқдор 0,2-0,25% ни тавсия этилган.

Aathithya Raja M, Saravanan G, Satheesh.V.S [6] лар базальт толали темирбетон тўсинларнинг солқилик хусусиятларини ўрганишган. Кўндаланг кесим ўлчамлари 150x200x1200 мм бўлган тўсинларга 6 ва 12 мм узунликлардаги базальт толаларини 0,2% миқдорида қўшиб тайёрланган. Тўсинларнинг чўзилувчи ва сиқилувчи қисмларига Ø12мм, кўндаланг арматура сифатида қадами 150 мм бўлган Ø8 мм арматуралар қўлланилган. Бетонларни сиқилишдаги мустаҳкамлигини текширилганда 0,2% миқдорида базальт толалари қўшиб тайёрланган намуналар, базальт толасиз намуналарга нисбатан 15% ошгани кузатилган. Темирбетон тўсинларга базальт толаларининг қўлланилиши эгилишдаги мустаҳкамликни оширган. Бундан ташқари тўсинларда дарзларнинг очилиш вақти кечроқ содир бўлган.

Tehmina Ayub (2014) [7] базальт толали темирбетон тўсинларнинг эгилишдаги мустаҳкамлигини ўрганган. Бетон синфи B40, кесим ўлчамлари 150x350x2100 мм бўлган темирбетон тўсинлар тайёрланган. Базальт толалари 1%, 1,5%, 2%, 2,5%, 3% миқдорида тўсинларга қўшилган. Олинган натижалар шуни кўрсатадики, базальт толаларини 1%, 2% ва 3% қўшилиши тўсинларнинг эгилишдаги мустаҳкамлигини мос равишда 18,15%; 36,12%; ва 21,17% оширган.

Padmanabhan Iyer (2014) [8] базальт толалари асосидаги бетонларнинг сиқилишдаги, чўзилишдаги ҳамда эгилишдаги мустаҳкамликларини тадқиқ этган. Тўсинларни тайёрлашда B35 синфдаги бетондан ҳамда узунлиги 12, 36, 50 мм ва базальт миқдори 4 кг/м^3, 8 кг/м^3, 12 кг/м^3 бўлган толалардан фойдаланилган. Тўсинларнинг кўндаланг кесим ўлчамлари 150x250x2100 мм ни ташкил этган. Базальт толаларидан узунлиги 50 мм ва 8 кг/м^3 миқдорида фойдаланилганда эгилишдаги мустаҳкамлик 21% га, сиқилишдаги мустаҳкамлик 38% га, чўзилишдаги мустаҳкамлик 14% га ўсгани кузатилган. Базальт толаларидан 36 мм узунликда ва 8 кг/м^3 миқдорида фойдаланилганда эгилишдаги мустаҳкамлик 23% га, сиқилишдаги мустаҳкамлик 24% га, чўзилишдаги мустаҳкамлик 4% га ошгани кузатилган.

Sangamesh Upasi, et. all (2014) [9**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] кўндаланг кесим ўлчамлари 200x350x3000 мм, бетон синфи B30 бўлган тўсинларни экспериментал тадқиқ этган. Тўсинларни тайёрлашда узунликлари 6 ва 12 мм ҳамда миқдорлари 1%; 1,5%; 2%; 2,5% бўлган базальт толалари қўлланилган. Базальт толаларини 2% миқдорида қўшилганда эгилишдаги мустаҳкамлик 78,94% га, сиқилишдаги мустаҳкамлик 17,57% га ўсишига эришилган.

Кўплаб муаллифлар томонидан толалар асосида дисперс арматураланган конструкциялар устида олиб борилган экспериментал ва назарий тадқиқотлар натижалари 1-жадвалда кўрсатилган.

1-жадвал. Фибробетон конструкциялар бўйича олиб борилган экспериментал тадқиқотлар натижалари

Муаллиф [манба]	Тўсин ўлчами l×h×b, мм; ҳисобий узуник, мм	Бетон (фибробетон) ва бўйлама ишчи арматуранинг характеристикалари	Толанинг хусусиятлари	Тажриба намуналари сони	Юк кўтариш қобилиятининг ошиши
З. Ясмин [2]	1200×250×150 ҳисобий узунлик 1050	Оғир бетон матрицияси; Арматура 2Ø10 мм синфи A-III, R_{bfb}=33,0 МПа	Базальт тола l_f=60 мм, d_f=0,022, μ_{fv}=2,5%	1 дона ТБТ; 9 дона БФБТ	30% гача
Н. С. Воронцова [10]	2460×220×120	Оғир бетон матрицияси; Арматура 2Ø10 мм синфи A-III (A500C), Арматура 2Ø14 мм синфи A-III (Ат800), μ = 1,2%	ФСВ-А-0,30/30 пўлат симли тола l_f=30 мм, d_f=0,30 мм, l_f/d_f=100, μ_{fv}=2%	4 дона ТБТ; 10 дона ФТБТ	+ 13,0 дан + 24,0% гача
U. Masood [11]	1200×150×75	Майда тўлдиргичли бетон матрицияси; R_{fb}=25 МПа; Арматура 2Ø8 мм синфи A-III, μ=1,19%	Пўлат симли тола l_f=55 мм, d_f=1 мм, μ_{fv}=0,5; 0,75; 1,0; 1,25; 5%	1 дона ТБТ; 25 дона ФТБТ	+ 17 дан + 49,0% гача
S. H. Alsayed [12]	2500×250×200 ҳисобий узунлик 2300	Оғир бетон матрицияси; R^c_{fb} =39,0 МПа; Арматура 2Ø18 мм, μ=1,25%	Пўлат симли тола l_f=60 мм, d_f=0,8 мм, μ_{fv}=0,5%	3 дона ТБТ; 7 дона ФТБТ	+15% гача
In-Hwan Yang, [13]	3300×250×200 ҳисобий узунлик 3000	Оғир бетон матрицияси; R^c_{fb} =96,9 МПа, Арматура 2Ø16 мм	Пўлат симли тола l_f=19,5 мм, d_f=0,2 мм, μ_{fv}=1%	2 дона ТБТ; 9 дона ФТБТ	+25% гача
E. Hughes [14]	2400×250×200 ҳисобий узунлик 2200	Майда тўлдиргичли бетон матрицияси; R_b=33,7 МПа; Арматура 2Ø12 мм	Базальт тола l_f=15 мм, μ_{fv}=0,25%	1 дона ТБТ; 4 дона БФТБТ	+30,0% гача

Муаллиф [манба]	Тўсин ўлчами l×h×b, мм; ҳисобий узуник, мм	Бетон (фибробетон) ва бўйлама ишчи арматуранинг характеристикалари	Толанинг хусусиятлари	Тажриба намуналари сони	Юк кўтариш қобилиятининг ошиши
		синфи А- III			
P.P. Nihal [3]	750×100×100 ҳисобий узунлик 700	Майда тўлдиргичли бетон матрицияси; R_{fb}=38,5 МПа; R_{fbt}=2,46…3,64 МПа; Арматура 2Ø8 мм синфи А-I (А240), μ=1,4%	Пўлат симли тола тола l_f=30 мм, d_f=0,2 мм, l_f/d_f=125, μ_{fv}=0,25; 0,50; 0,75; 1,0%	1 дона ТБТ; 9 дона БФТБТ	+15,3% гача
К.Л.Кудяков [1]	2200×200×100 ҳисобий узунлик 2000	Оғир бетон матрицияси; R_{bfb}=39,1 МПа, R_{fbt}=2,7 МПа; Арматура 2Ø6 мм	Базальт тола l_f=30 мм, d_f=0,013 мм, μ_{fv}=0,5%	4 дона ТБТ; 6 дона ФТБТ	+30% гача
Shiping Li [5]	4000×300×210 ҳисобий узунлик 3800	Оғир бетон матрицияси; R_{bfb}=38,6 МПа, R_{fbt}=2,1 МПа; Арматура 2Ø10 мм; 2Ø16 мм	Базальт тола l_f=15 мм, d_f=0,015 мм, μ_{fv}=0,2...0,25%	2 дона ТБТ; 6 дона ФТБТ	+ 13,6 дан + 24,3% гача
W. Alnahhal [15]	2550×250×150 ҳисобий узунлик 2300	Оғир бетон матрицияси; Арматура 2Ø16 мм синфи А-III	Базальт тола l_f=45 мм, d_f=0,65 мм, μ_{fv}=0,5...1,5%	1 дона ТБТ; 15 дона ФТБТ	28% гача

Изоҳ: $R_{m,b}$–бетоннинг кубик мустаҳкамлиги; $R_{m,fb}$–фибробетоннинг кубик мустаҳкамлиги; R_b–бетоннинг призматик мустаҳкамлиги; R_{fb}–фибробетоннинг призматик мустаҳкамлиги; R_b^c–бетоннинг цилиндрик мустаҳкамлиги; R_{fb}^c–фибробетоннинг цилиндрик мустаҳкамлиги; ТБТ – темирбетон тўсин; ФТБТ–фибротемирбетон тўсин.

Хулоса. Базальт толалари асосида фибробетон элементларнинг мустаҳкамлиги, дарзбардошлигини, кучланганлик-деформацияланувчанлик ҳолатларини тадқиқ этиш бўйича бажарилган илмий тадқиқот ишларини ўрганиш ва таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, ҳозирги вақтга қадар чет эл мамлакатларида мазкур йўналишда экспериментал ва назарий маълумотлар тўпланган. Лекин, базальт толаларининг бетонга қўшилгандаги афзалликлари, олинган илмий натижаларга қарамай, толалар билан дисперс арматураланган фибробетон қурилишда кенг қўлланилмаган. Бунинг сабаби материалнинг хусусиятлари ҳақида етарли маълумот йўқлиги, тадқиқот натижаларининг ноаниқлиги, бетон ҳажмида толаларнинг тақсимланишини бир хиллигини таъминлашдаги технологик қийинчиликлар, ҳисоблаш усулларининг номукаммаллиги ва меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг йўқлиги ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Кудяков А.И. Совершенствование технологии изготовления базальтофибробетона с повышенной однородностью // Строительные материалы. – № 10. – 2015.

2. Yasmin Z. M., Haneen M. A. The influence of basalt and steel fibers on the flexural behavior of rc beams // World Academy of Science, Engineering and Technology International Journal of Civil and Environmental Engineering Vol. 13, 2019.

3. Nihal P. P., Shinu Sh. "Experimental and analytical studies on steel and basalt fiber reinforced concrete beams", International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 6, Issue 4, April 2017.

4. Krassowska J., Lapko A. The "Influence of steel and basalt fibers on the shear and flexural capacity of reinforced concrete beams", Journal of Civil Engineering and Architecture, ISSN 1934-7359, USA., 2013.

5. Shiping Li, Yibei Zhang, Wujun Chen "Bending performance of unbonded prestressed basalt fiber recycled concrete beams", Engineering Structures, July 2020

6. Aathithya Raja M., Saravanan G., Satheesh.V.S. "Flexural behaviour of basalt chopped strands fibre reinforced concrete beams", International Journal of Engineering Science and Computing, March 2017.

7. Tehmina Ayub, Nasir Shafiq, M. Fadhil Nuruddin Effect of Chopped Basalt Fibers on the Mechanical Properties and Microstructure of High Performance Fiber Reinforced Concrete // Advances in materials science and engineering, vol. 10, - 2014. pp. 87-101.

8. Padmanabhan I. "Performance of basalt fiber mixed concrete", Research of Mechanical, Automotive and Materials Engineering volume 5 PP:51-59. 2014.

9. Sangamesh U., Sunil Kumar H.S. "An investigation on strength characteristics of basalt fibre reinforced concrete", International journal of engineering research-online a peer reviewed international journal, Vol.2., Issue.5, 2014.

10. Воронцова Н. С. "Напряженно-деформированное состояние и прочность косоизгибаемых фиброжелезобетонных элементов", диссертация, Санкт-Петербург – 2019.

11. Masood U. Studies on characteristics of mixed fiber reinforced concrete for structural applications: diss. Jawaharlal nehru technological university hyderabad kukatpally, Hyderabad –India – 2013.

12. Alsayed S. H. Flexural deflection of reinforced fibrous concrete beams // ACI Structural Journal. – Vol. 90, № 1. – 1993., pp. 72–76.

13. In-Hwan Y. A Comparative Experimental Study on the Flexural Behavior of High-Strength Fiber-Reinforced Concrete and High-StrengthConcrete Beams // Advances in Materials Science and Engineering. – 2018. – Vol. 7. – P. 1–13.

14. Hughes E. Strengthening of Concrete Beams with Basalt Fibre Reinforced Polymer // Structures Congress. – Vol. 2. – 2020. – pp. 449–456.

15. Alnahhal W. Flexural behavior of basalt fiber reinforced concrete beams with recycled concrete coarse

aggregates // Construction and Building Materials. – 2018. – P. 165–178.

YUQORI HARORATGA CHIDAMLI MODIFIKATSIYALANGAN OLTINGUGURTLI BITUMNI TAYYORLASH JARAYONIDA REAKTORDAGI HARORATNING AHAMIYATI

Sodiqov Ibrohim Solihovich - texnika fanlari doktori, professor
Tilakov Suxrob Muxammadiyevich - tayanch doktorant
Mamatmuminov Alisher Turaqulovich -assistent
Toshkent davlat transport universiteti.

Maqolada oltingugurtli bitumni modifikatsiya qilishning mavjud texnologiyalari tahlil qilinib yangi texnologiya ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan texnologiya yordamida modifikatsiya qilingan bitumning fizik-mexanik xossalari oshirilgani eksprimentlar orqali ilmiy asoslab berilgan.
Kalit so'zlar: Modifikatsiya, modifikator, reaktor, harorat, bitum, oltingugurt, oltingugurtli bitum, asfaltbeton, oltingugurtli quyma asfaltbeton, fizik – mexanik xossalar.

В статье проведен анализ существующих технологий модификации сернистых битумов и разработана новая технология. Повышение физико-механических свойств модифицированных битумов с помощью разработанной технологии научно доказано опытным путем.
Ключевые слова: Модификация, модификатор, реактор, температура, битум, сера, битум с серой, асфальтобетон, литой асфальтобетон с серой, физико-механические свойства.

The article analyzes the existing technologies for the modification of sulfurous bitumen and develops a new technology. Improving the physical and mechanical properties of modified bitumen with the help of the developed technology has been scientifically proven experimentally.
Пигментлар декоратив хусусиятларни бериш учун ишлатилади, улар қўшимча ёнғинга қарши восита бўлиши мумкин. Энг кўп ишлатиладиган пигментлар титаниум диоксид (рутил, анатаз), рух оксиди, литопон, рух фосфат, Mg, Al, Zn титанатлар, барий борат, технология. углерод (курум), темир оксиди (II, III), сариқ темир оксиди, табиий ва синтетик охра, стронсий тожи, кадмий сулфид, қизил темир оксиди табиий (қизил қўрғошин, мумия) ва синтетик, синк феррит, калтсий феррит, мис оксид (I), темир кўк, ультрамарин, кобальт алуминат, хром оксиди, зумрад яшил, хром фосфат, хром титанат, кобальт хромит ва бошқалар.

Бундай композициялардаги модификаторлар бўялган сирт ва ёнғинга чидамли бўёқ ўртасидаги намланишни, улар орасидаги мустаҳкамликни яхшилашга хизмат қилади, шунингдек, қўшимча ёнғинга қарши восита вазифасини бажаради. Оловга бардош қопламанинг ишлаш хусусиятларини яхшилайди (эластиклик, ёрилиш- совуққа, зарбага, намликка чидамлилик ва бошқалар). Маълумки, бундай тизимлар учун самарали модификаторлар полар гуруҳларга эга бўлган органик моддалар бўлиб, улар силикон-кислородли олигомерларнинг водород боғланиши орқали ўзаро боғланишини таъминлайди. Буларга ко‘п атомли спиртлар, кетонлар, аминлар ва амидлар киради [1, 2].

Силикат эритмалари асосидаги қопламалар атмосфера намлигининг ўзгаришига катта даражада таъсирчан: ҳавонинг паст намлигида қопламанинг мўртлашиши ва тўкилиши кузатилади; юқори намликда қоплама "сузади" ва ювилади. Бу камчилик СЛК қопламаларини очиқ ҳавода, қуруқ ва нам хоналарда ишлатишни чеклайди.

Қопламаларнинг намликка чидамлилиги устки қатлам ҳосил қилувчи асоснинг табиати, бўёқ ишларининг сувни ютиш даражаси ва сув ўтказувчанлиги, шунингдек, материалнинг сиртини тайёрлаш ва қоплашнинг қабул қилинган технологиясига қатъий риоя қилиш билан белгиланади.

Ушбу иш намликка чидамлилиги юқори бўлган натрий силикат эритмаси асосида ёнғинга чидамли бўёқ формуласини ишлаб чиқишга қаратилган.

Формуляцияда қотирувчи ва тузилиш ҳосил қилувчи сифатида бўр, талк ва цемент ишлатилган. Оловга чидамли моддалар бўр, талк. Ишда пигментлардан фойдаланилмаган.

Ёғоч ва ёғочдан тайёрланган материаллар учун ишлатиладиган бирикмалар ва моддаларнинг ёнғинга чидамлилиги турли усуллар билан аниқланиши мумкин. Барча усуллар қаттиқ моддаларнинг ёнувчанлигини аниқлаш тамойилига асосланади [3].

Синов лаборатория шароитида "оловли қувур" усули орқали амалга оширилади. Бу материалларни қийин ёнувчан ва ёнувчан гуруҳларга ажратиш имконини беради. Ёнишдан кейин материалларнинг масса ёқотиши мос равишда 20% гача ва 20% дан юқори бўлади.

Ёғоч ва унга асосидаги материаллар учун ёнғинга чидамли композициялар ва моддаларни сертификатлаш синовларида ёнғинга чидамлилик самарадорлиги керамик қувурлар усули ёрдамида баҳоланади. Усул оловбардошлик гуруҳини аниқлашга имкон беради. Агарда масса йўқолиши 9% дан ошмаса синовдан ўтказилаётган қоплама I-гуруҳ оловбардошли самарадорлигига эга, 9 дан 25% гача бўлса II-гуруҳ оловбардошли самарадорлигига эга, агар масса йўқолиши 25% дан ортиқ бўлса қоплама ёнувчан, деб ҳисобланади.

Синовлар узунлиги 60 мм, баландлиги 150 мм ва қалинлиги 30 мм бўлган 3 та учта учта материал намуналарида ўтказилди.

Ўрнатишнинг ишлашга яроқлилиги стандарт намуна - чуқур шимдирилган ёғоч ёрдамида текширилиб, синовдан сўнг вазн йўқотиши (20,6 ± 1,4)% ни ташкил этиб, ДСТ талабларига мос келади. Стандарт намуналар ДСТ 16363 (п) га мувофиқ амалга оширилди. Ўрганилаётган материалнинг намунаси ушлагичга ўрнатилди ва шаблон ёрдамида намунанинг вертикал ўқига нисбатан ҳолати текширилди.

Ҳароратни қайд қилиш учун қурилма ёқилади, газ горелкасини ёқилади ва газ оқими назорати шундай амалга oshirildiki 3 дақиқада ёнишининг газсимон маҳсулотларининг ҳарорати 200 ± 5 ° C да бошқарилиши таъминланди.

Намуна билан ушлагич камерага 5 сониядан кўп бўлмаган вақт давомида киритилди ва 120 сония давомида синовдан ўтказилди. Сўнг олов ўчирилди. Намуна тўлиқ совутилгунга қадар (хона ҳарорати) камерада сақланади (1-расм). Кейин совутилган намуна камерадан олиб ташланди ва осиб қўйилди.

Маълумотлар олингандан сўнг, янги намуналар билан иккита шунга ўхшаш синов ўтказилди.

1-расм. Синовларнинг умумий кўриниши

Синовдан сўнг намуналарнинг кўриниши 2-расмда кўрсатилган.

2-расм. Синовдан сўнг намуналарнинг кўриниши

Максимал ҳарорат ўсиши (Δt_{max}) формуласи бўйича ҳисоблаб чиқилган:

$$\Delta t_{max} = t_{max} - t_0, \quad (1)$$

бу ерда t_{max} - синов материалининг газсимон ёниш маҳсулотларининг максимал ҳарорати, ° С;

t_0 - дастлабки синов ҳарорати, 200 ° С га тенг.

Намуна вазн йўқотиш (Δm) фоизда қуйидаги формула бўйича ҳисоблаб чиқилган:

$$\Delta m = \frac{m_н - m_к}{m_н} \cdot 100 \ , (2)$$

бу ерда $m_н$ - намунанинг синовдан олдинги массаси, г; $m_к$ - синовдан сўнг намуна массаси, г.

Максимал ҳарорат ўсиши Δt_{max} ва оғирлик йўқотиш Δm қийматига кўра, материаллар қуйидаги турларга бўлинади:

Қийин ёнувчи - $\Delta t_{max} < 60$ °С и $\Delta m < 60$ %;

Ёнувчи - $\Delta t_{max} \geq 60$°С или $\Delta m \geq 60$%.

Ўтказилган тажрибалар натижалари 1-жадвалда келтирилган.

Ушбу синов натижалари шуни кўрсатдики, антипирен билан қопланган намуналарнинг ўртача арифметик вазн йўқотиши 19,5 % ни ташкил қилади ва шунинг учун улар ДСТ 16363-98 га асосан ёнғинга қарши самарадорилкнинг 2 гуруҳига таснифланади.

1-жадвал.

Оловбардош таркиб билан ишлов берилган ёғоч намуналарининг синов натижалари*

Намуналар	Намунанинг массаси, г		Ҳарорат, ºС		Намунанинг масса йўқотиши		Изоҳ
	Синовдан аввал	Синовдан сўнг	Бирламчи, Тн	Якуний, Тк	гр	%	
Назорат намунаси	177,3	121,7	202	420	31,4	26,7	Ёнади
1-намуна	148,7	139,1	196	356	9,6	14,3	Ёнмайди
2-намуна	130	114,8	202	334	15,2	19,8	Ёнмайди
3-намуна	158,1	142,6	201	316	15,5	24,5	Ёнмайди

* Ёнган намуналарнинг чўғланиши кузатилмади.

** Назорат намуналарининг чўғланиш вақти 125 с.

Синов натижаси 1% га яхлитланган учта аниқлашнинг ўртача арифметик қиймати сифатида олинади.



3-расм. Оловбардош таркиб билан ишлов берилган ёғоч намуналарининг синов натижаларининг графиги

Адабиётлар:

1. Agafonov, G. I. Лакокрасочные покрытия на основе жидких стёкол / Agafonov, G. I., В.И. Korneev. - М.: Химия, 1988. - b. 765.

2.Ayler R. K. Химия кремнезёма / R. K. Ayler. – М.: Мир, 1982. –270 b

3.Monaxov V. T. Методы исследования пожарной опасности веществ / V. T. Monaxov - М.: Химия, 1979. – 424 b.

4.NPB251-98. Yog'och va unga asoslangan materiallar uchun yong'inga qarshi kompozitsiyalar va moddalar. Umumiy talablar. Sinov usullari.. – kiritilgan. 1998. – 01.01. – М.: Standartlar nashriyoti 1998. – 17 b.

5.Voyutskiy S. S. Курс коллоидной химии / S. S. Voyutskiy - М.: Химия, 1975 – 513 b.

УДК 693.612

ҚУРУҚ СУВОҚ ҚОРИШМАЛАРИНИ ЭЛЕКТРОН МИКРОСКОПИК ТАҲЛИЛИ

Файзиллаев Зоҳид Бахадирович, PhD
Самарқанд давлат архитектура қурилиш университети

Мақолада гипс асосидаги қуруқ қурилиш қоришманинг микроскопик анализларни таҳлили келтирилган.
Калит сўзлар: Қуруқ қурилиш қоришмалари, гипс, электрон микроскоп.

В статье представлен анализ микроскопического анализа сухой строительной смеси на основе гипса.
Ключевые слова: Сухие строительные смеси, гипс, электронный микроскоп.

Жаҳонда қуруқ қурилиш қоришмаларини янгидан-янги турларини ишлаб чиқишга ишлатиладиган ҳом ашёларни сифат кўрсаткичларига қолаверса ҳом ашёларнинг махалийлаштиришга қаратилганн илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ушбу йўналишда, жумладан гипс асосидаги қуруқ қурилиш сувоқ қоришмалари ишлаб чиқаришда қўшиладиган тўлдирувчи ва кимёвий қўшимчаларнинг миқдорларини мақбуллаштириш, кимёвий қўшимчаларнинг вазифасини бажарувчи маҳаллий қўшимчаларнинг имкониятларини асослаш бўйича тадқиқотлар устувор ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони "2022-2026-йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси тўғрисида"ги, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 майдаги ПҚ-4335-сон "Қурилиш материаллари саноатини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорида тегишли вазифалари белгилаб берилган. [1]

Қуруқ қурилиш сувоқ қоришмаларининг физикавий-кимёвий тадқиқотнинг замонавий усулларидан фойдаланилди. Микроскопик анализларни бажаришда EVO MA10 (Carl Zeiss, Германия) маркали электрон микроскопдан фойдаланилди 1-расм.

1-расм. EVO MA10 маркали электрон микроскоп умумий кўриниши

Сканерловчи электрон микроскоп (СЭМ) - сорбентларнинг ва улар ҳосил қилган комплекс бирикмаларнинг морфологияси ҳамда элемент таркибини "Илғор технологиялар марказида" СЭМ - сканирловчи электрон микроскоп ёрдамида аниқланди.

Электрон микроскоп ёрдамида қурилиш материаллари соҳасида қуйидагиларни тадқиқотлаш мумкин: алоҳида субмикроскопик кристалларнинг тузилиши ва ўлчамлари, кристалларнинг ҳосил бўлиш ва бузилиш жараёнлари; зарралар чегарасидаги жараёнлар, деформация ва бузилиш механизмини ва ҳ. к. Қурилиш материаларининг макро - ва микроструктураси ўрганилади, бу эса материал ҳақида аниқ хулосалар чиқариш имкониятларини яратади [3-9].

Сувоқ учун мўлжаланган гипс асосидаги қуруқ қурилиш қоришма ўрганилаётган органик қўшимчаларнинг таъсирини электрон микроскопия усулида структуралардаги ўзгаришлар кузатиши орқали тадқиқ этилди. Олинган натижалар 2-расмда келтирилган.

Электрон микроскопик таҳлил қилиш натижасида, оддий қўшимчаларсиз таркибли намуна ички структурасида микроғовaклар камлиги кузатилади. Таркибида 5% органик қўшимча бўлган намуна ички структурасида микро- ва макроёпиқ ғовакликлар мавжудлиги, қўшимчанинг ўлчамлари узунлиги бўйича - 281,3 мкм, қалинлиги - 83,40 мкм, энг катта ғовакнинг диаметрлари - 388,5 мкм атрофида эканлиги аниқланди. Контакт зоналарда қўшимчаларнинг гипс микро боғловчиси билан бирикиб турганлиги қоришма мустаҳкамлигининг ошишига олиб келиши ҳақидаги тахминлар ўз тасдиғини топади.

Органик қўшимчанинг 2% қўшилган, гипс асосидаги қуруқ қурилиш сувоқ қоришма намунаси электрон микроскопда олинган 1-расмнинг 6-тасвиридан келтирилган таркибда органик қўшимчаларнинг мавжудлиги сабабли: узунлиги 383,0 мкм, қалинлиги эса 7,218 мкм, ғовакларнинг диаметрлари 217 мкм бўлган структуралар ҳосил бўлишига сабаб бўлади.



2-расм. 2% ва 5% органик қўшимча қўшилган гипс асосидаги қуруқ қурилиш сувоқ қоришма таркибларнинг электрон микроскопда катталаштирилган кўриниши.

1. - органик қўшимча қўшилмаган назорат таркиб;
2. - 2% органик қўшимчали таркиб 200 мкм катталаштирилган;
3. -5% органик қўшимчали таркиб 200 мкм катталаштирилган;
4. -5% органик қўшимчали таркиб 100 мкм катталаштирилган;
5. - 2% органик қўшимчали таркиб 100 мкм катталаштирилган ва қўшимчалар ҳосил бўлган ғовакларнинг ўлчамлари келтирилган;
6. - 5% органик қўшимчали таркиб 100 мкм катталаштирилган, қўшимчаларнинг ва ҳосил бўлган ғовакларнинг ўлчамлари келтирилган.

Қўшимчалар миқдорининг ошиши, ўз навбатида, қоришма таркибида кўп миқдордаги макро ва микро ўлчамли ғовaклар ҳосил бўлиши билан бирга, агар улар чегараланган миқдорларда қўшилганда, гипс асосидаги қуруқ қурилиш сувоқ қоришманинг физик-механик ва эксплуатацион хоссаларига ижобий таъсир кўрсатиши ҳам намоён бўлади.

1- жадвал

Кимёвий элементларнинг умумий миқдорлари

Органик қўшимчалар миқдори, %	Кимёвий элементлар миқдорлари, %				7 кунлик мустаҳкамлик кўрсаткичи, МПа
	C	O	S	Ca	
0	1,97	51,71	19,20	26,41	6,9
2	7,44	55,52	16,06	20,93	7,3
5	9,94	53,96	15,36	20,74	7,0

Келтирилган 1- жадвалдан кўриниб турибдики, намуналар таркибига ёғоч унларининг қўшилиши ва улар миқдорларининг ортиб бориши билан, қўшилаётган целлюлоза ҳисобига углероднинг 1,97% дан 9,94% гача ортгани кузатилади. Шу сабабдан, бошқа ташкил этувчи кимёвий Са, С ва S элементлар миқдорларининг ўз навбатида мос равишда камайиши аниқланди. Таркибий ўзгаришлар натижасида, қуруқ қурилиш сувоқ қоришмалар мустаҳкамлиги кўрсаткичларининг 6,9 МПа дан 7,3 МПа гача ошиши кузатилмоқда.

Хулоса. Гипс асосидаги қуруқ қурилиш сувоқ қоришманинг физик-механик ва эксплуатацион хоссаларига, толасимон ўсимлик ва ёғоч қипиқларини қўллаш ижобий таъсир кўрсатди, ва бу қайта тикланувчи қўшимчалардан фойдаланишни кенгайтириш ва кўплаб тадқиқот олиб бориш мумкинлигини кўрсатди.

Адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Қурилиш ашёлари саноатини жадал ривожлантириш учун қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги 2019 йил 23 майдаги ПҚ-4335-сонли қарори.

2.Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" ги 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли қарори.

3. Тарасевич Б.И. ИК спектры основных классов органических соединений: справочные материалы / Б.И Тарасевич. -Масква: 2012 г.1-54 с.

4. Файзиллаев, З. Б., & Файзиев, З. Х. (2021). Техническая и экономическая эффективность добавления многофункциональных органических целлюлозо-волокнистых материалов (моцвм) для улучшения качества строительных смесей и штукатурки на основе гипса. Universum: технические науки, (2-2 (83)), 11-14.

5.Fayzullaev, Z., Saidmuratov, B. I., & Tillaev, A. (2020). New type of gypsum based liquid mixture. JournalNX, 194-200.

6. Bakhriev, N., & Fayzillaev, Z. (2022). Modeling the optimal compositions of dry gypsum mixtures with bio-vegetable fillers, research of their adhesion properties.

7. Хасанов, А. З., Хасанов, З. А., & Курбанов, Б. Расчёт и проектирование фундаментов, возводимых на лёссовых грунтах, укреплённых вертикальными армо-элементами (ваэ). фундаменты глубокого заложения и проблемы геотехники территорий, 8.

8.Khasanov, A. Z., Khasanov, Z., & Kurbanov, B. I. (2021). Calculation and design of vertical reinforcing elements (vae) in soils.

9.Larkin P. J. Infrared and raman spectroscopy: principles and spectral interpretation. Elsevier, 2011.-230 p.-ISBN 978-0-12-386984-5.

УДК 699.86

ГИПС АСОСИДАГИ ҚУРУҚ СУВОҚ ҚОРИШМАЛАРИГА ЎСИМЛИК ВА ЁҒОЧ ҚИПИҚЛАРИНИ ҚЎШИШНИНГ БЕТОН ЮЗАГА ЁПИШИШ КУЧИГА ТАЪСИРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ

Файзиллаев Зоҳид Бахадирович, PhD; **Махамматов Музаффар Сафарович,** катта ўқитувчи
Самарқанд давлат архитектура қурилиш университети

Мақолада гипс асосидаги қуруқ қурилиш қоришманинг бетон юзага ёпиш кучига унга қўшиладиган қўшимча ва тўлдирувчиларнинг қандай таъсир қилиши ўрганилган натижада математик ифода ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: Қуруқ қурилиш қоришмалари, гипс, ўсимлик ва ёғоч қипиқлари, адгезия, моделлаштириш.

В статье разработано математическое выражение в результате изучения влияния добавок и наполнителей, вводимых в сухую строительную смесь на основе гипса, на поверхность бетона.

Ключевые слова: Сухие строительные смеси, гипс, растительная и древесная стружка, адгезия, моделировка.

Кириш. Жаҳонда ҳозирги кунга келиб, экологик тоза, чидамли, узоқ муддатга яроқли, кам меҳнат сарфи талаб қиладиган арзон замонавий қурилиш материаллари ишлаб чиқариш масалаларига алоҳида аҳамият берилмоқда. Ҳозирги кунда ривожланган мамлакатларда гипс қурилишда ва қуруқ қурилиш қоришмалари ишлаб чиқаришда боғловчи модда сифатида етакчи ўринлардан бирини эгалламоқда, дунё миқёсида гипс асосидаги қуруқ қурилиш қоришмаларига бўлган эҳтиёжнинг ортиб бораётганлиги сабабли, маҳаллий хом ашёлардан фойдаланган ҳолда, янги таркибларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этишни тақозо этмоқда. Бу борада, жумладан жаҳонда қуруқ қурилиш қоришмалар турлари, айниқса, замонавий энергиятежамкор ва саноат чиқиндилари асосида олинадиган материаллар кенг ишлаб чиқаришл йўлга қўйилган. Замонавий прогрессив қурилиш материалларидан бири, қуруқ қурилиш қоришмалари ҳисобланади, уларнинг ишлаб чиқариш ва самарадорлигини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони “2022-2026-йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси тўғрисида”ги, Ўзбеки-

стон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 майдаги ПҚ-4335-сон "Қурилиш материаллари саноатини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорида тегишли вазифалари белгилаб берилган. [1]

Метод. Тажрибаларимизда гипс асосидаги қуруқ қурилиш сувоқ қоришмаларини юзага ёпишиш қобилиятини аниқлашда ГОСТ 31376-2008 стандартнинг 7.1.1 қисмига асосан намуналар диаметри 50х50 мм, қалинлиги 5 мм, қилиб тайёрланди. Намуналар ғиштли, бетонли, газоблокли юзаларга ёпиштирилди ва намуналарни тайёрлашда намуналарнинг иккинчи тарафига махсус металл болт намуналарнинг ўртасига жойлаштирилди. Металл болтларнинг учига тортишда кучнинг тенг юза бўйлаб тарқалишини таъминлаш учун, металл шайбалар жойлаштирилган, махсус қолиб ясалиб ичига тортиш учун болт шайба жойлаштирилиб, сўнгра қоришма қуйилган. Намуналар ва уларни синашдан лавҳалар, 1-расмда ифодаланган.

Намуналар тайёрлангандан сўнг ҳаво ҳарорати 22^0С ва ҳавонинг нисбий намлиги 63% шароитда 2 кун сақланди.

1-расм. Синов учун тайёрланган намуналарнинг умумий кўринишлари

Намуналарни махсус РТ-250М-2 тортиш ускунасида ГОСТ 31376-2008. 3.1.3 қисмдаги 1-жадвалда кўрсатилган учинчи тезликдаги тортиш режимида тортилди ва натижалар қуйидаги 1-формула ёрдамида ҳисобланди:

$$A_i=P/F, \text{ МПа.} \quad (1)$$

Учта намунанинг юзага ёпишиш кучи чегараси аниқланиб, ўртача арифметик маълумот ўрнида қабул қилинди.

Асосий қисим

Гипс асосли қуруқ қурилиш сувоқ қоришма таркибини ташкил қилувчи компонентларнинг оптимал миқдорини ва кўрсаткичларини ўзгартирувчан технологик параметрларнинг мақбул диапазонларини аниқлаш учун чизиқли, уч факторли математик режа бўйича тажрибалар серияси ўтказилди. Бунда, тажрибалардан кутилган функционал натижа сифатида қуруқ қурилиш сувоқ қоришманинг турли структурали юзаларига адгезия кучи қабул қилинди.

Ўзгарувчан кириш омиллари сифатида қуйидаги кўрсаткичлар қабул қилинди:

- гипс асосидаги қуруқ қурилиш сувоқ қоришма таркибидаги органик қўшимча миқдори, масса. %;
- етарли ёйилувчанликка эга бўлган қоришма ҳосил қилиш учун сув ва қуруқ қоришманинг нисбати, С/ҚА;
- 0,2 мм ўлчамига стандарт элакдаги қолдиқ миқдори билан баҳоланувчи гипс боғловчи моддасининг майинлик даражаси, %.

Танланган X_1, X_2, X_3, экспериментал омилларга кўра, гипсли қуруқ қурилиш сувоқ қоришманинг турли структурали сиртлар билан елимланиши мустаҳкамлигининг максимал қийматларини белгилаб берувчи оптимал таркиб параметрларини аниқлаш учун чизиқли корреляцион боғлиқлигини ва вақт ўтиши билан елимланиш кучининг ўсиш кинетикасини тавсифлаш учун чизиқли тенглама формуласини таҳлил қилиш кифоя қилади.

1-жадвал

Ўзгарувчан кириш омилларининг ўзгарувчанлик интервалли ва даражалари

Ўзгарувчан кириш омиллари		Ўзгаришлар даражаси			Ўзгаришлар интервали
Номланиши	Код	-1	0	+1	
Сувоқ қоришма таркибидаги ўсимлик уни қўшимчаси миқдори, масс. %	X_1	1	2	3	1
Етарли ёйилувчанликка эга бўлган қоришма ҳосил қилиш учун сув ва қуруқ қоришманинг нисбати, С/ҚА;	X_2	0,42	0,47	0,52	0,5
0,2 мм ўлчамига стандарт элакдаги қолдиқ миқдори билан баҳоланувчи гипс боғловчи моддасининг майинлик даражаси, %;	X_3	9	14	19	5

1-жадвалда келтирилган шартлар асосида экспериментлар режаси тузилди. Унга кўра, таркиб компонентлар миқдори мўлжалланган ўзгаришлар интервалида танланган. Қуруқ қоришманинг ва гипсли сувоқ қоришмасининг таркиби қатъий равишда тажриба режаси матрицасига мувофиқ танланди. Тайёрланган қоришма билан турли структурали юзалар (бетон, ғишт ва газобетон) суваб қопланган. Кейинчалик, ушбу тажриба намуналарида сувоқ қоришмасининг ёпишишдаги узилишга қаршилик кучлари ГОСТ 31376-2008 стандартда белгиланган кўрсатмага амал қилган ҳолатда аниқланди.

Гипсли қуруқ сувоқ қоришмасининг майдаланган органик қўшимчалари билан оптимал таркибини танлаш бўйича тўлиқ факторли тажриба-синов режаси 2-жадвалда келтирилган.

Тажриба ва тадқиқот натижаларини таҳлил қилиш орқали маълум корреляция коэффициентлари асосида маълумотларни қайта ишлаш ва регрессия тенгламаларини тузиш, 3 жадвалда клтирилган.

2-жадвал

Тўлиқ факторли тажриба-синов режаси

Режа т/р	Ўзгарувчан кириш омиллари коди ва матрицаси			Ўзгарувчан кириш омилларнинг номланиши			Намунавий юзаларга елимланишнинг мустаҳкамлик чегараси (адгезия), МПа;		
	X_1	X_2	X_3	Органик қўшимчанинг ҚҚСА таркибидаги миқдори, %	Сув ва қуруқ аралашма нисбати, С/ҚА	Гипс боғловчининг 02 мм, элакдаги қолдиғи оғирлиги, %	бетон юза		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	+	+	+	3	0,52	19	0,48	0.47	0,49
2	-	+	+	1	0,42	19	0,38	0.37	0,39
3	+	-	+	3	0,52	19	0,46	0.45	0,47
4	-	-	+	1	0,42	19	0,46	0,45	0,46
5	+	+	-	3	0,52	9	0,37	0,36	0,38
6	-	+	-	1	0,42	9	0,52	0,51	0,43
7	+	-	-	3	0,52	9	0,37	0,36	0,38
8	-	-	-	1	0,42	9	0,52	0,51	0,52
9	-	0	0	1	0,42	14	0,52	0.51	0,50
10	0	+	0	2	0,47	19	0,47	0.45	0,46
11	0	-	0	2	0,47	9	0,54	0.50	0,43

3-жадвал

Регрессия тенгламаларини тузиш

Корреляциялар даражаси							
Елимланиш мустаҳкамлигининг ўртача қиймати МПа	**=X₁· Уа**	**=X₂· Уа**	**=X₃· Уа**	**=X₁·X₂ ·Ya**	**=X₁·X₃ ·Ya**	**=X₂·X₃ ·Уа**	**=X₁·X₂· X₃·Ya**
0,47	-0,47	-0,47	-0,47	0,47	0,47	0,47	-0,47
0,37	0,37	-0,37	-0,37	-0,37	-0,37	0,37	0,37
0,45	-0,45	0,45	-0,45	-0,45	0,45	-0,45	0,45
0,45	0,45	0,45	-0,45	0,45	-0,45	-0,45	-0,45
0,36	-0,36	-0,36	0,36	0,36	-0,36	-0,36	0,36
0,51	0,51	-0,51	0,51	-0,51	0,51	-0,51	-0,51
0,36	-0,36	0,36	0,36	-0,36	-0,36	0,36	-0,36
0,51	0,51	0,51	0,51	0,51	0,51	0,51	0,51
0,51	-0,51	0,51	0,00	-0,51	0,00	0,00	0,00
0,45	0,00	-0,45	0,45	0	0,00	-0,45	0,00
0,50	0,00	0,00	-0,50	0	0,00	0,00	0,00
b_0=	**b_1=**	**b_2=**	**b_3=**	**b_{12}=**	**b_{13}=**	**b_{23}=**	**b_{123}=**
0,44	0,02	0,01	0,00	0,01	0,05	-0,01	-0,01
0,44>0,007	0,02>0,007	0,01>0,007	0,00<0,007	0,01>0,007	0,05>0,007	0,01>0,007	0,01>0,007

Экспериментал маълумотларни қайта ишлаш натижасида, таркиб қисмларининг оптимал миқдорига кўра сувоқ қоришмасининг юзага елимланиш мустаҳкамлиги кинетикасини етарли даражада тавсифловчи регрессия тенгламаси тузилди.

$$y = 0{,}44 + 0{,}03x_1 + 0{,}01x_2 + 0{,}01x_1x_2 + \\ +0{,}05x_1x_3 - 0{,}01x_2x_3 - 0{,}01x_1x_2x_3 \qquad (2)$$

Ушбу тажрибалар сериясида кўриб чиқилган ўзгарувчан омилларнинг таъсир даражаси ва оптималлик мезонлари қуйидаги кетма-кетликда ўз аксини топади.

$$x_1x_2x_3 < x_2x_3 < x_1x_2 < x_1 < x_1x_3 \qquad (3)$$



2–расм. Гипс асосидаги қуруқ қурилиш қоришманинг бетон асос билан елимланиш мустаҳкамлигининг уч ўлчовли тизимдаги изопараметрик диаграммалари математик моделлари, регрессия тенгламасининг натижаси

Тўлиқ факторли режа асосида ўтказилган тажрибалар натижасига оид маълумотларни математик қайта ишлаш, шунингдек, изопараметрик диаграммаларни таҳлил қилиш натижасида тавсия этилган тизимнинг елимланиш мустаҳкамлигига энг фаол таъсир X_1X_3 кўпайтмаси омили таъсир қилиши аниқланди, чунки у энг юқори корреляция коэффициентига эга.

Хулоса. Биринчидан, гипс асосидаги қуруқ қурилиш қоришмаларининг бетон юзаларга ёпиш кучига асосий таъсир қилувчи омил қоришманинг ҳаракатчанлиги яъни қоришмага сувни миқдорини ошиб бориши қоришманинг юзага ёпиш кучини камайдириб юбормоқда 2 ва 3-жадвалларга қаранг. Иккинчидан қоришманинг таркибидаги қумнинг миқдори ҳам таъсир қилганлигини кўриш мумкин.

Адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Қурилиш ашёлари саноатини жадал ривожлантириш учун қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги 2019 йил 23 майдаги ПҚ-4335-сонли қарори.

2.Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида" ги 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли қарори.

3.Файзиллаев, З. Б., & Файзиев, З. Х. (2021). Техническая и экономическая эффективность добавления

многофункциональных органических целлюлозо-волокнистых материалов (моцвм) для улучшения качества строительных смесей и штукатурки на основе гипса. *Universum: технические науки*, (2-2 (83)), 11-14.

4.Fayzullaev, Z., Saidmuratov, B. I., & Tillaev, A. (2020). New type of gypsum based liquid mixture. *JournalNX*, 194-200.

5.Bakhriev, N., & Fayzillaev, Z. (2022). Modeling the optimal compositions of dry gypsum mixtures with bio-vegetable fillers, research of their adhesion properties.

6.Хасанов, А. З., Хасанов, З. А., & Курбанов, Б. Расчёт и проектирование фундаментов, возводимых на лёссовых грунтах, укреплённых вертикальными армо-элементами (ваэ). фундаменты глубокого заложения и проблемы геотехники территорий, 8.

6.Khasanov, A. Z., Khasanov, z., & kurbanov, b. i. (2021). calculation and design of vertical reinforcing elements (vae) in soils

UDK 666.9(07)

BIO – O'SIMLIK MAYDA – TALQONLARINING BETON VA QORISHMALAR XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI.

Baxriyev N.F., t.f.n., dotsent; **Qobilov Sh.E**., magistrant
Samarqand davlat arxitektura qurilish unversiteti

Ushbu maqolada tabiiy bio – o'simlik mayda talqonlarining beton va mayda donali sement qorishmalari tarkibiga sirti faol plastifikator sifatida qo'llash va ularning xususiyatlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha olingan tajriba natijalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Beton, o'simlik talqoni, o'simlik shirasi (ekstrakt), sirti faol moddalar, sellyuloza va potensial plastifikator.

В данной статье, приведены результаты исследований по применению натуральных био-растительной муки различных марок в качестве добавки в состав бетона и мелкозернистых цементных смесей и по изучению их влияния на реологические свойства смесей.

Ключевые слова: Бетон, древесно травяная мука, растительный сок (экстракт), поверхностно-активные вещества, целлюлоза и потенциальный пластификатор.

In this article, the results of studies on the use of natural bio-vegetable flour of various grades as an additive in the composition of concrete and fine-grained cement mixtures and on the study of their influence on the rheological properties of mixtures are presented.

Keywords: Concrete, bio-vegetable flour, vegetable juice (extract), surfactants, cellulose and potential plasticizer.

Beton qorishmasi butun dunyo bo'yicha qurilish sohasida asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan materiallardan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda zamonaviy beton qorishmalari tarkibi tobora mukammallashib, ko'p komponentli kompozitga, uning qotishmasi esa konglomeratlashib boryapti. Sababi shundan iboratki, zamonaviy materialshunoslikda beton tarkibini takomillashtirish va uning reologik, tiksotropik xususiyatini ta'minlash maqsadida ko'plab kimyoviy sirti faol qo'shimchalar kiritish boshlandi. Afsuski bunday kimyoviy faol qo'shimchalarning inson oganizmiga ta'siri keng miqyosda o'rganilmagan va tabiiylikdan ancha yiroq hisoblanadi. 19-asrning boshlarida beton ishlarida tabiiy o'simlik tolalarining turli qismlarini qayta ishlamasdan qo'shimcha sifatida foydalana boshlandi [**1, 2**].

Z.Fayzillayev o'z tadqiqot ishida gips asosidagi quruq qurilish suvoq qorishmalari tarkibiga tabiiy o`simlik va yog`och qipiqlarini 2% dan to 5% gacha qo`shilganda, ular asosidagi sun'iy toshning mustahkamligi oshishi va 5% dan ko`proq qo'shilganda esa, yuzaga yopishish kuchining pasayishi va rangini bir xil ko`rinishda tus olmasligi ilmiy asoslagan. Aniqlandiki, ma'lum donadorlikka ega bo`lgan o`simlik va yog`och qipiqlari qo`shimchasining optimal miqdori 2% ni tashkil etadi. Bunda sun'iy toshning 7 kunlik siqilishga bo`lgan mustahkamlik chegarasi 13,6% ga, egilishdagi mustahkamlik chegarasi esa 11,8% ga oshdi. Agar qo`shimcha 2% dan ko`p miqdorda qo`shilganda, qorishmaning qotish muddati 24 soatdan ham uzayib ketishi aniqlangan [**3**]. Beton ishlarida quruq holdagi tabiiy o'simlik tolalaridan foydalanishning asosiy afzalligi beton xususiyatlarining sezilarli darajada yaxshilanishi va oddiy tolasiz betonga nisbatan arzonligi bilan ifodalanadi [**4**]. Bundan tashqari, betonga tabiiy o'simlik tolalarini qo'llash undagi yoriqlar hajmi va sonini kamaytiradi va shu bilan birgalikda egiluvchanlik, zarbga chidamlilik va boshqa ko'plab fizik – mexanik xossalarini yaxshilaydi [**5**].

Tabiiy o'simlik tolalarining asosiy kimyoviy tarkibi asosan, lingosellyuloza (sellyuloza, gemitsellyuloza va lignin) bo'lib, o'simlik turlari va rivojlanish bosqichiga qarab, bu tarkibiy qismlar o'zgaruvchan bo'lishi mumkin [**6**].

Valeria va boshqalar o'z tadqiqot ishlarida, yog'och-o'simlik tolasini qayta ishlash va ular bilan sement qorishmalarini boyitish va sement kompozitlarning mexanik xususiyatlarini oshirishga xizmat qiladi va ichki strukturaviy mustahkamlovchi unsur sifatida mayda o'lchamli tolalardan foydalanish sement asosidagi kompozitlarning egilishga, cho'zilishga mustahkamligini, shuningdek ashyolarning zarbaviy qovushqoqligini oshiradi. degan xulosaga kelgan [**7**].

Jamshaid, H. va boshqalar o'z tadqiqotlarida, beton ishlarida tabiiy sellyuloza tolalarini qo'llash (2% dan kam) betonning mexanik ko'rsatkichlari yaxshilanganini va tolalarning 2% dan ortiq qo'llanilishi betonning siqilishdagi, egilishdagi mustahkamligiga va zarbbardoshligiga sa'lbiy ta'sir ko'rsatadi [**8**]. V.I.Buzulukov o'z tadqiqot ishlarida beton qorishmalari uchun samarali plastifikator olish maqsadida, sellyuloza ishlab chiqarishda lignin chiqindi-

larining oksidlanish va gidrolitik degidratatsiya jarayoni qonuniyatlarini o'rganib chiqqan. Betonga qo'llaniladigan lignosulfonat qo'shimchalarining optimal miqdori sement massasining (0.3 - 0.5) % ini tashkil qiladi va eksperimental tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, plastifikatorlardan foydalanish sement sarfini 15 % gacha tejash imkonini bergan [**9**].

Bio – o'simlik talqonlari asosan, sellyulozadan tashkil topgan. Sellyuloza o'simlik hujayra devorining asosiy tarkibiy qismidir. Quyidagi rasmda vodorod bilan sellyuloza zanjirining bog'lanishi va sellyuloza talqonlarining umumiy ko'rinishi keltirilgan:



1-rasm. Vodorod bilan bog'langan sellyuloza zanjiri va sellyuloza tolalarining umumiy ko'rinishi.

Yuqoridagi o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilgan holda biz shunday xulosaga keldik-ki, har qanday tabiiy bio - o'simliklar quruq poyasidan yanchilgan mayda talqonli qo'shimchalar tayyorlab ularning tarkibi va tuzilishini yo'naltirilgan rekonstruksiya qilish yo'li bilan sirti faol moddalarga aylantirish va ularni potensial plastifikator sifatida beton va qorishmalar tarkibiga qo'shib yuqori samarali material ishlab chiqarish mumkin.

2-rasm. Tayyor Bio – o'simlik mayda talqonlarining umumiy ko'rinishi a) Sholi (guruch) o'simligi somoni mayda talqoni; b) g'o'zapoya o'simligi mayda talqoni va v) bug'doy o'simligi somoni mayda talqoni.

Biz ilmiy–tadqiqot ishimizning tajriba sinovlarini "Samarqand davlat arxitektura qurilish universitetining" 5–son tajriba ilmiy markazida o'tkazdik. Foydalanilgan xomashyo materiallari quyidagicha:

- Jizzax "Huaksin" sement 32.5N D0 portlandsement;
- Volga daryosi qumi (polifraksionniy);
- Chaqiqtosh;
- Oddiy Zarafshon daryosi qumi;
- Toza suv;
- Bio-o'simlik mayda talqonlari: bug'doy somoni va sholi(guruch) somoni.

1.Tadqiqotni o'tkazish uchun eng avvalo tabiiy bug'doy va sholi(guruch) o'simligi quruq poyalarini bir necha bosqichli maydalashdan o'tkazib mayda talqon ko'rinishiga keltirildi. Tayyor o'simlik talqonlarini 0.5 %, 0.8 % va 1.5 % larda nazorat tarkibli oddiy sement quruq qorishmasiga qo'shib aralashtirildi va GOST 31108 – 2020 asosida 40x40x160 mm o'lchamlarda sement balkalari tayyorlandi va sementning fizik - mexanik xususiyatlari jumladan, o'rtacha zichliklari va 7 va 28 kunliklardagi mustahkamliklari sinab ko'rildi va natijalar 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Tabiiy bio-o'simlik mayda talqonlari asosidagi mayda donali sement namunalarining fizik va mexanik sinov natijalari

№	Nomlanishi	Qo'-shim-cha miq-dori, %	Namuna ning o'rtacha zichligi kg/m^3	Laboratoriya sharoitida namunalarning 7 va 28 kunlik mustahkamlik chegaralari			
				Siqilishda		Egilishda	
				7 kun	28 kun	7 kun	28 kun
1	Nazorat tarkib, S450Q1350	0	2377	21	29.3	3.0	3.9
2	Sementga bug'-doy o'simligi mayda talqoni qo'shilgan	0.5	2340	29.7	32.15	5.6	6.15
		0.8	2307	19.8	24.32	4.2	5.9
		1.5	2234	21.5	24.7	4.4	5.6
3	Sementga sholi o'simligi mayda talqoni qo'shilgan	0.5	2341	33.4	38.1	6.0	6.7
		0.8	2270	20.8	29.9	4.5	6.5
		1.5	2235	24.1	24.4	4.7	5.6

Natijalarning eng maqbuli shuni ko'rsatdiki, nazorat tarkibli oddiy sement qorishmasiga sholi (guruch) va bug'doy o'simligi talqonini 0.5 % miqdorlarda qo'shilganda namunaning o'rtacha zichliklari 2 foizga kamaydi va 28 kunlik egilishdagi mustahkamliklari mos ravishda 70 % va 57% hamda siqilishdagi mustahkamliklari esa 27% va 9 % ga oshganini ko'rishimiz mumkin.

2. Tayyor bug'doy va sholi(guruch) o'simliklari mayda talqonlarini 0.5%, 0.8% va 1.5 % larda nazorat tarkibli oddiy ratsional tanlab olingan beton qorishmasi tarkibiga qo'shib aralashtirildi va GOST10180 – 2012 asosida 100x100x100 mm o'lchamlarda beton kublari tayyorlandi va fizik - mexanik xususiyatlari jumladan, namunalarning o'rtacha zichliklari va 7 va 28 kunliklardagi mustahkamliklari sinab ko'rildi va natijalar 2-jadvalda keltirilgan:

Natijalar eng maqbuli shuni ko'rsatdiki, nazorat tarkibli oddiy og'ir beton qorishmasiga sholi (guruch) va bug'doy o'simligi talqonini 0.5 % miqdorlarda qo'shilganda namunaning o'rtacha zichlik-

lari 1% va 1.5 foizga kamaydi va 28 kunlik siqilishdagi mustahkamliklari mos ravishda 34 % va 18% oshganini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Tabiiy bio-o'simlik mayda talqonlari asosidagi beton kubik namunalarining fizik va mexanik sinov natijalari

№	Nomlanishi	Qo'-shim-cha miq-dori, %	Namu-naning o'rtacha zichligi kg/m^3	Laboratoriya sharo-itida namunalarning 7 va 28 kunlik mustah-kamlik chegaralari	
				Siqilishda	
				7 kun	28 kun
1	Nazorat tarkib: S400 Q1000 Sh800	0	2300	27	38
2	Beton qorishma-ga bug'doy o'sim-ligi mayda tal-qoni qo'shilgan	0.5	2290	34.4	45
		0.8	2285	28.6	37.1
		1.5	2162	27.3	35.82
3	Betonga sholi o'simligi mayda talqoni qo'shil-gan	0.5	2278	39.6	51.09
		0.8	2245	30.5	40
		1.5	2141	28.74	37.4

Xulosa

Tabiiy bio-o'simlik quruq poyalarini bir necha marta maydalab mayda talqon holiga keltirib, beton va mayda donali sement qorishmalari tarkibiga sirti faol plastifikator sifatida qo'llash mumkin. Chunki har qanday tabiiy bio-o'simliklar tarkibida suvda eruvchan shira(ekstrakt) bo'lganligi sababli, yuqori ishqoriy muhitli betonlar tarkibiga qo'shilganda bu shira ishqoriy muhitda potensial suyultiruvchi funksiyasiga ega bo'lgan sirti faol plastifikatorga aylanishi aniqlangan.

Ushbu tadqiqot ishida, beton va mayda donali sement qorishmalari asosida tayyorlangan material-larning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida, tabiiy sholi(guruch) va bug'doy o'simligining mayda talqonlarini 0.5%, 0.8% va 1.5 % larda beton va qorishmalar tarkibiga sirti faol potensial plastifikator sifatida qo'shib ko'rildi va tajriba natijalari GOST10180 – 2012 va GOST 31108 – 2020 asosida olindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, nazorat tarkibli oddiy sement qorishmasiga sholi o'simligi talqonining 0.5 % miqdorida qo'shilishi namunaning o'rtacha zichligi 2 foizga kamaydi lekin 28 kunlik egilishdagi mustahkamligi 70 % va siqilishdagi mustahkamligi esa 29% gacha oshganini ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, tabiiy bio-o'simlik mayda talqonlarini beton va qorishmalar tarkibiga plastifikator sifatida qo'shib ularning mexanik xususiyatlarini yaxshilash mumkin lekin ular asosida tayyorlangan buyumlarning umrboqiyligi masalasida hali ko'proq tadqiqotlar o'tkazilishi kerak.

Адабиётлар:

1.Faruk, O.; Bledzki, A.K.; Fink, H.P.; Sain, M. Biocomposites reinforced with natural fibres: 2000–2010. Prog. Polym. Sci. 2012, 37, 1552–1596. [CrossRef].

2.N.F Bakhriev, at. all, Bio Filler, Breathable Conglomerate, Thermo Physical Modeling, Bioresearches, Fractions, Shavings, Fibers, Gypsum, Dry Building Mixtures, Adhesion, Cohesion, Durability, // Proceedings of Multidisciplinary International Scientific-Practical Conference "Current Issues of Science, Education and Industry in Modern Research" 10 -12th December 2020 JournalNX-ISSN No: 2581-4230 Impact Factor 7.223/

3.N Bakhriev, Z Fayzillaev Modeling the optimal compositions of dry gypsum mixtures with bio-vegetable fillers, research of their adhesion properties//AIP Conference Proceedings 2657, 020029 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0106902/

4.Pacheco-Torgal, F.; Jalali, S. Cementitious building materials reinforced with vegetable fibres: A review. Constr. Build. Mater. 2011, 25, 575–581. [CrossRef].

5.Mello, E.; Ribellato, C.; Mohamedelhassan, E. Improving concrete properties with fibers addition. Int. J.Civ. Environ. Eng. 2014, 8, 249–254.

6.Sanjay, M.R.; Madhu, P.; Jawaid, M.; Senthamaraikannan, P.; Senthil, S.; Pradeep, S. Characterization and properties of natural fiber polymer composites: A comprehensive review. J. Clean. Prod. 2018, 172, 566–581. [CrossRef].

7.Valeria L, Angie M, José B and Mauricio R . Use of vegetable fibers as reinforcements in cement-matrix composite materials: A review. May 2022. Constrution and building materials 340(1-3): 127729.

8.Jamshaid, H.; Mishra, R.K.; Raza, A.; Hussain, U.; Rahman, M.L.; Nazari, S.; Chandan, V.; Muller, M.; Choteborsky, R.Natural Cellulosic Fiber Reinforced Concrete: Influence of Fiber Type and Loading Percentage on Mechanical and Water Absorption Performance. Materials 2022, 15, 874. https://doi.org/10.3390/ma15030874

9.Бузулуков Виктор Иванович. Разработка эффективных материалов для строительства на основе отходов деревообрабатывающей, целлюлозно бумажной и микробиологической промышленности. Автореф.дис. канд.техн.наук.

HAVO HARORATINING SEMENTBETON QOPLAMALARIDA SODIR BO'LADIGAN HARORAT DEFORMATSIYALARIGA TA'SIRI

Urakov Aslidin Xushvaktovich. t.f.d., professor
O'rolova Xadicha Dilshod qizi, tayanch doktorant
Toshkent davlat transport universiteti

Ushbu maqolada tabiiy iqlim sharoitning sementbeton qoplamalariga ta'siri tahlil qilinib, deformatsiyalarning sodir bo'lishida havo harorati o'zgarishining o'rni ko'rib chiqilgan va uni aniqlashning yangi ishlab chiqilgan dasturlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sementbeton qoplama**,** havo harorati, harorat deformatsiyalari, ISLAB 2000, EverFE 2.24, harorat gradienti.

В данной статье проанализировано влияние природно-климатических условий на цементобетонные покрытия, рассмотрена роль изменения температуры воздуха в возникновении деформаций и изучены вновь разработанные

программы для ее определения.

Ключевые слова: цементобетонное покрытие, температура воздуха, температурные деформации, ISLAB 2000, EverFE 2.24, температурный градиент.

In this article, the influence of climatic conditions on cement concrete pavements is analyzed, the role of air temperature changes in the occurrence of deformations is considered, and newly developed programs for its determination are studied.

Keywords: cement concrete pavement, air temperature, thermal deformation, ISLAB 2000, EverFE 2.24, temperature gradient.

Kirish. Sementbeton qoplamalari transport vositalaridan tushadigan takroriy dinamik yuklar va o‘zgaruvchan harorat va namlik ta’sirida murakkab zo‘riqish holatida ishlaydi. Bunday yo‘l qoplamalarining plitalari isish va sovush jarayonida ularning chiziqli o‘lchamlari o‘zgaradi. Buning natijasida qoplamaning asos bo‘ylab erkin harakatlanishiga qarshilik tufayli ularda harorat zo‘riqishlari paydo bo‘ladi. Burilish deformatsiyalari plitalarda harorat zo‘riqishlarini ham paydo qiladi ularning kattaligi massasi va geometrik o‘lchamlariga bog‘liq. Sementbeton qoplamalarining turli zonalardagi ish sharoitlari (markazda plitaning chetida uchida burchagida choklarda va boshqalarda) sezilarli darajada bir xil emas. Bu butun perimetr bo‘ylab qoplama plitalarining periferik qismi ostida tagliklarning qoldiq deformatsiyalarini to‘plash va ularning pastki yuzasining taglik bilan aloqasini qisman sindirish uchun imkoniyat yaratadi ayniqsa chekka va ko‘ndalang choklarning zonalarida. Natijada plitaning osilgan qismlari hosil bo‘ladi unda yuk tikuv ustida joylashganida salbiy egilish momentlari keskin oshadi.

Harorat va namlik zo‘riqishlari transport vositalarining tushadigan yuklardan zo‘riqishlar bilan birgalikda yoriqlar paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga olib keladi. Sementbeton qoplamasida ular turli vaqtlarda plitalarning turli joylarida shakllanadi ularning shakli va yo‘nalishi boshqacha. Yoriqlar yuzaki chuqur va kengaygan bo‘lishi mumkin. Yuzaki yoriqlarning uzunligi va chuqurligi asta-sekin o‘sib borishi va turli yo‘nalishlarda kengayib ketishi mumkin.

Amerikalik yo‘l tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra sementbeton qoplamalarining geterojenligi turli xil nuqsonlar paydo bo‘lishining asosiy sabablaridan biridir. Texas universiteti ma’lumotlariga ko‘ra plitaning burchagidagi betonning mustahkamligi 1.34 MRa markazida esa 1.70MRa bo‘lgan bu qoplama tarkibidagi beton xususiyatlari qiymatlarida sezilarli tarqalish mavjudligini isbotlaydi[2].

Asossiy qism. Amaliyotlar tajribasiga ko‘ra harorat va harorat rejimining o‘zgarishi beton qoplamalarda deformatsiya va kuchlanishlarga juda katta ta’siri borligini tasdiqladi. Shu boisdan ularni tadqiq qilish ekspluatatsiya davrida qoplamada vujudga keladigan nuqsonlarni bartaraf etishda muhim hisoblanadi. Bu esa ekspluatatsiya harajatlarini kamaytiradi. Prof. V.P. Nosov sementbeton qoplamalarining holatining xizmat muddati davomida havo xaroratining ta’sirida o‘zrarishini tadqiq qilgan. O‘zining doktorlik dissertatsiyasida sementbeton qoplamalarining buzilishi betonning harorat va namligining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan kuchlanishlar tufayli va yer osti qatlamining muzlashi natijasida yuzaga kelishini matematik modellarini ishlab chiqqan [4].

Issiqlik tenglamasining chegaralaridagi shartlariga yechim sifatida qoplama harorat maydonini o‘lchash jarayonining xarakteristikasi qabul qilingan. Tasodifiy jarayonlarni hisobga olgan holda havo harorati va quyosh radiatsiyasi intensivligini aniqlashni takomillashtirishga erishilgan.

Issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasining yechimi T (z,t) harorat maydonini tavsiflovchi, qoplamaning harorat zo‘riqishlari va deformatsiyalarini baholashga imkon beradigan funksiya shaklida amalga oshiriladi.

Qoplama ishlash muddati davomida har soatda harorat zo‘riqishlarini hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan (1-rasm).

Quyidagi blok-sxema biron soatdagi qoplamadagi mavjud o‘rtacha harorat va harorat gradienti kiritiladi. Shartlar natijalari orqali qoplamada harorat yoki issiqlik deformatsiyalarining hosil bo‘lishi aniqlanadi.



1-rasm: Harorat deformatsiya va zo‘riqishlarini hisoblash algoritmi blok-sxemasi

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlarda sementbeton qoplama haroratining havo haroratiga bog‘liqligi qonuniyati aniqlangan va yilning issiq davrlarida qoplama ustki yuzasidagi harorat havo haroratiga nisbatan 4-35 °C gacha yuqori bo‘lishi kuzatilgan[1]:

Yuqoridagi grafik asosida tadqiqot ob’ektlaridan biri joylashgan Xorazm viloyati havo haroratining iyul oyidagi mavjud ko‘rsatkichlari bilan kun davomida qoplamada havo haroratining o‘zgarishi kuzatildi (3-rasm).



2-rasm: Sementbeton qoplama haroratining havo haroratiga bog‘liqlik grafigi [5]



3-rasm: Xorazm viloyatida yozgi issiq davrda (iyul oyi) qoplama haroratining o‘zgarish grafigi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda sementbeton qoplamalari deformatsiyalariga havo haroratining ta’sirini modellashtirish bo‘yicha qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, AQSh larining Ayova shtati universiteti tadqiqotchilari Sunghvan Kim, Halil Jeylan va Kasturirangan Gopolakrishnan tomonidan qoplama foydalanishga topshirilganiga qo‘p vaqt bo‘lmagan davrda qoplamada havo haroratining ta’siridan erta paydo bo‘ladigan deformatsiyalarni xususiyatlari o‘rganilgan[3]. Bu tadqiqotni ular **ISLAB 2000** va **EverFE 2.24** dasturlari yordamida amalga oshirishgan. ISLAB 2000 va EverFE 2.24 dasturlariga kirish parametrlari Ayova shtatining Burlington shahri yaqinidagi US-34 avtomagistralidagi sementobeton qoplamalaridan yig‘ilgan dala va laboratoriya sinovlari ma’lumotlaridan olingan. Ushbu tadqiqotda havo harorati ta’sirida qoplama deformatsiyalarini modellashtirish bo‘yicha FE dasturlarining qobiliyotini baholangan.

ISLAB 2000- Michigan transport departamenti va Minnisota transport departamenti ko‘magida ARA tomonidan ishlab chiqilgan qattiq qoplamalarni tahlil qilish uchun 2.5-D FE dasturi hisoblanib, bu dasturlarning eng so‘ngi versiyasidir.

EverFE 2.24 bu qoplamaga tushayotgan dinamik yuklar va harorat tufayli sodir bo‘ladigan kuchlanishlarni simulyatsiya qilish uchun uch o‘lchovli FE dasturi.



a *b*

4-rasm: Harorat o‘zgarishi tufayli ISLAB 2000 (a) va EverFE 2.24(b) dasturlarida hosil bo‘lgan deformatsiyalangan plita shakli

Xulosa. Tahlillar natijasida aytish mumkinki, sementbeton qoplamalarining xizmat muddatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan havo iqlim omillarini o‘rganish, buning uchun zamonaviy dasturlardan foydalanish va havo haroratining ta’sirini kamaytirish uchun texnologiyalarni takomillashtirish orqali bugungi kunda dolzarb bo‘lib borayotgan muammoni yechish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘roqov A.X. O‘zbekiston Respublikasi xududini avtomobillar harakat sharoiti bo‘yicha tumanlashtirish.-Toshkent.TAYI, 2012 y.

2. M. Tyler Ley, Bruce W. Russell, Robert N. Emerson, Temperature effects on concrete pavements in Oklahoma. Stillwater, Oklahoma, May 2013

3. Sunghwan Kim, Halil Ceylan, Kasthurirangan Gopalakrishnan, Finite element modeling of environmental effects on rigid pavement deformation. USA, 2015

4. В.П.Петрович Прогнозирование и повреждений жетский слоев дорожных одежд на основе. Москва 1997.

5. O‘roqov A.X. Havo-iqlim omillarining yo‘l sharoitiga ta’sirini tadqiq qilish. Материалы Республиканской научно-технической конференции с участием зарубежных ученных “Ресурсосберегающие технологии на железнодорожном транспорте. Инновационные технологии в строителстве”. Выпуск 14, Ташкент, ТашИИТ, 2019 г. 70-73 с.

KAM ENERGIYA SARFLANADIGAN SEMENT KLINKERI OLISHDA IKKILAMCHI SANOAT CHIQINDILARIDAN FOYDALANISHNING ROLI VA AHAMIYATI

Baxriyev Nuritdin Faxritdinovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent
Ibragimov Navruzbek Shaydullayevich, tayanch doktorant
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti.

В данной статье описываются научные исследования по созданию высокоэффективных минерализаторов на основе железной окалины прокатного цеха при обжыге цементного клинкера с целью снижения температуры спекания.Так, в современных условиях остро стоят проблемы энергосбережения и производства высококачественных, высокопрочных цементов, авторами предлагаются инновационный способ и научное обоснование решения проблем в производственных условиях. Предлагаются новые идеии и результаты экспериментальных разработок, технологические регламенты и практические опыты в этом направлении. Авторами сделана попытка реализации идеи путем применения местной железной окалины Ташкентского металлургического завода в качестве ферритной добавки при обжига клинкера. Совместное предприятие Ташкентский металлургический завод, является су-

пер современным предприятием Нового Узбекистана, годовой производительностью 500 тыс.тонн холоднокатанного проката с оцинкованным и полимерным покрытием.

Annotation

This article describes scientific research on the creation of highly efficient mineralizers based on iron scale of a rolling mill during the firing of cement clinker in order to reduce the sintering temperature. So, in modern conditions, there are acute problems of energy saving and the production of high-quality, high-strength cements, the authors propose an innovative method and scientific justification for the solution problems in the workplace. New ideas and results of experimental developments, technological regulations and practical experiments in this direction are proposed. The authors made an attempt to implement the idea by using the local iron scale of the Tashkent Metallurgical Plant as a ferrite additive during clinker firing. The joint venture Tashkent Metallurgical Plant is a super modern enterprise of New Uzbekistan, with an annual capacity of 500 thousand tons of cold-rolled steel with galvanized and polymer coating.

Jahon qurilish bozori, xususan, bog‘lovchi moddalar va sement ishlab chiqarish, uni realizasiyasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, resurslar va energiya tejovchi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kun va kelajak talabidir.

“2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida keltirilgan qarorlar ijrosi nazaridan [1], sement ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish, modernizatsiya qilish orqali yangi quvvatlarni yaratish va qator hududlarda: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida yangi zavodlar qurish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Aholi jon boshiga sement ishlab chiqarish darajasini jahon darajasiga (kishi boshiga yiliga 433 kg) yetkazish strategik vazifasi qo’yilgan [2].

Ko'rib chiqilayotgan sohadagi tadqiqotning eng muhim ustuvor yo'nalishi temir birikmasi bilan boyitilgan energiya tejovchi texnologiyalardan foydalangan holda sement klinkerini pishirish ilmiy mavzusi juda dolzarb bo’lib turibdi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, taklif qilingan usulga ko'ra, ananaviy sement klinkerini pishirishda ferritga boy qo’shilmalardan foydalanish g’oyasi bo’lib, ferritga boy qo’shilmalardan sement pishirish shixtasiga qo’shilganda mahsulot nisbatan past +1200…1250 ^{o}C haroratlarda klinkerlashib pishirilishi bashorat qilinadi. Taklif etilayotgan ilmiy-amaliy g’oya iqtisodiy muammolarni hal qilishga yordam beradi, chunki bunda respublikaning navqiron sanoat korxonasi Toshkent metallurgiya zavodi po’lat list prokatlash ikkilamchi elementi temir to’poni (okalinasi) foydalanishni nazarda tutadi [3,4].

O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining “Uzex News” axborot nashri xabariga ko‘ra, 2021-yilda birja savdosiga 13,9 million tonna sement qo‘yilgan [6].

O’zbekiston sement savdosi bozorida 36,8% ulush bilan “Qizilqumsement” AJ yetakchilik qilmoqda. Ikkinchi o‘rinni “Olmaliq TKMK” AJ va “Ohangaransement” AJ egallab, ularning ulushi mos ravishda 22,6 va 21,9 foizni tashkil etadi.

Keyingi o‘rinlarni 6,2% ulush bilan “Quvasaytsement” AJ va 4,8% ulush bilan “Bekobodsement” AJ egalladi. Boshqa sotuvchilarning ulushi taxminan 7,6% ni tashkil qiladi. Mazkur korxonalar tomonidan kimoshdi savdosiga qo‘yilgan mahsulot hajmi birja orqali sotilgan sement umumiy hajmining 92,4 foizini tashkil etadi.

Tahlil qilingan yilda sement narxi faqat bozor talabi va taklif qoidalariga muvofiq shakllantirildi. Ko'rib chiqilayotgan davrda ishlab chiqaruvchilar kesimida taklif qilingan o'rtacha narxlar bir tonna sement uchun 509,5 ming so'mdan 623,9 ming so'mgacha bo'lgan.

Длительное использование водозаборных скважин в условиях жаркого климата и дефицита водных ресурсов в Узбекистане приводит к снижению их дебета. Основными причинами этого являются осаждение солей (кольматация) в результате механических, химических и биологических процессов, так как кольматант образуется под действием комплексных факторов, таких как приток мелких геологических частиц водоносного горизонта с водой, сложное сочетание отложений с продуктами коррозии металлических элементов скважины, а также влияние на процесс биологических бактерий. В результате дебит водозаборных скважин со временем снижается. Ускорение или замедление этого процесса зависит от многих факторов. В данной статье представлены результаты исследований причин проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: Подземные воды, геочастицы, скважины, коррозия, дебит, снижение, отложения, кольматация.

Кириш

Марказий Осиё ва Ўзбекистоннинг иссиқ ва қуруқ иқлим шароитида қудуқлардан узоқ муддат давомида фойдаланиш улар фильтрлари ҳамда филтролди соҳасида механик, кимёвий ва биологик жараёнлар натижасида тузларнинг чўкиши (кольматаж)ни юзага келтиради. Бу жараён турли омиллар таъсири остида сув олувчи қудуқлар дебитини вақт ўтиши билан камайтириб боради ва масаланинг муҳим томони бу жараённи тўхтовсиз давом этишида ҳисобланади. Бундай жараён ўта мураккаб бўлиб унга таъсир этувчи омиллар кўплаб гидродинамик, геокимёвий, физик ҳамда бактериологик факторларга боғлиқ. Улар кольматация жараёнинини тезлаштирувчи ёки секинлаштирувчи ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасида ер ости сувларидан кенг фойдаланилади, фақат коммунал сув таъминоти тизимида ишлайдиган қудуқлар уларни сони 48 мингдан ортиқни ташкил этади. Ҳар йили улардан камида 10 фоизи колматация натижасида ўз дебитини пасайиши ҳисобига ишдан чиқади ва қайта ишлов бериш талаб этилади.

Тадқиқот ва таҳлил. Юқорида таъкидлангандек, жараён мураккаб ва таъсир этувчи омиллар сони кўп, лекин улар ичида сувни қаттиқлиги, минераллашув даражаси юқори эканлиги бош сабаблардан ҳисобланади. Ушбу тадқиқотларда сув сифати паст ва ўта қаттиқ бўлган ҳудудлар ўрганилди. Биз ўрганаётган Қизилтепа сув иншоотлари ҳудудидан дебити пасайган қудуқдаги кольматант намуналарини олиниб, уни кимёвий, минералогик ва физикавий хоссаларини экспериментал таҳлил қиламиз. Қуйида мураккаб таркиб ва структурага эга бўлган колматантни чўкиш ҳамда сув йўлларни битиб қолиш жараёни кинетикаси таҳлил қилиниб, унга таъсир этувчи омилларнинг муҳимлик аҳамияти ўрганилади. Гидравлик нуқтаи назардан олиб қарайдиган бўлсак, бу ҳолат қудуқлар фильтри ва фильтролди соҳасининг ғоваклигини ва фильтрларнинг ҳамда сувли қатлам тоғ жинсларининг сув ўтказиш қобилиятини камайиши билан изоҳланади. Лекин мураккаб кольматацион жараёнлар жадаллиги муҳим ҳисобланиб, улар бир нечта омиллар билан аниқланади, баҳоланади ва қудуқларнинг филтрлари ҳамда фильтролди соҳаси филтрацион кўрсаткичларини ўзгаришида намоён бўлади [1].

Ғовакли муҳитларда фильтрловчи тоғ жинслари хоссаларнинг ўзгаришини суюқлик механикаси яъни гидромеханика мутахассислари (1, 3) томонидан ўрганилган. Бундай ўзгаришлар сувли қатламни ташкил этган тоғ жинслари, яъни сув ўтказувчи жинс ғовакларида фильтратция коэффициентини ўзгаришига олиб келади. Демак, биринчи навбатда қудуқ филтрлари ва филтролди соҳасидаги филтрация коэффициентни моҳияти ва уни ўзгаришини таҳлил қиламиз. Агар фильтратция коеффициентини k билан белгиласак, у ҳолда, ушбу коэффициентни аниқлаш формуласи қуйидагича бўлади:

$$k = k_0 f(\alpha), \quad (1)$$

бу ерда: k - кольмататция натижасида ўзгарган фильтратция коэффициенти;

k_0 - сув берувчи қатламни ташкил этадиган тоғ жинсининг меъёрий яъни бошланғич фильтратция коэффициенти;

α- ғовакларнинг чўкма билан тўлишии яъни, битиб қолиши коэффициенти бўлиб, у қуйидагича аниқланади:

$$\alpha = (n_0 - n)/\, n_0\,, \quad (2)$$

n_0 ва n кольматация натижасида ўзгарган ва бошланғич ғоваклик.

Ғовакликарнинг кольматацион тўйиниши жараёни вақтнинг ва координатанинг функцияси ҳисобланади.

$$\alpha = f(r.t), \quad (3)$$

бундай боғланиш қудуқ фильтрларни очилиши ва филтролди соҳасининг таҳлили натижасида тасдиқланган. Қудуқ филтри ва унинг атрофидаги колъматация даражаси 3 смдан 5 см гача бўлади, ундан кейин тўйиниш даражаси камаяди ва фильтр деворларидан 50-70 см масофада бу жараён деярли тугайди. Бунинг сабаби сувнинг ушбу соҳасига кислород кириб бориши қийинлашуви ҳамда чўкмаларнинг ҳосил бўлиши учун керакли оксидланиш муҳитининг бўлмаслигидадир. Сув берувчи қатлам фильтрланиш коэфициентининг ўзгариши, яъни k/k_0 тўйинганлик даражаси Д.Н.Минцнинг филтрация ҳамда чўкиш бўйича назарий ва амалий экспериментлар орқали аниқланган, бу ерда

$$k/k_0 = f(\alpha) \quad (4)$$

Бундай боғланиш (5) формула кўринишида тасвирланган.

$$k/k_0 = (\omega_0/\omega)^2\,(n/n_0)^3 \quad (5)$$

Ушбу боғлиқлик Козени-Карман тенгламаси асосида n_0 ғовакли муҳитнинг ўртача тавсифлари ғоваклик n_0 ва солиштирма юза ω_0 билан боғлиқлиги исботланган. Яни,

$$k_0 = j_0\,\frac{\omega_0^2}{n_0^2} \quad (6)$$

бу ерда j_0 – Козени доимийлиги орқали ҳисобланганда қуйидаги ифода келиб чиқади:

$$k = k_0(n/n_0)^3\,(\omega_0/\omega)^2 \quad (7)$$

Солиштирма юзанинг ўзгаришини кичиклиги туфайли ҳисобга олмаса ҳам бўлади, чунки бу кўрсаткич кольматация жараёнида жуда кичик миқдорда кўпайиши ва камайиши мумкин, ушбу формуладаги ғовакликлар ўзгариши катталигига нисбатан тартиби кўпроқ бўлади, юза ўзгаришини $\omega_0/\omega \approx 1$ десак, у ҳолда формула қуйидаги кўринишга келади [5,10].

$$k/k_0 = (n/n_0)^m = (1-b/n_0)^m\,, \quad (8)$$

Бу ерда m- даража кўрсатгичи бўлиб унинг қиймати м=2,8…3,3 оралиғида қабул қилинади. a<0,4 ҳол учун (7) формула $k/k_0 = 1-2(b/n_0)$ (8) кўринишга келади. Н.Н.Веригин томонидан колъматацияланадиган моддаларнинг грунт қатламида тўпланишлари ва сувга тушиш тезлиги шаклантирилган ва таҳлил қилинган. Кольматация жараёни схематик кетма-кетлиги Веригин томонидан қуйидагича асосланган. Қудуқдан сувни олишда гидродинамик пластина ҳолати ўзгартирилади, натижада қудуқлар яқинида ер ости сувларида кимёвий нотекислик ҳосил бўлади. Бу ҳудудларда С нинг маълум миқдори ўрнатилаган миқдорда бўлади, ҳудудларидаги ер ости сувларида Со тузлар миқдори катталиги бўлиб, улар туз йиғлиши ҳудудлари сувларида моддалар йиғилишига сабаб бўлади. Бу ўз навбатида моддаларнинг йиғилиш чегарасига тенг бўлиб, унинг ўлчамлари ҳисобига туз йиғиладиган ҳудудлар кенгаяди [5,7]. Қудуқларда туз тўпланиши масалалари Н.Н. Веригин томонидан кўриб чиқилган бўлиб, улар қаттиқ режимдаги доимий сарф–ҳаражат талаб қилувчи ва фойдаланувчи қудуқлар учун мўлжалланган [7]:

$$S_0 = \frac{Q}{2\pi m k_n}\left(\ell_n \frac{R_n}{r_0} + \xi_0\right), \quad (9)$$

$$\xi = \left(\frac{k_n}{k_\phi} - 1\right)\ell n \frac{r_c}{r_n}, \quad (10)$$

Бу ерда: S_0 – сатҳнинг пасайиши,м; Q - қудуқлар сув сарфи, m^3/сут;

m- сув берувчи қатламнинг қуввати,м; k_0 - сув берувчи қатламнинг филтрлаш коэффициенти, м/сут;

R_0 – қудуқлар таъсир радиуси,м; r_0 – фильтр радиуси, м;

С – фильтр томонидан таъминланган қўшимча қаршилик,м; r_0 – қудуқлар радиуси, м;

K_f – фильтрланиш қудуқларининг фильтр коеффицтиенти, м/сут;

Тузларнинг йиғилиши жараёни вақт ва масофа функцияси ҳисобланиб бу ўзгаришлар $t>0$ доирасида кузатилади. Тузларнинг йиғилиш ҳудуди фильтрнинг $R(t)<r_0$ чегарасида аниқланади, вақт ўтиши билан бу ҳудуд ўсиб боради ва маълум вақтдан кейин сув сув берувчи қатламда туз йиғилиб боради. Бу таҳлиллар [1,3] томонидан қилинган ишларда қудуқларда туз йиғилиш натижасида қўшимча пасайишлар кузатилади, шунингдек, туз йиғилиш ҳудуди радиуслари таъсирлари қўшимча пасайишларга таъсир қилади.

$R(t)<r_c$, $R(t)=r_c$ $R(t)>r_c$ кўрсаткичлар [1,2] томонидан бажарилган ишларда ер ости сувларидаги кимёвий турғунликни таъминлаш барча

қатламларда содир бўлади, бу жараён асосан кудуқлар яқинида содир бўлиш гипотезаси олдинга сурилади. Бу гепотезага мос ҳолда

$$C(r,t) = \alpha S(r,t), \qquad (11)$$

Бу ерда: C (r,t) - t вақт момент кудуқдан r масафада ер ости сувларда туз йиғлиши контцентрацияси, т;

C (r,t) ер ости сувларининг сатҳи камайиши.

α – пропорционаллик коэффициенти.

Кейинчалик аниқландики, кимёвий аралашмалар натижасида, грунт ғовакларида қоришма кўринишига айланмайди. Шунда (11) тенглама моддаларнинг сақланиш қонунига мос ҳолда ёпиқ системани тузилишини ҳосил қилади [1].

$$\frac{\partial b}{\partial t} + \vartheta(r)\frac{\partial C}{\partial r} = 0 \qquad (12)$$

Бу ерда; b- гурунт ҳажмий бирлигида концентрацияланиши;

v(r)- фильтрланиш тезлиги.

(11) ни дифференциаллаш ва натижаларни (12) формулага қўйиб, қуйидаги тенгламни ҳосил қиламиз: формула сув қатламли жинсларда тузларнинг йиғилиши дейилади.

$$\frac{\partial b}{\partial t} = \alpha\vartheta(r)\frac{\partial S}{\partial r} \qquad (13)$$

Тузларнинг йиғилиши муаммоси қуйидагича ифодаланади:

Бу ерда S(r,t) ва b(r,t) мос ҳолда тенгламадан функцияларни топиш талаб қилинади:

$$\frac{\partial}{\partial r}[rk(r,t)\frac{\partial S}{\partial r}] = 0, \qquad r_0 < r < R \qquad (14)$$

$$\frac{\partial b}{\partial t} = -\alpha(r)\frac{\partial S}{\partial r}, \qquad (15)$$

Қуйидаги шартларда:

t=0 бўлганда $b(r,t) = 0$;

r=R_n бўлганда $S(r,t) = 0$;

r=r_0, бўлганда $Q = 2\pi k(r,t)m\frac{\partial S}{\partial r}$, (16)

бу ерда: k(r,t) – сув қатламида фильтрланиш коэффициенти. [1,2] ишлар муалифлари нотекис масса алмашинувчи кудуқларда туз йиғилиш жараёни анализ қилинган. Бунда ер ости сувларидан қийин эрийдиган тузлар йиғлиб, жинсларнинг фильтрлар ҳусусияти ўзгариши вақт давомида секин кечади ва қуйидагича тенглама ҳосил бўлади. Ечими эса кудуқ туз йиғилиш жараёни ечимига тўла жавоб беради. Шунинг учун кудуқларда сув сатҳининг пасайиши доимий сарф билан ишлайди ва қуйидаги тенглама орқали аниқланади;

$$S(r_0,t) = \frac{Q}{2\pi m}\int_{r_0}^{R_n}\frac{\partial r}{rk(r,t)}, \qquad (17)$$

Бу ерда $k(r,t) = k_0[1 - \frac{b(r,t)}{n_0}]^m$

(17) тенгламадаги интегрални топиш учун b(r,t) ни ғовакларнинг туз билан тўйиниш кинетикаси масаласи ечими ва (16) тенгламадан аниқланади.

$$\frac{\partial b}{\partial t} = \upsilon_0(N_0 - b)C, \qquad (18)$$

Бу ерда: b_0 – туз чўкиш тезлигини аниқлаш коэффициенти.

(12) ва (18) тенгламанинг ғовакликларда йиғилган суюқликдаги алмашинув балансини ғовакларнинг тўйинганлигини аниқлайди.

Ушбу муаммони жойлардаги аҳволи ва унинг ечимларини топиш бўйича Навоий вилояти Қизилтепа сув қудуқлари чўкмалари намуналари ўрганилди. Дастлаб чўкманинг структураси, яъни минерал тузилиши бузилмасдан электрон микроскоп таҳлили ўтказилди. Таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, қудуқ фильтрига узоқ йиллар давомида чўккан кольматант кўпроқ карбонатли минераллардан ташкил топган (калцит ва арагонит. 1-расм).



1-расм. Қизилтепа сув қудуқларида ҳосил бўлган чўкманинг арагонит карбонатли кристаллари. (Электрон микроскопда 1290х катталаштирилган).

Ушбу намуна Қизилтепа сув қудуқларини узоқ ишлаб чўкмалар ҳисобига битиб қолган фильтридан олинган бўлиб, унинг тафсилоти кристалларни бузмай минералогик таҳлил қилинган.



2-расм. Арогонит кристалли чўкма (8-нуқта)нинг рентгенли электрон таҳлилида S,Ca,Fe бирикмаларини нурланиш жадалликларни тақсимланиши эгри чизиқлари (600х марта катталаштирилган).

Қуйида намунанинг ҳарактерли нуқтаси (8)да айнан кўриниб турган кристаллар учун унинг таркиби ва кристалларнинг минерал ҳолати

таҳлили (1-жадвал)да келтирилган.

1-жадвал. Қизилтепа сув қудуқларида ҳосил бўлган чўкманинг минерал таҳлили

Қизилтепа сув қудуқларида ҳосил бўлган чўкманинг арагонит карбонатли (8) нуқтасида минерал таркиби													
Элемент	SiO_2	Al_2O_3	MgO	CaO	Fe_2O_3	C	MnO	SO_3	Na_2O	CO_2	H_2O	FeO	Жами
Миқдори,%	0.00	0.01	0.00	56,02	-	0,09	0,00	-	-	3,96	0,12	0,73	100,3

Таҳлил **натижалари** шуни кўрсатадики, Қизилтепа сув қудуқларида ҳосил бўлган чўкмалар асосан карбонатли бўлиб, унинг кристалл кўриниши арагонит ва кальцит минералларидан, таркиби мос ҳолда, карбонатли кимёвий бирикмалардан иборат. Бундай чўкмаларнинг ҳосил бўлиши сувнинг қаттиқлиги ва унда шу тузлар бирикмалари оксидланиб карбонатли кристаллар, филтрнинг металл элементларини коррозияси маҳсулотлари ҳамда сув берувчи қатлам заррачалари билан бирикиб мураккаб структурали, кўптаркибли кольматантни ҳосил қилади. Ушбу чўкмаларни қудуқ фильтри ва фильтролди соҳасида чўкиши кинетикасини ўрганиш ва уни эволюциясини таҳлили уларга реал баҳо бериш ҳамда улардаги кольматациион жараённи олдини олиш, тезлигини бошқариш, бўлажак жараённи прогноз қилиш имкониятини беради.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, қудуқ филтри юзаси ва филтолди соҳа ғовакликларида ҳосил бўладиган колматантни тўла таҳлили уни чўкиши, таркибий ва структуравий мураккаблашуви жараёнлари кинетикасини баҳлашга асос бўлади. Натижада колматантни чўкиш эволюцияси орқали жараённи тезлаштириш ва сустлаштиришни бошқариш имконияти ҳосил бўлади. Якуний натижада қудуқларни узоқ муддат барқарор ишлаши ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш ҳамда қудуқ дебитини барқарорлаштириш бўйича қўлланиладиган технологияни мукаммаллаштириш имконини беради. Ушбу соҳадаги тадқиқотлар Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университетининг "Сув таъминоти, канализация ва сув ресурсларини мухофаза қилиш" кафедраси қошидаги UZWATER миллий марказида давом эттирилмоқда. Муаллифлар ушбу масала бўйича эксперт-мутахассислар томонидан бериладиган фикр ва мулоҳазаларни миннатдорчилик билан қабул қиладилар.

Хулоса ва тавсиялар:

1. Сув таркиби қаттиқ ва юқори минераллашган қудуқлар филтрлари ҳамда филтролди соҳаси ғовакликларида ҳосил бўлган чўкмалар асосан карбонатли бирикмалар бўлади;
2. Унинг кристалл кўриниши арагонит ва кальцит минералларидан, таркиби мос ҳолда, карбонатли кимёвий бирикмалардан иборат бўлади;
3. Бундай чўкмаларнинг ҳосил бўлиши сувнинг қаттиқлиги ва унда шу тузлар бирикмалари оксидланиб карбонатли кристаллар, филтрнинг металл элементларини коррозияси маҳсулотлари ҳамда сув берувчи қатлам заррачалари билан бирикиб мураккаб структурали, кўптаркибли кольматантни ҳосил қилади.
4. Ушбу чўкмаларни қудуқ фильтри ва фильтролди соҳасида чўкиши кинетикасини ўрганиш ва уни эволюциясини таҳлили уларга реал баҳо бериш ҳамда улардаги кольматациион жараённи олдини олиш, тезлигини бошқариш, бўлажак жараённи прогноз қилиш имкониятини беради.
5. Тавсия ўрнида шуни айтиш мумкинки, қудуқ филтри юзаси ва филтолди соҳа ғовакликларида ҳосил бўладиган колматантни тўла таҳлили уни чўкиш, таркибий ва структуравий мураккаблашуви жараёнлари кинетикасини баҳолашга асос бўлади.
6. Натижада колматантни чўкиш эволюцияси орқали жараённи тезлаштириш ва сустлаштиришни бошқариш имконияти ҳосил бўлади. Якуний натижада қудуқларни узоқ муддат барқарор ишлаши ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш ҳамда қудуқ дебитини барқарорлаштириш бўйича қўлланиладиган технологияни мукаммаллаштириш имконини беради.

Адабиётлар:

1.Тугай А.М., Прокопчук И.Т., Гадаев А.Н. Комбинированный способ очистки фильтров и прифильтровых зон скважин на воду. Строительные материалы, изделия и санитарная техника. Вып.14. –К.: БудІвельник,1991.

2.А.Н.Гадаев., С.А.Усанова. Артезиан қудуқларининг фильтрлари ва фильтр олди соҳасида тузли чўкма қатламининг ҳосил бўлиш кинетикаси. "Меъморчилик ва қурилиш муоммалари илмий" техник журнал. 2-сон, Самарқанд 2017 йил, 116-118 бетлар.

3.www.uzbekwater.com

4.http://www.ngpedia.ru/d431845p1.html

ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИНИ ҚУДУҚ ВА БУЛОҚ СУВЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШДАГИ САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ

Такабоев Қ. Ў., катта ўқитувчи. Жиззах политехника институти

Республикамизда кўплаб аҳоли тоғли худудларда истиқомат қилишади. Ушбу худудларда кўплаб Давлат стандартига жавоб берадиган қудуқ ва булоқ сувлари мавжудки ўша жойда яшовчи аҳоли ушбу сувлардан ичимлик суви сифатида фойдаланишади. Тоғли худудларда яшовчи аҳолини қудуқ ва булоқ сувлари билан таъминлаш самарадорлигини оширишда мавжуд сувларнинг дастлаб санитария ҳолати ўрганилиши лозим. Мавжуд сув манбаларини гигиеник тоза сақлаш унинг атрофини махсус қурилмалар билан ўраш ва ушбу худудни ҳар хил чиқиндиларнинг ташланишидан асраш керак бўлади.

Калит сўзлар: Қудуқ, булоқ сувлари, тоғли ҳудуд, сув таъминоти, гигиеник талаблар, махсус иншоотлар, са-

марадорлик.

В нашей стране большая часть населения проживает в горных районах. В этих местах много колодцев и родников, соответствующих государственным стандартам, и местное население использует эти воды как питьевую. Для повышения эффективности обеспечения колодцев и родниковой водой населения, проживающего в горных районах, необходимо изучить санитарное состояние имеющейся воды. Необходимо содержать существующие источники воды в гигиенической чистоте, окружать их специальными приборами и защищать территорию от сброса различных отходов.

Ключевые слова: Скважина, родниковые воды, горная местность, водоснабжение, гигиенические требования, специальные сооружения, эффективность.

In our country, most of the population lives in mountainous areas. There are many wells and springs in these places that meet state standards, and the local population uses these waters for drinking. To increase the efficiency of supplying wells and spring water to the population living in mountainous areas, it is necessary to study the sanitary state of the available water. It is necessary to keep existing water sources hygienically clean, surround them with special devices and protect the territory from the dumping of various wastes.

Key words: Water well, spring water, mountainy places, water supply, hygienic requirements, special facilities, efficiency.

Ичимлик суви манбаларини аниқлашда одатда гидрогеологлар, санитария ходимлари қудуқ ва булоқ сувлари олинадиган жойларни танлашлари лозим. Қудуқларнинг санитария талабларига жавоб берадиган баландроқ жойларга қурилиши мақсадга мувофиқдир. Улар канализация тармоқлари ўтган худудлар, чорва моллари сақланадиган жойлар шунингдек минерал ўғитлар сақланадиган объектлардан камида 100-150 м узоқроқдан танланиши ва ободонлаштирилиши мумкин.

Сув олиш мақсадида қурилган қудуқларнинг деворлари мустаҳкам, дарз кетмаган, ёмғир, қор сувлари тушмайдиган, қудуқнинг айланма оғзи темир-бетон ёки пишиқ ғишт билан ер юзасидан 80-100 см кўтарилган девори бўлмоғи шарт, қудуқ устига 3 метрли тик том ўрнатилиши лозим. Қудуқ ички девори тагидан юқоригача айланма темир-бетонли диаметри 100-120 см қувур ётқизилиши керак. Бунинг иложи бўлмаса 15-18 сантиметрли ғўлаёғоч билан тагидан қудуқнинг устигача тахланиб, тўрт томонидан ёғочли девор қилиниши лозим. Қудуқнинг ер юзасидаги қисмига бўйи 2 метр, эни 1 метрли лойдан “Қулф” қилинади, сўнгра унинг устига 2 метрли радиусда қум-цементли эритма билан сувалади ёки пишиқ ғишт ётқизилади.

Қудуқ атрофи панжара билан ўралади. Қудуқни таъмирлаш ва қудуқ сувини тозалаш мақсадида унинг деворига темир зиналар, қудуқнинг устидаги зонтик икки ёғоч ғўла икки устунга ўрнатилади ва сув олиш мақсадида қудуқнинг оғзига горизонтал холатда айланадиган икки ўқди ғўла ўрнатилади, ғўлани айлантириш учун мослама ва ғўлага арқон боғланади, унинг бир учига челак боғланиб, ўша челакда сув олинади. ҳар ким ўз челагини сув ичига туширавермайди. Қудуқ сувининг тиниқлиги 30 см, рангсиз, мазасиз бўлиши зарур. Сувнинг таркибидаги нитрат тузлари 1 л сувдаги миқдори 10 мг дан, азот бўйича 40-45 мг дан ошмаслиги керак.

Қудуқ суви ифлосланса, тезлик билан дезинфекция қилинади. Бунинг учун, олдин қудуқ сувдан бутундай озод қилинади, деворлари чириндилардан тозаланади, лойқа чўкмалар олиб ташланади. Бу чўкмалар қудуқдан 20 метр нарида ковланган ўрага ташланади, 10% хлорли охак эритмаси ёки ўзи кўмилади. Агар қудуқ девори ёғочдан ишланган бўлса, уни таъмирлаб, ҳар 1 м2 майдонига 0,5 % хлорли оҳак эритмаси билан ишлов берилади.

Қудуқ яхшилаб тозалангандан сўнг, қайтадан сув йиғилади, сув маълум баландликка кўтарилгач, сув ҳажми аниқланади ва 1 л сувга, 100-150 м2 ҳисобида охакли хлор солинади.

Хлорли оҳакнинг қудуқ суви билан керакли миқдори қуйидаги формула билан аниқланади.

$$P = \frac{E * C * 100}{H}$$

Е-сувнинг ыудуыдаги миыдори ($м^3$);

С-сувга солинган фаол хлор миқдори ($г/м^3$);

100-доимий коеффициент;

Н-хлорли оҳакдаги хлор миқдори (%)

Қудуқ сувига дезинфекцияловчи моддалар қўшилгач 25 дақиқа давомида аралаштирилади, кейин қудуқ 6 соатга беркитиб қўйилади. Сўнгра сув хлор ҳиди бор ёки йўқлигини текширилади, Сувда хлор хиди бўлмаса, хлор аралаштирилпш қудуқни ёпиб, 3-4 соат кузатилади. Сўнгра қудуқ сувидан намуна олиниб. бактериологик текширишга юборилади. Сув Давлат стандарти талабига жавоб берса, ичишга яроқли деб рухсат берилади.

Булоқ сувлари кўпинча тоғларнинг ён бағрида, тепаликлар тагида чашма сифатида чиқиб, кичик ариқларда оқа бошлайди. Шунинг учун ҳам тоғли худудларда жойлашган аҳоли ўша сувлардан фойдаланади. Бунинг учун махсус қурилмалар-каптажлар қурилади, улар маълум ҳажмдаги сувларни қабул қилади. Каптажларнинг таги сув ўтмайдиган лой қаватлардан, усти эса сувни ифлосланишдан сақлаш учун ғишт ёки ёғочлардан фойдаланиб, икки хонали қилиб уйчалар қурилади. Биринчи хонасида сув йиғилиб тиндирилади, иккинчи хонасида эса истеъмол учун сув олинади. Иккала хонанинг деворлари тагига сув оқиб чиқиши учун махсус қувурлар жойлаштирилади. Ортиқча сувни оқизиб юбориш мақсадида қувурнинг охирига нов ўрнатилади, сув ариқчага оқизилади.

Каптажларни тоза тутиш мақсадида вақтивакти билан дезинфекция қилиб туриш учун унинг ичига эшик ўрнатилади. Эшик дарчалари ер юзидан 30-40 см баландликда ўрнатилади.

Каптаж суви ҳам қудуқ сувига ўхшаш тоза бўлмоги шарт.

Адабиётлар:

1.Ўзбекистон Давлат стандарти "Ичимлик сув. Гигиеник талаблар, Сифатини назорат қилиш" OzDst д.51. Тошкент, 2000.

2.Ўзбекистон Давлат стандарти "Марказлаштирилган хўжалик ичимлик суви билан таъминлаш манбалари, гигиеник, техник талаблар ва танлаш қоидалари" OzDst д.51. Тошкент, 2000.

3.А. Эргашев, Ш. Отабоев, Р. Шарипов, Т. Эргашев "Сувнинг инсон ҳаётидаги экологик моҳияти" Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти Тошкент, 2009.

ИХНАЧ КЎЛИ ТЎҒОНИНИНГ БУЗИЛИШИ ХАВФИНИ КАМАЙТИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

Ибрагимов Б.Т., т.ф.д., профессор; **Жунсалиев Д.М.,** мустақил изланувчи
Ўзбекистон Республикаси ФВВ Академияси

Мақолада Писком дарёси ҳавзасида жойлашган Ихнач кўлларидан юзага келиши мумкин бўлган сув тошқини билан боғлиқ хавфни олдини олиш чора-тадбирлари сифатида сифонли сув ташлаш иншоотининг ҳисоб ишлари ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: тоғ кўллари тўғонининг ўпирилиши, сел тошқини, сифонли сув ташлаш иншооти.

В статье разработаны расчеты сифонного водовыпускного сооружения как меры по предотвращению опасности затопления озер Ихнач, расположенных в бассейне реки Писком.

Ключевые слова: прорыв плотин горных озер, внезапный паводок, сифонное водосбросное сооружение.

The article developed calculations for a siphon outlet structure as a measure to prevent the danger of flooding of the Ikhnach lakes located in the Piskom river basin.

Key words: breakthrough of dams in mountain lakes, flash flood, siphon spillway structure.

Тоғ кўлларида ҳалокатли сув тошқини пайдо бўлишининг олдини олиш учун профилактика чораси сифатида кўл тўғонидан сунъий сув оқими шакллантирилади. Адабиётларда Зарафшон дарё ҳавзасида жойлашган бузилиш хавфи юқори бўлган кўллардан, тўғон танасидан горизонтал очиқ дренаж кавланиб, бир неча марта сув ташлаш ҳолатлари ёритилган. Жумладан, 1890 йилда Фандаря дарёси ўзанига тушган кўчки натижасида Зайсан қишлоғидан юқорида вақтинчалик кўл ҳосил бўлган, икки ой ичида қулама кўлнинг узунлиги 20 км га етган, натижада кўлдаги сув ҳажми 20 млн м^3 дан ошган. Кўлда тўпланган сув ҳажмининг катталиги ва кўл тўғонининг заифлиги сабабли Зарафшон дарёси водийсида жойлашган аҳоли яшаш масканлари учун ҳалокатли бўлиши мумкин эди. Кўлда тўпланган сув мутахассислар томонидан маҳаллий аҳолининг ёрдами билан, уч соат ичида, кўл тўғонидан сунъий равишда кавланган очиқ дренаж орқали туширилган. 1926 йилда шу туманда, Зарафшон дарёсининг юқори оқимида, аввалги кўчкидан бир неча километр узоқликда, яна вақтинчалик қулама кўл ҳосил бўлган. Зайсан қишлоғи яна хавф остида қолган, қулама кўлда тўпланган сув, халокатларсиз, тушириб юборилган. Шунингдек, 1964 йилда Айний кўчкисининг Зарафшон дарёси водийсини тўсиб қолиши натижаси юзага келиши мумкин бўлган тошқинининг олдини олиш учун 19 млн м^3 дан ортиқ сув ҳажми кўлдан сунъий равишда туширилган.

Энг хавфли тоғ кўллар сирасига кирувчи, Ихнач кўллари Тошкентдан 120 км шимолий-шарқда, Чирчиқ дарёсининг чап ирмоғи Пском дарёси ҳавзасида, Пском қишлоғидан тахминан 2,5 км баландликда жойлашган (координаталари: N41º 54' 02", E70º 33' 35"). Мазкур кўллар тадқиқотчилар гуруҳи томонидан неча бор дала экспедициясида ўрганилган (1-расм).

Тоғ кўлларининг, хусусан, музликларда ва унга яқин жойлашган кўлларнинг сув сатҳи йил фаслларида ёки йилдан-йилга сезиларли даражада ўзгаради. Масалан, Ихнач кўлларидаги сув сатҳи ва майдонининг мавсумий ўзгаришини 1-расмда кузатиш мумкин. Бу ерда йилнинг қиш ва ёз ойларида сув сатҳининг динамик ўзгариши дарё ва сойларнинг гидрологик режими ва музликларнинг эриш даври билан боғлиқ ҳисобланади.



1-расм. Ихнач кўллари сув хажмининг календар йиллари орасида ўзгариши



2-расм. Катта Ихнач ва кичик Ихнач кўлларининг батиметрик модели

Кўлнинг сув балансини ҳисоблаш тўғон танасидан фильтрация бўладиган сув сарфининг интенсивлигини аниқлаш имконини беради. Бу кўлдаги сув сатҳининг ўзгариш кўрсаткичлари билан тўғон устидан оқаётган сув сарфини ҳисоблаш ёрдамида амалга оширилади. Шунингдек, Катта Ихнач кўлидаги сувнинг ҳарорати ва оқими тўғрисидаги маълумотлардан фойдаланган ҳолда морена музлигининг эриш тезлигини ҳам тахминий баҳолаш мумкин.

Ю.Н.Иванов томонидан тақдим этилган тоғ кўлларининг чуқурлиги бўйича классификациясига асосан бешта гуруҳга бўлинади: 1 – жуда саёз: h = 0,1-0,5 м; 2 – саёз: h = 0,5-2 м; 3 – ўрта: h = 2,0-4,0 м; 4 – чуқур: h = 4,0-10,0 м; 5 – жуда чуқур: h = 10,0-20,0 м.

Ўлчаш ишлари натижаларига кўра Катта Ихнач кўлининг энг чукур жойи $h_{мак}$ = 52,48 м га тенг, ўртача чуқурлиги эса: $h_{ўрт} = \frac{V}{S}$ = 14,84 м, нисбий чуқурлиги: $h_{нис} = \frac{h_{ўрт}}{h_{мак}}$ = 0,28. Катта Ихнач (52,48 м чуқурликда) ва Қуйи Ихнач (21 м чуқурликда) кўллари умумий сув ҳажми 5.5 млн м^3 ни ташкил этади. Катта Ихнач кўли (тўлиқ тўлганда) қуйидаги морфометрик кўрсаткичарга эга: юза майдони - 0,33 км^2, ҳажми - 4,8 млн м^3, узунлиги – 1,52 км, ўртача чуқурлиги – 14,5 м, максимал чуқурлиги эса - 53 м, сув йиғилиш майдони – 37,2 км^2 ни ташкил этади.

Қулама тўғонли Ихнач кўллари тўғони устки қисми юзасининг рельефини ҳисобга оладиган бўлсак, қурилиш материаллари ва моддий маблағларни тежаш ҳамда келиб чиқиши мумкин бўлган сел тошқинларининг олдини олиш ишларини тезлаштириш мақсадида янада самарали ҳисобланган сифонли сув ташлаш иншоотини қуриш тавсия этилади. Қуйида сифонни гидравлик ҳисобининг назарий асослари келтирилган бўлиб, сифоннинг ишлаш тамойили чўққида вакуум ҳосил бўлишига асосланган (3-расмга қаранг) бўлиб, бунда сифондан оқиб ўтадиган суюқлик сарфи вакуум миқдорига, чўққининг баландлигига ва сифон тизимида йўқотилган босимга боғлиқ ҳолда аниқланади.



3-расм. Сифонни гидравлик ҳисоблашга оид чизма

Сифон учун Бернулли тенгламаси қуйидаги кўринишда ёзилади:

$$\frac{\alpha \cdot \vartheta_1^2}{2g} + \frac{P_1}{\gamma} + z_1 = \frac{\alpha \cdot \vartheta_2^2}{2g} + \frac{P_2}{\gamma} + z_2 + h_f \qquad (1)$$

Бу ерда:

1) юқоридаги тенгламадаги $\vartheta_1 \approx 0$ бўлади, чунки, 1-1 қирқимдаги тезлик 0 га тенг;

2) биринчи қирқимда сув юзасига атмосфера босими таъсир этади, шу туфайли $\frac{P_1}{\gamma} = \frac{P_a}{\gamma}$ бўлади;

3) иккинчи қирқимдаги, яъни сифон чўққисидаги тезлик ϑ_2 ни ϑ деб қабул қилинади, яъни $\vartheta_2 = \vartheta$ бўлади. Бундан мақсад ϑ тезликни аниқлашдан иборат. Ушбу тезликни ҳисоблаш ифодасини аниқлашда юқоридаги таҳлиллар натижаларига таянилади:

$$\frac{P_a}{\gamma} + z_1 = \frac{\alpha \cdot \vartheta_2^2}{2g} + \frac{P_2}{\gamma} + z_2 + h_f \qquad (2)$$

$$\frac{\alpha \cdot \vartheta^2}{2g} = \frac{P_a}{\gamma} - \frac{P_2}{\gamma} + z_1 - z_2 - h_f \qquad (3)$$

Юқоридаги ифодадан шуни аниқлаш мумкинки, $\frac{\alpha \cdot \vartheta^2}{2g} = \frac{P_\vartheta}{\gamma} - (z_2 - z_1) - h_f$ шарти бажарилгандагина сифонда суюқлик ҳаракатга келади ва у ўз вазифасини бажаради. Мазкур ифода ёрдамида сифон чўққисидаги тезликни аниқлаш мумкин. Сифондаги тезлик маълум бўлгач кўндаланг қирқим юзасини билган ҳолда сифондан ўтаётган сув сарфини аниқлаш имкониятига эга бўлинади.

Таклиф этаётаётган мазкур усулда қулама тўғон устида сифон тизимида ишлайдиган сув ташлаш иншоотини қуриш тавсия этилади. Унга тўғон устида кўл – тўғон – сой йўналишида кетма-кет жойлаштирилган қувурлар уланади (4-расм).

Сифоннинг юқори нуқтаси, илгари амалга оширилган тадқиқотларда қайд этилганидек, қулама тўғон чўққисидан иложи борича (2-3 метр) пастда жойлашиши лозим. Бу баландлик кўлдаги жорий сув сатҳи $H_ж > H_ч$ = 1954 см шартини бажарганда сифоннинг табиий “зарядланиши” ни таъминлайди ва сув сифонли сув ташлаш иншоотидан қуйига қараб оқа бошлайди. Бундай шароитда сифонли сув ташлаш иншоотининг сувни тортиб олиш қисми яна 36 м га пасаяди. Сифонли сув ташлаш иншооти қўшимча қувурлар тизимига уланса, уларнинг умумий узунлиги янада ортади. Бу эса сифонли сув ташлаш иншоотининг янада самарали ишлашини таъминлайди.

4-расм. Катта Ихнач кўлидан эгилувчан сифоннинг гидравлик ҳисобига оид чизма

Сифонли сув ташлаш иншоотидан оқиб ўтиши мумкин бўлган сув сарфини аниқлаш масаласи жиддий ёндашувни талаб этади. Бунинг учун юқорида қайд этилганидек, дастлаб сифондан ўтаётган сув оқимининг тезлигини аниқлаш лозим. Ушбу масалани қуйидаги тартибда ечилади.

Дастлаб, сифонли сув ташлаш иншооти ва унга уланган қувурлар тизимида умумий йўқотилган босим (h_f), кўлдаги сув сатҳи баландлиги билан сойдаги сув сатҳи орасидаги фарқ (ΔH_c=36 м) га тенг деб қабул қиламиз. Бу тенглик қуйидагича ифодаланади:

$$\Delta H_c = h_f = \lambda \cdot \frac{l}{d} \cdot \frac{\vartheta^2}{2g} + \Sigma\xi \cdot \frac{\vartheta^2}{2g}, \qquad (4)$$

Бу ерда:

λ – сифонли сув ташлаш иншооти ва унга уланган қувурнинг узунлик бўйича қаршилик коэффициенти; l – сифон ва унга уланган қувурларнинг йиғинди узунлиги, l = 6000 м; d – сифонли ташлама қувурининг диаметри, мм;

ϑ – сифон чўққисида сувнинг оқиш тезлиги, м/с; g – эркин тушиш тезланиши, м^2/с;

$\Sigma\xi$ – сифон ва қувурлар тизимидаги маҳаллий қаршилик коэффициентларининг йиғиндиси.

Юқорида келтирилган (1) ифодадаги қувурнинг узунлик бўйича қаршилик коэффициенти (λ) қувур диаметри (d) га боғлиқ ҳолда қуйидаги ифода билан аниқланди:

$$\lambda = \frac{0,0195}{\sqrt[3]{d}} \qquad (5)$$

Сифонли ташлама ва қувурлар тизимидаги маҳаллий қаршилик коэффициентлари йиғиндиси ($\Sigma\xi$) сифон қувурига сувнинг кириш қисмида ўрнатиладиган металл тўрнинг қаршилик коэффициенти ($\xi_т$ = 3,0), металл тўрдан юқорида (ξ_1=0,5) ва сифон чўққисида (ξ_2=0,5) жойлашган тирсаклар қаршилик коэффициентларининг йиғиндисига тенг, яъни $\Sigma\xi$ = 4,0.

Юқорида келтирилган гидравлик катталикларнинг сонли қийматлари маълум бўлгач, сифонли ташламадан оқиб ўтаётган сувнинг тезлигини қуйидаги ифода билан аниқладик:

$$\vartheta = \sqrt{2g \cdot \Delta H_c \cdot \frac{1}{\lambda \frac{l}{d} + \Sigma\xi_м}} \qquad (6)$$

Сувнинг оқиш тезлиги (ϑ) ҳамда қувурнинг кўндаланг кесими юзаси ($\omega = 0,785 \cdot d^2$) ни унинг диаметри асосида аниқлаб, сифонли иншоотдан оқиб ўтадиган сув сарфи ($Q_к$) ни ҳисоблаймиз:

$$Q_к = C\sqrt{Ri} \cdot \omega. \qquad (7)$$

Қулама тўғон устида қурилган сифонли сув ташлаш иншоотининг сув ўтказиш қобилиятини, яъни ундан қуйи бьеф томон оқиб ўтиши мумкин бўлган сув сарфи ($Q_к$) ни турли диаметрдаги металл қувурлар учун ҳисобланади:

1-жадвал

Сифонли сув ташлаш иншоотидан оқиб ўтадиган сув сарфларини ҳисоблаш

T/p	d, мм	λ	$\Sigma\xi_м$	ΔH_c, м	ϑ, м/с	ω, м^2	$Q_к$, м^3/с
1.	600	0,0023	4,0	36	21,15	0,2827	5,98
2.	800	0,0021			22,62	0,5027	11,4
3.	1000	0,0019			23,65	0,7854	18,6
4.	1200	0,0017			24.45	1,130	27,6
5.	1400	0,0015			25,04	1,539	38,5

Юқоридаги мисолларни солиштириш натижалари қулама тўғон устидан сувни сифонли ташлама ёрдамида ўтказиш самарали эканлигидан далолат беради. Масалан, биринчи усул, яъни сел тўхтатувчи гидротехника иншоотини қуриш анча қимматга тушади, лекин самарадорлиги жихатидан, мазкур иншоот вақт ўтиши билан ўзини оқлайди. Умуман олганда, ушбу солиштиришлар қулама тўғон устидан оқиб ўтиши мумкин бўлган сувни сифонли ташлама ёрдамида безарар ўтказиб юборишнинг ҳар томонлама самарали эканлигини кўрсатиб турибди.

Адабиётлар:

1. Малицкий Н.Г. Справка о некоторых прорывах временных горных озер в Средней Азии и соседных странах // Изв. Среднеаз.геогр.об-ва. Т. 1929. – 58 с.

2. Исследование прорывоопасных горных озёр Средней Азии: Обзорная информация. Сер. Гидрология суши // ВНИИ гидрометеорол. инф. Мировой центр данных. – 1990. – № 1. С. 1 – 35.

3. Barandun, M., Fiddes, J., Scherler, M., Mathys, T., Saks, T., Petrakov, D., Hoelzle, M. The state and future of the cryosphere in Central Asia. Water Security 11 100072. 2020. – 68 p. https://sciencedirect.com/journal/water-security

4. Ахмедов М.А., Салямова К.Д. Селевые явления в Узбекистане. Вестник Университета гражданской защиты МЧС Беларуси, 2018. Т. 2, № 2, 214-223 с. https://cyberleninka.ru/article/n/selevye-yavleniya-v-uzbekistane

3. Berger, C., McArdell, B. W. and Schlunegger, F. Direct measurement of channel erosion by debris flows, Illgraben, Switzerland, J. Geophys. Res., 2011. 1-18 pp., F01002, doi:10.1029/2010JF001722

5. Дергачёва, И.В. Использование данных дистанционного зондирования земли для картографирования труднодоступных высокогорных озёр. “Гидрометеорология ва атроф-муҳит мониторинги” илмий журнали. №1. Ўзгидромет. ГМИТИ. 2021. – 124 б.

6. Хикматов Б.Ф. Тўғон бузилиши хавфи бўлган кўллардан оқиб чиқадиган максимал сув сарфларини ҳисоблаш. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент, 2022. – 120 б.

7. Li, J., Sheng, Y. An automated scheme for glacial lake dynamics mapping using Landsat imagery and digital elevation models: a case study in the Himalayas. Int J Remote Sens. [Internet]. 2012. 33: 5194–5213. Available from: https:// doi.org/10.1080/01431161.2012.657370

ТОҒ КЎЛЛАРИНИНГ СУВ ТОШҚИНИ ХАВФИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАВСИФИ

Ибрагимов Б.Т., т.ф.д., профессор; **Жунсалиев Д.М.,** мустақил изланувчи
Ўзбекистон Республикаси ФВВ Академияси

Мақолада тоғ кўллари тўғонларининг бузилишига глобал иқлим ўзгариши натижасида тоғларда ҳаво ҳарорати ва ёғинлар миқдори кўрсаткичларининг ўзгариши эгзоген омиллар сифатида, тоғли ҳудудлардаги тектоник ҳаракатлар эса эндоген омиллар сифатида таъсири бўйича ўтказилган тадқиқот натижалари ёритилган. Шунингдек,

сел тошқинларининг келиб чиқиш омиллари ва уларнинг талафот кўрсаткичлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: тоғ кўллари, ҳароратнинг кўтарилиши, интенсив атмосфера ёғинлари, кучли зилзилалар, қияликларнинг триггер ҳаракатлари.

Ўрта Осиёда кўллар жойлашув ўрнига боғлиқ ҳолда текислик кўллари (денгиз сатҳидан баландлиги <500 м), тоғ олди кўллари (денгиз сатҳидан баландлиги 500-1000 м), тоғ кўллари (денгиз сатҳидан баландлиги >1000 м)га бўлиниши, жами 2981 та (1987 й.) тоғ кўлларнинг 80 %дан ортиқ қисми (2413 та) денгиз сатҳидан баландлиги 3000-4500 м оралиғида жойлашганлиги, бу баландликларда кўл косасининг ҳосил булиши учун қулай геоморфологик, геотектоник шароитларнинг ва уларнинг сувга тўлиши учун иқлимий, гидрографик омилларнинг мавжудлиги, дарёлар ва сойлар ўзанининг тусилиб қолишида кичик кўлларнинг ҳам вужудга келаётганлиги, тоғ кўлларининг 20-30% (596-894 та) тўғон танаси мустаҳкам бўлмаган, келиб чиқиши морена-музлик ёки қулама тўғонли кўллар эканлиги аниқланган.

Ўзбекистон ва унга қўшни давлатлар тоғларидаги жами 20 та трансчегаравий дарё ҳавзаларида 680 та (2000 й.) хавфли тоғ кўллари мавжудлиги, тоғ кўлларининг 77 %дан ортиқ қисми (527 та) д.с. 3000-4000 м баландликлар оралиғида шаклланганлиги, энг кўп тоғ кўллари (129 та) Писком дарё ҳавзасида жойлашганлиги аниқланган. Тоғ кўлларининг трансчегаравий дарё ҳавзалари кесимида баландлик бўйича жойлашуви, хавфлилиги жиҳатидан турлари, тўғонларининг бузилишидан юзага келган сел тошқинлари талофатларининг оқибатлари таҳлил қилиниб, мамлакатимизда ҳалокатли сел тошқини зоналарида республика, вилоят ва туман аҳамиятига эга 87 та шаҳарча, 200 га яқин қишлоқ ва овуллар мавжудлиги, мазкур ҳудудларда 3,5 млн га яқин аҳолининг истиқомат қилиши тоғ кўллари тўғонларининг бузилишига таъсир этувчи омилларни ўрганиш фавқулодда зарур эканлиги аниқланган.

Олимларнинг тадқиқот ишлари[7] таҳлили натижалари (1-расм)га кўра кучли ёғинлардан юзага келган селлар сони апрель-май ойига, тоғ кўллари тўғонларининг бузилишидан (генезиси гляциал) юзага келган селлар сони эса июль-август ойларида кузатилиши аниқланган.

Таҳлилларга кўра, 2011 йилдан 2022 йиллар оралиғида (ўн икки йилда) кучли ёмғинлар натижасида юзага келган селлардан ҳалок бўлганлар сони 25 кишини ташкил этган бўлса ва тоғ кўлларининг бузилишидан юзага келган сел оқимлари билан боғлиқ учта офатларда қурбонлар сони 700 дан ошган (2-расм). Ўзбекистонда инсонлар талофатига ва катта иқтисодий зарарга олиб келган тоғ кўллари тўғонларининг бузилишидан юзага келган кучли сел тошқинлари 1896 йилда 500 нафар, 1902 йилда 100 нафар, 1998 йилда 116 нафар инсонларнинг бевақт ўлимига сабаб бўлган.



1-расм. Сел тошқинларининг генезиси бўйича ойлар кесимида шакилланиши

1998 йил июль ойи бошида Абрамов музликлари жойлашган баланд тоғ минтақасида кунлик ўртача ҳаво ҳарорати 7 ºС дан 12 ºС гача кўтарилиши музлик ва қорларнинг жадал эришига, 8 июль куни Қирғизистондаги тоғ кўли тўғонининг бузилишига олиб келган, натижада Шоҳимардон сойининг сув сарфи 150-200 м3/сек га этиб, талофатли сел тошқини кузатилган. Тоғ тизмаларида ўзгараётган экологик мувозанат (ҳароратнинг ортиб бориши) билан биргаликда, у ерда кечадиган табиий-техноген ҳодисалар: зилзилалар, кўчкилар кўчиши, кучли ёғинлар дастлаб тоғ кўлларида сув тошқинига, кейинчалик дарёлар ўзанлари бўйлаб халокатли сел оқимларининг шакилланишига, минтақа иқлим шароити қурғоқчил бўлганлиги сабабли тоғ тизмаларининг ўсимликлар билан қопланганлик даражаси пастлиги эса мазкур хавфнинг таъсир доирасини янада кенгайишига олиб келиши аниқланган.



2-расм. Кучли ёғинлар (а) ва тоғ кўлининг бузилишидан (б) юзага келган селларда ҳалок бўлганлар сони

Халқаро экспертлар томонидан амалга оширилган тадқиқотларда криосферадаги ўзгаришларни ўрганиш асосан ҳарорат, ёғин ва сейсмик

[7] В.А.Керимқулов, И.Г.Цукерман, И.В.Дергачева ва бошқалар

маълумотларига асосланган бўлиши, криосфера ёмонлашуви натижасида эса сел, тошқин, кўчки каби табиий офатларнинг такрорланиш частотаси, кўлами ва майдони ортиб бораётгани аллақачон ўз исботини топган.

Глобал иқлим ўзгариши таъсирини кўрсатувчи энг ёркин индикаторларидан бири тоғ музликлари ҳисобланиб, ўтган аср давомида ўртача йиллик ҳаво ҳароратининг 1 °C га кўтарилиши (Ўзбекистонда 1,6 °C), минтақамиз тоғларидаги музликларнинг 1/3 қисмини камайиши учун етарли бўлди ва натижада музликларнинг чекиниши таъсирида тоғ ёнбағирлари барқарорлигининг пасайиши, пермафростнинг эриши таъсирида музли кўлларнинг сони ҳамда юза майдони ортиши кузатилди. Ўртача сценарий бўйича Ўзбекистонда 2030 йилга келиб ҳарорат 1,0 - 1,4 °C га ошиши, тоғ олди ҳудуларида ҳарорат ёз ойларида 4 - 5 °C га ошиши прагноз қилинмоқда. Шунингдек, Т.Ю.Спекторман ва Е.В.Петрованинг тадқиқот ишларида ёғинларнинг табиий ўзгарувчанлиги барча сценарийлар бўйича сезиларли даражада ортиши (3-расм), айниқса кучли ёғинли кунлар сони ортиб бораиши кўрсатилган.





3-расм. Тошкент вилоятида ҳаво ҳарорати 5 °C дан юқори бўлган даврда турли сценарийларга асосан ойлик (а) ва йиллик (б) ёғин миқдорининг амалдаги ҳамда кутилаётган қийматлари.

Ўзбекистон ва унга чегарадош ҳудудларида 2022 йил 2154 та (2021 йилда 1516 та) зилзила қайд этилиб, 2021 йилнинг шу даврига нисбатан ушбу кўрсаткич 638 тага (30%) кўпайган (4-расм). Ўзбекистон ҳудудида эса 2022 йилда қайд этилган зилзилаларнинг сони 70 та бўлиб (2021 йилда 39 та), Ўзбекистоннинг турли ҳудудларида 3-5 балл билан сезилиб, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 31 тага (44,3%) ошган. Яқин келажакда Ўзбекистон ҳудудининг сейсмик фаол зоналарида (5-расм) юзага келиш эҳтимоли жуда катта бўлган 75 та, катта бўлган 138 та, ўрта бўлган 161 та ва кичик бўлган 51 та зилзилаларнинг эпицентрал харитаси тузилган ва Тошкент ҳудудининг тоғ олди ва тоғли минтақаларида юзага келиш эҳтимоли ўрта бўлган 25 та зилзила ва Тошкент шаҳрида эҳтимол катта бўлган 1 та зилзила қайд этилиши мумкинлиги прагноз қилинган. Тошкент вилояти аҳолиси M=6-7≤ магнитудали (7-9 балли) зилзилалар бўлиши мумкин сейсмик фаол зоналарда яшайди, бундай шароитда сув омборлари, айниқса тоғлардаги табиий тўғонли кўлларнинг бузилишига, натижада эса табиий ва техноген тусдаги фавқулодда ҳолатлар юзага келиши мумкин.



4-расм. Ўзбекистон (а) ва унга чегарадош ҳудудларда (б) M=3≤ зилзилалар сони йиллар кесимида

Тоғ кўлларининг шакилланиши ўнлаб йиллар давомида содир бўлса, уларнинг бузилиб кетиши эса саноқли сониялар ичида юзага келиши мумкин ва қуйи оқимда, талофат ҳудудида жойлашган барча ижтимоий, иқтисодий ва якка тартибдаги объектлар, энг асосийси инсонлар ҳаётига хавф туғдиради. Айнан шунинг учун сел тошқинининг юзага келиш макони ва вақтини аниқлаш учун махсус моделларга фавқулодда эҳтиёж мавжуд. Бундай моделлар юзага келадиган хавф-хатарларнинг таъсир доирасини баҳолаш, олдини олиш ва оқибатларини юмшатишга қаратилган аниқ чора-тадбирларни ишлаб чиқиш учун ахборот манбаий сифатида хизмат қилади.

Ўзбекистонда 1980-2022 йилларда ўртача йиллик ҳаво ҳароратининг кўтарилиш 1,6 °C тўғри келади. Исиш жадаллиги глобал миқёсда кузатилаётган ўртача суръат (1 °C) дан юқори ҳисобланади, бойиси Ўзбекистон иқлим ўзгариши таъсирига кўпроқ мойил бўлган мамлакатлар қаторига киради. Ўзбекистон шароити учун прогнозлар маълумотлари ўртача йиллик ҳарорат кўрсаткичлари кўтарилишда давом этишини, ўртача

сценарий бўйича 2030 йилга келиб ҳарорат 1,0-1,4 °С га ошиши тахмин қилинган. Ўртача йиллик ҳарорат кўрсаткичлари мавсумга ва жойлашув ҳудудига қараб ўзгариб туриши ва тоғ олди ҳудудларида ёз ойларида ҳарорат 4-5 °С га ошиши мумкинлиги прагноз қилинмоқда.



5-расм. Ўзбекистон ҳудудининг сейсмик фаол зоналарида қайд этилган (а) ва яқин келажакда содир бўлиши мумкин бўлган (б) зилзилаларнинг эпицентрал харитаси

Бу ерда: *1. Тошкент ҳудуди. 2. Жанубий Фарғона ҳудуди. 3. Шарқий Фарғона ҳудуди. 4. Ангрен ҳудуди. 5. Шимолий Фарғона ҳудуди. 6. Жанубий Ўзбекистон ҳудуди. 7. Амударё ҳудуди. 8. Газли-Қоратоғ фрагменти Жанубий Тянь-Шань ҳудуди. 9. Шимолий Тамди ҳудуди. 10. Талас-Фарғона ҳудуди.*

Ўзбекистонда ёғин миқдорини ўрганиш ишлари чекланганлигига қарамасдан мавжуд маълумотлар тоғ олди ва тоғ ҳудудларида иқлимнинг намланиш даражаси ва интенсив ёғинлар сони ортиб бораётганини кўрсатмоқда. Ёғин миқдори 1950 йилдан бошлаб текислик ва тоғ олди ҳудудларида 10 мм дан, тоғли ҳудудларда эса 20 мм дан ортиқ бўлган кунлар сонининг ортиши кузатилган. Эмиссияларни чиқариш сценарийларига мувофиқ яқин келажакда (2030-2080 йиллар) қиш ойларида ёғин миқдори 10-20% га ортиши кутилмоқда.

Ихнач кўллари Ўзбекистон ҳудудининг сейсмик туманлаштирилган харитасида MSK-64 интенсивлик шкаласи 8 балли, Рихтер шкаласи бўйича 6 магнитудали ҳудудда жойлашганлиги кўрсатилган. Ўзбекистон ҳудудида яқин келажакда содир бўлиши мумкин бўлган зилзилаларнинг эпицентрал харитасида Ихнач кўллари жойлашган Тошкент ҳудудида зилзила эҳтимоли катта бўлган 1 та, ўрта бўлган 12 та зилзила содир бўлиши эҳтимоли кўрсатилган.

Юўқорида қайд этилган (экзоген) омилларнинг тоғ кўлларининг тошқин хавфига таъсири таҳлилидан шуни хулоса қилиш мумкинки, Пском дарёсида жойлашган Ихнач кўлларининг бузилиши дастлаб сув тошқинига, кейинчалик тошқин дарё ўзанидаги эрозия майдонида сел оқимига айланиши ва бунинг натижасида қуйи бьефда жойлашган аҳоли яшаш ҳудудлари ҳамда муҳандислик иншоотларига хавф туғдириши мумкин. Шундай экан Ихнач кўлларининг эҳтимолий сув тошқинини вақт ва ҳудуд бўйича тарқалишини баҳолаш ва унинг хавфини камайтириш чораларини кўриш долзарб муаммо ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. IPCC (2019). Special Report on the Ocean and Cryosphere in a Changing Climate [H.-O. Pörtner, D.C. Roberts, V. Masson-Delmotte, P. Zhai, M. Tignor, E. Poloczanska, K. Mintenbeck, A. Alegría, M. Nicolai, A. Okem, J. Petzold, B. Rama, N.M. Weyer (eds.)]. Cambridge University Press, Cambridge, UK and New York, NY, USA, 131-202 pp. https://doi.org/10.1017/9781009157964

2. Интернет-ресурс. Сайт для путешественников и исследователей. URL: www.orient-tracking.com

3. Интернет-ресурс. UNESCO Almaty Cluster Office. URL: www.en.unesco.kz

4. Узгидромет (2008). Второе национальное сообщение Республики Узбекистан по Рамочной Конвенции ООН об изменении климата. https://unfccc.int/sites/default/files/resource/TNC_Uzbekistan_under_UNFCCC_rus.pdf?download

ISITISH TIZIMLARI UCHUN HARORAT GRAFIGI VA UNI ISHLATISH SXEMASI.

Maxmudov R.M. dotsent, texnika fanlari nomzodi; **Sulaymonova S.G'.,** magistrant
Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti.

Energiyadan samarali foydalanish har doim asosiy vazifalardan biri bo'lib kelgan. Shu sababdan, isitish tizimini loyihalashda tashqi havo haroratini bilish juda muhim, bu tarmoqdagi o'zgarishlarni kuzatish, boshqarish, boshqa sistemaga o'tish, shuningdek mumkin bo'lgan ortiqcha iste'molni baholash imkonini beradi. Bu esa ortiqcha mehnat va sarf harajatning tejalishiga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada aynan ana shular haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlari: Uztuvchi va qaytuvchi quvurlar, radiator, konvektor, ichki va tashqi havo harorati.

Эффективное использование энергии всегда было одной из главных задач. По этой причине очень важно знать температуру наружного воздуха при проектировании системы отопления, что позволяет следить за изменениями в

сети, управлять, переключаться на другую систему, а также оценивать возможный перерасход. Это приводит к экономии дополнительной работы и расходов. Эта статья как раз об этом.

Ключевые слова: подающая и обратная трубы, радиатор, конвектор, температура воздуха в помещении и на улице.

Efficient use of energy has always been one of the main tasks. For this reason, it is very important to know the outside air temperature when designing a heating system, which allows to monitor changes in the network, control, switch to another system, as well as assess possible excess consumption. This causes saving of extra work and expenses. This article is about exactly that.

Keywords: transmission and return pipes, radiator, convector, internal and external air temperature.

Kirish. Har bir iste'molchi iqtisodiy harajatlarni kamaytirishga intiladi. Bunga issiqlikning tashqi havo haroratiga bog'liqligini aniqlaydigan harorat grafigi orqali erishish mumkin. Ushbu ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish orqali iste'molchilarga issiq suv va isitish tizimini yetkazib berishning maqbul variantini tanlash imkonini beradi. Isitsih tizimini harorat grafigi orqali loyihalash quyidagi afzalliklarga ega:

- Tashqi normal havo haroratida issiqlik yo'qotishlarni kamaytirish;
- Isitish tizimini sifatli boshqarish;
- Xonalarnining yetarli darajada isitilmasligining oldi olinadi.

Isitish tizimi bir xil ish rejimiga ega emas, chunki tashqi havo haroratiga bog'liq holda issiqlik sarfi kuzatiladi. Shuning uchun unga bog'liq ravishda isitish moslamalarida suvning harorati o'zgarishi kerak. Tarmoq suvning harorati yo'qorida kursatilgandek tashqi havo haroratiga bog'liq holda o'zgaradi. Uni aniqlashda tarmoq suvi va tashqi havo harorati uchun mavjud bo'lgan qiymatlar hisobga olinadi. Tashqi havo haroratiga bog'liq ravishda tarmoq suvining uzatuvchi va qaytuvchi quvurlardagi harorati aniqlanadi. Isitish tizimini loyihalashda tashqi havo haroratiga qarab grafik asosida loyihalanadi.

Asosiy qism. Tashqi havo harorati pasayishi bilan uyda optimal mikroiqlimni saqlab qolish uchun ko'proq issiqlik energiyasi sarflanadi. Biz aytishimiz mumkinki, boruvchi va qaytuvchi quvurlardagi harorat tashqi havo haroratiga bo'gliq. Bunda, isitish tizimining harorat grafigi tashqi havo haroratiga nisbatan boruvchi va qaytuvchi quvurlardagi suvning isitilish darajasining bog'liqligidir.

O'zatuvchi va qaytuvchi tashqi issiqlik tarmog'idagi suv haaroratlari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$\delta\tau_{is} - 0.5\theta) \times Q_{is}$$

$$\tau_2 = t_i + \Delta t \times Q_{is}^{0.8} - 0.5\theta \times Q_{is}$$

Bu yerda ; t_i xona ichidagi havo harorati,℃

Δt isitish uskunasidagi haroratning o'rtacha qiymati bilan xona ichidagi havo harorati ayirmasi, ℃ bo'lib,

$$\Delta t = \frac{\tau_3 + \tau_2}{2} - t_i = \frac{95 + 70}{2} - 18 = 64.5℃$$

$$\delta\tau_{is} = \tau_1 - 150 - 70 = 80℃$$

$$\theta = \tau_3 - \tau_2 = 95 - 70 = 25℃,$$

Ya'ni isitish uskunasiga kiruvchi va qaytuvchi suv haroratlari ayirmasi,

Q_{is} nisbiy issiqlik sarfi.

Quyidagi jadvalda tashqi havo haroratiga qarab issiqlik miqdori ko'rsatilgan:

Tashqi havo harorati $t_{ив}$℃	O'zatuvchi tarmoq suvining harorati τ_1℃		Isitish tizimidagi taqmoq suvning harorati τ_3℃		Qaytuvchi tarmoq suvning harorati τ_2℃
	150	130	105	95	
8	53,2	50,2	43,4	41,2	
0	72,4	66,5	56,0	52,4	43,3
-5	83,9	76,5	63,5	58,9	47,6
-10	95,3	85,6	70,8	65,3	51,7
-15	106,5	94,8	77,9	71,5	55,6
-20	117,5	103,8	84,8	77,5	59,4
-30	150,0	130,0	105,0	95,0	70,0

Boruvchi quvurlaridagi suvning harorati to'rt omil bilan belgilanadi:

1. Tashqaridagi havoning harorati.
2. Isitish tizimining turi. Bir quvurli tizim uchun joriy standartlarga muvofiq isitish tizimidagi maksimal suv harorati 105 ℃ daraja, ikki quvurli tizim uchun – 95 ℃. Boruvchi va qaytuvchi quvurlar o'rtasidagi maksimal harorat farqi 105/70 ℃ va 95/70 ℃.
3. Radiatorlarning qo'yilishi. Yuqori va pastdan suvning berilishi.
4. Uydagi isitish moslamalarining turi. Radiatorlar va gazli isitish konvektorlari turli xil issiqlik uzatishga ega, shunga ko'ra, bir xil xona haroratini ta'minlash uchun harorat rejimi har xil bo'lishi kerak.



Tashqi havo haroratiga qarab quvurlardagi harorat o'zgarishi.

Xulosa. Harorat grafigini tuzishning amaliy ahamiyati shundaki, biz bu orqali eng asosiysi, iqtisodiy tomondan ancha qulay, ortiqcha vaqt talab qilmaydigan, boshqarish oson va o'zgaruvchan tashqi

Тоғли ва тоғ олди худудларда булоқ ҳамда сой сувларидан самарали даражада фойдаланиш маълум бир стандарт талабларига жавоб бермайди. Булоқ ва ер ости сувларидан самарали фойдаланиш учун замонавий сув босим мораларини барпо этиш лозим.

Асосий қисм. Вертикал ҳолатдаги цилиндрик қобиқ координата ўқлари бўйлаб жойлашиш схемаси 1-расмда келтирилган бўлиб асоси заминга қистириб маҳкамланган деб қабул қилинади.



1-расм. Сув билан тўлдирилган цилиндрик қобиқнинг ҳисобий схемаси.

Заминга қистириб маҳкамланган вертикал ҳолатдаги цилиндрик қобиқ мувозанатининг дифференциал тенгламасини қўйидаги содда кўринишда қабул қиламиз.

$$E \cdot J \cdot \frac{\partial^4 y}{\partial x^4} = F(x) \qquad (1)$$

Бу ерда: E - цилиндрик қобиқ конструкцияси материалининг эластиклик модули; J – конструкция кундаланг кесимининг инерция моменти; x– координата ўқи бўйича вертикал ўқ; $F(x)$– цилиндрик қобиқ баландлиги бўйлаб ҳосил бўлувчи ташқи интенсив юк.

Ташқи юк вақт (t) бўйича ўзгариб туради деб қабул қилинади. Бу ҳолат учун инерцион куч $m_0 \cdot \ddot{y}$ деб қабул қилинади. Бу ерда m_0 – цилиндрик қобиқ баландлиги бўйича текис тақсимланган юкнинг 1 *м* баландлигига тегишли оғирлиги.

Бу ҳолат бўйича мувозанат тенгламаси қўйидаги кўринишда қабул қилинади.

$$E \cdot J \cdot \frac{\partial^4 y}{\partial x^4} = F(x) - m_0 \cdot \ddot{y} \qquad (2)$$

Конструкциянинг эркин тебраниши учун $F(x) = 0$ бўлганда (2) тенглама қўйидаги кўринишга келади.

$$E \cdot J \cdot \frac{\partial^4 y}{\partial x^4} = -m_0 \cdot \frac{\partial^2 y}{\partial t^2} \qquad (3)$$

(3) тенлгамага тегишли чегаравий ҳолатларни қўйидаги кўринишда қабул қиламиз

$$\begin{cases} \text{agar } x = 0; y = 0; \frac{\partial y}{\partial x} = 0 \\ \text{agar } x = H; \frac{\partial^2 y}{\partial x^2} = 0; \frac{\partial^3 y}{\partial x^3} = 0 \end{cases} \qquad (4)$$

Бу ерда:

$$E = \frac{E_e}{1+\frac{1-2\nu_0}{3E_0}\cdot E_c} \qquad (5);$$

$$\nu = \frac{0{,}5-\frac{1-2\nu_0}{3E_0}\cdot E_c}{1+\frac{1-2\nu_0}{3E}\cdot E_c} \qquad (6)$$

- ν - бетон учун Пуассон коэффициенти;
- ν_0 - чизиқли эластик хусусиятга эга бўлган материал (бетон) учун Пуассон коэффициенти;
- E_0 - деформация модули;
- E_c - Кесувчи (урунма) текислик бўйича деформацияланиш модули.

Маълумки темирбетондан тайёрланган сув бо-

сим минораси ичида сув узоқ вақт давомида сақланади ва бетон ўз таркибига сувни шимиб олиши мумкин. Шунингдек Ўрта Осиёнинг қуруқ иқлим шароитида саратон ойларида ҳаво харорати кескин кўтарилиб кетиши ҳам бетоннинг эластиклик модулига сезиларли даражада таъсир кўрсатади. Шу боисдан кийинги ҳисобларда бетоннинг деформацион модулини қўйидаги кўринишда аниқлаймиз.

$$E_0 = \frac{58700B}{25t \cdot B} \cdot K_W \cdot K_t \quad (7)$$

Бу ерда K_W ва K_t – мос равишда мухит намлиги ҳароратини инобатга олувчи коэффициент бўлиб 1- жадвалга асосан қабул қилинади.

1-жадвал

Намлик, %	10	20	30	40	50	60	70
K_W	0.85	0.875	0.900	0.925	0.950	0.975	1.0
Харорат (^0C)	10	20	30	40	50	60	70
K_t	1.05	1.00	0.95	0.875	0.800	0.700	-

$$E_D = E(1 + C)$$

Бу ерда С- бетоннинг давомли юк таъсирида сирпанувчанлик хусусиятини белгиловчи чегаравий катталик.

Бошланғич шарт бўйича $\frac{\partial y}{\partial x} = 0$.

(3) тенглама ўзгарувчи катталикларни бўлаклаш усули орқали ҳисобланади.

Фараз қиламизки,

$$y(x,t) = q(t) \cdot f(x) \quad (8)$$

Ушбу (8) тенгламани (3) формулага келтириб қўйсак қўйидаги натижага эга

$$\frac{E \cdot J}{m_0} \cdot \frac{f^{IV}}{f} = -\frac{\ddot{q}}{q} = \lambda^2 \quad (9)$$

Тенгламанинг чап томони координата системасининг фақат х ўқига боғлиқ бўлиб, ўнг томони вақтга боғлиқ. λ^2-доимий катталик,бундан (9) тенгламани икки тенгламага келтириш мумкин.

$$\begin{cases} \ddot{q} + \lambda^2 = 0 \\ \frac{\partial^4 y}{\partial x^4} - \frac{\lambda^2 m_0}{E \cdot J} f = 0 \end{cases} \quad (10)$$

Бу системадаги биринчи тенглама биринчи даражали эркинликга эга бўлган оддий системанинг эркин тебраниш тенгламаси бўлиб, частотаси λ - га тенг бўлган оддий гармоник тебранишни аниқлайди.

Иккинчи тенглама частотаси λ тенг бўлган f эркин тебраниш формуласини аниқлашга ёрдам беради.

Агар $\frac{\lambda^2 m_0}{E \cdot J} = \beta^4$, деб қабул қилсак,

$$\frac{\partial^4 y}{\partial x^4} - \beta^4 f = 0 \quad (11)$$

(11) тенглама ечими қуйидаги кўринишга келади.

$$f(x) = C_1 \cdot \sin(\beta x) + C_2 \cdot \cos(\beta x) + C_3 \cdot \mathrm{sh}(\beta x) + C_4 \cdot \mathrm{ch}(\beta x) \quad (12)$$

Эластик жисм (йилиндрик қобиқ) системаси чегараланмаган сонли эркинлик даражасига эга бўлиб вертикал ҳолатда турган система баландлиги бўйлаб, чегараланмаган сонли кўчишларни аниқлашга имкон беради.

Бу ҳолатда эластик жисмнинг тебраниши чегараланмаган оддий гармоник тебранишга келиб қолади.

$$y = \sum_{n=1}^{\infty} (y_{0_n} \cdot f_n) \quad (13)$$

Ҳар бир асосий тебраниш ўзининг тебраниш шакли ва тебраниш даврини изоҳлаб беради.

Шу боисдан n-сони тебраниш шакли учун (12) тенгламани қўйидаги куринишда қабул қиламиз.

$$f_n(x) = C_1 \cdot \sin(\beta_n x) + C_2 \cdot \cos(\beta_n x) + C_3 \cdot \mathrm{sh}(\beta_n x) + C_4 \cdot \mathrm{ch}(\beta_n x) \quad (14)$$

Доимий коэффициентларни аниқлаш учун (4) тенгламада келтирилган чегаравий шартларни қўллаймиз ва қўйидаги боғланишга эга бўламиз.

$$f_n(x) = \frac{(\mathrm{sh}(\beta_n l) + \sin(\beta_n l))(\mathrm{ch}(\beta_n x) - \cos(\beta_n x))}{\mathrm{ch}(\beta_n x) + \cos(\beta_n x)} - \frac{(\mathrm{ch}(\beta_n l) + \cos(\beta_n l))(\mathrm{sh}(\beta_n x) - \sin(\beta_n x))}{\mathrm{ch}(\beta_n x) + \cos(\beta_n x)} \quad (15)$$

Вертикал ҳолатда турган цилиндрик қобиқ хисобий схемаси қабул қилинган стержин эркин холатдаги учида келтирилган нуқтага мос равишда $f_n(x) = 1$.

Шу боисдан (15) системани, $f_n(l)$,бўлакларга ажратамиз ва қуйидаги тенгламага эга бўламиз.

$$f_n(x) = \frac{(\mathrm{sh}(\beta_n l) + \sin(\beta_n l))(\mathrm{ch}(\beta_n x) - \cos(\beta_n x))}{2(\mathrm{ch}(\beta_n l) \cdot \sin(\beta_n l) - \mathrm{sh}(\beta_n l) \cdot \cos(\beta_n l))} - \frac{(\mathrm{ch}(\beta_n l) + \cos(\beta_n l))(\mathrm{sh}(\beta_n x) - \sin(\beta_n x))}{2(\mathrm{ch}(\beta_n l) \cdot \sin(\beta_n l) - \mathrm{sh}(\beta_n l) \cdot \cos(\beta_n l))} \quad (16)$$

Қаралаётган ҳисобий схема бўйича қистириб маҳкамланган стержен тебраниш частоталари қўйидаги кўринишга келади.

$$\mathrm{ch}(\beta_n l) \cdot \cos(\beta_n x) = -1 \quad (17)$$

Бу тенглама илдизлари қуйидаги қийматларга эга бўлади.

$$\beta_1 l = a_1 = 1{,}88;\ \beta_2 l = a_2 = 4{,}69;\ \beta_3 l = a_3 = 7{,}85\,.$$

Темирбетондан барпо этилган сув босим минораси заминга қистириб маҳкамланган хисобий схемаси бўйича (1б расм) уч хил шаклдаги тебранишини кўриб чиқамиз: хусусий тебраниш частотаси; келтирилган массалар; бикирлиги ва ташқи таъсирлар.

$$\lambda_n = \frac{a_1^2}{l^2}\sqrt{\frac{E \cdot J}{m_0}};\ m_{\text{пр}} = \int_0^l m_0 \cdot f_n^2 dx = 0{,}26 m_0 l;$$

$$C_{\text{пр}_n} = E \cdot J \cdot \int_0^l (f_n'')^2 dx = 0{,}26 \frac{a_n^4}{l^3} E \cdot J;$$

$$\Phi_{\text{пр}_n} = F \int_0^l f_n dx.$$

Бу турдаги учала тебраниш шакли учун:

$$\Phi_{\text{пр}_1} = 0{,}412Fl;\ \Phi_{\text{пр}_2} = 0{,}173Fl;\ \Phi_{\text{пр}_3} = 0{,}142Fl.$$

Текис тақсимланган массага эга бўлган эластик системалар тебраниши учун умумий ечим қуйидаги кўринишда қабул қилинади.

$$y = \sum_{n=1}^{3} y_n(x,t) = \sum_{n=1}^{3} q_n(t) \cdot f_n(x) \quad (18)$$

$q_n(t)$ бўлганда иншоот силжиши қуйидаги тенглама бўйича аниқланади.

$$m_{\text{пр}} \cdot \ddot{q}_n + C_{\text{пр}_n} \cdot q_n = \Phi_n \quad (19)$$

Сув билан тулдирилган йилиндрик қобиққа таъсир этувчи ташқи юк сифатида Берлаге таклиф этган “импульс” зилзила таъсиридан хосил бўладиган реакцияни хисобий динамик юк сифатида қабул қиламиз.

$$F = A \cdot t \cdot \exp(-t)\sin(2\pi\omega t) \quad (20)$$

Энди бошланғич кўрсатгичлар услубига асосланган холда танланган хисобий схема (1-расм) бўйича вертикал холатдаги цилиндрик қобиқни зилзила таъсирида тебраниш моделини тахлил қиламиз.

Умумий холда олганда заминга қистириб маҳкамланган темирбетондан барпо этиладиган сув босим минораси асосига зилзиладан хосил бўладиган куч таъсир этганда, сув ва резервуарнинг хусусий оғирлиги минора баландлиги бўйича текис тақсимланган масса сифатида қабул қилинади. Бу холат учун бошланғич кўрсатгичлар қуйидагича қабул қилинади:

y_0 - сув босим минораси асоси; Q_0 - кўндаланг куч; M_0 - эгувчи момент;

θ_0 -минора асосининг бурилиш бурчаги.

Тадқиқотнинг бошланғич босқичида, минора асоси (пойдевор ости) модел сифатида чизиқли қонуният асосида силжийди ва $M_0 = 0$ деб қабул қилинади.

Бу холатда (2) тенглама ечими тадқиқот моделининг марказий нуқтасининг кўндаланг силжиши қуйидагича аниқланади.

$$y(x) = A_x y_0 + D_x \frac{Q_0}{E \cdot J \cdot k^3} \quad (21)$$

Бошланғич кундаланг куч $Q_0 = m \cdot \ddot{y}_0$ деб қабул қилинади.

Берлаге импульси қонуниятига асосан аввал қайд этилгандек, кўндаланг силжиш қуйидагича аниқланади.

$$\begin{cases} y_0 = A \cdot t \cdot \exp(-t)\sin(2\pi\omega t) \\ \ddot{y}_0 = A \cdot \exp(-t)\,[4\pi\omega\cos(2\pi\omega t)\,(1-t) - \\ \qquad -2\sin(2\pi\omega t) + \\ \qquad +t\sin(2\pi\omega t)(1-4\pi^2\omega^2)] \end{cases} \quad (22)$$

(21) формуладан таъсир функциясини келтириб чиқарсак,

$$A_x = \frac{\text{ch}(kx)+\cos(kx)}{2};\ D_x = \frac{\text{sh}(kx)-\sin(kx)}{2} \quad (23)$$

бу ерда $k = \sqrt[4]{\frac{m\cdot\theta^2}{E\cdot J}}, \theta = 2\pi\omega$ – ташқи юк частотаси.

(21) тенглама ечими пойдеворга қистириб маҳкамланган темирбетон цилиндрик қобиқнинг зилзила таъсиридан хосил бўладиган максимал кўндаланг кўчишни аниқлаш, бикир холатда махкамланган цилиндрик қобиқ мустахкамлигини баҳолашга ёрдам беради.

$$\delta_1 = \frac{M}{\pi r^2 \delta_0} \quad (24)$$

Цилиндрик қобиқ ҳалқаси бўйлаб кучланиш қуйидагича аниқланади.

$$\delta_2 = \frac{qplr}{\delta_0} \quad (25)$$

бу ерда

$$M = \frac{3E\cdot J\cdot y_{max}}{L^2} \quad (26)$$

(26) формулани (24) тенгламага келтириб қўйсак цилиндрик қобиқ мустаҳкамлик шарти келиб чиқади.

$$\delta_1 = \frac{3E\cdot J\cdot y_{max}}{\pi L^2 r^2 \delta_0} \le [\delta] \quad (27)$$

Ёки

$$\delta_0 \ge \frac{3E\cdot J\cdot y_{max}}{Al^2 r^2 [\delta]} \quad (28)$$

Хулоса

Ичи сув билан тулдирилган, вертикал холатдаги цилиндрик темирбетон қобиқли иншоот пойдеворига горизонтал йўналишда зилзила кучи таъсир этган холатда турли услубдаги математик модел асосида, иншоот баландлиги бўйлаб белгиланган нуқталарда кучишлар содир бўлиши назарий жиҳатидан таҳлил қилинди.

Олинган натижалар асосида цилиндрик қобиқнинг баландлиги бўйлаб, исталган кесимда ҳосил бўладиган ички зуриқишларни аниқлаш мумкин. Бундан ташқари, керак бўлган холатларда иншоот массасини оптималлаштириш ҳам мумкин. Маскур услуб иншоотнинг геометрик улчамларига мос равишда мустахкамлик чегарасини ҳам баҳолашга имкон беради.

Адабиётлар:

1. Кирсанов М. Н. Аналитический расчет пространственной стержневой системы // Строительная механика инженерных конструкций и сооружений.2012. №1. с. 49-53.

2. Hutchinson R. G., Fleck N. A. Microarchitektured cellular solids - the hunt for statically determinate periodic trusses // ZAAMMZ. Angew. Math. Mech. 2005. 85. №9. Pp. 607-617.

3.Қосимов Т.Қ. Номарказий сиқилишга ишлайдиган профилли стерженлардаги зўриқишларни аниқлаш . Memorchilik va qurilish muammolari 2019 йил, №1 сон.

4.Косимов Т. К, Фозилов Т.Ф. Численная реализация решения задач напряженно-деформированного состояния и устойчивости секториальных оболочек. Memorchilik va qurilish muammolari 2019 йил, №4 сон

5. Арутюнян Н.Х. Некоторые вопросы теории ползучести. – М – Л.: Гостехиздат, 1952. – 324 с.

6. Авдонин А.С. Прикладные методы расчета оболочек и тонкостенных конструкций. – М.: Машиностроение, 1969. – 402 с.

7. Байков В.И., Дроздов П.Ф., Трифонов И.А. Железобетонные конструкции. Специальный выпуск. – М.: Стройиздат, 1976. – С.5-1216.

8. Саидов Х.Р., Хаитов М.Б., Саидов Ф. Некоторые вопросы распространения поверхностных трещин в алюминиевых сплавах. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 12(33), 2020) - Warsaw: Sp. Z o. O. "iscience", 2020. Part 1. Pp. 137-140.

ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ, ЕР КАДАСТРИ
ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ, ЗЕМЕЛЬНЫЙ КАДАСТР

UDK 528.44

TARIXIY OBIDALAR ELEMENTLARINING OG'ISHINI GEODEZIK USULDA TADQIQ QILISN

Pirnazarov Islom Mardonovich, katta o'qituvchisi; **Xazratov SHaxzod,** magistrant
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Xalqimizning qadimiy tarixidan so'zlaydigan noyob yodgorliklarni asrash, o'rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish g'oyat muhim vazifadir. Ularni texnik holatini geodezik-tadqiqot ishlari orqali ularning deformasiyasi, og'ishi, siljishi va yorilishlarini bashorat qilib borilmoqda.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun Samarqand shahrida joylashgan "Shoxi-Zinda" ansamblini tarixiy majmuaning kirish poydevorining qismlarida geodezik-injenerlik ishlari olib borildi.

Kalit so'zlar: kren (og'ish), minora, poydevor, zenit masofalari, stereofotogrammetriya, koordinatalar.

An extremely important task is the preservation, study, research and transfer to future generations of unique monuments that speak of the ancient history of our people. Their deformation, deviation, displacement and cracks are predicted by geodetic studies of their technical condition.

To achieve these goals, engineering and geodetic work was carried out at the sites of the entrance foundation of the ensemble of the historical complex "Shokhi-Zinda", located in the city of Samarkand.

Key words: roll (deflection), tower, foundation, zenith distances, stereophotogrammetry, coordinates.

Крайне важной задачей является сохранение, изучение, исследование и передача будущим поколениям уникальных памятников, говорящих о древней истории нашего народа. Их деформация, отклонение, смещение и трещины прогнозируя путем геодезических исследований их технического состояния.

Для достижения этих селей были проведены инженерно-геодезические работы на участках входного фундамента ансамбля исторического комплекса «Шохи-Зинда», расположенного в городе Самарканде.

Ключевые слова: крен (отклонение), башня, фундамент, зенитные расстояния, стереофотограмметрия, координаты.

KIRISH. Kren - minora tipidagi strukturaning va uning poydevorining deformasiyasining eng xarakterli ko'rsatkichi xisoblanadi. Poydevor tuproqlarining deformasiyalariga juda sezgir bo'lgan bunday tuzilmalarda kren qo'shimcha buzilishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida krenning kattalashiga olib keladi va strukturaning barqarorligini yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, baland inshootlarning loyihalarida, poydevorlarning xolatini kuzatish bilan bir qatorda, qurilish jarayonida ham, ayniqsa ekspluatasiya paytida ham krenlarning to'liq o'lchovlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bugungi kunga qadar ushbu muammoni hal qilishning ko'plab usullari ishlab chiqilgan, bu ko'plab nashrlar tomonidan tasdiqlangan. To'plangan tajribani umumlashtirish, krenlarni aniqlashda yuzaga keladigan barcha masalalarni qamrab oladigan va geodeziya ishlarini ishlab chiqarishni tartibga soluvchi ko'rsatma va shu bilan birga umumlashtiruvchi xarakterdagi qo'llanmani ishlab chiqish zarurati tug'ildi.

ASOSIY QISM: Inshootning kreni (og'ishi) - chiziqli, burchakli va nisbiy jihatdan ifodalanishi mumkin.

Kuzatishlarning i-siklidagi mutlaq krenning chiziqli qiymati poydevor markazining proyeksiyalari va inshootning yuqori qismi markazining koordinataga (gorizontal) pozisiyasi o'rtasidagi segment sifatida tushuniladi (tekislik). Chiziqli o'lchovdagi krenni (og'ishi) kupayishi - bu inshootning yuqori qismi markazining pozisiyalari proyeksiyalari orasidagi masofa (segment) koordinata tekisligiga kuzatishning ikkichi siklida aniqlanadi.

Burchak o'lchovidagi mutlaq kren poydevorining markazidagi otves chizig'i va t-sikldagi strukturaning o'qining holati o'rtasidagi o'tkir burchak bilan aniqlanadi.

Nisbiy kren - t-sikldagi strukturaning mutlaq krennning strukturaning balandligiga nisbati.

Ushbu standartlar asos va strukturaning qo'shma deformasiyasini strukturaning xizmat ko'rsatish chegarasiga mos keladigan maksimal ruxsat etilgan qiymatga cheklaydi.

Sanoat inshootlari qurilmalari uchun (3.69-band) nisbatan krenlari cheklangan:

$$i_{chek} = 0{,}005 \quad \text{gacha} \quad N \le 100 \text{ m};$$
$$i_{chek} = 1/2N \quad \text{gacha} \quad N \ge 100 \text{ m}, \qquad (1)$$

balandligi 100 m gacha bo'lgan boshqa qattiq tuzilmalar uchun i chek = 0,004mm.

Balandligi 100 m dan ortiq bo'lgan boshqa minora tipidagi muhandislik inshootlarining krenlari uchun tolerantliklar odatda ularning poydevorlarini yuk ko'tarish qobiliyati va deformasiyalari bo'yicha hisob-kitoblar asosida individual ravishda o'rnatiladi.

5. Minora tipidagi inshootlarning krenlarini kuzatish bo'yicha geodeziya xizmatining asosiy vazifasi – krenni qabul qilinishi mumkin bo'lmagan qiymatini kelishini oldini olish va shu bilan inshootlarni buzilishiga yo'l qo'ymaslik.

Ushbu muammoni hal qilish inshootning normal ishlashi uchun zaruriy shartdir.

Krenlar nazorat qiluvchi geodeziya xizmati texnik topshiriq asosida geodeziya ishlarini loyihasini ishlab chiqadi va unga quyidagilar kiradi:

- geodezik o'lchovlarning kerakli aniqligini hisoblash;
- Planli va balandli asoslarini sxemasini yaratish

va geodezik asos reperlarini konstruksisini tanlash;

- deformasiya belgilarining konstruksiyalari va ularni mahkamlash usuli;
- tanlangan asboblar va krenni kuzatish usullariga muvofiq geodezik o'lchovlar metodologiyasi ishlab chiqish;
- asboblar va jihozlar ro'yxati va ish jadvali;
- o'lchov natijalarini qayta ishlash usullari, ijrochilar soni va ishlarni ishlab chiqarish smetasini.

Loyihani tuzishda qurilish maydonchasi yoki hududida mavjud bo'lgan barcha geodezik va topografik materiallardan maksimal darajada foydalanish kerak.

Krenni aniqlashning kerakli aniqlikgi va inshootlarni balanligiga qarab, shuningdek mahalliy sharoitni e'tiborga olgan xolda quyidagi usullardan biri bilan amalga oshirilishi mumkin:

- koordinatalar;
- yo'nalishlar (gorizontal burchaklar);
- kichik burchaklar;
- 3D modellar, vertikal dizayn;
- zenit masofalari;
- stereofotogrammetriya,

Panorama dasturida fazoviy grafik ma'lumotlarni qayta ishlash va konvertasiya qilishning zamonaviy imkoniyatlari 3D modellarni geodezik-tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lgan kengroq vazifalarni hal qilishga imkon beradi.

Koordinatalar usulida "Shoxi-Zinda" ansanblini kirish qismini planini yaratildi va tarixiy majmuaning kirish poydevorining Autodesk AutoCAD dasturida 3D modeli yaratildi va kren (og'ishi), yorilishi va siljishi parametrilari aniqlandi (rasm-1).

Darvoza minorasini kren (og'ish) qiymati: Darvoza minorani 22.08.2022 yildagi o'lchashlar natijasi: kirish peshtoqining *old tomondan qaralganda portalning chap yuqori burchagi* chap tomoni 1^0 $22^/$ $40^{//}$ va o'ng tomon *yuqori burchagi* 1^0 $21^/$ $00^{//}$, devoridagi yoriqlar: chap 2 sm. va o'ng tomon 3 sm. Balandligi *nimani* 16.604 m. tashkil etdi (rasm-2).

Bundan tashqari ansanblni seysmik (deformasiya) xolati kurib chiqildi va qo'yidagilar aniqlandi: xuddudda jami 16 *dona* devoriy markalar o'rnatilgani aniqlandi.

Tavsiyalar.

1. Ansanbldagi jami minoralar va binolarning kreni (og'ish) muntazam geodezik usulda ulchash orqali krenni bashorat qilib borish.



Rasm-1.Shoxi-Zinda ansanblini 3D modellar kurinishi



Rasm-2. Shoxi-Zinda ansanblini yon tomonidan ko'rinishi

Shoxi-Zinda ansanblini o'rganish nitijalari.

2. Xududni deformasiyasini aniqlash maqsadida geodezik-izlanish ishlarini bajarish va shu orqali xududni deformasiyasini bashorat qilish.

Bundan tashqari ansanblda oldin bajarilgan geodezik-izlanish ishlarini "Oltin Meros" arxividan izlab topish va o'larni tadqiqot qilish lozim.

O'rganish natijalari bo'yicha geodezik-izlanish ishlarni xar yili bir marotaba bajarish va shu orqali xududning va minoralarning seysmologik xolatini bashorat qilib borish tavsiya etiladi.

Адабиётлар:

1. Karpik A. P. Informasionnoye obespecheniye geodezicheskoy prostranstvennoy informasionnoy sistemы// Izv. vuzov. Geodeziya i aerofotosyemka. - 2013. - № 4/S. - S. 70-73.

3. Lisiskiy D. V., Bugakov P. Yu. Metodicheskiye osnovы sifrovogo trexmernogo kartografirovaniya// Izv. vuzov. Geodeziya i aerofotosyemka. - 2012. - № 6. - S. 37-42.

4. Lisiskiy D. V., Xoroshilov V. S., Bugakov P. Yu. Kartograficheskoye otobrajeniye trexmernыx modeley mestnosti// Izv. vuzov. Geodeziya i aerofotosyemka. - 2012. - № 2 dop. - S. 216-218.

5. Jurkin I. G., Xlebnikova T.A. Sifrovoye modelirovaniye izmeritelnыx trexmernыx videossen: monografiya. - Novosibirsk : SGGA, 2012. - 246 s.

ГЛОНАСС РОССИЙСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭРА-ГЛОНАСС В НАЗЕМНОМ МОНИТОРИНГЕ

Файзиев Ш.Ш. (PhD)., доцент, Каршинский инженерно-экономический институт
Ҳўжакелдиев К. PhD)., доцент, Каршинский инженерно-экономический институт
Азимов Ҳ. Магистр, Каршинский инженерно-экономический институт

Аннотация. С развитием нашей республики суюёл будет использовать системы года и требования к мониторингу сельскохозяйственного производства будут повышаться. том числе глонасс российские технологии Методы использования эра-глонасс на мониторе земли целесообразно изучить и применить в нашем регионе.

Ключевые слова. Геодезическая съёмка, «ЭРА-ГЛОНАСС», железнодорожных путей, транспортные системы, Навигационные радиосигналы, Мониторинг деформаций Земли.

Государственная автоматизированная информационная система (ГАИС) «ЭРА-ГЛОНАСС» обеспечивает оперативное получение информации о дорожно-транспортных происшествиях на

автомобильных дорогах в Российской Федерации, ее обработку, хранение и передачу в экстренные оперативные службы. Оператором ГАИС «ЭРА-ГЛОНАСС» является АО «ГЛОНАСС» (https://aoglonass.ru/).

При аварии абонентский терминал, установленный на автомобиле, определяет степень тяжести аварии, местоположение пострадавшего транспортного средства через спутники системы ГЛОНАСС и/или GPS, устанавливает связь с инфраструктурой «ЭРА-ГЛОНАСС» и передаёт через любого сотового оператора необходимые данные об аварии.

Вызов можно совершить вручную с помощью специальной кнопки SOS. При этом оператор контакт-центра «ЭРА-ГЛОНАСС» уточняет детали происшествия и в случае подтверждения информации или при отсутствии ответа направляет службы экстренного реагирования — спасателей, Скорую помощь, ГИБДД.

Российская государственная система экстренного реагирования «ЭРА-ГЛОНАСС» технологически совместима с общеевропейской системой eCall.

Предусмотрена возможность предоставления дополнительных сервисов: функции тахографа, удалённая диагностика состояния транспортного средства, система организации движения транспорта, охранно-поисковые системы.

В рамках реализации проекта развернута инфраструктура системы «ЭРА-ГЛОНАСС» в субъектах Российской Федерации, выполнено сопряжение с системами-112 и экстренными оперативными службами, другими государственными системами, утвержден комплекс национальных технических стандартов, принят Федеральный закон «О государственной автоматизированной информационной системе «ЭРА-ГЛОНАСС», который вступил в силу с 01 января 2014 года.

В июле 2013 года система была запущена в опытную эксплуатацию в 15 регионах России. 1 января 2015 года система была введена в промышленную эксплуатацию. Первым серийным автомобилем, оборудованным системой «ЭРА-ГЛОНАСС», стал российский автомобиль Lada Vesta.

С 2018 года абонентские терминалы системы устанавливают на все автотранспортные средства, продаваемые в России.

Внедрение системы «ЭРА-ГЛОНАСС» привело к сокращению времени реагирования при авариях и других чрезвычайных ситуациях, что позволило снизить уровень смертности и травматизма на дорогах и повысить безопасность грузовых и пассажирских перевозок.

Применение Глонасс Местоопределение Услуги, основанные на данных о местоположении

- Целевая реклама
- Пространственно-ориентированный доступ к информационным ресурсам
- Геопространственные информационные системы
- Комплексная информация об окружающем пространстве

Мониторинг

- Мониторинг местоположения людей, животных и имущества
- Координация экипажей экстренных служб
- Мониторинг перемещения высокоценных грузов
- Оперативный мониторинг состояния железнодорожных путей

Геодезия и картография

- Геодезическая съёмка
- Кадастровые работы, межевание
- Поддержка проведения инженерных работ и строительства
- Актуализация карт и планов

Строительство

- Автоматизированное управление строительной техникой
- Дорожные строительные работы
- Прокладка коммуникаций, трубопроводов и др.
- Строительство и ремонт железнодорожных путей

НАВИГАЦИЯ

Досуг и отдых

- Пеший туризм
- Рыбная ловля, охота
- Лодочный спорт
- Прокладка маршрутов путешествий
- Персональные аварийные маяки

Наземный транспорт

- Автономное построение маршрутов движения
- Интеллектуальные транспортные системы
- Оперативный мониторинг состояния железнодорожных путей

Сельское хозяйство

- Оптимизация посадки, полива и сбора урожая
- Повышение эффективности опыления посевов
- Обслуживание сельскохозяйственной техники

Авиация

- Заход и посадка по категориям ИКАО
- Маршрутная навигация
- Повышение безопасности вертолетовождения
- Навигация беспилотных летательных аппаратов

Космос

- Отслеживания средств выведения
- Высокоточное определение орбит космических аппаратов
- Определение ориентации космического аппарата относительно Солнца

Водный транспорт

- Подход и маневрирование в портах, на внутренних водных путях
- Навигация на внутренних водных путях
- Мониторинг и учёт флота

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И СИНХ-

РОНИЗАЦИЯ

Окружающая среда

- Мониторинг деформаций Земли
- Мониторинг параметров вращения Земли
- Мониторинг состава и состояния тропосферы и ионосферы
- Мониторинг водных и лесных ресурсов
- Добыча полезных ископаемых

Связь и синхронизация

- Синхронизация работы линий электропередач
- Синхронизация средств связи и телекоммуникаций
- Синхронизация времени разнесённых в пространстве потребителей
- Всемирное скоординированное время (UTC)

Услуги системы ГЛОНАСС

Система ГЛОНАСС предоставляет потребителю два вида услуг – стандартной и высокой точности.

Услуги стандартной точности предоставляются потребителям посредством передачи сигналов стандартной точности в L-диапазоне частот. Каждый космический аппарат «Глонасс-М» передаёт навигационные радиосигналы с частотным разделением в двух диапазонах: L1 (1,6 ГГц) и L2 (1,25 ГГц).

Сигнал стандартной точности с тактовой частотой 0,511 МГц, предназначенный для использования отечественными и зарубежными гражданскими потребителями, доступен для всех потребителей, оснащенных соответствующей АП, в зоне видимости которых находятся спутники системы ГЛОНАСС.

Спутниковая группировка

Штатная орбитальная группировка ГЛОНАСС состоит из 24 спутников, находящихся на средневысотных околокруговых орбитах с номинальными значениями высоты – 19100 км, наклонения – 64,8° и периода – 11 ч 15 мин 44 с. Значение периода позволило создать устойчивую орбитальную систему, не требующую, в отличие от орбит GPS, для своего поддержания корректирующих импульсов практически в течение всего срока активного существования. Номинальное наклонение обеспечивает 100%-ную доступность навигации на территории Российской Федерации даже при условии выхода из орбитальной группировки нескольких КА.



Орбитальная группировка	
Количество штатных ка	24
Высота орбиты	19 100 км
Количество плоскостей	3
Большая полуось	25 420 км
Период	11 ч 15 мин 44 с
Наклонение	64,8°

Текущее состояние ОГ ГЛОНАСС

Типы космических аппаратов

Навигационные радиосигналы

На этапе проектировании для системы ГЛОНАСС был принят частотный метод разделения сигналов различных космических аппаратов: каждый из них использует свою пару несущих частот, одна из которых принадлежит диапазону L1, другая – диапазону L2.

Для космических аппаратов, которые находятся в диаметрально

противоположных точках орбиты, используются одинаковые литерные частоты, по 12 в каждом диапазоне частот.

Выведенный на орбиту в 2011 году для лётных испытаний космический аппарат модификации «Глонасс-К» 1-го этапа наряду с радиосигналами L1 и L2 с частотным разделением, полностью аналогичным сигналам «Глонасс-М», дополнительно излучает в диапазоне L3 радиосигналы открытого доступа с кодовым разделением. Модернизированные аппараты «Глонасс-М» № 55–61 также излучают навигационный радиосигнал с кодовым разделением в диапазоне L3.

Спектр навигационных радиосигналов системы ГЛОНАСС





Система времени

В качестве шкалы системного времени системы ГЛОНАСС принята условная непрерывная шкала времени, формируемая на основе шкалы времени Центрального синхронизатора системы. Центральный синхронизатор оснащен водородными стандартами частоты.

Опорной шкалой времени для системы ГЛОНАСС является национальная координированная шкала времени России UTC(SU). Расхождение между шкалой системного времени ГЛОНАСС и UTC(SU) не должна превышать 1 мс.

Шкала системного времени ГЛОНАСС корректируется одновременно с плановой коррекцией на целое число секунд шкалы координированного всемирного времени UTC.

Заключение.

Мониторинг земли и разработка систем производства цифровых данных важны во всех обла-

стях. Развитие спутниковой системы предполагает привлечение квалифицированных специалистов, оказание помощи политическими организациями, а кроме того, совершенствование геодезических топографических работ, изучение и оценку земель сельскохозяйственного назначения.

Адабиётлар:

1. Nazarov A.S. Koordinatnoy obespecheniye topografo-geodezicheskix i zemelno-kadastrovix rabot / A. S. Nazarov. – Minsk : Ucheb.sentr podgot., povisheniya kvalifikasii i perepodgot. kadrov zemleustroit. i kartografo-geod. slujbi. 2008. – 83 str.
2. Serapinas B. B. Osnovi sputnikovogo pozisionirovaniya: Uchebnoye posobiye. M.: Iz-vo Mosk. Un-ta, 1998, - 84 s.
3. Trevogo I.S., Shevchuk P. M. Gorodskaya poligonometriY. Moskva, «Nedra», 1986, -199 str.
4. Instruksiya po fotogrammetricheskim rabotam pri sozdanii sifrovix topograficheskix kart i planovM., SNIIGAiK. 2002.- 100 s.
5. GOST R51833-2001. FotogrammetriY. Termini i opredeleniY.

Internet saytlari.

6. http://www.allpravo.ru/library/doc99p/instrum5237/item5256.html.
7. http://www.gendocs.ru/v5511/лекзия_-_ведение_кадастра_за_рубежом.
8. http://www.geodetics.ru/geodezseti.html.

YERNI MASOFADAN TURIB TADQIQ ETISH MA'LUMOTLARI ORQALI SHAHARLARDA O'SIMLIK QOPLAMINING BAHOLASH VA MONITORING QILISH.

Maksudov R.N., katta o'qituvchi; **Mansurov Q.I.,** katta o'qituvchi
Toshkent arxitektura qurilish universiteti
Maksudova G.A., magistr. Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari qishloq xo'jaligi ekinlarining holati to'g'risida muqobil ma'lumotlarni tezda olish va ularning hosildorligini bashorat qilishning eng istiqbolli vositasidir. Mavjud sun'iy yo'ldosh texnologiyalari katta maydonlar uchun o'simliklarni operativ monitoring qilish tizimlarini yaratishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Geoaxborot texnologiyalari, o'simliklar qoplami, monitoring, aerofotosyomka suratlari, Masofadan zondlash, QGIS dasturi, multispektral tasviri¸ Landsat, spektr kanali

Спутниковые данные являются наиболее перспективным средством оперативного получения альтернативной информации о состоянии сельскохозяйственных культур и прогнозирования их урожайности. Существующие спутниковые технологии позволяют создавать оперативные системы мониторинга растительности на больших территориях.

Ключевые слова: Геоинформационные технологии, растительный покров, мониторинг, аэрофотоснимки, дистанционное зондирование, программа QGIS, мультиспектральное изображение, Landsat, спектр каналы.

Satellite data are the most promising means of quickly obtaining alternative information about the state of agricultural crops and predicting their yield. Existing satellite technologies make it possible to create operational systems for monitoring vegetation over large areas.

Keywords: Geoinformation technologies vegetation cover, monitoring, aerial photographs, remote sensing, QGIS program, multispectral image, Landsat, spectrum channels.

Geoaxborot texnologiyalari yerni masofadan turib tadqiq etish ma'lumotlari orqali shaharlarda o'simlik qoplamining baholash va monitoring qilish o'simlik qoplamining taxlili eng zamonaviy va geografik asoslangan ma'lumotlarning asosiy manbalaridan biri sifatida muhim ro'l o'ynaydi. Geoaxborot texnologiyasi ma'lumotlarni yangilanib turadigan vositalar to'plamini taqdim etadi. [1]

Masofadan turib monitoring qilish atrof - muxitni baholash va uning sifatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Masofadan turib olinadigan kosmik suratlar paydo bo'lganidan so'ng yerni masofadan turib tadqiq etish ma'lumotlari, suratlarining yuqori sifatliligi, geoaxborot texnologiyasi dasturlari mukammalanishi, osimliklar qoplamini monitoringini doimiy yangilash va davom ettirish masalalarini hal etishga yordam beradi. Yerni masofadan zondlash tizimlarining jadal rivojlanishi turli davlatlar tomonidan 300 ga yaqin kosmik kemalar uchirilishi, yer yuzasining holati haqida ma'lumotlarni ta'minlovchi, fazoviy ma'lumotlarning axborot oqimi ko'payishiga olib keldi. [2] So'nggi yillarda sun'iy yo'ldoshlar orqali kosmik suratlar doimiy ravishda, bir yilda bir necha martadan olinadigan bo'ldi. Agar bu suratlarni solishtirsak, tabiiy muhit o'zgarishlarining xususiyati va maydonini aniqlash mumkin. Xozirgi olinayotgan kosmik hamda aerofotosyomka suratlari raqamli ekanligi, ularni geoaxborot ma'lumotlariga integratsiyalash imkonini beradi.

Geoma'lumotlar oqimi turli tizimlardan shakllanib, ularni multi, giper spektral va radarga bo'lish mumkin. Ular o'zining formatlariga ega,ular yordamida yer yuzasi va uning o'zgarishini aniqlash mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlash va dasturiy ta'minotlarnni ham rivojlantiradi. Yerni masofadan zondlash GAT ning tarkibiy qismlaridan biri, bu yerda GAT ma'lumotlarni qayta ishlash uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Rastr va vektor ma'lumotlarni qayta ishlash turli usul va algoritmlarga ega bo'lib, ular bu qatlamlarni birlashtirish hamda turli xil vazifalarni yechish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

GAT va yerni masofadan zondlashning rivojlanishi uch bosqichda amalga oshadi.

Birinchi bosqich. Har bir texnologiya uchun fazoviy malumotlar bazasi alohida yaratilib birga olib borilishi kerak. Ma'lumotlar vektor (GAT) va rastr

(masofadan zondlash) shaklda uzatiladi, bir vaqtning o‘zida boshqa dasturlarda foydalanish mumkin. Ularning tahlili GAT qatlamlarini yangilash, masofadan zondlash tizimlari tomonidan yaratilgan mavzuli atributlarni solishtirish yoki tasvirni bog’lash uchun GAT ma’lumotlaridan foydalanish bilan cheklanishi mumkin.

Ikkinchi bosqich. Fazoviy ma’lumotlar bazalarining kelajagini rivojlantirish, shu bilan birga, har bir texnologiya ma’lumotlarni umumiy qolipda foydalanishga imkon berishi zarur. Buning uchun har qanday ma’lumotlarni fazoviy hamda vaqtinchalik atributlarni mos ravishda vektorlash, rasterlash orqali boshqa ma’lumotlarga o‘zgartirish mumkin.

Uchinchi bosqich. To‘liq integratsiyaning yakuniy bosqichi. Aslini olganda, GAT va masofaviy zondlash rastr va vektor ma’lumotlari ma’lum bir metamodelga aylantiriladigan yagona ajrtlib bo‘lmaydigan tizim. GAT va masofadan zondlash qayta ishlash tizimlariga xos bo‘lgan barcha amallar to‘plamini bajarishga imkon beradi. Bugungi kunda to‘liq integratsiya nazariy jihatdan mumkin bo‘lsada, amalda mavjud emas. Shu bilan birga, ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, ularning asosida GAT va masofadan zondlash tizimlarini birlashtiruvchi ilovalar yaratilmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy GISda masofaviy zondlash ma’lumotlarini qayta ishlash bilan bog’liq bo‘limlar paydo bo‘ldi.

Masofadan zondlash tufayli bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab turli elektron atlaslar yangilanmoqda, ular amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llaniladi:

-yerdan amalda foydalanish monitoringi, hududning holati to‘g’risidagi ma’lumotlarni yangilash;

- o‘rmon fondini xaritalash;

- o‘rmonlarning tur tarkibini aniqlash;

- tabiiy sharoitlarni o‘rganish, hududlarning bioxilma-xilligini tahlil qilish;

- o‘simliklar qoplami monitoringi.

Masofadan zondlash - bu sohadagi o‘zgarishlarni kuzatish va tekshirish uchun qimmat va uzoq muddatli ma’lumotlarni yig’ish o‘rnini bosadigan noyob texnologiya, shu bilan birga hududlar yoki xususiyatlar buzilmasligini ta’minlaydi. Bu qishloq xo‘jaligi va qurilish loyihalarini doimiy monitoring qilish va nazorat qilishda yordam beradi. Masofaviy zondlash sun’iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida yer qoplamining o‘zgarishlarini tahlil qilish,ko‘rish, yer qoplamining turli o‘zgarishlarini kuzatish, juda samarali prognozlar qilish mumkin.

QGIS dasturining keng qamrovli imkoniyatlari tufayli o‘simlik qoplami o‘zgarishlari sodir bo‘lgan hududlarni yuqori sifatda tahlil qilish mumkin.

QGIS dasturining manbasi qgis.org manzilida joylashgan ishlab chiquvchining rasmiy veb-saytidir. O‘rnatishdan so‘ng, dastur nomi bilan yorliq orqali ishga tushiriladi

Qatlamlar bilan *ishlash* paneli xarita oynasiga yangi qatlamlar qo‘shish uchun mo‘ljallangan. *Xaritada navigatsiya vositalari* xarita masshtabini va tasvirini o‘zgartirish uchun zarur. *Menyu* asboblar panelida QGIS ning barcha buyruqlari va funksiyalari mavjud.

Aerokosmik tasvir - ob’ektning o‘ziga xos aks ettiruvchi nurlanishini texnik vositalar yordamida masofadan ro‘yhatdan o‘tkazish natijasida olingan va aniqlash uchun mo‘ljallangan, shuningdek ob’ektlar, hodisalar va jarayonlarni sharhlash, o‘lchash va xaritalash yo‘li bilan sifatli va miqdoriy nurlanishini aniqlash uchun mo‘ljallangan ikki o‘lchovli tasvir.

Foydalanuvchi ochiq bo‘lgan turli xil sun’iy yo‘ldosh dasturlarining multispektral tasvirlari arxivi AQSh Geologiya xizmati veb-saytida (www.usgs.gov) mavjud [6]. Landsat sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini olishda eng uzoq muddatli loyihadir. Landsatdan bepul sun’iy yo‘ldosh tasvirlarini olish uchun earthexplorer.usgs.gov veb-saytida ro‘yxatdan o‘tish mumkin.

Sur’at arxivi 7 ta sahnadan iborat. Ular B1 - B7 harflari bilan belgilanadi (1-rasm).



Имя	Даты	Тип	Размер	Теги
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_ANG	02.05.2017 5:09	Текстовый докум...	115 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B1	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B2	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B3	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B4	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B5	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B6	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B7	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B8	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	465 159 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B9	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B10	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B11	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_BQA	02.05.2017 5:10	Файл "TIF"	116 336 КБ	
LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_MTL	02.05.2017 5:10	Текстовый докум...	9 КБ	

1-rasm. Landsat 8 TM multispektral tasviri fayllar to‘plami sifatida

Tasvir sahnasi bir kanalda yer yuzasini sun’iy yo‘ldosh orqali suratga olish natijasidir. Spektral kanal - bu elektromagnit spektrning ko‘k, yashil, qizil, yaqin infraqizil, termal va boshqalar. Shunday qilib, arxiv fayllarining har biri tasvir sahnasidir. Fayl nomi tasvir sahnasi haqida ma’lumot olib yuruvchi belgilar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

LC08_L1TP_153031_20170423_20170502_01_T1_B2

Suniy yo‘ldosh nomi (Landsat 8)	Surat qayta ishlash darajasi (1)	Surat olingan sana Yil.oy.sana	Surat sahnasi (B2-yashil)

2- rasm. Landsat fayl nomidagi ba’zi belgilashlarni tushuntirish [3]

Chirchiq shahrining o‘simliklar qoplamini aniqlashda masofadan turib tadqiq etish QGIS dasturidan foydalanildi. Landsat 4-5 TM C2 L1 hamda Landsat 8-9 OLI/TIRS C2 L1: tabiiy ranglarda olingan ko‘p zonali koordinataga bog’langan TIFF shakldagi tasvirlar yig’indisidan foydalanildi. Fazoviy kosmik tasvirlarning o‘lchamlari 30m. Ma’lumotlarning koordinata tizimi WGS-84 kartografik proyeksiyasi esa UTM-42N zonasi tanlanadi.

Rastr ma’lumotlari GAT fazoviy ma’lumotlarning asosiy turlaridan biridir. QGIS dasturi rastr ma’lumotlari bilan ishlash uchun uskunalar to‘plamini taqdim etadi, bu masofadan zondlash ma’lumotlarini to‘g’ridan-to‘g’ri QGIS da qayta

ishlash imkonini beradi. Shuningdek QGIS tahliliy funksiyalaridan foydalangan holda keyingi tahlillarni amalga oshirishga imkon beradi. QGIS dasturi o‘zaro bog’liqligi tufayli fazoviy -koordinataga ega rastr ma’lumotlarini bir kartografik proeksiyadan boshqasiga tezkorlik bilan o‘tkazish, tasvirning koordinataga bog’lanishini transformatsiya qilish, rastr holatdan vektorga o‘tkazish imkonini beradi.

Ko‘p spektrli tasvirlarni qayta ishlashda, “indeksli” tasvirlarga aylantiriladi. Muayyan kanallarda yorqinlik qiymatlari matritsalari bilan matematik operatsiyalar asosida rastr tasviri yaratiladi. Hisoblangan "spektral indeks" piksel qiymatlarida belgilanadi. Olingan rasm asosida keyingi tadqiqotlar olib boriladi.

O‘simliklarning holatini o‘rganish va baholash uchun vegetatsiya indekslari keng qo‘llaniladi. Ular piksel yorqinligidagi farqlarga asoslanadi, spektrning ko‘rinadigan va yaqin infraqizil qismlaridagi tasvirlar. Hozirda mavjud vegetatsiya indekslarining 160 ga yaqin variantlari bor.

Tadqiqotimizning asosiy yo‘nalishi taqsimotni o‘rganish va NDVI o‘simliklari indeksining dinamikasi. Ushbu indeksni qo‘llashning eng muhim sohasi ekinlarning holatini aniqlashdan iborat.

Indeks ko‘rsatkichlari ko‘rinadigan qizil diapazonda elektromagnit to‘lqinlarni o‘zlashtiradigan va ularni yaqin infraqizilda aks ettiruvchi yashil massaning (o‘simlik qoplami) sun’iy yo‘ldosh tasvirlari orqali shakllanadi. Spektrning qizil zonasida (0,62 - 0,75 mikron) quyosh nurlanishining xlorofill tomonidan maksimal yutilishi va yaqin infraqizil zonada (0,75 - 1,3 mikron) bargning hujayra tuzilishi tomonidan energiyaning maksimal aks etishi mavjud. Ya’ni, yuqori fotosintetik faollik spektrning qizil zonasida past ko‘zgu koeffitsientlariga va yaqin infraqizilda yuqori qiymatlarga olib keladi. Bu ko‘rsatkichlarning bir-biriga nisbati o‘simliklarni boshqa tabiiy ob’ektlardan aniq ajratish imkonini beradi. Natijada to‘liq spektrli tahlilni olishimiz mumkin. [6]

1- jadval.

Spektr kanali	To'lqin uzunligi	Tasvir o'lchami
Kanal 1 - qirg'oqlar va aerozol	0,433-0,453мкм	30м
Kanal 2 – Ko'k	0,450-0,515мкм	30м
Kanal 3 - Yashil	0,525-0,600мкм	30м
Kanal 4 – Qizil	0,630-0,680мкм	30м
Kanal 5 – Yaqin infra qizil	0,845-0,885мкм	30м
Kanal 6 - Yaqin infra qizil	1,560-1,660мкм	30м
Kanal 7 - Yaqin infra qizil	2,100-2,300мкм	30м
Kanal 8 - Panxromatik	0,500-0,680мкм	15м
Kanal 9 - Bulutlar	1,360-1,390мкм	30м

1-jadval. Spektr kanallarining turlari.

Har bir nuqta uchun 15m dan 60 metrgacha bo‘lgan fazoviy o‘lchamlari 9 spektral diapazonda tasvirlarni etkazib beradi

Адабиётлар:

1. Applying remote sensing techniques to monitor green areas in Tashkent Uzbekistan Ilhomjon A. U. Mukhtorov, R. Mahsudov,

2. Ю. И. Шокин, В. П. Потапов «ГИС сегодня: состояние, перспективы, решения»

3. А.Н. Чащин «Основы обработки спутниковых снимков в QGIS» Учебно-методическое пособие. Пермь 2018

4. Н.Г. Ильминских, Е.И. Попова Мониторинг растительного покрова в зоне влияния тобольского нефтехимического комбината Аграрный вестник Урала 2012

5. https://earthexplorer.usgs.gov/

6. https://www.soft.farm/ru/blog/vegetacionnye-indeksy-ndvi-evi-gndvi-cvi-true-color-140

7. Makhmudova, Saida Alimova, Lobar

CHIRCHIQ SHAHRI O‘SIMLIKLAR QOPLAMI ELEKTRON XARITASINI YARATISHDA KOSMIK SURAT USULLARIDAN FOYDALANISH.

Maksudov R.N., katta o‘qituvchi. Toshkent arxitektura qurilish universiteti
Maksudova G.A., magistrant. Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Hozirgi kunda “Biologik monitoring” tushunchasi masofaviy (kosmik, aerokosmik) kuzatish usullari va yer usti tadqiqotlarning tezkor va zamonaviy tadqiqot metodlari asosida o‘simliklar qoplamini doimiy kuzatish, tahlil qilish va baholash sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘simlik qoplami, NDVI ko‘rsatkichi, Landsat, QGIS, SAGA GIS, vegetatsiya indeksi, kosmik surat, raster kalkulyator.

В настоящее время понятие «Биологический мониторинг» трактуется как непрерывное наблюдение, анализ и оценка растительного покрова на основе дистанционных (космических, аэрокосмических) методов наблюдениея и оперативных и современных методов исследования поверхности.

Ключевые слова: Растительный покров, показатель NDVI, Landsat, QGIS, SAGA GIS, индекс вегетации, калькулятор растров.

Currently, the concept of "Biological monitoring" is interpreted as continuous observation, analysis and assessment of vegetation cover based on remote (space, aerospace) observation methods and operational and modern methods of surface research.

Keywords: Vegetation cover, NDVI index, Landsat, QGIS, SAGA GIS, vegetation index, raster calculator.

Chirchiq shahrining o‘simliklar qoplami NDVI ni GAT texnologiyasida aniqlash uchun turli yillardagi aprel va may oylari Landsat tasvirlari olingan va QGIS dasturi 3.16.10 versiyalarida SAGA GIS funksiyalaridan foydalanib masofadan zondlash rastr ma’lumotlari bilan ishlash imkonini beradi.

Chirchiq shahrining vegetatsiya indeksini aniqlash uchun tasvirning tahlili yaqin infraqizil (NIR) va qizil (Red) yordamida NDVI ko‘rsatkichini aniqlashga imkon beradi.

Vegetatsiya indeksi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$NDVI = \frac{(NIR - Red)}{(NIR + Red)}$$

Инструменты анализа-SAGA-Image analysis-Vegetation index (slope based) tanlanadi. Ochilgan yangi oynada Near Infrared Reflecantance (Yaqin infraqizil aks) ga tasvirlar ichidan B4 bilan tugaydigan fayl tanlanadi. Masalan. LC08_L1TP_154031_20140422_20200911_02_T1_B4. Red Reflectance (Qizil aks) ga esa LC08_L1TP_154031_20140422_20200911_02_T1_B3 fayl tanlanadi. Oxirida esa Normalized Difference Vegetation Index tanlanadi. Havola quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Vegetation index (slope based) havolasi

Выполнить amali bajarilish natijasida NDVI qiymatlari -1 dan 1 gacha oralig'ida o‘zgaradi (2-rasm)



2-rasm. Chirchiq shahrini NDVI indeksi xaritasi

NDVI qiymatlari 0 dan kam bo‘lishi mumkin emas. Chunki salbiy qiymatlar asosan bulutlilik, suv havzalari va qor qoplami hisoblanadi. Olingan NDVI qiymatlarini ifodalovchi rastrlar asosida o‘rganilayotgan hududdagi suv havzalari, zich o‘simliklar, bulutlar, shuningdek aholi punktlarini aniqlash oson.



3-rasm Spektrning yaqin infraqizil hududida aks ettishi qizil diapazonda nurlanishni yutadi.

NDVI raster kalkulyator (калькулятор растров) vositasi yordamida NDVI ko‘rsatkichi aks etgan tasvirni qiymatlarini NDVI>0,2 avtomatlashtirilgan holda hisoblash mumkin. (3-rasm)



4-rasm NDVI hisobini (калькулятор растров) da hisoblash

Natija quyidagi ko‘rinishga keldi.



5-rasm. 1993-2000-yildagi o‘simlik qoplami



6-rasm. 2001-2002-yildagi o‘simlik qoplami



7-rasm. 2008-2009-yildagi o‘simlik qoplami



8-rasm. 2010-2011-yildagi o‘simlik qoplami



9-rasm. 2013-2014-yildagi o‘simlik qoplami



10-rasm. 2015-2016-yildagi o‘simlik qoplami



11-rasm. 2017-2018-yildagi o‘simlik qoplami



12-rasm. 2020-2021-yildagi o‘simlik qoplami



21-rasm. Kosmik suratlar bo‘yicha o‘simliklar qoplamini aniqlash diagrammasi

1-jadval

Yillar	O'simliklar qoplami гектар	Boshqa qoplamlar гектар
1993	500,69	3967,09
2000	1026,32	3441,46
2001	1270,31	3197,47
2002	2273,75	2194,03
2008	685,42	3782,36
2009	700,73	3767,05
2010	1076,22	3391,56
2011	588,87	3878,91
2013	2291,68	2176,1
2014	2355,98	2111,8
2015	913,11	3554,67
2016	3260,6	1207,18
2017	3059,04	1408,74
2018	3050,66	1417,12
2020	2760,2	1707,58
2021	2355,98	2111,8

Umumiy natijalar quyidagi ko‘rinishda bo‘lib turli pasayish va yuqorilash bilan o‘tdi. Bunga asosiy sabab 1993-2013 yilga qadar olingan ma’lumotlar tasvirga olish sifati pastroq landsat 5 suniy yo‘ldoshlari ishlatilishi va yerlarga bo‘lgan e’tibor pastligi.

2013-2021 yilgacha bo‘lgan davrda yuqori sifatli landsat 9 tasvirlar olingan hamda qishloq ho‘jaligi va sug’oriladigan yerlarga bo‘lgan et’iborning oshganligi bilan baholash mumkin.

Shuningdek keskin o‘zgarishlarni o‘sha yillardagi bahor faslining sovuq kelishi bilan baholash mumkin. Eng asosiysi biz o‘simliklar qoplami bo‘yicha turli xil ma’lumotlar asosida monitoring qilishga erishdik.

Адабиётлар:

1. А.Н. Чащин «Основы обработки спутниковых снимков в QGIS» Учебно-методическое пособие. Пермь 2018

2. Н.Г. Ильминских, Е.И. Попова Мониторинг растительного покрова в зоне влияния тобольского нефтехимического комбината Аграрный вестник Урала 2012

3. https://earthexplorer.usgs.gov/

4. https://www.soft.farm/ru/blog/vegetacionnye-indeksy-ndvi-evi-gndvi-cvi-true-color-140

ИЖРОИЙ СЪЁМКА НАТИЖАСИ БЎЙИЧА ТУННЕЛЬ МАРКАЗИНИНГ СИЛЖИШ ЙЎНАЛИШИНИ АНИҚЛАШ

Ташпулатов Сарвар Анварович – профессор. Тошкент архитектура қурилиш университети
Исаков Эркин Хўжаёрович - профессор. Самамрқанд давлат архитектура- қурилиш университети
Рейпназаров Эльбрус - магистрант. Тошкент архитектура қурилиш университети

Туннелларнинг ички сирти доирасининг геодезик ёки фотограмметрик ижроий съёмка қилиш натижасини айлана билан аппроксимациялаш ва туннел ҳақиқий марказини лойиҳадан оғишини аниқлаш масаласи кўрилган.

Рассмотрены вопросы аппроксимации кругом, результатов геодезической или фотограмметрической исполнительной съёмки туннели, определиние откланнение координат фактического центра круга от проектного.

The issues of approximation by a circle of the results of geodetic and photogrammetric executive survey of tunnels, determination of the deviation of the coordinates of the actual center of the circle from the design one are considered.

Калит сўзлар: Туннеллар, геодезик, фотограмметрик, ижроий съёмка, айлана, аппроксимациялаш, туннел ҳақиқий маркази, лойиҳадан оғиш, ини аниқлаш масаласи кўрилган, электрон тахеометр, айлана марказининг координатаси, айлана радиуси, румб бурчаклари.

Туннель кўндаланг кесимининг ижроий съёмкаси натижасида унинг ички сиртида нуқта холати $B_i(x_i, y_i)$, i=$\sqrt{n}$ аниқланган бўлсин. Туннел кўндаланг кесими айлана шаклидалигини ҳисобга олиб, бу нуқталарни айлана билан аппроксимациялаш масаласини қўямиз: Оху координаталар текислигида шундай $A(x_A, y_A)$ нуқтани топиш керакки, бу нуқтадан берилган $B_i(x_i, y_i)$ нуқталаргача бўлган масофалар қандайдир ўзгармас R сонидан кичик бўлсин.(1-шакл)



1-шакл. n – та нуқтага нисбатан айлана билан аппрокцималаш.

Изланаётган x_A, y_A, R параметрлар маркази $A(x_A, y_A)$ нуқтада жойлашган ва радиуси R га тенг текис айланани ифодалагани учун қўйилган масала Оху текисликнинг барча айланалари орасидан берилган $B_i(x_i, y_i)$ нуқталар энг кичик узоқлашган айланани топишни талаб этади. Шундай қилиб, чекли сондаги $B_i(x_i, y_i)$ нуқталар тўпламини айланага яқинлаштириш масаласини ечамиз [1,4]

$B_i(x_i, y_i)$ нуқталарни айланагача нормал йўналишида, ҳисобланган масофаси четлашиш функциясини тузамиз

$$\Delta_i = |\overline{AB_i}| - R = \sqrt{(x_i - x_A)^2 + (y_i - y_A)^2} - R, \quad (1)$$

Δ_i четлашиш модули бўйича минималлаштирилган айланага яқинлашишнинг x_A, y_A, R параметрларини квадратик яқинлашиш усули билан аниқлаймиз. (1) ифодада илдиз қатнашганлиги сабабли $[\Delta_i^2]$ ни минималлаштириш масаласи чизиқли бўлмаган тенгламаларнинг мураккаб системасини ҳосил қилади. Бу мураккабликни соддалаштириш учун Δ_i четлашиш ўрнига $B_i(x_i, y_i)$ нуқталарнинг айланадан четлашишининг ўлчови сифатида AB_i ва R масофаларнинг квадратлари орасидаги айирмани оламиз

$$\Delta_i = |\overline{AB_i}|^2 - R^2 = \Delta_i(|AB_i| + R) \quad (2)$$

(2) вазинланган фарқларни қуйидаги кўп хад билан ифодалашимиз мумкин

$$\Delta_i = -2(x_{B_i}x_A + y_{B_i}y_A + H - \frac{1}{2}R_{B_i}^2) \quad (3)$$

бу ерда R_{B_i} – О нуқтадан B_i нуқтагача радиус вектор, H - текислик холатига боғлиқ бўлмаган доимий сон.

$$H = \frac{1}{2}(R^2 - x_A^2 - y_A^2) \quad (4)$$

x_A, y_A, R айланага яқинлашув параметрлари қуйидаги суммани минимумга айлантириши керак

$$S=\sum_{i=1}^{N} \Delta_i^2 \quad (5)$$

S ни минимумга айлантириш шарти:

$$\frac{\partial S}{\partial x_A} = 0, \quad \frac{\partial \int}{\partial y_A} = 0, \quad \frac{\partial S}{\partial R} = 0, \quad (6)$$

R ≠ 0 бўлганда (6) шарт бўйича x_A, y_A, ва H га нисбатан учта чизиқли тенгламага алантиради

$$\begin{vmatrix} \sum x_i^2 & \sum x_i y_i & \sum x_i \\ \sum x_i y_i & \sum y_i^2 & \sum y_i \\ \sum x_i & \sum y_i & N \end{vmatrix} \begin{bmatrix} x_A \\ y_A \\ H \end{bmatrix} = \frac{1}{2} \begin{vmatrix} \sum R_i^2 x_i \\ \sum R_i^2 y_i \\ \sum R_i^2 \end{vmatrix} \quad (7)$$

Ёзув содда бўлиши учун $x_{B_i}, y_{B_i}, R_{B_i}$ ўрнига мос равишда x_i, y_i, R_i ёзилган, (7) системани крамер қоидаси бўйича ечимини вектор шаклида ифодаласак

$$x_A, y_A, H = \frac{1}{D}(D_x, D_y, D_H) \quad (8)$$

бу ерда D_x, D_y, D_H ва D (7) – дан крамер формуласи бўйича аниқланадиган учунчи тартибни аниқловчилар.

(8) – тенглик берилган B_i нуқталардан вазинланган квадратик яқинлашиш бўйича (4) – ифодадан айлана радиуси R топилади

$$R = (x_A^2 + y_A^2 + 2H)^{\frac{1}{2}} \quad (9)$$

Агар D ≠ 0 бўлса (7) системадан

$$x_A = \frac{D_x}{D}; \quad y_A = \frac{D_y}{D}; \quad H = \frac{D_H}{D} \quad (10)$$

(9) ва (10) формулалар билан аниқланувчи айлана берилган $B_i(x_i, y_i)$ нуқталарга яқинлашувчи ягона айлана бўлади.

Агар D = 0 бўлса айлана мавжуд бўлмаслиги ёки чексиз кўп бўлиши мумкин.

Транспорт туннеллари маълум бир аниқ геометрик шаклга эга бўладилар, бу уларни муҳим муҳандислик характеристикалари ҳисобланади. Идеал ҳолатда олиб қараганимизда тюбинглар ёки блоклардан барпо этилаётган туннелни кўндаланг кесими лойиҳада келтирилган диаметрга эга бўлган айлана кўринишида булиши керак. Техноген ва табий кучлар таъсирида туннель кўндаланг кесимида планли ва баландлик координатлари бўйича ўзгаришлар юзага келади, тюбинг ёки блокларда радиал сиджишлар бўлади [2], [3]. Бундай ҳолларда туннелнинг критик деформациясини аниқлаш ва шу асосида маълум бир инженерлик ечимни излаш зарур бўлади.



2-шакл. Туннел кўндаланг кесимида олинган нуқталар.

Деформацияни ўрганишда туннелни лойиҳавий радиуси R_A билан уни ҳақиқий (мавжуд) R_i лари орасидаги фарқлар орқали маълум ҳулосага келишимиз мумкин. [1] да баён этилган усулда координатаси аниқланган n та нуқта орқали туннелни эхтимолий радиусини аниқлаш масаласи баён этилган.

Энди ҳудди шу масалани [4] да баён этилган усулни бевосита ўзимизни қизиқтирган масалага мослаган ҳолда кўриб чиқамиз.

2 - шаклда келтирилган туннел кўндаланг кесимида 1,2,3,4,5 ва бошқа нуқталарнинг z_i ва y_i координаталари электрон тахеометр орқали аниқланган бўлсин, яъни ижроий съёмка қилингна бўлсин. Бу нуқталардан иккитасини базис деб олиб унинг узунлигини қуйидаги формула орқали аниқлашимиз мумкин бўлади:

$$b_{1.2} = \sqrt{(z_2 - z_1)^2 + (y_2 - y_1)^2}$$

[4] дан туннел кўндаланг кесимини аппроксимацияловчи радиус узунлиги R қуидагига тенг бўлади

$$R = \frac{b_{1.2}}{2sin\beta_1} \qquad (11)$$

Базис деб қўшни нуқталарнинг ҳоҳлаган жуфтлигини олишимиз мумкин 1,2; 2,3; 3,4; 4,5; 5,1; ва ҳ.к.. Бундан ёзишимиз мумкинки

$$R_{ўр} = \frac{R_1 + R_2 + \cdots + R_n}{n}$$

Айлана шаклидаги туннел кесими маркази-нинг координаталари қуйидаги формула билан аниқланиши мумкин (1 ва 2 нуқталар базис);

Δ 1,2,3 дан:

$$\left.\begin{aligned} z_{0_1} &= \frac{1}{2}[(z_1 + z_2) + (y_1 - y_2)ctg\beta_1] \\ y_{0_1} &= \frac{1}{2}[(y_1 + y_2) - (z_1 - z_2)ctg\beta_1] \\ \beta_1 &= \alpha_{3.2} - \alpha_{3.1} \\ \alpha_{3.2} &= arctg\frac{y_2 - y_3}{z_2 - z_3} \\ \alpha_{3.1} &= arctg\frac{y_1 - y_3}{z_1 - z_3} \end{aligned}\right\} \qquad (12)$$

(12) – кўринишидаги формулаларни 1,2,4 , 1,2,5 учбурчаклари учун ҳам, худди шундай равишда ёзишимиз мумкин.

(11) ва (12) формулалардан фойдаланиб туннел ижроий съёмкаси асосида туннелни аппроксимацияловчи айлана марказининг координатаси ва ушбу айлана радиуси ҳисоблаш натижаларини 1-жадвалда келтирамиз.

1 – жадвал

Нуқталар №	Координаталар		Учбурчаклар	Бурчаклар β_i	Аппроксимацияловчи айлана маркази		Радиуслар R_i	$R_{ўр} - R_i = V_i$	V_i^2
	z_i	y_i			z_{0_i}	y_{0_i}			
1	8,0	3,8	1,2,3	<1.3.2=31,8936°	7,66	7,91	4,15	+0,01	0,0001
2	11,5	6,4	1,2,4	<1.4.2=31,49°	7,63	7,96	4,18	-0,02	0,0004
3	10,4	11,0	1,2,5	<1.5.2=31,6159°	7,64	7,94	1,14	+0,02	0,0004
4	6,0	11,8	2,3,4	<2.4.3=34,1695°	7,57	7,90	4,19	-0,03	0,0009
5	4,7	5,0	3,4,5	<3.5.4=32,7082°	7,58	7,97	1,14	+0,02	0,0004
				Ўртача	7,616	7,936	4,16	∑=0	0,0022

Ижроий съёмка олинган нуқталарнинг силжиш йўналишларини қуйидаги формула орқали аниқлаймиз

$$tg_r = \frac{y_\wedge - y_i}{z_\wedge - z_i} \Rightarrow r = arctg\frac{y_\wedge - y_i}{z_\wedge - z_i} = arctg\frac{\Delta y_i}{\Delta z_i}$$

бу ерда r_i румб бурчаклари, $y_\wedge$. ва $z_\wedge$ туннел марказини лойихавий координаталарининг ҳисоблаш натижалари 2 – жадвалда келтирилган

Ўртача квадратик хато:

$$m = \sqrt{\frac{(R_i - R_{ўр})^2}{n-1}} = \sqrt{\frac{[v^2]}{n-1}} = \sqrt{\frac{0{,}0022}{4}} = 0{,}023$$

$$R_{ўр} = 4{,}16 \pm tm = 4{,}16 \pm 2{,}78 * 0{,}023 = 4{,}16 \pm 0{,}064$$

t – Стьюдент коэффициент

2 – жадвал

Лойиҳавий марказдан оғишлар $z_\wedge = 7.6$, $y_\wedge = 8.0$			Силжиш румби ва номи	Силжиш йўналиши
$z_\wedge - z_{0_1}$	$y_\wedge - y_{0_1}$	Δy/Δz		
- 0,06	+ 0,09	1,5	Ж.ШҚ: 56,3099°	α = 123,69°
- 0,03	+ 0,04	1,33	Ж.ШҚ: 53,0612°	α = 126,94°
- 0,04	+ 0,06	1,5	Ж.ШҚ: 56,3099°	α = 123,69°
+ 0,03	+ 0,10	3,33	Ш.ШҚ: 72,2850°	α = 72,21°
+ 0,02	+ 0,03	1,5	Ш.ШҚ: 56,3099°	α = 56,31°

Туннелнинг лойиҳавий марказига нисбатан унинг ишчи (ҳақиқий) марказининг силжиши

$$z_\wedge - z_{ўр} = 7{,}6 - 7{,}616 = -0{,}016,$$
$$y_\wedge - y_{ўр} = 8{,}0 - 7{,}936 = +0{,}064,$$

бўлса туннел марказини силжиши йўналиши

$$tgr\frac{+0{,}064}{-0{,}016} = 4, \quad r = Ж.ШҚ: 75{,}9638°$$

бўлади.

Адабиётлар:

1.Тошпулатов С.А., Хуррамов Ш. “Меморчилик обидалари гумбазсимон сиртини айлана билан аппроксимациялаш” “Архитектура, қурилиш, дизайн” N3, 2013 й, 37-41 бет.

2.Левчук Г. П., Новак В. Е., Лебедев Н. Н. Прикладная геодезия. Геодезические работи при изисканиях и строительстве инженерных сооружений. М., Недра 1983, 398с (249 с).

3.Карпик А.П. Расчёт и оценка точности деформационных характеристик поперечных счений круговых тоннелей. Научные ВАГО, М., 1986 г, 61-70 стр.

4.Саркисян Ю. А. Аппроксимационний синтез механизмов. М., Наука, 1982 г, 300 с.

SAMARQAND SHAHRIDA YANGI TASHKIL ETILADIGAN TUMANLARNI MA’MURIY-HUDUDIY CHEGARALARINI GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KARTOGRAFIK TA’MINLASH

Nishanov Azamat Xakimovich - tayanch doktorant, **Artikov G‘ulom Abduraxmonovich** - t.f.n., dotsent
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ma’muriy-hududiy birliklarga bo‘linish va yer tuzish ishlari tarixini tahlili yoritilgan. Hozirgi kunda, ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibini normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishi keltirilgan. Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda zamonaviy geografik axborot texnologiyalari (GAT)dan foydalanish tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat koordinata tizimi, ma’muriy-hududiy birliklar, nuqtalarning koordinatalari, ortofotoreja, topografik elementlar va chegara chizig‘ining tavsifi, geografik axborot tizimlari (GAT), marza belgilari.

The article analyzes the history of the administrative-territorial division and land management work carried out in the Republic of Uzbekistan. At present, the procedure for determining the boundaries of administrative-territorial units is reflected in the legal documents. It is recommended to use modern geoinformation technologies (GAT) when determining the boundaries of administrative-territorial units.

Keywords: State coordinate system, administrative-territorial units, coordinates of points, orthophotomap, description of topographic elements and border lines, geographic information systems (GIS), boundary markers.

В статье проводится анализ истории административно-территориального деления и землеустроительных работ, проводимых в Республике Узбекистан. В настоящее время порядок определения границ административно-территориальных единиц отражен в нормативно-правовых документах. Рекомендуется использовать современные геоинформационные технологии (ГАТ) при определении границ административно-территориальных единиц.

Ключевые слова: Государственная система координат, административно-территориальные единицы, координаты пунктов, ортофотоплан, описание топографических элементов и линий границы, геоинформационные системы (ГИС), пограничные знаки.

Jahon sivilizatsiyasining qadimiy o‘choqlaridan biri, yer yuzining sayqali nomini olgan Samarqand mustaqil O‘zbekistonning yirik iqtisodiy va ilmiy-madaniy markazlaridan biri hisoblanadi.

Samarqand O‘zbekistonning janubiy-g‘arbiy qismida, Zarafshon vodiysining o‘rta qismida, Darg‘om va Siyob kanallari orasida, dengiz sathidan 725 metr balandlikka joylashgan.

Samarqand shahri 2002-yil holatiga ko‘ra Siyob tumani, Temiryo‘l tumani va Bog‘ishamol tumanlaridan iborat bo‘lgan (1-rasm). Shahar aholisi soni 400 mingga yaqin, yer maydoni 8 730 gektarni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida: **Siyob tumani** - maydoni 3,63 ming gektari, aholi soni 162,5 ming kishi;

Temiryo‘l tumani - maydoni 2,4 ming gektari, aholi soni 115,2 ming kishi;

Bog‘ishamol tumani - maydoni 2,7 ming gektari, aholi soni 109,2 ming kishini tashkil etgan (1-jadval)

1-jadval

Shahar hududining eski ma’muriy bo‘linishi tavsifi (2002-yil holatiga)		
Tumanlar nomi	**Maydoni (ming, ga)**	**Aholisi (ming kishi)**
Siyob tumani	3,63	162,5
Temiryo‘l tumani	2,4	115,2
Bog‘ishamol tumani	2,7	109,2
Jami:	**8,73**	**386,9**



1-rasm

.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning 2021-yil 24-sentyabrda Samarqand shahriga tashrifi chog'ida «Samarqand, Past Darg'om, Oqdaryo va Toyloq tumanlari hududidan 18 ming gektari Samarqand shahar tarkibiga qo'shiladi. Davlat idoralari va ma'muriy xizmatlar tarixiy markazdan yangi hududga ko'chiriladi" degan edi (https://t.me/zarnews_uz/44563). Shundan so'ng, mahalliy hokimliklar va mutasaddi tashkilotlar tomonidan Samarqand shahrini keyingi ma'muriy-hududiy chegarasi bo'yicha taklif ishlab chiqildi.

Joriy yilning 1-yanvar holatiga ko'ra Samarqand shahar aholisi soni 573 mingga yaqin, yer maydoni esa 12 383 gektarni tashkil etadi.

Endilikda, Samarqand shahrini "Millionli shahar"ga aylantirish uchun, shaharga chegaradosh bo'lgan Samarqand, Past Darg'om, Oqdaryo va Toyloq tumanlari xududlaridan qisman yer maydonlarini qo'shish orqali, shuningdek, doimiy ro'yxatdan o'tmagan aholi va talabalar hisobiga shahar aholisi sonini oshirilishi belgilangan. Natijada Samarqand shahar xududida quyidagi 5 ta tuman tashkil etilishi rejalashtirilgan (2-rasm) (https://zarnews.uz/o5s).



2-rasm

Qorasuv tumani - maydoni 7,921 ming gektari, MFYlar soni 33 ta, aholi soni 134,7 ming kishi;

Siyob tumani - maydoni 4,846 ming gektari, MFYlar soni 100 ta, aholi soni 301,3 ming kishi;

So'g'diyona tumani - maydoni 3,741 ming gektari, MFYlar soni 54 ta, aholi soni 184,9 ming kishi;

Bog'ishamol tumani - maydoni 3,246 ming gektari, MFYlar soni 55 ta, aholi soni 170,5 ming kishi;

Maroqand tumani - maydoni 8,333 ming gektari, MFYlar soni 51 ta, aholi soni 226,6 ming kishi.

Samarqand shahrida yangi tashkil etiladigan tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Jami	Qorasuv tumani	Siyob tumani	Sug'diyona tumani	Bog'ishamol tumani	Maroqand tumani
1	Maydoni (gektar)	**28 087**	7 921	4 846	3 741	3 246	8 333
2	Aholisi *(ming kishi) shaharda doimiy ro'yxatda bo'lmagan fuqarolar hisobida*	**1 018**	134,7	301,3	184,9	170,5	226,6
3	MFYlar soni	**293**	33	100	54	55	51
4	Maktablar soni	**137**	18	33	27	23	35
5	MTMlar soni	**141**	12	48	28	26	27
6	Tibbiyot muassasalari	**43**	7	9	11	6	7
7	Yo'llar uzunligi (km)	**1085,8**	224	212,9	185,2	190,8	272,9
	Shundan, umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llari	**89,6**	27	19,4	12	7	24,2
	Ichki xo'jalik avtomobil yo'llari	**996,2**	197,3	193,5	173,2	185,5	246,7
8	Aholi zichligi (1 km^2 ga kishi)	**3 625**	1 701	6 217	4 943	5 253	2 719

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida Samarqand shahri dunyo taniydigan megapolisga, xalqaro turizm va biznes markaziga aylandi. Shu bois, Samarqand shaharini alohida ma'muriy-hududiy birlik sifatida respublika bo'ysunuviga o'tkazishni taklif qildi [1] (https://president.uz/uz/lists/ view/ 5774).

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi 2020-yil 28-avgustdagi O'RQ-635-son Qonuniga ko'ra respublika bo'ysunuvidagi shaharlar – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari bilan aniqlanishi mumkin bo'lgan, strategik ahamiyatga, yirik sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega, shuningdek, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar bo'lgan aholi punktlari hisoblanadi [3].

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi "Ma'muriy-

hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori bilan Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi belgilangan [2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali kosmik suratlar va dronlar va raqamli geodkzik o‘lchov asboblari GPS Magellan Pro Mark-3 yordamida yuqori sifatli ortofotorejalar tuzish hamda ArcGIS dasturi yordamida xaritalar yaratish, shuningdek, Global-Mapper, ArcGIS online dasturlash platformalari yordamida interaktiv va veb- xaritalar yaratishga qaratilgan (3-rasm).



3-rasm

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Fazoviy ma’lumotlar sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 620-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Fazoviy ma’lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 4-bob, 23-bandida bazaviy fazoviy ma’lumotlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralari fazoviy ob’ektlar hisoblanishi qayd etilgan.

Shu bois, Samarqand shahrida tashkil etiladigan yangi tumanlarning ma’muriy-hududiy chegaralarini yuqori aniqlik bilan belgilash va joyida o‘rnatish talab etiladi.

Адабиётлар:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2022.
2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23 apreldagi «Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 299-son qarori.
3.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi «Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida»gi O‘RQ-635-son Qonuni.
4.Eshnazarov D.B., Musaev I.M. Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy uslubiy tavsiyanoma – T.; Fan ziyosi, 2021.
Internet ma’lumotlari:
https://zarnews.uz/o5s
https://t.me/samkadastr/3419
https://t.me/zarnews_uz/44563
https://president.uz/uz/lists/view/5774

UDC 528.44

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI KADASTR XARITALARINI YARATISH VA YURITISH

Xusanova Mashhura Islomovna, katta o‘qituvchi
Isakov Muyassar Komilovich, doktarant (PhD)
Ismoil Omonov Xolboyevich, katta o‘qituvchi
Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish universiteti

Respublikamiz miqyosida yagona geoaxborot tizimlari turli avtomatlashgan boshqaruv, usullar, algoritmlar, dasturlar va texnologiyalarni mavzuli xarita va boshqa ma’lumotlarni raqamli, yoki elektron ko’rinishga keltirish bilan bog’liq bo’lgan masalalar yechimiga e’tibor qaratish ustuvor yo’nalishlari.

Kalit so‘zlar: Aerosur’atga olish ishlarini o’tkazish, raqamli xaritalarni yaratish.

Единые геоинформационные системы на уровне нашей республики являются приоритетными направлениями сосредоточения внимания на решении вопросов, связанных с цифровым или электронным представлением различных автоматизированных средств управления, методов, алгоритмов, программ и технологий.

Ключевые слова: Проведение аэрофотосъемки, создание цифровых карт.

Respublikamizda kartografiya sohasida xarita yaratishning qog’oz ko’rinishidan elektron raqamli ko’rinishiga o’tish, ya’ni grafik axborot tizimidan foydalangan holda xarita yaratishning kompyuterli texnologiyasi, jadal sur’atlar bilan tarraqiy etmoqda. Ma’lumotlarning ko’plab turlarini vaqt o’tishi bilan tez-tez o’zgarib turishi, oddiy usulda tuziladigan qog’ozli xaritadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Bugungi kunda Respublikamiz miqyosida yagona geoaxborot tizimlari turli avtomatlashgan boshqaruv, usullar, algoritmlar, dasturlar va texnologiyalarni mavzuli xarita va boshqa ma’lumot-

larni raqamli, yoki elektron ko'rinishga keltirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar yechimiga e'tibor qaratish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Elektron xaritalar infratuzilmasi oxirgi paytlarda yaratilayotgan raqamli xaritalarni ishlab chiqishga asoslanadi. Elektron xaritalarni yaratish jarayonida dala va kameral sharoitdagi ishlar amalga oshiriladi. Dala sharoitida geodeziya ishlari va elektron xaritalarni yaratish uchun ko'plab xorijiy firma va kompaniyalarning maxsus vositalaridan foydalaniladi.

Shu o'rinda zamonaviy Geografik axborot tizimi – bu ko'p miqdordagi grafikli va mavzuli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyati mavjud modelli va hisobli funksiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma'lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli xulosalar chiqarish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim deb qaraladi.

Hozirgi kunda aniqlik darajasi yuqori bo'lgan kosmik va aerosur'atlardan ishlab chiqarishda keng foydalanilgan holda, raqamli kadastr kartalarni yaratish texnologiyasi yo'lga qo'yilib sohadagi ishlar muntazam ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

Aerosur'atga olish ishlarini o'tkazish uchun maxsus tayyorlangan samolyot yordamida belgilangan balandlikda uchgan holda, ma'lum bir hudud aerosur'atga olinadi. Ushbu aerosur'atlar qayta ishlanib, fototarxlar yaratiladi va fototarxlar dala qidiruv partiyalari mutaxassislari tomonidan dalaga (joyiga) chiqqan holda deshifrovka qilindi. Deshifrovka qilish jarayonida aerosur'atda aks etgan va yuzasidagi barcha elementlarni, xarita ko'rinishida chizib chiqiladi. Yerlarni deshifrovka qilish yo'li bilan aniqlik darajasi yanada oshirilgan fototarxlar skanerlash yo'li bilan kompyuterlarga ko'chirib o'tkazilib, dunyoning yetakchi geaxborot texnologiyalaridan ESRI kompaniyasining "Arc GIS" dasturi orqali chizish ishlari amalga oshiriladi.

Xaritani kompyuter texnologiyasida chizishning afzalligi shundaki, chizilayotgan xaritani o'z miq'yosiga nisbatan bir necha marotaba kattalashtirib olish, ranglarni aniqligi, yaratilayotgan har bitta e'lement (chiziq, nuqta, maydon)ga ma'lumot kiritish, xaritaning cheklanmagan holda nus'halarini chiqarish, eskirgan ma'lumotlarni yangilash, istalgan masshtabda ishlash, yer maydonlari (konturlari)ni maskur dastur orqali hisoblash va Excel dasturiga o'tkazish kabi imkoniyatlar mavjud.

Bundan ko'rinib turibdiki, yaratilayotgan xaritalarning ma'lumot va aniqlik darajasi yuqori bo'ladi. Raqamli xaritalarni yaratishni afzalligi quyidagilardan iborat:

- yer kadastri maqsadlari uchun xaritalar ishlab chiqish;
- yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarni turli masshtabdagi xaritalar bilan ta'minlash;
- xarita yaratish jarayonining eski uslubga nisbatan tezkorligi;
- ma'lumotlarni solishtirish imkoniyatini mavjudligi;
- iqtisodiy jihatdan afzalligi va vaqtning tejamligi.

Geografik axborot tizimida zamonaviy kompyuter dasturlari orqali fazoviy ma'lumotlarni taxlil qilish va xaritalar yaratish jarayoni keskin tezlashadi va oxirgi pirovard natija ham sifatli bo'ladi. Geografik axborot tizimi orqali biz qaror qabul qilish jarayonini keskin ravishda operativlatish imkoniga ega bo'lamiz, xususan prognozlashtiriish, bir necha xil ma'lumotlar bazasini bir vaqtni o'zida taxlil qilish imkonyati mavjud.

Geografik axborot tizimi keng mazmunli ma'lumotlar bazasiga tayangan mukammal rivojlangan tizim hisoblanadi.

Адабиётлар:

1.Mirzaliyev T. Kartografiya.-Toshkent., Universitet, 2006.

2. Mirzaliyev T., Qoraboyev J. Kartalarni loihalash va tuzish.-Toshkent., «Talqin», 2007.

3. Mirzaliyev T., Musayev I. M., Safarov E. Yu. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya.-Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2009.

4.Safarov e., Musayev I., Abduraximov N. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. T.: TIMI, 2008., 160 b.

5.Safarov E.Yu. Geografik axborot tizimlari.-Toshkent., Universitet, 2010.

6.mailto: site@tikhvin. org

7.www.gov.uz/Ergeodezkadastr - O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qumitasi

УДК 528.4

«МУРУНТОВ» КАРЬЕРИ АТРОФИДАГИ ГЕОДЕЗИК ТАРМОҚ ПУНКТЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

Ниязов Воҳиджон Рўзиевич
Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд давлат архитектура – қурилиш университети

Ушбу мақолада «Мурунтов» карьери атрофидаги геодезик тармоқнинг пунктларини топогеодезик текшириш натижалари тақдим этилган. Триангуляция тармоғининг планли ва баландлик пунктлари 1:100000 масштабли картада танланган. GNSS (инглизча "Global Navigation Satellite System", GNSS, ГНСС) ўлчашлари учун топографик картада тасвирланган ГГС нинг (давлат геодезик тармоғи) пунктлари ва реперларини қидириш, рекогносцировкаси амалга оширилган. Ўзбекистон Республикасининг "ELLIPS UDP" корхонаси томонидан янги GPS пунктларини ўрнатишга қўйиладиган талаблар асосида ўрнатилган геодезик сигнал ва марказлар рекогносцировка қилинган. Бурчак ўлчаш ва навигацион асбоблар ёрдамида ўлчашларни бажариш керак бўлган комбинацион геодезик тармоқнинг схемаси ишлаб чиқилди. Ушбу пунктларнинг тўғри бурчакли координаталари одатий координаталар

тизимида кейинчалик глобал геодезик тармоғига қисқартирилиши билан олинади ва баландликлар Болтиқ баландлик тизимида (БСВ-77) ҳисоблаб чиқилди.

Калит сўзлар: карта, масштаб, геодезик пункт, координата тизими, СК42, БСВ-77.

Геодезик тармоқни лойиҳалаш - бу маълум қоидаларга риоя қилган ҳолда ер юзасидаги геодезик пунктларнинг жойлашишини танлаш ҳисобланади. Пунктларнинг зичлиги тармоқ мақсадига мос келиши керак ва тармоқ шакли тахминий аниқлик билан тармоқ элементларининг аниқланишини таъминлаши керак. Геодезик референц тармоғи, геоцентрик координаталар тизими, Ернинг шакли ва гравитацион майдони билан боғлиқ бўлган майдон ўлчашлари ернинг айланиш тезлиги, ер юзасидаги тектоник плиталарнинг ҳаракатланиши ва бошқа таъсирларни ҳисобга олган ҳолда маълум бир даврга туширилиши керак. Агар саноат объектлари ушбу тармоқ яқинида жойлашган ёки қурилган бўлса, унда геодезик пунктларнинг роли фойдали қазилмаларни қазиб олиш натижасида юзага келадиган фазовий ўлчамларнинг ўзгариши туфайли алоҳида мақомга эга бўлади. Шу сабабли, кон қазиш объектларини қуриш пайтида геодезик тармоқнинг планли ва баландлик асосини яратиш муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади.

1960-1990 йилларда бино ва иншоотларни қуриш пайтида бурчак ва чизиқли ўлчашлар оптик теодолитлар ва нивелирлар ёрдамида амалга оширилган. Юқори аниқликдаги сунъий йўлдош навигацион қабул қилувчиларининг пайдо бўлиши билан геодезик пунктларнинг аниқлиги бир неча поғинага ошди [1]. Ушбу қабул қилувчилардан фойдаланишнинг афзаллиги - маълумотларни исталган форматда олиш ва ўлчаш натижаларини тезкор қайта ишлаш имкониятига эга бўлади. Тенглаштиришнинг мавжуд классик усуллари сунъий йўлдош усулларидан геодезик пункт координаталарининг аниқлиги билан фарқ қилади. Классик ва сунъий йўлдош ўлчашларининг комбинацияси «Мурунтов» карьери атрофидаги геодезик пунктлар координаталарини аниқлашнинг тўғри ва аниқ, самарали тизимини очиб беради.

Тадқиқотларда геодезик тармоқни зичлаштириш учун АГМК корхонаси атрофида ва Қарши шаҳри яқинида геодезик пунктларни рекогносцировка қилиш ишлари бажарилган [2,3]. Геодезик пунктлари фойдали қазилмаларни қидириш жойидан турли масофаларда жойлашган «Мурунтов» карьерида ҳам бу каби ишлар олиб борилган.

Ҳажми 28 км^2 бўлган карьер Навоий вилоятида (координаталари $\lambda = 64^0\ 34^/\ 41^{//}$, $\varphi = 41^0\ 29^/\ 45^{//}$, баландлиги H = 199 м) жойлашган. 1-расм (а ва б) да карьер атрофидаги геодезик пунктларнинг жойлашув ҳолати келтирилган. Ушбу ҳудудда сўнгги геодезик ўлчашлар “Геодезия ва картография бош бошқармаси (ГУГК)” нинг 12-бўлими (ҳозирда Марказий аэрогеодезия корхонаси-МАГК) томонидан 1967-1970 йилларда ўтказилган. 1990-1995 йилларда топографик-геодезик ташкилотлар маблағларнинг чекланганлиги ва ўзгариши сабабли геодезик тармоқларни қайта нивелирлаш ҳалигача тугалланмаган.



1 – расм. «Мурунтов» карьер (а – топографик картанинг бир қисми, б – Google маълумоти).

2019 йилда «Мурунтов» карьери атрофидаги ГГС пунктларини рекогносцировкаси Самарқанд аэрогеодезия экспедицияси ходимлари ва Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти (СамДАҚИ) тадқиқотчилари томонидан, Leica GS10 (Швейцариянинг Leica Geosystems корхонасида ишлаб чиқилган) GNSS сунъий йўлдош навигацион қабул қилувчиси қурилмаларидан фойдаланган ҳолда геодезик пунктлар координаталарини дастлабки ҳисоблашлари амалга оширилди.

Рекогносцировка давомида деформациялар ва классик бурчак ўлчашлари учун геодезик пунктларнинг асосий қисмида пирамидаларнинг йўқлиги аниқланди (2-расм а, б). Шу сабабли, мазкур ишнинг мақсади триангуляция ва нивелирлаш усуллари билан олинган топографик картада тасвирланган геодезик пунктларнинг ҳолатини баҳолаш ҳисобланади.

2 - расм. Карьер атрофидаги геодезик пунктларни рекогносцировка қилиш: а - геодезик пункти, б - GNSS ўлчашлари

Маълумки, геодезик тармоқлар нафақат қурилишда, балки, маълум масштабдаги топографик тадқиқотларни амалга ошириб, сигнал пунктлари ёки пирамидалар шаклида бошланғич пунктлари тизими билан бириктириб, фойдали қазилмаларни қидиришда ҳам фаол фойдаланилмоқда [4]. Координаталари маълум бўлган бу пунктлар геодезик референц тармоғини ёки ГГС 1-4 синфини ташкил этувчи тўртбурчаклар ёки учбурчак пирамидаларнинг тузилишини акс эттиради. Зич шаҳарсозлик шароитида улар бинонинг деворларига ўрнатилади, очиқ жойларда - улар тупроққа чукур кириб боради (3-расм а, б). Уларнинг топилишини енгиллаштириш учун жойлар белгиланади. Турли мақсадлар учун референц геодезик тармоғининг пунктларини ётқизиш деформациялар-

ни кузатишда улардан кейинги фойдаланишни ҳисоблаш билан амалга оширилади.

3 – расм. Геодезик сигнал (а- мураккаб, б – пирамида)

Геодезик тармоқлар пунктларини хавфсизлигини таъминлаш учун бир қатор қўшимча ишлар бажарилади, масалан, конструктив схемалар яратиш, реперларни ўрнатиш (4-расм), ориентирлаш, турли хил ҳужжатларни тайёрлаш, геодезик ишларни тегишли структуравий ташкилотлар билан мувофиқлаштириш (келишиш, тасдиқлаш). Одатда, геодезик тармоқ асосини яратиш - бу геодезик тармоқларнинг юқори аниқликдаги пунктларга триангуляция усули ёки теодолит ва нивелирлаш йўлларининг ривожланиши билан конденсацияланишини ифодалайди [5].



4 – расм. Реперни ўрнатиш схемаси

Бошланғич геодезик тармоқларни ривожлантириш бўйича ишлар, шунингдек, фойдали қазилмаларни қидириш билан боғлиқ бўлган маркшейдерлик ишлари давомида амалга оширилади. Барча керакли ўлчашлар геодезик тармоқнинг пунктларидан тахеометрлар, нивелирлар ёки GPS қабул қилувчилар ёрдамида, полигонометрик усуллар ёрдамида амалга оширилади ва уларда пунктлар орасидаги бурчак ҳамда масофа ўлчанади.

Геодезик тармоқларни қуриш бўйича барча ишлар босқичма-босқич қуйидагича амалга оширилади:

1. Лойиҳани ишлаб чиқиш. Ушбу босқичда зарур материаллар йиғилиб ўрганилади, сўровлар ўтказилади, керакли аниқлик ўрнатилади ва тармоқни қуриш усули танланади;

2. Дастлабки тадқиқотлар. Улар ҳудудни рекогносцировка қилишни, ҳудуднинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда керакли геодезик пунктларнинг турлари ва сонини аниқлаштиришни ўз ичига олади;

3. Реперларни ўрнатиш. Геодезик тармоқнинг пунктларини жойга ўрнатиш, жойларни белгилаш, тегишли ҳужжатларни расмийлаштириш;

4. Геодезик съёмкани амалга ошириш. Геодезик вертикал ва горизонтал съёмкаларни (топографик съмка ва бошқа) бажариш;

5. Натижаларни камерал қайта ишлаш. Белгиланган геодезик пунктларнинг координаталарини аниқлаш, тармоқ аниқлигини баҳолаш ва уни тенглаштириш.

Геодезик тармоқларни тенглаштириш ўлчаш натижаларини камерал қайта ишлашнинг ўта муҳим босқичидир. Дала ўлчашларда олинган маълумотлар тармоқдаги ҳар бир пунктнинг аниқроқ координаталарини олиш учун хатоларни ҳисобга олган ҳолда тузатилиши керак, бунда хатолар рухсат этилган маълум чекдан ошмайди ва ўлчаш аниқлиги пасаймайди, лекин аксинча, кўпаяди. Тахеометр ёрдамида олиб борилган ўлчашларни тенглаштириш учун энг кичик квадратлар усулидан фойдаланилади [6]. Бу эса ўлчаш параметрларини танлашга имкон беради. Натижада уларнинг ўрта квадратик хатолари минимал бўлади. Кичик тармоқлар учун ўлчаш қийматларининг бир-бирига математик алоқаларини ўзаро боғлиқлигига асосланиб, тенглаштиришнинг коррелат усули ҳам қўлланилади.

Сунъий йўлдош технологиясидан ва доимий станциядан фойдаланган ҳолда съёмка қилиш ортиқча ўлчашларни ўз ичига олади. Сунъий йўлдош геодезик тармоғини тенглаштириш қуйидаги усуллар билан амалга оширилади:

- ускуналар ишлаб чиқарувчисидан махсус дастурлар ёрдамида;
- учинчи томон дастурларидан фойдаланиш;
- энг кичик квадратлар усули ва бошқа классик усуллар.

ГГС пунктлари 1950-1970 йилларда ўрнатилгандан буён биз навигацион мосламалар ёрдамида ушбу пукнтларнинг тахминий координаталарини аниқладик (1-жадвал).

1 – жадвал.

Карьер атрофида жойлашган геодезик пунктларнинг координаталари

	Географик координаталар		Координаталар (Гаусс-Крюгер)		Баландлик, H
	φ	λ	X	Y	
Мурун зап.	41°31'56"C	64°33'30"B	601007.00	629967.20	816
Канавый	41°30'23"C	64°32'30"B	597913.78	628543.74	597
Солнечный	41°30'31"C	64°37'30"B	598453.76	635629.05	586
Тридцать	41°30'13"C	64°30'37"B	597748.82	626000.00	596
Мутен	41°27'32"C	64°33'46"B	592857.32	630529.27	477
Базисный	41°27'57"C	64°36'18"B	591814.01	634085.60	432
Мутен в	41°27'45"C	64°39'00"B	593377.43	637839.06	427
Бесапан	41°32'45"C	64°28'22"B	602406.85	623443.80	792
Аэро	41°28'48"C	64°37'39"B	595276.95	635900.42	467
Сардара	41°25'28"C	64°38'42"B	589181.61	637522.36	388

Пунктларни рекогносцировка қилиш пайтида кўпгина геодезик пирамидалар сақланиб қолмаганлиги, аммо марказлар асл шаклида сақланиб қолганлиги аниқланди. Бу марказларнинг координаталарини сунъий йўлдош навигацион усуллари билан белгилаш имкониятига асос беради. Гарчи GNSS ўлчашларини қайта ишлаш технологияси классик усуллардан фарқ қилса ҳам, ўл-

чашлар ва ҳисоб-китобларнинг асосий тамойиллари бир хил бўлиб қолмоқда. Бундай ўлчашлар Ellips корхонаси томонидан Trimble R8 GNSS қабул қилувчиси (АҚШ нинг Trimble Navigation Ltd корхонасида ишлаб чиқилган) ёрдамида 2017 йилда сунъий йўлдош геодезик тармоғини зичлаштириш учун ўлчашлар олиб борилган. Карьер атрофида махсус бетонли белгилар ўрнатилган. Бошланғич пункт сифатида карьернинг геометрик маркази ишлатилган.

Бошланғич геодезик тармоғининг съёмка асоси қутбий усул ёрдамида объектлар жойлашган ҳудуднинг контурларини ўлчаш ва улар орасидаги назорат пунктлари боғланишларини ўлчаш орқали горизонталь съёмка амалга оширилган [7]. Геодезик асбобдан асосий контургача бўлган масофа 750 м дан ошмайди, вертикал ва горизонтал съёмкалар биргаликда амалга оширилди. Нивелирлашни амалга оширишда пикетларнинг баландлиги ернинг барча характерли нуқталарида аниқланди (пикетлар орасидаги масофа камида 50 метрни ташкил қилди). Рельефни съёмка қилишда асбобдан устун (вешка) гача максимал масофа 150 метрдан ошмади. Ишчи пунктларнинг координаталари шартли координаталар тизимида ҳисобланган. Бу глобал координаталар тизимига тушганда маълум қийинчиликларни келтириб чиқаради (5-расм).



5 – расм. «Мурунтов» карьери атрофидаги геодезик тармоқнинг жойлашув схемаси

Юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, тоғ-кон объектлари яқинидаги пунктларни рекогносцировка қилиш геодезик ишларнинг ажралмас қисми бўлиб, бу бошланғич пунктларини тиклаш ва реконструкция қилиш билан боғлиқ тупроқ ишларининг ҳажмини камайтиришга имкон беради. Шунингдек янги геодезик тармоғини тўғри лойиҳалаш. СГС пукнтларининг конфигурацияси координата аниқлигини дастлабки ҳисоблаш билан боғлиқ бўлиб, бу ерда ўрта квадратик хатолар ва кўриш зоналари ҳисобга олиниши керак.

Адабиётлар:

1. Мирмахмудов, Э. Р., Ниязов, В. Р., & Аралов, М. М. (2021). Проектирование геодезической сети сгущения в окрестности промышленных объектов. *Инновационные научные исследования*, (5-1), 211-219.

2. Мирмахмудов, Э. Р., Ниязов, В. Р., & Аралов, М. М. (2021). Анализ точности геодезических пунктов топографических карт вблизи промышленных объектов. *Universum: технические науки*, (2-2 (83)), 6-10.

3. Мирмахмудов, Э. Р., Кадыров, Ф. Т., & Ниязов, В. Р. (2021). Рекогносцировка геодезических пунктов в окрестности карьера “Мурунтау”. In *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы современной науки, достижения и инновации* (pp. 158-167).

4. Мирмахмудов, Э. Р., Ниязов, В. Р., Тошонов, Б. Ш. У., & Махаматова, В. У. К. (2021). Анализ метода трилатерации для локальных изменений координат пунктов на геодинамическом полигоне “Таваксай”. *Universum: технические науки*, (6-1 (87)), 28-31.

5. Мирмахмудов, Э. Р., Ковалев, Н. В., Ниязов, В. Р., & Рахимова, М. Х. (2021). Некоторые требования по проектированию опорной геодезической сети сгущения вблизи карьера. *Инновационные научные исследования*.

6. Ниязов, В. Р. (2022). Некоторые требования по проектированию опорной геодезической сети сгущения вблизи карьера. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 560-568.

7. Mirmakhmudov, E., Niyazov, V., Makhamatova, V., & Muminova, N. (2021). Analysis of changes in the coordinates of the “Tavaksay” geodynamic polygon. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 310, p. 03002). EDP Sciences.

8. Abdigofirovich, U.O., Ruzievich, N.V., & Khudoynazarovich, A.G. (2021). Survey (reconnaissance) of geodesic condition of zarband marble mining area. *Research-Jet Journal of Analysis and Inventions*, *2*(05), 406-413.

9. Мирмахмудов, Э. Р., Ковалев, Н. В., Ниязов, В. Р., & Рахимова, М. Х. (2021). Оптимальный метод проектирования геодезической сети сгущения вблизи карьера. *Universum: технические науки*, (6-1 (87)), 83-87.

10. Журакулов, Д. О., Ниязов, В. Р., & Ураков, О. А. Автомобил йўлларини хатловдан ўтказиш ва кадастр маълумотлар базасини яратиш. *Me' morchilik va qurilish muammolari*, 123.

11. Mirmakhmudov, E., Niyazov, V., Tleumuratova, G., & Toshonov, B. GNSS measurements in Uzbekistan for hydrology.

12. Рахимов, У. А. (2022, September). Маданий мерос объектларини жойлашган ўрнини GNSS технологияларидан фойдаланиб аниқлаш. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 168-173).

13. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). Moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastri bo’yicha tematik qatlamlarining atributiv ma’lumotlarini yaratish. In *" Online-conferences" Platform* (pp. 8-12).

14. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). Creation of attributive data of thematic structures of the state cadastre of material cultural heritage objects. In *" Online-conferences" Platform* (pp. 1-5).

15. Раимов, У. А., & Тухтаев, Ш. Х. (2021, October). Геодезический Мониторинг Деформаций Ансанбля Регистан. In *" Online-conferences" Platform* (pp. 96-100).

16. Raximov, U. A., Tojidinova, F. M., & Po’latov, S. S. (2023). Issues of formation of state cadastre data of highways using geographic information system. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *2*(7), 156-160.

17. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., Ilmurodova, L. A., & Tadjidinova, F. M. (2023). Samarqand viloyatini madaniy me’ros obyektlari xaritalarini gat texnologiyasidan foydalanib yaratish masalalari. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *1*(8), 255-257.

18. Рахимов, У. А., & Хамдамов, М. С. (2023). Ге-

опортал системы государственного кадастра и их интеграция между агентствами. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 32-36.

19. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., & O'rozaliyev, B. B. (2023). Existing Class I Height in the Area of Samarkand Current Status of Points. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, *2*(3), 205-208.

20. Рахимов, У. А., Тожидинова, Ф. М., & Рахимов, Б. А. (2023). Спутниковый мониторинг для информационных кадастровых работ. *Ijodkor o'qituvchi*, *3*(28), 97-104.

21. Gulmurodov, F. E., Raximov, U. A., Umirzakov, Z. T., & Jo'rayev, S. X. (2023). O'zbekistonda madaniy meros obyektlarini saqlash va qayta tiklashda 3d texnologiyasining ahamiyati. *Journal of innovations in scientific and educational research*, *6*(4), 500-506.

22. Тожидинова, Ф. М., Бобокалонов, М. Х., & Рахимов, У. А. (2023). Применение данных дистанционного зондирование земли в землепользование и управлении работ в картографии. innovation in the modern education system, 3(29), 427-436.

UDK 629.111

DAEWOO DAMAS AVTOMOBILINI ELEKTROMOBILGA QAYTA JIHOZLASH

Xushvaqtov S. K. – assistent, **Vohidov D.A.** – assistent
Toshkent davlat transport universiteti

Ushbu maqolada benzin yoqilg'isida harakatlanuvchi Daewoo Damas avtomobilini elektromobilga qayta jihozlash ishlari nazariy hisoblarga tayanib olib borildi.

Kalit so'zlar: Elektr dvigatel, akkumulyator batareyasi, $LiFePo_4$, kontroller, DC/DC konvertori, zaryadlash qurilmasi, elektron gaz pedali, IYOD, uzatmalar qutisi, kardanli uzatma, asosiy uzatma.

В данной статье проведено переоборудование автомобиля Daewoo Damas, работающего на бензиновом топливе, в электромобиль на основе теоретических расчетов.

Ключевые слова: электродвигатель, аккумуляторная батарея, LiFePo4, контроллер, DC/DC преобразователь, зарядное устройство, электронная педаль газа, IYOD, трансмиссия, карданная передача, главная передача.

In this article, the conversion of a Daewoo Damas car running on gasoline fuel into an electric car was carried out based on theoretical calculations.

Key words: electric motor, storage battery, LiFePo4, controller, DC/DC converter, charger, electronic gas pedal, IYOD, transmission, driveline, final drive.

Kirish: XXI asr avtomobil sanoati jadal rivojlanish jarayonida avtomobillarga qo'yilayotgan energiya-resurs va ekologik talablar sababli, ko'pgina davlatlar elektromobillar importini oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi hududiga 2021 yilda 809 ta, 2022 yilada 2180 ta elektromobil olib kelingan. Respublika hududida elektromobillarning oshishi ularga texnik xizmat ko'rsatuvchi avtoservis korxonalarning soni ham oshishiga sabab bo'ladi. Buning ortidan elektromobillarga texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarga talab oshadi. Elektromobillar va ichki yonuv dvigatelli avtomobillar orasida konstruktiv jihatdan katta farq yo'q shu sababli mutaxassislarni tayyorlashda muhandislik ishlarini ichki yonuv dvigatelli avtomobil va elektromobil jihozlari orqali ham olib borish mumkin. Bu usul iqtisodiy tomondan ham anchagina qulay hisoblanadi. Biz ushbu maqolada Daewoo Damas ichki yonuv dvigatelli avtomobilini elektromobilga qayta jihozlash ishini nazariy olib borish orqali yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni yoritib beramiz.

Asosiy qism: Daewoo Damas – 1991 yildan ishlab chiqarila boshlangan. Daewoo Damas avtomobili besh eshikli va o'lchamlari 3845x1400x1920 mm bo'lib, bazasi 1840 mm, og'irligi 810 kg, maksimal tezligi 100km/soat ni tashkil qiladi,

Daewoo Damas avtomobilini elektromobilga qayta jihozlash uchun zarur bo'lgan asosiy jihozlar:

- Elektr dvigatel;
- Akkumulyator batareyasi;
- Kontroller;
- DC/DC konvertori;
- Zaryadlash qurilmasi;
- Elektron gaz pedali.

Elektr dvigatel – elektr energiyani mexanik energiyaga aylantirib beruvchi qurilma. Elektromobillar uchun assinxron elektr dvigatellari ishlatiladi.

Akkumulyator batareyasi – elektr dvigatelni elektr energiya bilan ta'minlovchi energiya manbai.

Kontroller - elektr dvigatellarni ishga tushirish (yurgizib yuborish), tezligini rostlab turish, reversirlash (dvigatel o'qining aylanish yo'nalishini o'zgartirish) va to'xtatish uchun mo'ljallangan past kuchlanishli elektr apparat.

DC/DC konvertori - uning vazifasi elektr energiyasining kuchlanish qiymatini o'zgartiradi (DC-direct current). Unda ikkit turdagi voltaj transformatorlari mavjud: kuchlanishni kuchaytiruvchi va kuchlanishni kamaytiruvchi.

Zaryadlovchi qurilma - elektromobilning akkumulyator batareyasini maishiy elektr rozetkasidan invertor orqali zaryad qilish vazifasini bajaradi.

Elektron gaz pedali – elektr dvigatel va elektromobil aylanish tezligini nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Daewoo Damas avtomobilini elektromobilga qayta jihozlash ishi avtomobil vazni va unga ta'sir qiluvchi qarshilik kuchlarini hisobga olgan holda elektr dvigatel quvvatini tanlashdan boshlanadi.

Elektr dvigatel quvvatini hisoblash.

Elektr dvigatelining kerakli quvvati uchun hisobkitoblar 70 km/soat tezlikda, yo'lning qiyalik burchagi 0 daraja bo'lgan holda amalga oshirildi. Daewoo Damas avtomobilini elektromobilga qayta jihozlash ishini avtomobil vazni va unga ta'sir

qiluvchi qarshilik kuchlarini hisobga olgan holda elektr dvigatel tanlashdan boshlanadi:

- ✓ Daewoo Damas avtomobili og‘irligi – 750 kg;
- ✓ Elektrdvigatel og‘irligi 17 kg;
- ✓ Bitta 500 A*soat sig‘imli batareyaning og‘irligi 52 kg. 4 ta batareyadan iborat to‘plam og‘irligi – 208 kg;
- ✓ Kontroller, invertor, elektron gaz pedali, DC/DC konvertori va jihozlarni bir-biriga ulovchi simlarning umumiy og‘irligi 26 kg;
- ✓ 6 ta 75 kg li yo‘lovchi og‘irligi 450 kg;
- ✓ Umumiy taxminiy massa – 1451 kg.

$$W= g* \mu*m*V*\cos\alpha + 0,5*k*S* \rho*V^3 + g*m*\sin\alpha.$$

- k= 0,342 (havoning aerodinamik koeffitsienti);
- S= 1,400 x 1,920 m^2 = 2,688 m^2 (avtomobil kesim maydoni);
- g= 9,81 m/s^2 (erkin tushish tezlanishi);
- m= 1511 (avtomobil vazni);
- μ= 0,018 (asfalt uchun ishqalanish koeffitsienti);
- V= 70 km/soat = 19,44 m/s;
- 12% = 6,8; sin6,8˚=0,12; cos6,8˚=0,99 (yo‘lning qiyalik burchagi)
- ρ= 1,225 kg/m^3

W=9,81*0,018*1451*19,44*0,99+0,5*0,342*
*2,688*1,225*$(19,44)^3$+9,81**1451*0,12 =
=10776 W

Energiyaning bir qismi batareyaning chiqish yo‘lida yo‘qoladi. Harakatga sof energiya sarflanishi kerak. Shuning uchun olingan natijani umumiy quvvatni (0,76 uzatishda, 0,90 elektr dvigatelda, 0,95 kontrollerda, 0,76*0,9*0,95=0,65) taxminan 0,65 ga bo‘lamiz.

10776/0,65=16,6 kW

Hisobga ko‘ra elektromobilga qayta jihozlanayotgan Daewoo Damas avtomobili 12% qiyalikdagi yo‘lda 70 km/soat tezlikda harakatlanish uchun 16043 W quvvatli elektr dvigatel talab qilinadi.

16 kW quvvatga ega bo‘lgan elektr dvigatelga mos energiyaga ega akkumulyator batareyasi tanlandi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Shahar sharoitida elektromobillar 1 km masofa uchun 170-180 W*soat energiya sarf qiladi.

Daewoo Damas elektromobili 100 km masofaga 70 km/soat tezlik bilan qancha vaqt yurishini aniqlaymiz:

t=S/V=100/70=1,42 soat

S- avtomobil bosib o‘tadigan masofa;

V- avtomobil tezligi.

Akkumulyator batareyasi energiya sarfini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

A=N*t

A=16000*1,42=22720 V*A*soat ya’ni 22,72 kJ

buyerda:

A-energiya sarfi;

N- elektr dvigatel quvvati quvvat.

16 kW quvvatga ega elektr dvigatel uchun 48 V kuchlanishga ega akkumulyator batareyasi yetarli.

Kuchlanish va vaqtdan foydalanib akkumulyator batareyasining energiya sig‘imini hisoblaymiz. 22720 V*A*soat/48 V= 473,3 A*soat, bu esa batareya 48 V li 473 A*soat energiya sig‘imiga ega degani. Qish faslida akkumulyator batareyasi energiya sig‘imi 20% gacha kamayadi shuning uchun energiya manbai sifatida $LiFePo_4$, 12V kuchlanish va 500 A*soat energiya sig‘imiga ega akkumulyator batareyasi tanlandi.

Daewoo Damas elektromobiliga energiya sig‘imi 500 A*soat bo‘lgan 48/12 = 4 ta 12 V li akkumulyator batareyasi kerak.

Daewoo Damas avtomobilidan elektromobilga keraksiz bo’lgan jihozlarni olib tashlaymiz (IYOD, uzatmalar qutisi, yoqilg‘i baki, kardanli uzatma va hokozo). Avtomobilning shassisiga akkumulyator batareyalari o’rnatiladi. Elektrdvigatel orqa ko’prik differensialiga asosiy uzatma orqali qiya tishli shesternya yordamida, akkumulyator batareyalari DC/DC konvertori va kontroller orqali elektr dvigatelga va zaryadlash qurilmasiga ulanadi. Elektron gaz pedalini gaz pedali o’rniga o’rnatamiz.

Avtomobilni elektromobilga qayta jihozlash ishlaridan so’ng iqtisodiy masalalarni ko’rib chiqamiz. Quyida narxlar AQSH dollarida hisoblangan:

- ➢ 16 kW quvvatga ega BLDC elektr dvigateli narxi – 500 $;
- ➢ 4 ta 12 V, 500 A*soat energiya sig‘imiga ega akkumulyator batareyasi narxi – 4000 $;
- ➢ Kontroller – 450$;
- ➢ FSC-010 gaz pedali – 150$;
- ➢ Zaryadlash qurilmasi – 150$;
- ➢ simlar va boshqalar uchun - 250$;

Umumiy hisobda Daewoo Damas avtomobilini elektromobilga jihozlash uchun 5500 $ mablag‘ sarflanar ekan.

Elektromobilga qayta jihozlangan Daewoo Damas va benzinda harakatlanuvchi Daewoo Damas avtomobilini 100 kmda yoqilg‘i (energiya) sarflarining narxlarini taqqoslaymiz:

Daewoo Damas avtomobili 100 km masofaga maksimal 9,4 l benzin yoqilg‘isini sarflaydi. O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil hisobida AI-80 markali benzin narxi 6050 so‘m, 9,4 l benzin narxi 56 870 so‘m bo‘lar ekan. +O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil hisobida 1 kW*soat elektr energiyasi 295 so‘m. Elektromobilga jihozlangan Daewoo Damas elektromobilining 100 km masofa uchun sarf qiladigan 16,6 kW*soat energiya narxi 4 897 so‘m.

Xulosa: Olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki O‘zbeksiton Respublikasida benzin yoqilg‘isida harakatlanuvchi Daewoo Damas avtomobili va elektromobilga jihozlangan Daewoo Damas elektromobili 100 km masofa bosib o‘tgandagi yoqilg‘i(energiya) xarajatlari farqi 51 973 so‘mni tashkil qilmoqda.

Адабиётлар:

1.A.A.Muxitdinov, O.K.Adilov, B.Ya.Begmatov, Sh.A.Suvanqulov, G‘.G‘.Egamnazarov, J.N.Abdunazarov “Avtomobillarning ekspluatatsion xususiyatlari nazariyasi” Jizzax-2019.

2.www.goldenmotor.ru

3.http://www.shaxrixonavtoravon.uz

4.https://periodica.org/index.php/journal/article/view/505

5.https://cyberleninka.ru/article/n/elektr-yuritmali-

avtomobillarning-strukturaviy-tahlili

6.Ziyayev K., Vohidov D., Avtomobillar tezligini ko‘cha-yo‘l tarmoqlarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatiga ta’siri, “Transportda resurs tejamkor texnologiyalar” xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani, 2-3 dekabr 2022-yil

7.Ochilov, Abdulaziz Madatovich, Doniyor Azimovich Vohidov, and Diyor Sherbekovich Turg‘unov. "Transport oqimini o ‘rganish uslubi." research and education 1.3 (2022): 168-175.

8.Вохидов, Дониёр, Абруев Шахбос, and Бахтиёр Рахманов. "Охонгарон йўли, паркент ва бирлашган кўчалари кесишмасида йўл инфратузилмасини пиёдалар ҳаракатига таьсири." o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.14 (2022): 216-223.

9.Vohidov, Doniyor Azimovich, et al. "SHAHARDA TRANSPORT OQIMINI BOSHQARISH ASOSLARI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.2 (2023): 1033-1040.

10.Sattivaldiyev, Baxramjon, Abdulaziz Madatovich Ochilov, and Doniyor Azimovich Vohidov. "Toshkent shahar jamoat transportini yaxshilash uslubi." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.2 (2023): 741-746.

11.Abdurazzoqov, Umidulla Abdurazzoqvich, and Doniyor Azimovich Vohidov. "Jamoat transporti yo’nalishlarini tashkil qilish usullari." Results of National Scientific Research International Journal 2.2 (2023): 168-176.

12.O‘taganov Sarvar Qahramon o‘g‘li Abdurazzoqov Umidulla Abdurazzoqovich (TDTrU). Shahar jamoat transport yo‘nalishlarida elektrobuslarni tadbiq etishda dunyo mamlakatlari tajribalari tahlili, YOSH ILMIY TADQIQOTCHI I-Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-y.

13.O‘taganov Sarvar Qahramon o‘g‘li Abdurazzoqov Umidulla Abdurazzoqovich (TDTrU). Jamoat transporti faolyati samaradorligini baholovchi sifat ko‘rsatkichlar tahlili YOSH ILMIY TADQIQOTCHI II- Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2023-yil.

14.Abdurazzoqov U. A., O‘taganov S. Q. Elektrobuslarning energetik samaradorlgini baholash. *Mexanika ва технология илмий журнали, махсус сон 2022*, № 2 (2).

15.Sarvar, O. T. (2021). Avtomobillarga gaz ballonlarini kevlar matosi bilan ximoyalash orqali xavfsizlikni oshirish. *Academic research in educational sciences*, *2*(12), 1057-1062. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1057-1062

16.O‘taganov, S. Q. O. (2021). Avtomobillarga gaz to’ldirish kompressor shaxobchalarida xavfsizlik talablarini takomillashtirish. *Academic research in educational sciences*, *2*(1), 698-706.

17.O‘taganov Sarvar Qahramon o‘g‘li Shaxar jamoat transportida shovqin va chiqindi gazlardan xoli elektrobuslar rivojlanish tendensiyasi, “TRANSPORTDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR” xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani. 2022 yil 2-3 dekabr

18.O‘taganov Sarvar Qahramon o‘g‘li Abdurazzoqov Umidulla Abdurazzoqovich (TDTrU). Shahar jamoat transport yo‘nalishlarida elektrobuslarni tadbiq etishda dunyo mamlakatlari tajribalari tahlili, YOSH ILMIY TADQIQOTCHI I- Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil.

19.O‘taganov Sarvar Qahramon o‘g‘li Abdurazzoqov Umidulla Abdurazzoqovich (TDTrU). Jamoat transporti faolyati samaradorligini baholovchi sifat ko‘rsatkichlar tahlili Yosh ilmiy tadqiqotchi II- Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2023-yil.

20.Abdurazzoqov U. A., O‘taganov S. Q. Elektrobuslarning energetik samaradorlgini baholash. Механика ва технология илмий журнали, махсус сон 2022, № 2 (2).

21.Sarvar, O. T. (2021). Avtomobillarga gaz ballonlarini kevlar matosi bilan ximoyalash orqali xavfsizlikni oshirish. Academic research in educational sciences, 2(12), 1057-1062. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1057-1062

22.O‘taganov, S. Q. O. (2021). Avtomobillarga gaz to’ldirish kompressor shaxobchalarida xavfsizlik talablarini takomillashtirish. Academic research in educational sciences, 2(1), 698-706.

23.O‘taganov Sarvar Qahramon o‘g‘li Shaxar jamoat transportida shovqin va chiqindi gazlardan xoli elektrobuslar rivojlanish tendensiyasi, “TRANSPORTDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR” xalqaro ilmiy-texnikaviy anjumani. 2022 yil 2-3 dekabr

SAMARQAND SHAHAR CHORRAHASIDA TRANSPORT OQIMINI BARTARAF ETISH YO’LLARI

Primova X.A[1]., professor; **Abdullayev A.A[2].** asisstetnt
[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali
[2]Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Xozirda katta shaharlarda, ayniqsa, shaharning markaziy qismlarida yo’l harakatini tashkillashtirish katta va yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Transport vositalarining yo’llardagi harakatining qisman tashkillashtirilganligi yoki shaharlarda transportlar harakatini keskin yaxshilashda yo’llar qurilishini o’zgartirish talab etadi. Hozirda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng dolzarb muammoga aylangan tirbandlik va yo‘l transport hodisasiga chorrahalar muammosiga bog‘liqligi o’rganiladi. Chorrahada transport muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari va chorrahalarning samaradorligini tashkil qilishni loyihalash, ularning ishini samarali tashkil etishda intellektual transport tizimlaridan foydalaniladi.

В настоящее время организация дорожного движения в крупных городах, особенно в центральных районах города, является одной из больших и нерешенных проблем. Частичная организация движения на дорогах или кардинальное улучшение движения в городах требует изменений в дорожном строительстве. Изучена взаимосвязь между дорожным движением и дорожным движением, ставшая наиболее актуальной проблемой для развитых и развивающихся стран. Интеллектуальные транспортные системы используются для проектирования задач движения на перекрестке и способов их решения, а также для проектирования организации работоспособности перекрестков, для эффективной организации их работы.

Currently, the organization of traffic in large cities, especially in the central areas of the city, is one of the big and unresolved problems. The partial organization of traffic on the roads or the radical improvement of traffic in cities requires changes in road construction. The relationship between traffic and traffic, which has become the most urgent problem for

developed and developing countries, has been studied. Intelligent transport systems are used to design traffic tasks at the intersection and ways to solve them, as well as to design the organization of the performance of intersections, for the effective organization of their work.

I. Kirish. Yo‘l harakatining xavfsizligi va transport va yo‘lovchilar oqimini boshqarishning samaradorligi yo‘l harakatini boshqarish tizimi dasturiy-texnik vositasining ishonchligi va xatoliklarga bardoshli ekanligi bilan baholanadi. Shuning uchun yo‘l harakatini tashkillashtirish va transport oqimini boshqarish tizimini ishlab chiqishda aloqa va boshqarishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday tizimlarni ishlab chiqish hozirgi kun talabi va dolzarb masalasi hisoblanadi.

Bugungi kunda katta shaharlarda, ayniqsa, shaharning markaziy qismlarida yo’l harakatini tashkillashtirish katta va yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu muammoni avtomobillashtirish darajasining ortishi tufayli yuzaga kelganligi bilan izohlash mumkin. Transport vositalarining yo’llardagi harakatining qisman tashkillashtirilganligi yoki umuman tashkillashtirilmaganligi harakat xavsizligiga daxl solibgina qolmasdan, ko’cha tarmog’ining o’tkazish qobiliyatini keskin kamaytiradi.

Shaharlarda transportlar harakatini keskin yaxshilashda yo’llar qurilishini o’zgartirish, ya’ni ko’priklar, tonnellar qurish yechimi uzoq muddatli hisoblanadi, lekin bu yechim yetarlicha katta moliyaviy va vaqt sarfini talab etadi. Mazkur muammoni moliyaviy va vaqt sarfisiz hal etishni shahar yo’llar tarmog’ida transport harakatini boshqarishning kompyuterlashtirilgan avtomatik tizimini qo’llash orqali hal etish mumkin.

Yo’l harakatining xavfsizligi, transport va yo’lovchilar oqimini boshqarishning samaradorligi yo’l harakatini boshqarish tizimi dasturiy-texnik vositasining ishonchligi va xatoliklarga bardoshli ekanligi bilan baholanadi. Shuning uchun yo’l harakatini tashkillashtirish va transport oqimini boshqarish tizimini boshqarish tizimini ishlab chiqishda aloqa va boshqarishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday tizimlarni ishlab chiqish hozirgi kun talabi va dolzarb masalasi hisoblanadi [1, 2].

Shaharlarning transport tarmog'ida trafikni boshqarish algoritmlari transport oqimlari modellariga asoslangan boshqaruv tizimlari keng qo'llaniladi. Modellarning aniqligi va murakkabligiga qo'yiladigan talablar nihoyatda yuqori. Eng oddiy chorrahada transport vositalari harakatining 12 yo'nalishi bo'lishi mumkinligini aytish kifoya. Yo‘l tarmog‘ining 10 ta shunday chorrahadan iborat uchastkasi uchun gap 120 ta yo‘nalish haqida ketmoqda va bu yo‘nalishlarning har birida harakat intensivligi vaqt va makonda doimiy o‘zgarib tursa, kechikishlarni minimallashtirish zarur.

Modellashtirishning turli yo'nalishlari va yondashuvlarining paydo bo'lishi transport oqimlarining harakati olimlar hamjamiyatining ilmiy platformasini yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Ko'pchilik uchun yillik xalqaro simpozium “Transport va yo'l harakati nazariyasi ” va “Trafik va Granular oqimi” (2011 yilda Moskvada bo'lib o'tgan) muhim voqealar bo'ldi. Trafik oqimi xususiyatlari modellashtirish obyekti sifatida Trafik oqimlarini modellashtirishga qanday yondashuvlar bo'lishidan qat'iy nazar ularning rasmiylashtirilishini murakkablashtiradigan bir qator xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish zarur [2].

Rossiya transport tizimining yanada rivojlanishi, yo'l tarmog'ining kengayishi va ulanishining ortishi, multimodal transportning rolini oshirish, intellektual transport tizimlarini joriy etish asosiy transport yo'laklarining yo'l tarmoqlarining tirbandligi muammosi transport modellaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi [3, 4] .

Svetaforlarda tirbandlikni oldini olish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yildan yilga mashinalar ko’payishi bu muammoni yechishni yanada qiyinlashtirmoqda. Bunday tirbanliklar ko’paygani sari to’qnashuvlar va piyodalarga ham tan jarohat yetkazish soni ham statistikaga qarasak yildan yilga o’sib bormoqda. Dunyo bo'ylab xavfsizlik va uzluksizlikni ta'minlash uchun yo'l harakati menejerlari FLIR aqlli texnologiyasidan yo'llarda transport oqimi va transport tizimlarini yaxshilash uchun foydalanadilar. Transport harakatini boshqarishda FLIRni aniqlash va nazorat qilish yechimlari transport oqimlarini boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash uchun muvaffaqiyatli yordam beradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, avtomagistral va tunnellarda hodisalarni aniqlash, ma'lumotlarni yig'ish yo'l harakati va umumiy foydalaniladigan temir yo'llarning xavfsizligini ta'minlashda ham FLIR dasturi juda katta yordam beradi. Chorrahada va shahar transport oqimlarini samarali tashkil qilishda svetoforni boshqarishga FLIR trafik sensori regulyatorlarga ruxsat beradi. Ular shuningdek piyodalar, velosipedchilarning harakati va og'ir transportda xavfsiz harakatni optimallashtirishga yordam beradi [3].

Baxtsiz hodisalarning oldini oladi. Bundan tashqari, termal tasvir yong'inlarni erta aniqlashga imkon beradi yo'lovchi avtoulovlarida va dispetcherlarga yo'lovchilar borligini nazorat qilishda yordam beradi.

II. Chorrahada transport oqimi muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari.

Shahar ko‘cha va yo‘llarida bugungi kunda yo‘l transport hodisalari sodir bo‘lishiga, tirbandlik hosil bo‘lishiga asosiy sabablardan biri bu chorrahalardagi svetaforlarning ishlash printsipi to‘g‘ri qo‘yilmaganligi va yo‘l cheti bo‘ylab to‘xtab turish joylarining borligi hisoblanadi. Bunday holatlarni kamaytirish va bartaraf etish soha mutaxasislari uchun muammoga aylangan masaladir. Birgina svetaforlarning fazalar kesmida to‘g’ri qo’yilmaganligi tirbandlik va yo‘l transport hodisasi ko‘payishi ehtimolligini oshiradi. Harakatlanishda noqulayliklarga olib keladi. Masalan, Samarqand shahridagi Ibn Sino va Dahbed ko’chalarni kuzatish natijalari yuqorida keltirilgan fikrlarni tasdiqlaydi (1-rasm)

Tirbandlik va harakatlanish uchun noqulaylik

holatlarni hozirgi kunda mamlakatimiz har bir shahar markazlarida yaqqol uchratishimiz mumkin.

Mazkur maqolada tadqiqot obyekti sifatida Samarqand shaharining Ibn Sino va Dahbed ko'chalari kesishmasi tanlab olindi (1-jadval).

1-jadval

"Ibn Sino va Dahbed" chorrahasining transport oqimi

Qatnov qismining birinchi tomoni	Dushanba	seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba
7:08	1110	1210	1478	1452	1562	1482	985
8:09	1758	1865	1854	1875	1885	1875	1100
9:10	2122	2100	2210	2142	2145	2089	1100
10:11	1850	1758	1897	1789	1689	1850	1152
11:12	1589	1576	1587	1489	1489	1468	1120
12:13	1895	1945	1977	1885	1884	1852	1122
13:14	1758	1688	1710	1565	1548	1573	1200
14:15	1885	1458	1876	1763	1695	1785	1130
15:16	1869	1755	1785	1689	1452	1489	1100
16:17	1899	1978	1888	1778	1852	1881	1103
17:18	1968	1982	1954	1895	1786	1785	1201
18:19	1789	1796	1775	1785	1897	1752	1113
19:20	1200	1125	1120	1129	1100	1052	850
20:21	487	428	389	387	345	385	203
21:22	221	224	241	224	210	205	127

Ushbu hudud Samarqand shahridagi aholi ko'p tashrif buyuradigan obyekt hisoblanadi. Ibn Sino, Dahbed ko'chalari kesishmasi yaqinidagi aholi tig'iz joylashgan. Shuning uchun Ibn Sino va Dahbed ko'chalaridagi yo'llarda, ayniqsa darslar boshlanish va tugash vaqtlarida ya'ni, "peak time" vaqtlarida yo'llarda tirbandlik va harakatlanishda haydovchi va piyodalarga noqulayliklar, afsuski ko'plab yo'l transport hodisalari yuzaga keladi.

Harakat xavfsizligini ta'minlash uchun ko'cha sharoitida avtomobillarni joylashtirishda hamda xavfsiz harakatlanishga ta'sir etadigan barcha elementlarini tahlil qilib olindi. Bugungi kunda yo'l qatnov qismi bo'ylab avtomobillar to'xtab turishi ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shaharlardagi tirbandliklar muammosi aslida to'xtash joyiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi tafovut mavjudligi bilan bog'liq hisoblanadi. Shu sababdan avtoturargohlarni tashkil qilishdan oldin unga bo'lgan talab atroflicha o'rganilishni talab qiladi. Ko'rsatilayotgan ob'ektni tahlil qilishda haydovchining transport vositasini joylashtirish uchun joy qidirishga sarflaydigan vaqti, tirbandlikning o'rtacha darajasi, ob'yekt avtoturargohga avtomobillarni kun qismlarida joylashtirilishining o'rtacha soni asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shu sababdan, transportni ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar atrofidagi avtoturargohlarning sig'diruvchanlik qobilyatini talab darajasida ekanligi yoki yo'qligini unga yondosh ko'cha chetida to'xtab turgan avtomobillarning harakat oqimiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini PTV VISSIM dasturi orqali o'rganildi va tahlil qilindi. Avtoturargohda xizmat ko'rsatilish sifatini oshirish maqsadida respublikamizdagi shahar ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar atrofidagi avtoturargohlarning sig'diruvchanlik qobilyatini darajasini oshirish borasidagi ishlarni oshirish zaruriyati tug'ildi.



1-rasm. "Ibn Sino va Dahbed" chorrahasining transport oqimi grafigi

2-rasm . PVT vissim dasturida yaratilgan kompyuter modeli (Joriy holati).

Bu muammolarni hal qilishda PTV Vissim dasturidan foydalangan holda transport modelini yaratishimiz mumkin (3-rasm).

Belgilangan tadqiqot obyektimizni joriy holatni aniqlash uchun kunning tig'iz vaqtidagi transport oqimini 1-soatlik harakatini video tasvirga olindi va kompyuter modelini yaratish hamda tahlil qilish uchun chorrahadan o'tgan avtomobillar miqdorini analitik sanash orqali 04.02.2021 sanadagi kunlik va kechki tig'iz paytidagi bir soatlik qiymatlari hisoblandi (4-rasm). Amalda transport oqimi miqdori va ko'chaning o'tkazish sig'imini aniqlashda tezlik yoki safar vaqti transport xizmati sifatining muhim ko'rsatkichli o'lchovidir. Chorrahalarda transport vositasining tezligi emas, ularning kechikish ko'rsatkichlari asosiy o'lchovdir. Bu shahar ko'chalari uchun xizmat ko'rsatish darajasini belgilaydi va samaradorlikning muhim o'lchovidir.

Tartibga solingan chorrahaning sifatini baholash samaradorlikning ba'zi o'lchovlarini tasvirlash qiyin. Imkoniyatlarni tahlil qilish va simulyatsiya qilishda bir qator chora-tadbirlar mavjud bo'lib, ularning barchasi tartibga solingan chorrahani kesib o'tgan piyoda yoki haydovchining tajribasi ko'p jihatlariga bog'liq bo'ladi. Eng keng tarqalgan o'lchov choralari transport vositalarining o'rtacha kechikishi, tirbandlikning o'rtacha uzunligi va avtomobil to'xtashlar soni. Ushbu uchta ko'rsatkich tartibga solingan chorrahalarda eng ko'p ishlatiladigan samaradorlik o'lchovidir, chunki, u haydovchi tomonidan to'g'ri-

dan-to‘g‘ri qabul qilinadi. Ko‘pgina o‘rganilgan manbalar shuni ko‘rsatdiki, shaharlarda svetoforli chorrahalarning o‘tkazish qobiliyati soatiga 1400 dan 1800 tagacha tashkil etadi [23]. Boshqariluvchi chorrahalarni baholashda xizmat ko‘rsatish darajasi **(LOS)** bilan ham baholanadi (4-jadval).

3-jadval

Xizmat ko’rsatish darajasi (LOS)

LOS	(sek/avto)
A	≤ 10
B	> 10 – 20
C	> 20 – 35
D	> 35 – 55
E	> 55 – 80
F	> 80

Shahar ko‘chalarida mavjud sharoitlar bir-biridan keskin farq qilishi mumkin va to‘xtab turish joylari, tranzit avtobuslar, yo‘lning kengligi, atrofidagi bog‘lovchi chorrahalar va boshqa omillar hamda kuzatilayotgan hajmlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [35]. Muayyan sharoit uchun yaratilgan kompyuter modeli natijalariga ko‘ra turli fazali svetoforlarni samarali boshqarish, harakatni to‘g‘ri tashkil qilishni tekshirish mumkin hamda sharoitga mos muqobil variantni tanlash imkoniyati mavjud.

III. Olingan natijalar

Ushbu tadqiqot ishimizda joriy holatdagi natijalarni tahlil qilgan holda, chorrahani o’tkazuvchanligini oshirish uchun kechikish vaqtini kamaytirish va svetaforlarni vaqt parametrlarini optimallashtirishning bir necha nazriy metodlardan foydalanilgan holda ko`rib chiqildi. Svetaforni vaqt parametrlarini optimallashtirish orqali PTV Vissim dasturida quyudagi natijalarga erishildi.

Dastlab svetaforni fazalarini PTV Vissim dasturining “Intergreen matrix” faza turi orqali svetaforni joriy holatdagi vaqt parametrlari bilan optimallashtiriladi.

Tadqiqod obyekti ko’cha harakatini boshqarishning eng yaxshi samarali yechimi PTV vissim dasturiy kompleks yordamida aniqlandi. Bir soatlik tahlil davri uchun har bir transport vositasiga o‘rtacha kuzatilgan o‘lchov ko‘rsatkichlari nuqtai nazaridan baholandi. Dastur orqali svetaforlarni optimallashtirgandan keyin fazalar kesimida quyudagi ikkita natijani olindi (4-rasm). Birinchi optimallashtirishda sikl uzunligi 60 sekunddagi fazalar kesimini vaqt parmetrlarini optimallashganda dastur quyudagi natijani berdi.



3-rasm. Svetaforni fazalar kesimida vaqt parametrlari (optimallashgan holat)

O’rganilgan obyektimizni joriy holatdagi chorrahani sikl davomiyligi 120 sekundligi anqilangandi va dastur orqali sikl uzunligini o’zgartirmagan holda fazalar kesimida optimallashtirganimizda fazalarga kelayotgan transport soniga qarab optimallshadi. Shu sababdan, transportlarning chorrahada o’tkazuvchanlik qobilyatini va xizmat ko‘rsatilish sifatini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan miqdorini aniqlash, respublikamizdagi shahar markaziy chorrahalarning sig’diruvchanlik qobilyatini darajasini oshirish borasidagi ishlarni oshirish zaruriyati tug‘ildi.

4-rasm. Samarqand shaharning Ibn Sino va Dahbed ko‘chalarining PTV VISSIM dasturida 2D ko‘rinishi

PTV Vissim dasturida oligan natijalarimizni tahlil qilganda birgina fazalar kesmida chorrahani optimallashtirganimizda o’tkazuvchanlik darajasi, tirbandlik uzunligi, o’rta kechikish vaqti yoqqol o’zgarganini ko’rishimiz mumkin. Komputer modelini yana bir qulaylik tamonlaridan biri oldindan tassavur qilish uchun yartilgan modelni visul ko’rishimiz mumkin (3-rasm). Bunday turdagi tadqiqodimizni amalyotga joriy etishning **iqtisodi**y va **ekologik** afzalliklari:

- chorrahalarda tirbandlik oqibatida dvigatel salt rejimida ishlab turish vaqtidagi bekorga sarflanayotgan yonilg‘ini tejash;
- ko’rsatilgan sharoitdayonilg‘initejash hisobiga atmosferaga chiqarib yuborilishi mumkin bo’lgan zararli moddalarning miqdorini keskin kamayishi;
- yo’l harakati qatnashchilari haydovchi, yo‘lovchi yoki piyodaning harakatlanishiga sarflanayotgan vaqtini iqtisod qilish.

IV. Xulosa

Hozirda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eng dolzarb muammoga aylangan tirbandlik va yo‘l transport hodisasiga chorrahalar muammosining bog‘liqligi o’rganildi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tahlillarga ko‘ra ko‘cha bo‘ylab to‘xtab turish joylaridagi transport vositalari harakatlanish xavfsizliklariga sezilarli darajada ta`sir ko‘rsatishi bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda, chorrahada transport muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari va chorrahalarning samaradorligini tashkil qilishni loyihalash va ularning ishini samarali tashkil etishda intellektual transport tizimlaridan foydalanish yetarli darajada keltirilmagan. Xorij tajribalarini o‘rganish hamda hudud misolida joriy etish masalasini ilmiy asoslangan holda yechish kerak bo‘ladi.

Sanab o‘tilgan muammolarni yuqori darajadagi aniqlik bilan yechish va ishonchli ma’lumotlar

bazasiga ega bo‘lish uchun intelektual transport tizimi kompleksini (ITTK) yaratish taklif etildi.

Адабиётлар:

1.А.А. Власов Теория транспортных потоков // Теория транспортных потоков: моногр. // А.А. Власов. – Пенза: ПГУАС, 2014. – 124 с.

2.Holida Primova, Qodir Gaybulov, Ismoil Isroilov Selection of building material using the decision-making system //International conference on information science and communications technologies: applications, trends and opportunities November 3-5, 2021 http://www.icisct2021.org/

3. Примова Х.А., Исроилов И.Э., Кодиров А.С. Транспорт оқимлари ҳаракатини лойиҳалаш //“Zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalari va AT-ta’lim tatbiqi muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani 9 aprel 2022-yil, Samarqand, 64-66 betlar.

4.João Miguel, Gomes Rodrigues, Valente Neves. The impacts of bus lanes on urban traffic environment, 2006.

5.Muhitdinov A.A., Qutlimuratov Q.R. Turatov B.R va Abduraxmonov R.A. PTV Vissim dasturiy kompleks yordamida boshqariladigan chorrahadagi transport vositalarining tirbandligi va kechikishini hisoblash.

6. Primova X.A., Isroilov I. Transport oqimlari harakatini modellashtirish // O‘zbekiston Milliy Axborot agentligi Ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal), Toshkent, 2022 yil, fevral, 306-316 betlar.

УДК 528.45

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ГЕОДЕЗИЧЕСКОЙ СЕТИ СГУЩЕНИЯ В ОКРЕСТНОСТИ КАРЬЕРА “МУРУНТАУ”

Ниязов В.Р. Самаркандский государственный архитектурно – строительный университет

В данной статье приведена методика проектирования геодезической сети сгущения вокруг промышленных объектов. Описаны основные требования к исходной сети и определяемым пунктам. Особое внимание уделяется на конфигурацию геодезической сети, высоту геодезических знаков и азимуту направления. Анализируются вопросы оценки точности геодезических сетей на стадии проектирования.

Для определения стабильности пунктов исходной геодезической основы с использование GPS приемника предлагается выполнить дополнительные контрольные измерений. В качестве модельных расчетов были использованы пункты геодезической сети карьера “Мурунтау”. Построена схема сгущения сети с подготовкой данных для предварительного расчета точности координат.

Ключевые слова: проектирование, карьер, точность координат, ГГС, геодезический пунк,GPS.

Проектирование геодезической сети - это выбор местоположения пунктов на поверхности с соблюдением определенных инструкций, где плотность должна соответствовать назначению сети, а форма обеспечить определение элементов сети с расчетной точностью. Указанные действия выполняются в камеральных условиях, имея в наличии топографические карты крупного масштаба и результаты рекогносцировочных работ окрестности промышленного объекта. После завершения камеральных работ, приступают к полевым топогеодезическим измерениям [1]. Полевые измерения, связанные с геоцентрической системой координат, фигурой и гравитационным полем Земли, должны быть редуцированы на определенную эпоху с учетом вариации скорости вращения земли, движения земной коры и других эффектов. А если вблизи этой сети расположены или построены промышленные объекты, то их роль приобретает особый статус из-за изменения размеров, обусловленные добычей полезных ископаемых. Поэтому в период строительства промышленных объектов одной из важных направлений работ – это проектирование геодезической сети сгущения. Этот процесс является одной из основных частей топографических работ, связанных с определением координат пунктов вблизи административных городов, карьеров и гидросооружений [2]. Тщательным образом выполняется подготовка к инженерно-изыскательским работам, где используются классические геодезические пункты и современные навигационные приборы [3]. Обязательное требование при ГНСС измерениях – это привязка к государственной геодезической сети (ГГС) с соблюдением всех положений, закрепленных в инструкции по построению и рекогносцировке опорных геодезических сетей [4]. Прежде всего, изучается район в топографо-геодезическом отношении, выбирается метод триангуляции или полигонометрии и точность построений сети. Особо следует обратить внимание на конфигурацию геодезической сети, высоту геодезических знаков и азимут направления. При этом используется топографическая карта масштаба 1:100 000, но для обзорных схем сетей достаточно иметь карты масштаба 1:300 000 – 1:500 000, где отождествляются пункты прежних геодезических построений рядов 1-4 классов [5]. В местах со сложным рельефом норма плотности пунктов может быть снижена, но не более чем в 1.5 раза. Например для городов с населением не менее 100 000 жителей и площадью не менее 50 км^2 норма плотности составляет в среднем 1 пункт на 5-15 км^2. Ряды триангуляции и линии полигонометрии 1 класса проектируется в соответствии с общей схемой развития астрономо-геодезической сети, соблюдая все требования, описанные в положении и инструкции [6]. В звеньях полигонометрии 1 класса, в которых число сторон более 10, определяют пункты Лапласа на концах стороны, находящейся примерно в середине звена. Наилучшей формой привязки, которая обеспечивает кратчайший переход от сторон 1 класса к необходимым по длине сторонам 2 класса, является геодезический четырехугольник (рис.1). Сети 3 класса проектируют в виде систем

треугольников, жестко связанных со сторонами треугольников 2 класса. Сети триангуляции 4 класса проектируют в тех случаях, когда геодезическое обоснование создается для топографических съемок масштаба 1:5000 и крупнее.



Рисунок 1 - Геодезический четырехугольник и треугольник

Обязательным этапом в проектировании должна быть оценка точности отдельных ее элементов и установление соответствия полученных результатов заданным требованием [7]. В целях ослабления влияний внешней среды на результаты угловых и линейных измерений требуется, чтобы визирные лучи в триангуляции и полигонометрии 1 класса проходили над препятствиями местности не ниже 4-6м в южных районах. Высоты знаков вычислен приближенно, так как высоты точек земной поверхности, взятые с карт масштаба 1:100 000 с сечением рельефа через 20 м, определяются со значительными погрешностями. Несмотря на то, что проектная высота каждого отдельного знака получена приближенно, в целом по объекту удается определить достаточно уверенно среднюю высоту геодезических знаков над их центрами. Возникает необходимость априорной оценки точности определения уравненных элементов сети:

$$\sigma_F = m\sqrt{\frac{1}{P_F}} \quad , \qquad (1)$$

Где σ_F и m - средние квадратические ошибки функции и единицы веса, $\sqrt{\frac{1}{P_F}}$ - обратный вес оцениваемого элемента сети или уравненных величин.

Формулу (1) можно использовать не только на стадии предварительного расчета точности построения сети, но и при уравнивании. Разница состоит только в определении m, которая в процессе уравнивания вычисляется по формуле

$$m = \sqrt{\frac{[pvv]}{r}} \quad , \qquad (2)$$

где $v -$ поправки из уравнивания к непосредственно измеренным с весами p величинам, r - число избыточных измерений в сети.

Так как направления и расстояния измеряются с однотипными инструментами, то целесообразно веса измеренных величин приравнять единице. Обычно величина m задается заранее и она достаточно хорошо известна из практики геодезических измерений. Поскольку она известна, то задача определения σ_F уравненных величин сводится к вычислению обратного веса этой функции. Ошибки измеренного направления уверенно определяется по невязкам треугольников.

$$\sigma = \sqrt{\frac{[\omega^2]}{3n}}, \qquad (3)$$

где $n \geq 25$-30 число невязок, ω – невязка.

Используя компьютерную технологию можно определить коэффициенты матрицы нормального уравнения N и обратную к ней матрицу Q весовых коэффициентов

$$N^{-1} = Q = \begin{pmatrix} Q_{11} & Q_{12} \cdots & Q_{1m} \\ Q_{21} & Q_{22} \cdots & Q_{2m} \\ \cdots & \cdots & \cdots \\ Q_{m1} & Q_{m2} & Q_{m1} \end{pmatrix} \qquad (4)$$

В связи с широким внедрением компьютеров в практику геодезических работ данный метод априорной оценки точности построения геодезических сетей становится одним из основных, позволяющих получить наиболее достоверные величины оцениваемых элементов сети, причем независимо от ее сложности. На практике широко применяют приближенные формулы для априорной оценки точности различных элементов геодезических построений. Достоинством их является оперативность получения удовлетворительных значений оцениваемых элементов сети. Необходимо обратить внимание на то обстоятельство, что в сети триангуляции 2 класса, уравненной внутри полигона 1 класса за все возникающие условия, происходят заметные искажения уравненных элементов сети 2 класса из-за влияния ошибок исходных данных. Эти искажения наибольшей величины достигаются на краях сети 2 класса и нелинейно уменьшаются в направлении к центральной части сплошной сети, они становятся незначительными.

Описанные выше требования относятся к традиционной геодезической сети. Однако если использовать GPS приемники, то исключаются некоторые условия параметрического метода уравнивания. Особенно это относится к методу трилатерации, где основным параметром измерений является расстояние, определяемой с помощью электронных тахеометров, лазерных сканеров и ГНСС. Помимо этого, пункты опорной геодезической сети теряют свою стабильность из-за деформации грунта, обусловленной техногенными процессами. В такой ситуации невязки условных уравнений параметрического метода будут обусловлены, как ошибками геодезических измерений, так и погрешности исходных данных, вызванных потерей стабильности пунктов исходной основы. В результате возникает задача разработки методики построения GPS сети и алгоритма обработки спутниковых измерений, позволяющих выполнить контроль стабильности исходной основы.

Для определения стабильности пунктов исходной геодезической основы с использованием GPS приемника необходимо выполнить дополнительные контрольные измерений не менее чем между тремя пунктами (рис.2).

Контроль стабильности исходных пунктов заключается в поочередном принятии в качестве исходного трех пунктов геодезического обоснования и сравнение полученных координат с их разностями между координат ГГС и GPS. Реше-

ние данного вопроса может быть реализовано в виде уравнивания свободных геодезических сетей, находя матрицу весовых коэффициентов исходной сети, что не всегда представляется возможным [9].



Рисунок 2 - Использование GPS для исходной системы

Вышеуказанные требования были реализованы для горно-добывающего объекта Узбекистана. Для тестовых измерений был выбран карьер “Мурунтау”, который был открыт в 1958 году геофизиками Мордвинцевым Ю. и Храмышкиным П., а промышленная добыча началась в 1969 году. Последние геодезические измерения были выполнены в 1967-1970гг. аэрогеодезическим предприятием №12 главного управления геодезии и картографии.



Рисунок 3 - Геодезическая сеть сгущения карьера “Мурунтау”

В 2017-2019гг. выполнены рекогносцировочные работы окрестности карьера “Мурунтау”, который расположен в Навоийской области (Узбекистан) с координатами $\lambda = 64^0\,34'\,41''$, $\varphi = 41^0\,29'\,45''$, H = 199м. В процессе обследования местности были выявлены деформации и отсутствие основных частей геодезических знаков, но заложенные репера сохранились (рис.3). Обычно, создание съемочной геодезической сети представляет собой сгущение от более точных сетей к определяемым точкам методом триангуляции или путем развития нивелирных ходов. Горизонтальная съемка производилась полярным способом с обязательным ведением абриса, обмером контуров сооружений и измерением контрольных связок между ними. При выполнении высотной съемки определены высоты пикетов на всех характерных точках местности [10]. Следует отметить, что полученные данные необходимо исправить с учетом погрешностей для того, чтобы получить более точные координаты каждого пункта в сети, при которых невязки не будут превышать допустимые, а точность измерения не снизится.

Конфигурация СГС связана с предварительным расчетом точности координат, где должны быть учтены средние квадратические ошибки и зоны видимости. Комбинация классических и спутниковых измерений на примере карьера “Мурунтау” даст точную и корректную систему определения координат.

Литература:

1. Мирмахмудов, Э. Р., Ниязов, В. Р., & Аралов, М. М. (2021). Проектирование геодезической сети сгущения в окрестности промышленных объектов. *Инновационные научные исследования*, (5-1), 211-219.

2. Мирмахмудов, Э. Р., Ниязов, В. Р., & Аралов, М. М. (2021). Анализ точности геодезических пунктов топографических карт вблизи промышленных объектов. *Universum: технические науки*, (2-2 (83)), 6-10.

3. Мирмахмудов, Э. Р., Кадыров, Ф. Т., & Ниязов, В. Р. (2021). Рекогносцировка геодезических пунктов в окрестности карьера “Мурунтау”. In *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы современной науки, достижения и инновации* (pp. 158-167).

4. Мирмахмудов, Э. Р., Ниязов, В. Р., Тошонов, Б. Ш. У., & Махаматова, В. У. К. (2021). Анализ метода трилатерации для локальных изменений координат пунктов на геодинамическом полигоне “Тавакcай”. *Universum: технические науки*, (6-1 (87)), 28-31.

5. Мирмахмудов, Э. Р., Ковалев, Н. В., Ниязов, В. Р., & Рахимова, М. Х. (2021). Некоторые требования по проектированию опорной геодезической сети сгущения вблизи карьера. *Инновационные научные исследования*.

6. Ниязов, В. Р. (2022). Некоторые требования по проектированию опорной геодезической сети сгущения вблизи карьера. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 560-568.

7. Mirmakhmudov, E., Niyazov, V., Makhamatova, V., & Muminova, N. (2021). Analysis of changes in the coordinates of the “Tavaksay” geodynamic polygon. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 310, p. 03002). EDP Sciences.

8. Abdigofirovich, U. O., Ruzievich, N. V., & Khudoynazarovich, A. G. (2021). Survey (reconnaissance) of geodesic condition of Zarband marble mining area. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, *2*(05), 406-413.

9. Мирмахмудов, Э. Р., Ковалев, Н. В., Ниязов, В. Р., & Рахимова, М. Х. (2021). Оптимальный метод проектирования геодезической сети сгущения вблизи карьера. *Universum: технические науки*, (6-1 (87)), 83-87.

10. Журакулов, Д. О., Ниязов, В. Р., & Ураков, О. А. Автомобил йўлларини хатловдан ўтказиш ва кадастр маълумотлар базасини яратиш. *Me' morchilik va qurilish muammolari*, 123.

11. Mirmakhmudov, E., Niyazov, V., Tleumuratova, G., & Toshonov, B. GNSS measurements in Uzbekistan for hydrology.

12. Рахимов, У. А. (2022, September). Маданий мерос объектларини жойлашган ўрнини GNSS технологияларидан фойдаланиб аниқлаш. In *" Online-conferences" Platform* (pp. 168-173).

13. Раимов, У. А., & Тухтаев, Ш. Х. (2021, October). Геодезический Мониторинг Деформаций Ансанбля Регистан. In *" Online-conferences" Platform* (pp. 96-100).

14. Raximov, U. A., Tojidinova, F. M., & Po'latov, S. S. (2023). Issues of formation of state cadastre data of highways using geographic information system. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *2*(7), 156-160.

15. Raximov, U. A., Ortiqov, J. U., & O'rozaliyev, B. B. (2023). Existing Class I Height in the Area of Samarkand Current Status of Points. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, *2*(3), 205-208.

16. Рахимов, У. А., Тожидинова, Ф. М., & Рахимов, Б. А. (2023). Спутниковый мониторинг для информационных кадастровых работ. *Ijodkor o'qituvchi*, *3*(28), 97-104.

17. Тожидинова, Ф. М., Бобокалонов, М. Х., & Рахимов, У. А. (2023). Применение данных дистанционного зондирование земли в землепользование и управлении работ в картографии. Innovation in the modern education system, 3(29), 427-436.

ҚУРИЛИШ ЭКАНОМИКАСИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЭКОНОМИКА И ОРГАНИЗАЦИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА

УДК 656.051

ШАҲАР ШЛАГБАУМСИЗ ТЕМИР ЙЎЛ КЕСИШМАСИНИНГ ТРАНСПОРТ ЭНЕРГО-ЭКОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ УСЛУБИ

Қутлимуратов Қудрат Рузибаевич, PhD, Тошкент Кимё халқаро университети
Рўзимов Санжарбек Комилович, DSc, профессор, Тошкент Кимё халқаро университети
Мухитдинов Акмал Анварович, профессор, Тошкент давлат транспорт университети

Шлагбаумсиз темир йўл кесишмаларида тўхтамасдан ҳаракатланиш тақиқланади йўл белгиси аҳоли турар жойларида кенг тарқалган хавфсиз харакатланиш чоралардан ҳисобланади. Ушбу ишда шаҳар кўчалардаги темир йўл кесишмаларда STOP йўл белгисини ўрнатилиш жойини жорий ҳолати ва кейинги муқобил вариантини атроф муҳит ифлосланишига таъсирини ўрганишга қаратилган. Транспорт жадаллигини атроф муҳитга таъсирини PTV vissim датурий комплекси ёрдамида амалга оширилган. Натижалар шуни кўрсатадики, компьютер модел ёрдамида STOP йўл белгиси ўрнига муқобил таклифини жорий этиш орқали атроф муҳит ифлосланиши жиҳатидан сезиларли даражада таъсири кузатилган.

Калит сўзлар: Темир йўл кесишмаси, STOP йўл белгиси, транспорт энерго-экологик кўрсаткичлари, PTV vissim датурий комплекси, транспорт оқими.

The STOP traffic sign is one of the common safety measures and It is forbidden to drive without stopping at railway crossings with no barriers in residential areas. In this work, it is aimed to study the current situation and alternative option for a railway crossings with no barriers on a urban streets, and their impact on environmental pollution. The influence of transport speed on the environment was realized using the PTV vissim software complex. The results show that a significant impact in terms of environmental pollution was observed by introducing an alternative proposal instead of a STOP sign using a computer model.

Keywords: Railway crossing, STOP road sign, transport energy-ecological indicators, PTV vissim software, Traffic flow.

Дорожный знак СТОП является одной из общепринятых мер безопасности и запрещается движение без остановки на железнодорожных переездах без шлагбаумов в жилых массивах. В данной работе ставится цель изучить текущую ситуацию и альтернативный вариант безбарьерного железнодорожного переезда на городских улицах, а также их влияние на загрязнение окружающей среды. Влияние скорости транспорта на окружающую среду реализовано с помощью программного комплекса PTV vissim. Результаты показывают, что значительное воздействие с точки зрения загрязнения окружающей среды наблюдалось при введении альтернативного предложения вместо знака «СТОП» с использованием компьютерной модели.

Ключевые слова: Железнодорожный переезд, дорожный знак СТОП, энерго-экологические показатели транспорта, PTV vissim программной комплекс, Транспортный поток.

Кириш

Замонавий электротранспорт воситалари кўпайиши туфайли шаҳарларда ҳаво сифати яхшиланиб бораётган бўлса-да, йўл ҳаракати ҳали ҳам шаҳарларда ифлосланишининг асосий сабаби бўлиб қолмоқда. Шаҳардаги автомобиллар сонининг кескин ортиши билан бирга кўчалардаги тўхтаб ҳаракатланишлар, тирбандликлар, қатновга сарфлаш вақтининг ортишига сабаб бўлмоқда. Транспортнинг кўплаб тўхташлари таъсирида йўловчилар ёки юкларнинг манзилга бориш вақти, ёнилғи сарфини ортиши, транспорт ташиш харажатини ошиши билан бирга шаҳар ҳавосининг ифлосланишига катта таъсир кўрсатмоқда.

Шаҳар кўчаларида транспорт воситалари ҳаракати тартибсиз равишда вужудга келади. Ҳар бир ҳайдовчи ўзига қулай ҳаракат режимини танлайди ва ўзи танлаган ҳаракати орқали бошқа ҳаракат қатнашчиларига таъсири билан ҳисоблашмайди. Натижада кўча бўлакида ҳар хил динамик ҳаракатлар ўзгаришига таъсир қилади. Ҳар қандай йўл шароитида транспорт воситалари кўча бўлакидан рухсат этилган максимал тезлик билан атроф-муҳитни ифлослантирмасдан, юқори самарадорликда, хавфсиз ҳаракатланиши талаб этилади. Шу сабабдан, йўл ҳаракатини самарали ташкил қилишда йўл белгиларини тўғри жойда ва тўғри шароитда фойдаланиш асосий вазифалардан ҳисобланади.

Ўзбекистон автомобиль йўллари ва шаҳар кўчаларида йўл белгиларини ўрнатиш ГОСТ 23457-86, уларнинг ўлчамлари эса ГОСТ 10807-78 талабларига мувофиқ бўлиши талаб этилади. Ҳар бир ўрнатилган йўл белги асосланган бўлиши ва йўл шароитини ёмонлашишга, ижтимоий-иқтисодий зарарларни келтириб чиқармаслиги зарур. Шлагбаумсиз темир йўл кесишмалари орқали ҳаракатланишда “Тўхтамасдан ҳаракатланиш тақиқланган” йўл белгиси (STOP) кесишмасидан олдин ўрнатилиши йўл ҳаракати қоидаларида келтирилган. Бунда ҳайдовчи тўхташ чизиғи олдида, у бўлмаса, кесиб ўтиладиган қатнов қисмининг четидаги белги олдида тўхтаб ҳаракатланиши таъкидлаб ўтилган [1].

Тошкент шаҳрида юқори транспорт зичлиги бўлган кўчаларда, куннинг тиғиз пайтлари тўхтаб ҳаракатланиш натижасида узун тирбандликлар ҳосил бўлмоқда. Оқибатда шаҳар атроф-муҳитнинг ифлосланиш даражасини янада ортишига хизмат қилмоқда. Жаҳон ҳаво сифати индекси бўйича 2022 йилги ҳисоботига кўра, бутун дунё бўйлаб ҳаво сифати ҳолатини тахлил қилин-

ганида, Тошкент шаҳар ҳавосининг ифлосланиши бўйича йиллик рейтингда 20 ўринни эгаллаб турибди [2].

Шаҳар кўчалари ва йўлларини жиҳозлашда йўл белгиларини атроф муҳитга ёки транспорт ўтказувчанлигига қандай таъсир қилиши мумкинлиги бўйича етарли даражада тадқиқотлар олиб борилмаган. Мутасаддилар томонидан йўл белгиларнинг атроф-муҳит ифлосланишини камайтириш мақсадида жойларда ҳаракатланишни самарали ташкил қилиш ва транспорт воситалари энерго-экологик кўрсаткичларига таъсирини баҳолаш услубининг аҳамияти юқори. Шу сабабдан муайян жойларда йўл ҳаракати самарадорлигининг энг мақбул вариантини асослаш зарурати мавжуд.

Сўнгги бир неча ўн йилликларда автотранспорт тирбандлиги бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг аксарияти чорраҳалар, кўчаларнинг ўтказувчанлигини ошириш, йўл транспорт ҳодисалар (ЙТҲ) сонини камайтириш ва олдини олишга қаратилган [3,4].

Айрим тадқиқот ишида жамоат транспортининг қатнов вақтини тахлил қилиш, йўналишидаги тўхташлар ва шу каби бошқа омиллар таъсири ўрганилган ҳамда транспортни кечикишини минималлаштириш учун ечимларни топишга қаратилган [5].

Транспорт воситаларининг бўйлама ҳаракатини бошқариш учун бир нечта автомобилга эргашувчи моделлар таклиф қилинган [6]. Ҳаракатдаги иккита автомобиллар орасидаги хавфсиз оралиқ вақти ва масофасини сақлаши таклиф қилинган. Кейинчалик турли моделлар орқали назарий асослар ва ёндошувларга эга бўлган моделлар томонидан тадқиқ қилинган [7,8,9].

[10] тадқиқот ишида эксплуатацион шароитида транспорт воситасининг юк ташиш ишида босиб ўтилган масофасининг ўсиши билан баҳолаш услуби кўриб чиқилган. Иш жараёнида транспорт воситасининг механик ишларни бажариш учун энергия харажатларини таҳлил қилмасдан, транспорт воситасининг энергия самарадорлигини баҳолашда транспорт воситаси томонидан бажарилган механик ишларининг потенциал энергиясига нисбати сифатида кўрилган.

Юқоридаги фикрлардан келиб, мамлакатимизда шлагбаумсиз темир йўл кесишмаларида тўхтамасдан ҳаракатланиш тақиқланади йўл белгисини атроф-муҳитга ифлосланиш таъсирини, муаммоларни ҳал этиш мақсадида транспорт ҳаракатини ташкил этишда жорий ва кейинги муқобил вариантини қиёслаш орқали яхшилаш мумкин.

Тадқиқот услуби ва объекти

Тошкент шаҳрида шлагбаумсиз темир йўл кесишмаларида тўхтамасдан ҳаракатланиш тақиқланади йўл белгиси аҳоли турар жойларида кенг тарқалган хавфсиз харакатланиш чоралардан ҳисобланади. Тадқиқот ишида темир йўл кесишмасида ўрнатилган STOP йўл белгисини жорий ҳолати ва кейинги таклифи билан солиштирма натижаларини PTV vissim дастурий комплекси ёрдамида моделлаштириш орқали асослаш асосий вазифа қилиб олинди. Транспорт востилари тўхтаб ҳаракатланишда йўл белгисининг транспорт энерго-экологик кўрсаткичларига таъсирини баҳолаш учун Тошкент шаҳри кичик ҳалқа йўли бўлаки объект (координасини кенглиги 41.263227 ва узунлиги 69.233885) сифатида танланилди.

Самарали йўл ҳаракатини ташкил этишда транспортнинг хавфсиз оқимига таъсирини минималлаштириш, STOP йўл белгиларнинг ортиқча бўлмаслиги, ҳаракат самарадорлигини камайтирмаслиги талаб этилади. Агар тўхтаб ҳаракатланиш йўл белгилари асосланмаган жойда ўрнатилган бўлса, кўплаб ҳайдовчилар тўлиқ риоя қилмайдилар ва бу йўл белгисини эътиборга олишмайди. Бу хавфсизлик қоидаларини бузилишига, хавфларни янада ортишига сабаб бўлиши мумкин. Шу сабабдан ортиқча STOP йўл белгилар таъсиридан қочиш, муқобил таклифини кўриб чиқиш зурурати мавжуд. Тўхтаб ҳаракатланиш йўл белгиси ўрнатилган кўчаларда транспорт зичлиги ошган сари транспорт воситаларининг оралиқ масофасини камайиши, ҳаракат тезлигини пасайиши, ҳайдовчиларнинг психо-физиологик ҳолатини қийинлашиши ва умумий ҳаракатланиш ноқулайлигига олиб келмоқда.

Тошкент шаҳри Yandex харитадаги STOP йўл белгиси билан жиҳозланган кўчалар 1-расмда келтирилган. Улар: Фарғона йўли, Тошкент кичик ҳалқа йўли, Чўпон ота кўчаси, Кушбеги кўчаси, Қумариқ кўчаси, Элбек кўчаси, Жарқўрғон кўчаси, Мўйноқ, Уйсозлар 2-ўтиш кўчаси ва бошқа кўчаларни келтириш мумкин. Йўл ҳаракатини тадқиқ қилишда транспорт оқимини миқдорий маълумотларидан фойдаланилади ҳамда яратилган компьютер модели билан симуляция қилиб, унинг самарадорлигини баҳолаш амалга оширилади.



1-расм. Тажриба-синов жойи

Тошкент шаҳрида автотранспорт воситалари сонини ўсиш суръати йиллик ўртача 10 фоиздан юқорилиги маълум бўлди. GPS маълумотлари асосида ўрганиш натижаларига кўра, Тошкент шаҳри нормал шароитда ҳаракатланиш учун зарур бўлган вақтга нисбатан йўловчиларнинг қатновга сарфлаш вақти сезиларли даражада ошган. Тошкент шаҳрида светофорларни ҳисобга олган ҳолда куннинг тиғиз соатлардаги умумий автомобилларнинг ҳаракат тезлиги 25-35 км/соатдан 12-20 км/соатгача, жамоат транспортининг ҳаракат

тезлиги 16-25 км/соатдан 12-17 км/соатгача пасайиши кузатилмоқда.

Тадқиқот объектида 2022 йил 27-28 сентябрь санадаги суткалик ҳаракат миқдори 90 мингдан ортиқ транспорт воситаларни ташкил қилди. Йўлнинг ҳар иккала ҳаракат йўналишидаги тасмалар сони 4 та, йўлнинг марказий қисмида эса 3 метрлик ажратувчи бўлакдан иборат. Текширилаётган йўл бўлакида транспорт миқдорий маълумотлари одатий иш кун давомида (24 соат) ўрганилди ҳамда натижаси 2-расмда келтирилган.



2-расм. Тадқиқот объектидаги суткалик транспорт миқдори

Транспорт энерго-экологик кўрсаткичлар таъсирини баҳолаш услуби

O‘quv dasturini yaratishda o‘quvchilarning firk yuritish, tasovvur qilish qobiliyatlarini oshirish orqali loyihalarni tuzish, bajarish va o‘qish qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam beruvchi “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi”fanidan mustaqil topshiriqlarni bajarish uchun individual topshiriqlar variantlari mavjud.

O‘quv dastur dars berayotgan o‘qituvchilar uchun ham uslubiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi inobatga olingan.

Shu sababdan darslarni shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta’sirida o‘quvchilarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e’tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi ko‘zda tutilgan.

Адабиётлар:

1.Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent - “O‘zbekiston”-2018.

2.Shavkat Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent - “O‘zbekiston”-2018.

3.Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent - “0‘zbekiston”-2016.

4.Shavkat Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Toshkent - “O‘zbekiston”-2017.

УДК 372.854

КАСБИЙ ТАЪЛИМДА ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдазимов Ш.Х., доцент., т.ф.н., Тошкент Давлат транспорт университети.
Муминжонова Н.А., Меҳнат муҳофазаси ва ҳавфсизлик техникаси муҳандиси “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ Қўқон темир йўл техникуми.

Мақолада профессионал таълим муассасаларида «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанини ўқитишда ахборот-коммуникация ва педагогик технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти муҳокама қилинган. Мақолада ахборот ва педагогик технологиялар, интеграция, интеграциялашган таълим маъноси ва уларнинг мазмуни ёритилган.

Таянч сўзлар: ахборот технология, педагогик технология, коммуникация, интеграция, интеграциялашган таълим, коммутация, анимациялар.

В статье раскрывается значение использования информационно-коммуникационных и педагогических технологий при преподавании охрана труда и техники безопасности в профессионалних учебных заведениях Также объясняется значение информационных и педагогических технологий, их интеграции, роль интеграционного обучения.

Ключевые слова: информационные понятия, педагогические технологии, коммуникация, интеграция, интеграционное обучение, коммутация, анимация.

There is discussed in the article importance of ICT and pedagogical technologies implementation in «Food sekuritu and safety eguipment» teaching in higher education institutions. The article clarifies informational communication and pedagogical technologies, integration, integrated education and these meanings.

Keywords: IT - informational technology, pedagogic technology, communication, integration, integration education, communications, animations.

Кириш. Мамлакатда амалга оширилган ва оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар жамиятнинг барча жабҳаларида, шу жумладан, таълим соҳасида хам туб ўзгаришларга олиб келди, унинг ривожланиши бошқа ижтимоий институтларга нисбатан, келажакни та'минлашга қара-

тилганлиги нар бир миллат, ҳар бир оила, ҳар бир Ўзбекистон фуқароси учун муносиб, ҳавфсиз ҳаётни шакллантиришни ривожлантиришга қаратилган. Буни ривожлантириш эса профессионал таълим муассасаларида амалга оширилиши мухим саналади. Шу муносабат билан профессор-ўқитувчилар, жумладан, "Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси" фани ўқитувчиларининг касбий фаолияти сифатига қўйиладиган талаблар ортиб бормоқда.

Техникавий, санитар-гигиеник, психофизиологик, ташкилий сабабларга кўра келиб чиқадиган бахтсиз-ҳодисалар, шикастланиш ва жароҳатланишларнинг ривожланиш динамикасини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, келгуси йилларда иш жойларида содир бўлаётган бахтсиз ходисалар, касб касалликлари, жароҳатланишларнинг сабаблари ва оқибатларига қарши курашишнинг долзарблигини орттиради.

Касбий таълим олувчиларга "Меҳнат муҳофазаси" бўйича билим беришда интеграциялашган технологиялардан фойдаланишни такомиллаштириш муаммосининг долзарблиги жамиятда ишчи-ходимлар саломатлиги ва ҳавфсизлигини химоялашга бўлган эҳтиёжи билан бугунги кундаги ишчи-ходимларнинг ҳақиқий ҳолати ўртасидаги муаммоларни ҳал қилиш зарурати билан боғлиқ. Ҳозирги кунгача «Меҳнат муҳофазаси» фанини профессионал таълим муассасаларида ўқитиш учун меҳнат муҳофазасига оид амалий ҳамда лаборатория машғулотларини ташкил этиш ахборот коммуникация ва педагогик технологиялар ёрдамида ўтказиш методикаси ишлаб чиқилмаган, лекин янги дастурий таъминот яратиш бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

Педагогик эксперимент натижаларига кўра таълим олувчилар ўзлари ўтказган амалий машғулотлар, уларга оид ёзган хулосалари ва ўрганган бошқа маълумотларни анализ-синтез қилиш натижасида 80%ини ўзлаштиришлари мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.09.2019 йилдаги "Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 5812-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 07.08.2020 йилдаги "Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида" ги 466-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.02.2020 йилдаги " Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги 4623-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.11.2020 йилдаги "Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги 4884-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 31.12.2020 йилдаги "Малакаларни баҳолаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва меҳнат бозорини малакали кадрлар билан таъминлаш чора-тадбирлар тўғрисида" ги 4939-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 15.05.2020 йилдаги "Ўзбекистон Республикасида касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш чоралари тўғрисида" ги 287-сонли қарори ва мавзуга оид бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга касбий таълимда интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш самарали даражада хизмат қилади.

Ахборот технологияси ёрдамида «Меҳнат муҳофазаси» фанидаги амалий машғулот механизмларни «жонли» намойиш қилиш имконияти бўлган бир пайтда компьютер ёрдамида мавзуга оид анимация яратиб, у дарсда жорий этилса, дарс самарадорлигининг ошишига катта таъсир кўрсатиши мумкин. Демак, профессионал таълим олувчилар учун «Меҳнат муҳофазаси ва хавсизлик техникаси» ўқув дастуридаги мавзуларни анъанавий усулларда тушунтириб, мавзулар бўйича таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражасини ошириб бўлмайди. Бу муаммони ҳал қилиш учун танланган мавзу материалларини ахборот ва педагогик технологиялар асосида ёритиш методикасини яратиш зарур. Ахборот коммуникация ва педагогик технологиялар интеграциясида «Меҳнат муҳофазаси ва хавсизлик техникаси » фанини ўқитиш методикасини такомиллаштиришни интеграциялашган технологиялар ва улардан фойдаланиш асослари, мазмун-моҳияти ва методик тизимини ишлаб чиқишдан иборат.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Жаҳонда меҳнат муҳофазаси фанини нанотехнология, ахборот ва педагогик технологиялар асосида ўқитишни такомиллаштириш бўйича кўпгина олимлар илмий тадқиқот ишларини олиб боришган. Уларга мисол тариқасида Л.А.Савченко, Michael Seery, Stephanie O'Brien, К.Б.Оралбаева, Л.А.Чернишева ва бошқаларни келтириш мумкин. Россияда таълим сифатини яхшилашда ахборот ва педагогик технологиялар асосидаги илмий тадқиқот ишлари Е.О.Емельянова, Е.Ю.Зашивалова, А.А.Сыроматников, В.Н.Лихачев, А.А.Подгорнова, А.С.Артемьева, О.Е.Гобунова, Н.С.Михайлова, А.П. Ершовлар томонидан олиб борилган. Ўзбекистонда ахборот ва педагогик технологияларни таълим жараёнига татбиқ этиш бўйича М.М.Арипов, А.А.Абдуқодиров, А.Х.Абдуллаев, Н.В.Апатова, У.Ш.Бегимқулов, Т.Бобоев, М.Лутфуллаев, Ж.О.Толипова, Д.Юсупова, меҳнат муҳофазаси фанини ахборот ва педагогик технологияларни жорий этиб ўқитишда Э.У.Эшчанов, Ф.А.Алимова, Л.Т.Зайлобов, Н.А.Анваровалар тадқиқот ишлари олиб борганлигини қайд этиш мумкин.

Тадқиқотнинг илмий янгилиги қуйидагилардан иборат:

–профессионал таълим муассасаларида «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланиш ва таълим олувчиларга бу технолгиялар маъносини тушунтириш;

–ахборот технологиялари ёрдамида «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси » фанини ўқитиш методикаларини тушунтириш;

–ахборот-коммуникация ва педагогик технологиялар интеграцияси ёрдамида меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси фанини ўқитиш методикасини тушунтириш;

–таълим олувчиларга интеграция ва интеграциялашган технологиялар маъносини тушунтириш.

Тадқиқотнинг объекти.сифатида меҳнат муҳофазаси фани чуқурлаштириб ўтиладиган профессионал таълим муассасасиларидаги «Меҳнат муҳофазаси» таълими жараёни олинди.

Тадқиқотнинг предмети. Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси фани ўтиладиган профессионал таълим муассасасиларида ахборот-коммуникация ва педагогик технологиялар интеграциясида меҳнат муҳофазасини фанини ўқитиш методикасининг мазмун ва шаклини такомиллаштириш усул ва воситаларидан иборат.

Тадқиқотнинг усуллари. Профессионал таълим муассасасалари ўқитувчиларининг илғор иш тажрибаларини ўрганиш ва умумлаштириш; моделлаштириш, социометрик (анкета, тест), сўровнома ўтказиш; бевосита ва билвосита педагогик кузатув; қиёслаш; педагогик тажрибасинов; математик статистика усуллари. Тадқиқотда таълим тизимида интеграциялашган технологиялар ва улардан фойдаланиш асослари, мазмун-моҳияти ва методик тизимини ишлаб чиқиш масалалари баён этилади, кузатиш, илмий-методик таҳлил ва умумлаштириш методларидан фойдаланилган.

Мамлакатимизда таълим тизимини ривожлантириш ва унинг самарадорлигини ошириш йўлида бир қанча амалий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Бундай тадқиқот ишларининг асосий мазмуни қуйидагилардан иборат:

–таълим мазмунини хорижий тажрибалар асосида янгича мазмунга олиб келиш ва улар асосида янги авлод ўқув адабиётларини яратиш;

–компьютер технологияларидан фойдаланиб, ўқув предметларини ўқитиш жараёнини такомиллаштириш;

–ўқув жараёнига янги авлод ахборот ва коммуникация технологияларини жорий этиш;

–ўқув жараёнига замонавий педагогик, инновацион ва интеграцион технологияларни жорий этиш ва ҳоказо.

Ўқув жараёнида сифатли ва кафолатланган таълим беришда таълимнинг усуллари ва воситалари алоҳида аҳамиятга эга. Замон талаби даражасида ўқув жараёнини ташкил этишда интеграцион, яъни интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш муҳимдир.

Интеграция сўзи лотинча «integratio» сўзига мос келиб, ўзбек тилида тиклаш, қайтадан бошлаш, тўлдириш маъноларини ифодалайди. Айрим қисмлар, элементларнинг боғлиқлиқ ҳолати, уларни қўшиб бирлаштиришни ифодаловчи тушунча ҳисобланади.

Интеграция сўзидан фанларнинг яқинлашиши ва ўзаро боғланиш жараёнини ифодалашда ҳам фойдаланилади. Интеграциялаш тушунчаси муҳим илмий терминлардан бири бўлиб, у умумлаштириш, хулосалар чиқаришда методологик восита ҳисобланади. Фан ва техникада ушбу методологик восита ёрдамида бирор жараён ёки ҳодисалар мазмунлари орасидаги умумий уйғунлик моделлари ва алгоритмлари яратилади.

Узлуксиз таълим тизимида бериладиган таълим мазмунидаги уйғунликларни таъминлаш муаммоларини ечишда ҳам интеграциялашнинг моҳияти алоҳида аҳамиятга эга. Интеграциялаш орқали ўқитиладиган ўқув предметларининг асосий тушунчалари умумлаштирилади. Бирор тадқиқот объекти ва методологиясига оид маълумотлар ўртасидаги алоқадорликни ўрнатишда ҳам интеграциялаш тушунчасидан фойдаланилади.

Интеграциялашган технология деганда, икки ва ундан ортиқ технологияларни бирлаштириш, умумлаштириш ва улар орасидаги алоқадорликни ўрнатишдан ҳосил бўлган технологиялар тушунилади.

Ўқув жараёнида интеграциялашган технологиядан фойдаланиш деганда, педагогик, ахборот-коммуникация технологияларини бирлаштириш, умумлаштириш ва улар ўртасидаги алоқадорликни ўрнатиш орқали фаолият олиб бориш ҳолати тушунилади.

Таълим олувчиларнинг ўқув предметлар бўйича ўзлаштириш даражаси дарснинг сифати ва самарадорлигини белгиловчи асосий омиллардан биридир. Таълимнинг сифатини оширишда дарсни тўғри режалаштириш ва мақсадни тўғри ва аниқ белгилаб олиш муҳимдир. Мақсадни белгилашда натижага эришиш учун кетадиган вақт, таълим олувчининг эҳтиёжи ва имкониятлари, таълим олувчининг мақсадга эришишга ҳаракат қилишга йўналтирилган методлар ва натижани аниқлайдиган назорат турларини аниқлаш алоҳида аҳамият касб этади. Бундай мақсадга эришиш учун ўқув жараёнига замонавий педагогик технологияларни жорий қилиш зарур.

Педагогик технология таълим жараёнида қўлланиладиган педагогик ва технологик ёндашувларнинг интеграцияси маҳсулидир. Педагогик технология тушунчасига турли педагог олимлар турлича ёндашиб, унга турлича таъриф берганлар.

Педагогик технология - таълим методлари, усуллари ҳамда тарбиявий воситалар йиғиндиси, у педагогик жараённинг ташкилий-услубий воситалар мажмуидир. Педагогик технология ўз олдига таълим шаклларини оптималлаштириш вазифасини қўювчи бутун ўқитиш ва билимларни ўзлаштириш жараёнини техник ресурслар ва инсонларнинг ўзаро муносабатларини ҳисобга олган ҳолда яратиш, қўллаш ва аниқлашнинг тизимли методидир. Педагогик технология маълумотларни ўзлаштириш учун қулай шакл ва усулда узатиш ва ўзлаштириш жараёнидан иборат. Педагогик технология – таълим олувчининг мустақил ўқиш, билим олиш, фикрлашга ўргатишни кафолатлайдиган жараёндир.

Педагогик технология жараёнида ўқитувчи

раҳбарлигида таълим олувчи мустақил равишда билим олади, ўрганади, ўзлаштиради. Демак, педагогик технология инсонга олдиндан белгиланган мақсад бўйича таъсир ўтказиш фаолиятидан иборатдир.

Ахборот технологияси – ахборотни тўплаш, сақлаш, излаш, унга ишлов бериш ва уни тарқатиш учун фойдаланиладиган жами услублар, қурилмалар, усуллар ва жараёнлар. Ахборот технологиялари – маълумотларни тўплаш, уларга ишлов бериш, сақлаш, узатиш ва улардан фойдаланиш жараёнида компьютердан фойдаланиш йўллари, усуллари ва услублари. Ахборот технологияси – ахборотга ишлов бериш учун ушбу ахборотдан фойдаланувчи жараёнларнинг сермеҳнатлигини камайтириш ва уларнинг ишончлилигини ва тезкорлигини ошириш мақсадида замонавий компьютердан фойдаланиш билан боғлиқ жараённи ифодалайди. Демак, ахборот технологиялари деганда ахборотни йиғиш, сақлаш, узатиш, ўзгартириш, қайта ишлаш усул ва воситалари йиғиндиси тушунилади.

Замонавий ахборот технологиялари таълим муассасаларида таҳсил олаётган ёшларга янгича ёндашишлар асосида, билим, малака ва кўникмаларни шакллантириш билан боғлиқ ўқув жараёнини ташкил этиб, таълимни янги сифат босқичига кўтариш имконини бериши мумкин бўлган технологиядир.

Коммуникация инглизча «communication» сўзидан олиниб, ўзбек тилида алоқа, хабар, алоқа воситаси, ахборот воситаси, туташма, мулоқот, уланиш, ахборот узатиш усуллари ва воситалари маъносида қўлланилади. Коммуникация тизими бошқа тизимлар орасида ахборот узатиш билан боғлиқ ёрдамчи вазифаларни бажарадиган тизимдир. Коммуникацион технологиялар – тармоқдаги компьютерлар орасида ахборотларни узатиш учун маршрутлаш (характерларни белгилаш) ва боғланишларни коммутация қилиш вазифасини бажарадиган технологиялардир. Таълим тизимининг ахборот-коммуникация технологиялари қуйидаги асосий функциялар ва талабларни бажаради:

●таълим олувчилар ва уларнинг ахборот муҳитидан фойдаланиш фаолиятларини қайд этиш;

●таълим берувчи ва таълим олувчиларнинг фаолиятини маслаҳат йўли билан қўллаб-қувватлашни ҳисобга олиш;

●таълим олувчиларга зарурий ўқув материалларини мустақил ўзлаштириш учун тавсия қилиш;

●ўқув жараёнида таълим олувчилар томонидан ўзлаштирилган билим, кўникма ва малакаларнинг тест ёрдамида, шунингдек, оғзаки ва ёзма усулдаги назоратини ташкил қилиш;

●ахборот базасида таълим олувчиларга тавсия қилинган ўқув материаллари, қўшимча адабиёт ва бошқа воситалардан фойдаланиш учун ўқув муассасаси ахборот ресурсларидан масофадан туриб фойдаланиш имконини яратиш;

●виртуал лаборатория машғулотлари ва амалий топшириқларни бажаришда масофадан туриб таълим муассасаси ходимларининг маслаҳати ва бошқа ёрдамларини уюштириш ва ҳоказо. Интеграциялашган технологиялар асосида ташкил этиладиган ўқув жараёнида ўқув предметларининг асосий мазмуни қуйидаги ўқув услубий материаллардан иборат бўлади1 : 1 Боровских. Т.А. Индивидуализация обучения химии на основе современных образовательных технологий. - М., МПГУ. Виртуальная галерея, 2011. –217-б.

- электрон ўқув-услубий мажмуалар;
- ўзини ўзи назорат қилиш учун тест дастурлари ва саволлар мажмуаси;
- виртуал лаборатория ишлари ва уларнинг тавсифи;
- мустақил ишлар ва назорат ишлари;
- ҳисоблаш дастурлари, электрон маълумотномалар, электрон иловалар;
- қўшимча дастурий таъминотлар.

Интеграциялашган технологияларнинг қўлланилиши натижасида ўқув машғулотлари масофадан туриб тармоқ технологиялари имкониятларидан фойдаланган ҳолда ташкил этишга олиб келади. Бу эса масофали ўқитишни ташкил этишнинг асосидир.

Масофали ўқитишда тармоқ технологияларининг асосий вазифаси ўқув жараёнида ўқитувчи ва талаба орасидаги мулоқотни таъминлашдан иборат. Ўқитувчи ва талабалар орасидаги доимий мулоқотсиз ташкил қилинган ўқув жараёни кўзланган самарани бермайди. Таълим тизимининг кундузги шаклида ўқитувчи ва талаба орасидаги мулоқот бир вақт, бир жойда ўқув аудиториясида амалга оширилади. Масофали ўқитишда эса бу жараён телекоммуникацион воситалар асосида компьютернинг тармоқ технологиялари орқали амалга оширилади.

Юқорида кўриб чиқилган учта технологияларнинг интеграциялашган ҳолатини таълим бериш ва ўзлаштиришнинг энг мақбул технологияси деб қараш мумкин. Педагогик ва ахборот технологиялари имкониятларидан фойдаланган ҳолда таълим олувчилар учун ахборот-таълим муҳитини яратиб, коммуникация технологиялари воситалари асосида таълим олувчиларга етказиб бериш жараёнлари интеграциялашган технологиялари асосий технологияларнинг асосий вазифаси ҳисобланади.

Мамлакатимиз таълим тизимида ҳозирги вақтда катта ўзгаришлар содир бўлмоқда, чунки бу таълимни ривожлантириш тенденцияси тараққий этаётган барча мамлакатлар учун хос бўлган умумий хусусиятдир. Бундай босқичда халқ хўжалиги учун ўзининг танлаган касби бўйича билимдон, муаммолар ечимини мустақил топа оладиган эркин фикрловчи, тадбиркор, етук мутахассислар керак. Бундай мутахассисларни тайёрлаш учун олинган назарий билимларни амалиётда қўллаш ва фандаги янги илмий муаммоларни мустақил эгаллаш кўникмасига эга бўлиш талаб қилинади. Чунки бугунги кунда таълим соҳасида олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотлар, таълим мазмунини такомиллаштиришга оид қабул қилинган давлат қарорлари таълимни ҳаёт билан боғлашни, ўқитиш самарадорлигини оширишни, тез тараққий этиб бораётган жамият учун ҳар томонла-

ма шаклланган баркамол авлодни тарбиялаб етиштиришни талаб қилади.

«Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанида интернет маълумотларидан фойдаланиш, ўқувчиларни гуруҳда ўз фикрларини баён қилишга, мустақил фикрлашга ва ишлашга, топқирлик, ҳозиржавобликка ўргатади. Уларнинг «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанига бўлган қизиқишини оширади, ўқувчиларни фаолликка ундайди. Шунинг учун «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанини ўқитиш жараёнига инновацион технологияларни жорий этиш ва уни такомиллаштириш масаласини ҳар жиҳатдан таҳлил қилиб ёритиш мақсад қилиб олинади.

Таълим соҳасида юз бераётган ўзгаришлар, катта ахборот оқимининг кириб келиши билимларни тезкор эгаллаш эҳтиёжининг пайдо бўлиши таълим соҳаларида интеграциялашувни жорий этишни талаб қилмоқда. Шунингдек, ўқитишда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш ҳам алоҳида долзарблик касб этиб бормоқда.

Ахборот-коммуникация ва интернет маълумотларидан фойдаланишнинг «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фани дарсларида жорий этилиши бўйича мавжуд ҳолатларни ўрганиб чиққанимизда аксарият ўқитувчилар дарс жараёнларининг қизиқарли ва самарали бўлганлигини таъкидлашган. Узлуксиз таълимда ўқув-тарбиявий жараёнга ахборот технологияларини жорий этиш бўйича илмий асосланган андоза ва кўрсатмалар етарли эмас.

Ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) дарсда қўлланилиши «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанини ўқитиш учун янги истиқболлар ва самарали ўқитиш имкониятларини очади. Шу билан бир қаторда мустақил равишда ўқиш қобилиятини ривожлантириш ахборот технологиялари билан ишлашда муайян саводга йўналтириб, бунинг ўзи ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланиши учун зарур шароитдир. «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» дарсларида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш, интернет ресурсларини қўллаш орқали уй вазифаларни масофадан туриб ўқитувчи томонидан берилиши ва талабалар томонидан бажарилган вазифаларни текшириш мумкин. АКТ ўқув материалларини ўзлаштиришни назорат қилишнинг энг қулай усулидир.

Хулоса қилиб айтганда, замонавий талаб даражасида ўқув жараёнини ташкил этиш, таълим мазмунларини умумлаштириш ва тўлдиришда интеграциялашган технологиялар алоҳида аҳамият касб этиб, кўзланган мақсадга эришишни кафолатлашга ёрдам беради.

Тадқиқот юзасидан олиб борилган изланиш ва ўтказилган тажриба-синов натижалари қуйидаги хулосаларни чиқаришга асос бўлди:

1. Профессионал таълим умумкасбий фанлар йўналишида «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанини ўқитишда талабаларда шаклантирилган кўникма ва малакалар аниқланди, ўқитиш жараёнида билимларга боғлиқ ҳолда уларни ахборот ва педагогик технологиялари воситаларидан фойдаланиш зарурат эканлиги тушунтирилди.

2.«Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанини ўқитишда фойдаланиладиган ахборот технологиялари воситаларининг дидактик функциялари аниқланди ва уларни амалга ошириш йўлларининг белгиланиши таълим самарадорлигини орттиришга замин яратди ҳамда таълим-тарбия жараёнининг илмий-методик жиҳатлари аниқланди.

3. «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанини ўқитишда ахборотқоммуникация ва педагогик технология интеграциясидан назарий ва амалий дарслар машғулотларда фойдаланишнинг илмий-методик асослари ишлаб чиқилди ва ўқув жараёнига татбиқ этилди.

Юқоридаги фикрларга асосланиб тадқиқот иши юзасидан қуйидаги тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Ахборот ва педагогик технологиялар воситалари «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанидан ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнининг зарурий таркибий қисми саналади. Шу сабабли, ахборот ва педагогик технологиялардан ўқув дастуридан ўрин олган барча мавзуларни ўқитишда таълим мазмунига мувофиқ фойдаланиш таълим самарадорлигини кафолатлайди.

2. Профессионал таълим умумкасбий фанлар йўналишида педагогик фаолият кўрсатаётган Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси ўқитувчиларининг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш курсларида ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнига ахборот ва педагогик технологияларни киритиш лозим.

3. Тадқиқот давомида яратилган ахборот технологияларининг маҳсуллари бўлган анимациялар, моделлар, слайдлар ва компьютер воситасида талабаларнинг «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанидан ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларини назорат қилиш тест топшириқларидан умумий ўрта таълим мактабларида «Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси» фанини ўқитишда муваффақиятли фойдаланиш тавсия этилади.

4. Меҳнат мухофазаси ва хавфсизлик техникаси фанини ўқитишда ахборот технологиялари маҳсулларидан фойдаланиш Меҳнат муҳофазаси ўқитувчисидан муайян тайёргарлик кўришни талаб қилганлиги сабабли тадқиқот натижаларидан педагогик кадрларни тайёрлаш тизимида, шунингдек, ўрта махсус, касб-ҳунар, профессионал таълими Меҳнат муҳофазаси ва хавфсизлик техникаси ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курсида фойдаланиш тавсия этилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.09.2019 йилдаги “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5812-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг

27.02.2020 йилдаги “ Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 4623-сонли қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 07.08.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида узлуксиз бошланғич, ўрта ва ўрта махсус профессионал таълим тизимини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида” ги 466-сонли қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 15.05.2020 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида касбий малакалар, билим ва кўникмаларни ривожлантириш миллий тизими фаолиятини ташкил этиш чоралари тўғрисида” ги 287-сонли қарори

5. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. - Т.: «Фан», 2006. – 264-б. 6. Амиров Д.М. ва бошқалар. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. - Т., 2010. –576-б.

7. Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълим ва тарбияда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш услубиёти. – Т.: «Истеъдод», 2014.

8. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: «Фан», 2007. –164-б. 9. Боровских Т.А. Индивидуализация обучения химии на основе современных образовательных технологий. - М.: МПГУ. Виртуальная галерея, 2011. –С. 217. 10. Зашивалова Е. Ю. Методика компьютерного обучения химии в основной школе: Диссертация канд. пед. наук. – Санкт-Петербург: 2000. –С. 167.

МУНДАРИЖА – ОГЛАВЛЕНИЕ

МЕЪМОРЧИЛИК, ШАҲАРСОЗЛИК ВА ДИЗАЙН
АРХИТЕКТУРА, ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО И ДИЗАЙН

Uralov A.S., Sadikova S.N. Proposals for the restoration and preservation of the historicity of Samarkand 3
Хамидова D.A. Рельеф худудларда ландшафтлар ташкил этишда тиргак деворлардан фойдаланиш 5
Zargarova N. Qadimiy xorazm xattotlik san'atining turli me'moriy yodgorliklarda qo'llanilish maqsadi 7
Barnayeva Sh., Xursanbayeva B. Chor chinor majmuasi va uning o'rganilmagan masalalari 9
Abdullayev B.A. Temuriylar davri savdo inshootlari 11
Shukurov G', Shukurov A.G., Islamova D.G., Shukurova M.A. Samarqand shahri shaharsozligida bunyodkorlik ishlaridagi innovasion yechimlar. 13
Уралов А.С., Элмуродов Б.Х. Самарқанд ҳокими Иброҳим Тамғачхон Қорахонийнинг афросиёб ҳудудида XI асрда қурдирган, бизгача сақланмаган мадрасаси архитектурасининг график реконструкцияси 16
Яхяев А.А., Мадрасалар меъморий шаклланишининг умумий йўналишлари. 20
Махмудова Ф.И. Хива хонлиги даври сарой қалъаларининг тарихи ва меъморий ечимлари 24
Бердикулов Ж.Б., Омонқулов Ф.Ф. Ўзбекистонда қишлоқлар архитекурасини ижтимоий инфратузилмаларини ривожлантиришда замонавий инновацион технологияларнинг роли 27
Nazarova D., Omonqulov F. Arxitekturada antik davrdan modernizmgacha asosiy uslublarning xususiyatlari 30
Дробченко Н. В., Ахатова Н. Ф. Структурное функциональное изучение и построение орнаментов 33
Тухтаева А. О., Дробченко Н. В. Проектирование учебного медицинского класса в общеобразовательной школе 38
Дробченко Н. В. Перспективы развития флорадизайна в современных интерьерах Узбекистана 41
Tursunova Sh.F. Sanoat dizaynida loyihalashning modulli prinsipi 43
Sereyeva G.A., Mannapova N.R. Ma'naviyat uchog'i bo'lgan madaniyat uylari va klub binolarining zamonaviy muammolari 45
Mo'minxo'jayeva N.F. Islom arxitekturasi nazariyalarining yaralishi 47
Абекеева А. Бердақ номидаги Қорақалпоқ адабиёти тарихи давлат музейи биносининг архитектуравий – композициявий ечими ҳақида 50
Бердикулов Ж.Б., Омонқулов Ф.Ф. Мамлакатимиз қишлоқ жойларида замонавий мактаб-боғчалар архитектура лойиҳасини шакллантириш 54
Jumabaev D.M., Xotamov A.T. Asosiy piyodalar va velosiped aloqalarini rivojlantirish (Nukus shahri misolida) 55
Sultanova M.F. O'rta asr va uyg'onish davri tomosha texnikasining shakllanishi 58
Balgayev A.B. XXI asr yangi shaharlari. yangi qarashlar va imkoniyatlar 62
Balgayeva Sh.A. Drezden misolida germaniyada shaharsozlikning xususiyatlari 67
Рахимов Л.А. Бобур ёхуд боғлар шаҳзодаси 71
Джумақулов Ф.У. Ҳиндистондаги тожмаҳал (XVI аср) архитектурасидаги ҳандасавий уйғунлаштириш хусусиятлари 74
Tajibaev J.X. Dizayn-kod tamoyillariga asosan shahar tarixiy hududlarini toifalash yechimlari 76
Matniyazov Z.E., Elmurodov S.S., Rasul-Zade L.U., Shoumarova D.A. Tarixiy shahar ko'chalaridagi ma'lumot peshtaxtalari hamda yo'l ko'rsatgichlar dizayn-kodini tartibga solish (Buxoro shahri misolida) 79
Matniyazov Z., Tajibaev J.X., Saidxonova U.Z., Tajibayeva D.M. Tarixiy shaharlarni dizayn-kodini ishlab chiqishda xorij tajribasining o'rni 83
Atoshov S.B. Ichan Qal'a me'moriy obidalar arxitekturasi muxahdislik yechimlari 86
Пирниязов С. К. Лучший образец жилищного строительства Каракалпакского народа 88
Шоумарова О., Исамухамедова Д. У. Градостроительные факторы, влияющие на рост и упадок городов, на примере города Детройт 90
Назарова Д.А. Вопросы изменения климата для разработки стратегий применимых в странах Центральной Азии 93
Бегматова Д.А. Пути повышения энергетической эффектифности в инновационной архитектуре общественных зданий 95
Назаренко Т.В. Реновация промышленных объектов в Китае 98
Manoyev S.B. Barqaror shahar muhitlarini loyihalashning shaharsozlik tamoyillari 101
Атошов С.Б. Паҳлавон Маҳмуд мақбараси архитектураси 104
Жонузаков А.Э. Дарахтсимон ўсимликларнинг сан-гигиеник хусусиятлари 107
Кушманов Т.Ф., Мирзаев Д.Ф. Стиль тушунчасининг замонавий архитектурада талқин қилиниши ... 109

ҚУРИЛИШ КОНСТРУКЦИЯЛАРИ, БИНО ВА ИНШООТЛАР
СТРОИТЕЛЬНЫЕ КОНСТРУКЦИИ, ЗДАНИЯ И СООРУЖЕНИЯ

Фридман С. Туракулова Ш.М. Стальная балка, предварительно напряженная затяжкой 113
Axmedov Sh.B., Baxromova Yu. Dunyo mamlakatlarida ekspluatatsiya qilinayotgan ko'priklar xavfsizligi va ularning monitoring tizimlari tahlili 115
Yusupkhodjaev S.A., Makhmudov J.I. Seismic-resistant structures in South Korea: design and construction practices 117

Tleubayeva T.A., **Razzakov N.S.**, **Aslonov M.M.** Strenth problems ofindirectly reinforced comressed elements of spatial structures 120
Ўроқов А.Х., Равшанов А.С. Роль уплотнения грунта в обеспечении устойчивости земляного полотна для различных климатических условиях 121
Zokirov F.Z. Uzoq (qisqa) muddatli vaqtinchalik yuk ta'sirida temirbeton namunalarning eksperimental nazariy tekshiruvlari 124
Азимова Ш.Н. Способ определения максимальной плотности и оптимальной влажности крупнообломочных грунтов методом проктора 128
Комилов С.И., Худайкулов Р.М., Мусиров М.У. Йўл тузилма грунтларини зичлаштиришда каток валеци ва грунт орасидаги ўзаро таъсирининг динамик тавсифлари 130
Убайдуллоев М.Н., Убайдуллоев О., Эдилов А Проектирование сталежелезобетонных плит перекрытий с использованием стальных профилированных листов в качестве арматуры (часть 1 - состояние вопроса) 133
Абдураимова Х.Р. "Бино-пойдевор-замин" тизимининг деформация жараёнларини тадқиқ қилиш усуллари ва ёндошувлари. 135
Махматкулов Т. Елимланган ёғоч конструкцияларни тайёрлаш жараёнлари 140
Махматқулов Т.М., Кулмирзаев И.М. Меъморий бинолардаги ёғоч материалларининг ҳолатини ўрганиш. 142
Urishbayev E.E. Geological analysis in road engineerring construction 143
Кондратьев В.А., Куртаметов С.Э., Егорова В.В. Организационно-нормативное обеспечение и опыт проведения обследования зданий и сооружений в республике Узбекистан 146
Турғунпўлатов М.М. Оралиқ ўлчамлари кичик бўлган кўп қаватли биноларининг устуворлик кўрсаткичларини компютер технологияларида тизимли таҳлил қилиш 150
Хамракулов У. Д. Экспериментальное исследование фрагмента сборно-монолитного железобетонного перекрытия 153
Курбанов Б.И. Йўл пойини зичлашда эътиборга олинмаган омиллар 155

ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА БУЮМЛАРИ
СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ И ИЗДЕЛИЯ

Махмудов М.М., Норов Б.Б., Теплозащитные качества стены из мелких стеновых блоков на основе песчаного бетона и из древесной стружки 157
Maxmudov M. Қурилиш гипси ва ёғоч қириндилари асосида олинган материалдан тайёрланган кўп тешикли майда девор блокларининг иссиқлик узатишга қаршилиги 160
Махмудов С.М., Исламова Н.А. Исследование эффективности современных утеплителей в многослойных ограждающих конструкциях зданий 163
Razzaqov S.J., B.Maqsud. Po'lat tolalari bilan dispers armaturalangan betondagi tolaning aptimal miqdorini aniqlash 165
Zokirov F.Z. Avtoyo'l temirbeton ko'priklarning gidroizolyatsion tizimlarida zamonaviy materiallar 168
Мартазаев А.Ш., Мирзамахмудов А. Толалар асосида дисперс арматураланган фибробетон конструкциялар устида ўтказилган тадқиқотлар – таҳлил 171
Sodiqov I.S., Tilakov S.M., Mamatmuminov A.T. Yuqori haroratga chidamli modifikatsiyalangan oltingugurtli bitumni tayyorlash jarayonida reaktordagi haroratning ahamiyati 175
Назаров Р. У., Орзиматова М.Ф. Базальт арматуралардан фойдаланиб ғишт девор-ларнинг мустаҳкамлигини ҳамда ёриқбардошлигини ошириш 178
Хасанов Б.Б.,Хидоятов З.Д. Математическое моделирование в оптимизации составов легкого бетона на пористых заполнителях 180
Ураков А.Х., Маматкулов М.Т., Ахроров А.М. Табиий иқлим омиллари таъсирида автомобиль йўлларидаги ёриқларни баҳолаш 182
Литяга А.В., Халилов Х.Ш., Хайдаров И.Ю. Олов бардош акрил бўёқларни ишлаб чиқиш 185
Файзиллаев З.Б. Қуруқ сувоқ қоришмаларини электрон микроскопик таҳлили 187
Файзиллаев З. Б., Махамматов М.С. Гипс асосидаги қуруқ сувоқ қоришмаларига ўсимлик ва ёғоч қипиқларини қўшишнинг бетон юзага ёпишиш кучига таъсирини моделлаштириш 189
Baxriyev N.F., Qobilov Sh.E. Bio – o'simlik mayda – talqonlarining beton va qorishmalar xususiyatlariga ta'siri. 192
Urakov A.X., O'rolova X.D. Havo haroratining sementbeton qoplamalarida sodir bo'ladigan harorat deformatsiyalariga ta'siri 195
Baxriyev N.F., Ibragimov N.Sh. Kam energiya sarflanadigan sement klinkeri olishda ikkilamchi sanoat chiqindilaridan foydalanishning roli va ahamiyati 197
Кодиров У.Б., Нуркулов Ф.Н., Усмонов Қ.Т. Оловбардош полимерлар асосидаги қурилиш материалларининг термик хусусиятларини тадқиқ қилиш 200
Кодиров У.Б., Нуркулов Ф.Н., Усмонов Қ.Т. Қурилишда қўлланиладиган оловбардош полимер материалларни иссиқлик физик хусусиятларни ўрганиш 202
Махмудов М.М., Норов Б.Б. Результаты испытания на теплоустойчивость наружной стены из термоблоков с утеплителем из материала на основе древесных стружек 205
Gulomova H.A., Alieva Sh.O. Analysis of insulation of foundations of low-rise buildings 207

Egamberdiyeva T.I. Chiqindilar asosida mikroto‘ldirgichli bog‘lovchi moddalarni ishlab chiqarishni tadqiq etish 209
Адилходжаев А.И., Низаматдинов Ж.Ш., **Ильясов А.Т.** Ғишт терими қоришмасининг асосий хоссаларини математик моделлаштириш..... 212
Тургаев Ж.А., Нарбаев И., Адилбаев И.Б., Турсымуратов Б.Р. О некоторых вопросах цементных сухих строительных смесей общестроительного назначения 215
Бурибаев Ш.А., Шукуров А.К. Жидкие и пластично-вязкие материалы 219
O‘roqboyev O.B., Ametov R.N., Botirov B.F. Sanoat chiqindilari asosida issiqlik izolyatsion polistirolbetonning qurilishda qo’llanilish tarmoqlarini oshirish 221
Ametov R.N., O‘roqboyev O.B., Sobirov F.O. Energiya samarador va olovbardosh binolarni barpo etishda foydalaniladigan yengil, g‘ovak to'ldiruvchilar xossalarini tadqiq etish 223
Пулатова З.У. Исследование свойств вяжущих низкой водопотребности в условиях сухого жаркого климата 224
Халдаров Н., Холдарова Д.Н., Эгамбердиев И.М. Исследование динамики оптических характеристик поверхностного слоя боросиликатных фторсодержащих стекол при внешних воздействиях..... 226

ИНЖЕНЕРЛИК ТАРМОҚЛАРИ ҚУРИЛИШИ
СТРОИТЕЛЬСТВО ИНЖЕНЕРНЫХ СЕТЕЙ

Гадаев А.Н., Такабоев Қ. Ў., Усанова Қ.У., С.А., Исмоилова Д. Ўзбекистон шароитида қудуқлар самарадорлиги муаммолари ва уни ечимлари бўйича таҳлилий тавсиялар..... 229
Такабоев Қ. Ў. Қишлоқ аҳолисини қудуқ ва булоқ сувлари билан таъминлашдаги самарадорликни ошириш..... 232
Ибрагимов Б.Т., Жунсалиев Д.М. Ихнач кўли тўғонининг бузилиши хавфини камайтириш чора-тадбирлари 234
Ибрагимов Б.Т., Жунсалиев Д.М. Тоғ кўлларининг сув тошқини хавфига таъсир этувчи омиллар тавсифи 236
Maxmudov R.M., Sulaymonova S.G’. Isitish tizimlari uchun harorat grafigi va uni ishlatish sxemasi. 239
Raxmanov J., Tadjieva D., Ibragimova A., Turdiyeva F. Oqova suvlarni tozalash inshootlarining ishlash sxemalarini tadqiq qilish..... 241
Norqulov B.M., Ibragimova A.X., Maxmudov A. Ichimlik suvini tindirishda gidrosiklon qurilmasini qo’llash 244
Бобоева Г. С., Олимова Н. Г. Чангли газларни нам тозалаш мосламалари. Форсункаларни ҳисоблаш 246
Бобоева Г.С., Олимова Н. Г. Расчет эффективности пылеочистительной установки мокрого типа 248
Ташматов Н.У., **Максимчук О.В.** Опыт модернизации инженерных коммуникаций на основе цифровых технологий и решений 249
Xayitov Z.T. Past bosimli suv energiyasidan samarali foydalanish. 251
Boboev S.M., **Ismoilov A. I., Turdiqulov B.** Tarkibida organik birikmalar va bug’lar bo’lgan chiqindi gazlarni kondensatsiya usullari tahlili. 254
Mavlanova Y.I., Sabirova D.A., Ibragimova A.X. Sanoat korxonalarida yopiq suv ta’minoti tizimlarini yaratishning afzalliklari 256
Эшматов М.М., Айтмуратов Б. Юқори потенциалли иккиламчи иссиқлик энергия ресурсларидан фойдаланиш 257
Хусанов Х.Г., **Якубов У.К.** Методика теплового расчета теплообменных аппаратов 259
Махмудов Р., Холмуродова З.И., Бабаназаров С.Ш. Аккумулирования тепло в конструкции зданий и способы энергосбережения 260

ИНЖЕНЕРЛИК ИНШООТЛАРИ НАЗАРИЯСИ
ТЕОРИЯ ИНЖЕНЕРНЫХ СООРУЖЕНИЙ

Бурнашев В.Ф., Бустанов Х.А. Математического моделирования, анализ данных и результатов вычислительных экспериментов фильтрации жидкости в пористой среде 264
Абдукадиров Ф.Э., Абдусаттаров А., К формированию математической модели расчета цилиндрических оболочечных конструкций..... 266
Худояров Ш.Т., Буриев И.Ў. Перемещение поршня, скорости и ускорение кривошипно-шатунного механизма на примере Lacetti CDX 1.8 271
Yalgashev B.F., Axatov X.N. Uch qatlamli silindrik qobiqning xususiy buralma tebranishlari..... 274
Алимов Б.М., Синдаров Р.У. Графоаналитический расчёт скоростных параметров звена кулисного механизма растворонасоса..... 278
Жуманиязов Х. Ж. Автомобиль чорак қисмини msc adams® ва matlab/simulink® дастурлари ёрдамида моделлаштириш ва бошқариш 282
Миралимов М. Х., Файзуллаев Г.З. Расчет конструкций транспортных сооружений методом конечных элементов 285
Мадатов А., Фазуллаев Ғ. Особенности работы эстакадных свайных конструкций мостов на неоднородных основаниях..... 288
Мирзаев И. Шомуродов Ж.Ф. Волновые процессы в протяженном подземном трубопроводе при взаимодействии с грунтом по билинейной модели..... 289

Аскарова Д.С. Автоматизированный программный комплекс для расчета железобетонных железнодорожных мостов 292
Косимов Т.К., Каримов Э.Б., Асланов М.М. Цилиндрик сув босим минорасининг зилзила таъсирига бўлган мустаҳкамлиги 295

ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ, ЕР КАДАСТРИ
ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ, ЗЕМЕЛЬНЫЙ КАДАСТР

Pirnazarov I.M., Xazratov SH. Tarixiy obidalar elementlarining og'ishini geodezik usulda tadqiq qilisn. 298
Файзиев Ш.Ш, Ҳўжакелдиев К., Азимов Ҳ. Глонасс российские технологии методы использования ЭРА-ГЛОНАСС в наземном мониторинге. 299
Maksudov R.N., Mansurov Q.I., Maksudova G.A. Yerni masofadan turib tadqiq etish ma'lumotlari orqali shaharlarda o'simlik qoplamining baholash va monitoring qilish. 302
Maksudov R.N., Maksudova G.A. Chirchiq shahri o'simliklar qoplami elektron xaritasini yaratishda kosmik surat usullaridan foydalanish. 305
Ташпулатов С.А., Исаков Э.Х., Рейпназаров Э. Ижроий съёмка натижаси бўйича туннель марказининг силжиш йўналишини аниқлаш 307
Nishanov A. X., Artikov G'. A. Samarqand shahrida yangi tashkil etiladigan tumanlarni ma'muriy-hududiy chegaralarini gat texnologiyalari asosida kartografik ta'minlash 309
Xusanova M.I., Isakov M.K., Ismoil O.X. O'zbekiston respublikasida raqamli kadastr xaritalarini yaratish va yuritish 311
Ниязов В.Р. «Мурунтов» карьери атрофидаги геодезик тармоқ пунктларини тадқиқ қилиш 312
Xushvaqtov S.K., Vohidov D.A. Daewoo damas avtomobilini elektromobilga qayta jihozlash..... 316
Primova X.A., Abdullayev A.A. Samarqand shahar chorrahasida transport oqimini bartaraf etish yo'llari. 318
Ниязов В.Р. Проектирование геодезической сети сгущения в окрестности карьера "Мурунтау" 322

ҚУРИЛИШ ЭКАНОМИКАСИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШ
ЭКОНОМИКА И ОРГАНИЗАЦИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА

Қутлимуратов Қ. Р., Рўзимов С.К., Мухитдинов А.А. Шаҳар шлагбаумсиз темир йўл кесишмасининг транспорт энерго-экологик кўрсаткичларига таъсирини баҳолаш услуби 326
Абдукадырова Х.А. Методология планирования и оценки эффективности социальных программ развития трудовых коллективов предприятий и организаций 330
Suyunov A. S., Suyunova Y.M., Murodov R.T. Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish muammolari..... 333
Abduvakhitov Sh.R., Kutlumuratov J.D., Svetasheva N.F., Drozdov I.A., Ilesaliev D.I. Economic evaluation of container terminal efficiency 335
Юсупов Ж.М. Мураккаб ҳудудлардан ўтган автомобиль йўлларида ҳаракат шароитини ошириш (Жиззах вилояти мисолида) 339
Ruziyev S.T., Rayimkulov A., Rajabova O.A. Yongi'in sodir bo'lganda yetkaziladigan talafotlarni hamda moddiy zarar miqdorini kamaytirishning algoritmlarini matematik xavfsizlik mexanikasini ishlab chiqish 341

ПЕДАГОГИКА

Kulnazarov B., Kulnazarova Z.B. Axborot texnologiyalari asrida chizma geometriya va muhandislik grafikasini o'zlashtirish metodikasi..... 344
Suvonov O.Sh., Abdumonnonov M. Kasb hunar maktablari va arxitektura qurilish texnikumlarida "chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanini o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish muammolari 346
Абдазимов Ш.Х., Муминжонова Н.А. Касбий таълимда интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш 347

—oOo—

ПРАВИЛА ОФОРМЛЕНИЯ СТАТЕЙ ДЛЯ ЖУРНАЛА
«Проблемы архитектуры и строительства»

1. Объём статьи не более 5 страниц машинописного текста. Текст статьи печатается через 1 интервал, размер шрифта 14 пт. Рисунки шириной не более 9 см. Формулы – в редакторе Microsoft Equation или MathType.

2. К статье прилагаются: аннотации и ключевые слова на узбекском, русском и английском языках (объём 5-10 строки), список литературы. Титульная страница должна содержать: УДК, название статьи, затем фамилию (или фамилии) и инициалы автора (ов).

Под списком литературы указать институт или организацию, представившую статью, а также указать сведения об авторах и их контактные телефоны.

3. Для каждой представляемой статьи должен быть представлен акт экспертизы той организации, где работает автор.

4. Текст статьи должен быть представлен в электронном варианте, а также в распечатанном виде - 2 экз.

5. Представленная статья проходит предварительную экспертизу. Независимо от результата экспертизы, статья автору не возвращается. Решение о публикации статьи в журнале принимается главным редактором совместно с членами редколлегии по специализации представленной статьи.

6. Автор(ы) должны гарантировать обеспечение финансирования публикации статьи.

Редколлегия

Муҳаррир: Х.М.Ибрагимов.
Корректорлар: В.Егорова; Ч.Асманова.
Компьютерда саҳифаловчи: Х.М.Ибрагимов.

Теришга 2023 йил 29 июнда берилди. Босишга 2023 йил 30 июнда рухсат этилди.
Қоғоз ўлчами 60x84/8. Нашриёт ҳисоб тобоғи 14,9. Қоғози – офсет.
Буюртма № 21/3. Адади 100 нусха. Баҳоси келишилган нархда.
СамДАҚУ босмахонасида 2023 йил 30 июнда чоп этилди.
Самарқанд шаҳар, Лолазор кўчаси, 70. Email **ilmiy-jurnal@mail.ru**